



UDK: 373.016:514-021.121

Nuraddin ABDULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: nabdullayev9094@mail.ru
Ernazar KOSBERGENOV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: ernazar.kosbergenov@gmail.com

Toshkent Davlat Texnika Universiteti dotsenti, PhD B. Ismaylov taqrizi asosida

ORGANISING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES TO DEVELOP CREATIVE THINKING IN MATHEMATICS

Annotation

The question of organising extracurricular activities in teaching such subjects as physics and mathematics is considered. The meaning of the topic of extracurricular work is given and the text of the lecture "Interesting information about the definition of the number π " is given as an example.

Key words: Physics, mathematics, extracurricular activities, creative thinking.

ОРГАНИЗАЦИЯ ВНЕКЛАССНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ОБЛАСТИ МАТЕМАТИКИ

Аннотация

Рассматривается вопрос организации внеклассной работы в преподавании таких предметов, как физика и математика. Приводится значение темы внеклассной работы и в качестве примера приводится текст лекции на тему "Интересные сведения об определении числа π ".

Ключевые слова: Физика, математика, внеклассная работа, творческое мышление.

МАТЕМАТИКА FANIDAN IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN SINFDAN TASHQARA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETTIRISH

Аннотация

Fizika va matematika kabi fanlarni o'qitishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish masalasi ko'rib chiqilgan. Bunda darsdan tashqari mashg'ulot mavzusining muhimligi va misol sifatida " π sonining aniqlanishiga doir qiziqarli ma'lumotlar" mavzusining ma'ruza matni keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fizika, matematika, darsdan tashqari mashg'ulot, kreativ fikrlash

Kirish. Ko'pchilik maktab yoshidagi bolalarda aniq fanlarga bo'lgan qiziqishni orttirish hamda murakkab hisoblanib bir nechta qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi [1, 2]. Matematika darsini yuqori darajada olib borish ko'pchilik maktablarda qiyinchilik tu'gdiradi [3, 4]. Fizika va matematika fanlari mavzularini an'anaviy tarzda tashkil etish o'quvchini zeriktirib qo'yadi [5, 6]. Matematikani o'qitish metodikasining aktual muamolaridan biri maktab yoshidagi bolalarga matematikani o'qitish muammosi hisoblanadi [7]. Bu muammoni yechish o'qituvchi va o'quvchining orasidagi munosabatning holatiga, o'quvchining psixologik holatiga va bundan boshqa bir nechta faktorlarga bog'liq.

O'quvchini fikrlash doirasini oshirish hamda fizika va matematika [8, 9, 10] kabi aniq fanlarga qiziqishini orttirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish samarali natijalarga olib keladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchini kreativ fikrlashga o'rgatishi kerak. Bu maqolada " π sonining aniqlanishiga doir qiziqarli ma'lumotlar" mavzusidagi darsdan tashqari mashg'ulot misol sifatida ko'rsatilgan.

" π sonining aniqlanishiga doir qiziqarli ma'lumotlar" mavzusidagi darsdan tashqari mashg'ulot. 2000 ming yil davomida π ni aniqlashda juda ham noqulay usuldan foydalanib kelishgan: Radiusi 1 ga teng bo'lgan aylana chizamiz. Tomonlari 1 ga teng bo'lgan olti burchak shu aylanaga ichki chiziladi. Olti burchakning perimetri 6 ga teng va aylananing uzunligi ($L = 2\pi R$) undan katta ekanligini chizma chizish orqali yaqqol ko'rish mumkin. Demak

$\pi = L/(2R) > 6/2$, ya'ni π ning qiymati 3 dan katta [11]. Tomonlari 2 ga teng bo'lgan kvadrat shu aylanaga tashqi chiziladi. Kvadratning perimetri 8 ga teng, va aylananing uzunligidan katta ekanligini ham chizma chizish orqali ishonch hosil qilish mumkin. Demak $\pi < 8/2$ bo'lishi kerak. Bu mulohazalardan $3 < \pi < 4$ ekanligi kelib chiqadi. π uchun bu munosabat 2000 yil oldin aniqlangan.

Eramizdan 250 yil ilgari Arximed quyidagi hisob kitoblarni amalga oshirgan. Arximed olti burchak o'rniga dodekagondan (teng tomonli 12 burchak) foydalangan. Keyin esa uning perimetrini 6.212 tengligini hisoblab, $\pi > 6.212/2$ ekanligini aniqlaydi. Keyin aylanaga dodekagon tashqi chiziladi va $\pi < 6.431/2$ ekanligi aniqlanadi ($3.106 < \pi < 3.215$). Bu munosabatlarni topish uchun $6\sqrt{2} - \sqrt{3} < \pi < 12(2 - \sqrt{3})$ kabi hisob kitoblarni amalga oshirishga to'g'ri kelgan. Arximed aniqlikni oshirish maqsadida keyinchalik 24 burchakdan ($3.1326 < \pi < 3.1597$), 48 burchakdan ($3.1393 < \pi < 3.1461$), 96 burchakdan foydalangan va $3.1408 < \pi < 3.1429$ ekanligini aniqlaydi. Bu 2000 yil oldingi davr uchun yomon natija emas albatta. Bu davr uchun bundan ortiq aniqlikning deyarli keragi ham yo'q edi.

Yana uzoq yillar davomida Xitoy, Indiya, Persiya, Arab va boshqa davlatlar olimlari Arximed ishini davom ettirishdi. Ularning hammasi aylanaga tashqi va ichki chizilgan ko'pburchakning tomonlarining sonini ortirib boraverdi. Ularning hammasi eski grek metodini to'ldirib bordi holos. XVI asr oxirida Fransua Viet π ni aniqlash uchun tomon-

larining soni 393216 ga teng bo'lgan teng tomonli ko'pburchakdan foydalangan. Lyodolf van Seylen esa tomonlarining soni 4611686018427387904 ga teng bo'lgan teng tomonli ko'pburchakdan foydalangan. Hisob kitoblarni amalga oshirish uchun esa 20 yil sarflagan. Natijada π ning $\pi = 3.14159265358979323846264338327950288$

ga tengligi (verguldan keyin 35 ta raqam aniqlangan) aniqlangan. 20 yildan so'ng rekord Kristof Grinberger tomonidan xuddi shu "ko'pburchaklar" usuli orqali yangilanadi va verguldan keyingi 38 ta raqam aniqlanadi.

1666 yil, Isaak Nyuton 23 yosh paytida π ni topishning ajoyib usulini taklif qiladi. Nyuton bu paytta

$$(1 + x)^2 = 1 + 2x + 1x^2;$$

$$(1 + x)^3 = 1 + 3x + 3x^2 + 1x^3$$

$$(1 + x)^4 = 1 + 4x + 6x^2 + 4x^3 + 1x^4$$

$$(1 + x)^5 = 1 + 5x + 10x^2 + 10x^3 + 5x^4 + 1x^5$$

$$(1 + x)^6 = 1 + 6x + 15x^2 + 20x^3 + 15x^4 + 6x^5 + 1x^6$$

kabi ifodalar ustida ishlayotgan edi. Nyuton hisoblashlarni amalga oshirishning osonroq yo'lini izlaydi va birdaniga javob olishni hoqlaydi. Agar tenglamalardagi $x, x^2, x^3 \dots$ lar oldidagi koeffitsientlarga qarasaq paskal uchburchagini hosil qiladi.

0 0
5 0 5

Bunda $(1 + x)$ ifodaning har bir darajasi $(1 + x)$ ning xohlagan darajasini oson hisoblab topish uchburchakning ma'lum bir qatoriga mos keladi. Bu mumkin. $(1 + x)^n$ uchun esa uchburchakda har bir qatordagi son undan oldingi qatordagi ikkita qo'shni sonni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu orqali

$$(1 + x)^n = 1 + nx + \frac{n(n - 1)x^2}{2!} + \frac{n(n - 1)(n - 2)x^3}{3!} + \dots \quad (1)$$

deb yozish mumkin. Bu binomial teorema deyiladi. Bu tengliklarning hammasi Nyuton davrida ma'lum bo'lgan. (1) tenglikda n butun musbat son deb qabul qilingan. Lekin Nyuton "qoidani buzadi". Nyuton bu ifoda ustida hech kimning hayoliga kelmagan amal bajaradi va $n = -1$ hol uchun hisob kitobni bajaradi. Agar (1) tenglikda n o'rniga -1 qo'yilsa

$$(1 + x)^{-1} = \frac{1}{1 + x}$$

$$\frac{1}{1 + x} = 1 + (-1)x + \frac{(-1)((-1) - 1)x^2}{2!} + \frac{(-1)((-1) - 1)((-1) - 2)x^3}{3!} + \dots$$

$$\frac{1}{1 + x} = 1 - 1x + 1x^2 - 1x^3 + 1x^4 - \dots \quad (2)$$

cheksiz qator olinadi. $x, x^2, x^3 \dots$ lar oldidagi koeffitsientlar 1, -1, 1, -1, kabi o'zgarib boradi. Agar (2) tenglikning ikkita tomonini $(1 + x)$ ga ko'pyatirsak

$$\frac{1}{(1 + x)}(1 + x) = (1 - 1x + 1x^2 - 1x^3 + 1x^4 - \dots)(1 + x)$$

$$1 = 1 - x + x^2 - x^3 + x^4 - \dots + x - x^2 + x^3 - x^4 + \dots$$

Tenglamaning o'ng tomonidagi 1 dan boshqa barcha hadlarning yig'indisi nolga teng bo'lishini ko'rishimiz mumkin. $n = -1$ hol uchun paskal uchburchagi

| | | | | | | |
|---|---|---|---|----|----|----|
| | | | | | .. | |
| | | | | 6 | .. | |
| | | | 5 | 5 | .. | |
| | | 4 | 0 | 20 | .. | |
| | 3 | | | 10 | 5 | .. |
| | 2 | | 4 | | 6 | .. |
| 1 | | 1 | | | 1 | .. |

| | | | | | |
|----|----|----|----|----|----|
| 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 5 | 0 | 5 | 0 | 5 | 0 |
| .. | .. | .. | .. | .. | .. |

ko'rinishga keladi. Nyuton bunday hisob kitob orqali (1) tenglik n ning manfiy qiymatlari uchun ham o'rinni degan xulosaga keladi.

Nyuton bu bilan cheklanib qolmasdan "qoidani buzishni" davom ettirib (1) tenglikni n ning kasr qiymatlari uchun ishlatadi. Masalan $n = 1/2$ uchun Nyuton quyidagi cheksiz qatorni oladi.

$$\begin{aligned} (1+x)^{\frac{1}{2}} &= \sqrt{1+x} \\ \sqrt{1+x} &= 1 + \frac{1}{2}x + \frac{\frac{1}{2}(\frac{1}{2}-1)x^2}{2!} + \frac{\frac{1}{2}(\frac{1}{2}-1)(\frac{1}{2}-2)x^3}{3!} + \dots \\ \sqrt{1+x} &= 1 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{8}x^2 + \frac{1}{16}x^3 - \frac{5}{128}x^4 + \dots \quad (3) \end{aligned}$$

$n = 1/2$ hol uchun paskal uchburchagi

| | | | | | |
|-----|------|------|--------|----|-------|
| .. | 1 | .. | -1 | .. | 1 |
| .. | 3/2 | .. | 3/8 | .. | -1/16 |
| 5/2 | 15/8 | 5/16 | -5/128 | .. | .. |

ko'rinishga keladi. Shunday qilib (1) tenglik n ning nafaqat musbat butun qiymatlari uchun, balki manfiy qiymatlari uchun ham, kasr qiymatlari uchun ham o'rinni ekan.

bu tenglamadan yarim aylana tenglamasi $y = (1-x^2)^{1/2}$ ekanligi kelib chiqadi. Bu deyarli (3) tenglama bilan bir xil bo'lib x o'rniga $-x^2$ deb almashtirish kifoya:

Nyutonni $n = 1/2$ bo'lgan hol juda qiziqtirib qo'yadi. Chunki birlik aylana tenglamasi $x^2 + y^2 = 1$ bo'lib,

$$\begin{aligned} (1-x^2)^{\frac{1}{2}} &= 1 + \frac{1}{2}(-x^2) - \frac{1}{8}(-x^2)^2 + \frac{1}{16}(-x^2)^3 - \frac{5}{128}(-x^2)^4 + \dots \\ (1-x^2)^{\frac{1}{2}} &= 1 - \frac{1}{2}x^2 - \frac{1}{8}x^4 - \frac{1}{16}x^6 - \frac{5}{128}x^8 + \dots \quad (4) \end{aligned}$$

Shu bilan birga Nyuton integralni ham kashf qilgan edi. Integrallash orqali yuzalarni hisoblash mumkin va (4) ifoda ustida

$$\int_0^1 (1-x^2)^{1/2} dx = \int_0^1 \left[1 - \frac{1}{2}x^2 - \frac{1}{8}x^4 - \frac{1}{16}x^6 - \frac{5}{128}x^8 + \dots \right] dx \quad (5)$$

integralni hisoblash orqali doira yuzining 1/4 qismini topish mumkin. Radiusi 1 ga teng bo'lgan doira yuzining 1/4 qismi $\pi/4$ ga tengligi bilish orqali

$$\begin{aligned} \frac{\pi}{4} &= \int_0^1 \left[1 - \frac{1}{2}x^2 - \frac{1}{8}x^4 - \frac{1}{16}x^6 - \frac{5}{128}x^8 + \dots \right] dx \\ \pi &= 4 \left[x - \frac{1}{2} \cdot \frac{x^3}{3} - \frac{1}{8} \cdot \frac{x^5}{5} - \frac{1}{16} \cdot \frac{x^7}{7} - \frac{5}{128} \cdot \frac{x^9}{9} + \dots \right]_0^1 \\ \pi &= 4 \left[1 - \frac{1}{6} - \frac{1}{40} - \frac{1}{112} - \frac{5}{1152} - \dots \right] \quad (6) \end{aligned}$$

tenglikni olish mumkin. (6) tenglik orqali π ni ixtiyoriy aniqlikda topish mumkin.

π ni hisoblashda Nyutonda yana bir g'oya paydo bo'ladi: Agar (5) integral chegaralari 0 dan 1/2 gacha deb o'zgartirilsa (6) qatorning qiymati tezroq π ning qiymatiga yaqinlashib boradi. Bu holda doira yuzasining $\pi/12 + \sqrt{3}/8$ ga teng bo'lgan qismini hisoblagan bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \frac{\pi}{12} + \frac{\sqrt{3}}{8} &= \int_0^{\frac{1}{2}} \left[1 - \frac{1}{2}x^2 - \frac{1}{8}x^4 - \frac{1}{16}x^6 - \frac{5}{128}x^8 + \dots \right] dx \\ \frac{\pi}{12} + \frac{\sqrt{3}}{8} &= \frac{1}{2} - \frac{11}{23} \left(\frac{1}{2}\right)^3 - \frac{11}{85} \left(\frac{1}{2}\right)^5 - \frac{1}{16 \cdot 7} \left(\frac{1}{2}\right)^7 - \frac{5}{128 \cdot 9} \left(\frac{1}{2}\right)^9 + \dots \\ \pi &= 12 \left[\frac{1}{2} - \frac{11}{23} \left(\frac{1}{2}\right)^3 - \frac{11}{85} \left(\frac{1}{2}\right)^5 - \frac{1}{16 \cdot 7} \left(\frac{1}{2}\right)^7 - \frac{5}{128 \cdot 9} \left(\frac{1}{2}\right)^9 + \dots \right] - \frac{\sqrt{3}}{8} \end{aligned}$$

Agar qatorning dastlabki beshta hadi olinsa $\pi = 3.14161$ tenglikni olamiz. Bu Nyuton tomonidan yozilgan ifodalarning hammasi π ni hisoblashga katta yordam beradi va "ko'pburchaklar" usuli unutiladi.

Xulosa. Eng aniq deb topilgan usul hamma vaqt ham mo'ljallanmagan hollar uchun ham ishlatib ko'rish, eng yaxshisi bo'lavermaydi. Ba'zida g'oyalarni ular "qoidalarni buzib turish" kerak. Darsdan tashari

mashg'ulotning yuqoridagi ko'rinishda yakunlanishi aniq fikrlashga chaqiradi. fanlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi va o'quvchini kreativ

ADABIYOTLAR

1. Боженкова Л.И. Интеллектуальное воспитание учащихся при обучении геометрии / – Калуга: Изд. КГПУ им. К.Э.
2. Столяр А.А. Педагогика математики / – М: Высшая школа», 2010. – 139с.
3. Циолковского, 2007. – 281 с. 2. Гусев В.А. Теоретические основы обучения математике в средней школе: психология математического образования / В.А. Гусев. – М.: Дрофа, 2010. – 474 с.
4. Якиманская И.С. Психологические основы математического образования / – М.: Академия, 2004. – 320 с.
5. Ермак Е.А. Развитие математического мышления школьников: сочетание образного и логического компонентов: учеб-метод. пособие / – Псков: Гос. пед. инст. им. С.М. Кирова, 2009. – 90 с.
6. Бугибанова М.А. Актуальные проблемы преподавания математики в школе / – Режим доступа: <https://infourok.ru/statya-na-temu-aktualnie-problemi-prepodavaniya-matematikiv-shkole-2434766.html>
7. Белявцева Т.Д. Актуальные проблемы физико-технического образования в школе / – Режим доступа: <https://infourok.ru/aktualnie-problemi-prepodavaniya-fiziki3012075.html>
8. K. Suyarov, J. Usarov, Z. Sangirova, Y. Ravshanov, N. Buranova, Fizika 7-sinf uchun darslik. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. -192 b.
9. Sh. A. Alimov, O. R. Xolmuhamedov, M. A. Mirzaahmadov, Algebra 7-sinf uchun darslik. –Toshkent, “O`qituvchi”, 2017. -192 b.
10. A. Azamov, B. Haydarov, E. Sariqov, A. Qo`chqorov, U. Sag`diyev, Algebra 7-sinf uchun darslik. –Toshkent, “Yangi yo`l poligraf servis”, 2017. -160 b.
11. <https://cbsykt.ru/multimedia/interesting/statya-cho-takoe-chislo-pi-i-chemu-ono-ravno/>



UDK: 376.37(74.57)

Mexribonu ADASHALIYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: mirzo1979@umail.uz

NamMTI dotsenti, p.f.f.d A.Isaqov taqrizi asosida

LOGOPEDIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maxsus pedagogikaning asosiy bo‘limi hisoblangan logopediyaning dolzarb masalalari, nutq va undagi kamchiliklar, bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf qilish, logopedik o‘yinlar, nutq kamchiliklarini bartaraf qilishda logopedik o‘yinlardan foydalanish hamda ularning asosiy jihatlari to‘g‘risida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, maxsus pedagogika, defektologiya, logopediya, bolalar, nuqson, mashq, logopedik o‘yinlar.

ЗНАЧЕНИЕ ЛОГОПЕДИЧЕСКИХ ИГР

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы логопедии, которая считается основным отделом специальной педагогики, о речи и ее недостатках, устранении дефектов формирования и развития детской речи, логопедических играх, использовании логопедических игр в устранить речевые нарушения и объяснить их основные аспекты.

Ключевые слова: Педагогика, специальная педагогика, дефектология, логопедия, дети, дефект, занятие, логопедические игры.

THE IMPORTANCE OF LOGOPEDIC GAMES

Annotation

In this article, the current issues of speech therapy, which is considered the main department of special pedagogy, about speech and its deficiencies, elimination of defects in the formation and development of children's speech, speech therapy games, the use of speech therapy games to eliminate speech disorders, and their main aspects explained.

Key words: Pedagogy, special pedagogy, defectology, speech therapy, children, defect, exercise, speech therapy games.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta‘lim sohasini rivojlantirishga, xususan maxsus pedagogika yo‘nalishlarida yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga katta ahamiyat qaratilib, keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 11 ta bob, 75 ta moddadan iborat “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham uning huquqiy asoslari mustahkamlandi [1].

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy, aqliy hamda ruhiy jihatdan barkamol rivojlanib borishi ularning kelgusidagi faoliyatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalarning har tomonlama komil inson ruhida tarbiya topishlarida nutqning to‘liq holda rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. U asta-sekin rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yinlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Sir emaski, o‘yinlar orqali bolalarga har tomonlama keng ta‘sir etish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Shu sababli, bolalarda nutqning to‘liq shakllanishi va rivojlanishida logopedik o‘yinlardan samarali foydalanish juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Bolalarning keyingi hayoti, ularning olishi zarur bo‘lgan bilimlari, malakalari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni va ularning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish maxsus pedagogikaning asosiy bo‘limi – logopediyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bunda logopedik o‘yinlardan to‘g‘ri foydalanish lozim bo‘ladi.

Bolalarda nutq masalasi, undagi ayrim nuqsonlar, nutq kamchiliklarini bartaraf qilishda logopedik o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha maxsus pedagogika sohasidagi juda ko‘plab olimlar izlanishlar olib borganlar. Mazkur olib borilgan tadqiqotlar natijalari ularning nomzodlik va doktorlik

dissertatsiyalarida, darslik, monografiya, risola, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarida o‘z aksini topgan. Jumladan, xorijlik olimlardan Ye.A.Flerina, Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Arkin, N.M.Aksarina, A.P.Usova, D.V.Mendjeriskaya, T.A.Markova, Ye.V.Zvorigina, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, A.V.Zaporojes, D.B.Elkonin, K.P.Bekker, M.Sovak, Ye.S.Almazova, G.A.Volkova, A.I.Maksakov, G.A.Gumakova, S.L.Novosyolova va boshqalarning asarlarida keng yoritib berilgan [7, 11, 12, 18].

Shuningdek, O‘zbekistonda logopediya va uning asosiy masalalari R.T.Talipova, Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova., M.P.Hamidova, L.R.Mo‘minova, D.A.Nurkeldiyeva, K.Shodiyeva, J.V.Xusanova, L.Nurmuhamedova kabi olimlarimizning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [13, 14, 15, 16, 17, 19].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda logopediyaning asosiy vazifalari, bolalar nutqining rivojlanishi, nutq kamchiliklari, ularni bartaraf qilishda logopedik o‘yinlarning ahamiyati masalalariga e‘tibor qaratilgan. Bunda xorijiy mamlakatlarda, shuningdek O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari o‘rganilgan va tahlil qilingan. Sohaga oid bir nechta me‘yoriy-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi, xususan, yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, mamlakatimizda inklyuziv ta‘limning rivojlanishi uchun katta e‘tibor qaratilayotganligi, sohada innovatsiya, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi, raqobatbardosh malakali mutaxassislarining tayyorlanishi, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘laminig kengayib borayotganligi alohida ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Nutq

deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi [20].

Nutq bu kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Bolalar kattalarga taqlid qilish orqali tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadilar. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari bola shaxsining shakllanishiga, bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin [2].

Har bir inson o'zining ichki hissiyotlarini nutq orqali bayon qiladi. Nutq esa barcha insonlarda mukammal tarzda shakllangan va rivojlangan bo'lavermaydi. Nutq kamchiligini aniqlash, o'rganish, bartaraf etish va uni oldini olish defektologiyaning barcha sohalari, shu jumladan logopediya uchun ham muhimdir.

Nutqdagi kamchiliklar bolalarning muomala qilishi va o'qishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq kamchiliklarini o'z-o'zidan mustaqil bartaraf etib bo'lmaydi. Nutq buzilishlari uzoq vaqt bartaraf etish ishlarini olib borishni talab etadi. Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarga ta'sir etishni to'g'ri tashkil etish uchun nutq faoliyati buzilishining sabab va mohiyatini to'liq anglab yetish, nutqdagi kamchiliklarning paydo bo'lishi, nutq buzilishlarining rivojlanishi va uni bartaraf etish qonuniyatlarini bilib olish lozim. Bu esa ravon to'g'ri nutqning yuzaga chiqishiga, aniq maqsadni ko'zlab harakat qilishga va nutqdagi kamchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi [4, 5, 6].

Bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturida og'zaki nutqning, ya'ni lug'at boyligining oshib borishini, nutqning

grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishini, tovush talaffuzini har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi. Ayrim bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, balki ularni bir-biridan farqlay olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar mashg'ulotlarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda bolalar logopedik mashg'ulotlar yordamiga muhtoj bo'ladilar. Nutq kamchiliklarini bartaraf qilish uchun turli xil mashqlarni tartib bilan bexato bajarish va logopedik o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'yinlar qadim zamonlardan beri pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, san'atshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Ba'zan o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga kelsa, ayrim hollarda bolaning kattalar mehnatiga taqlid qilishi orqali shakllanadi. Qisqacha aytganda, o'yin bolani mehnatga tayyorlaydi.


Logopedik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- nafasni rivojlantirishga oid o'yinlar;
- ovozni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- eshituv diqqatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar;
- nutq apparati harakatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar;

- tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o'yinlar;

- duduqlanishni bartaraf etishga oid o'yinlar;
- mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga oid o'yinlar.

Logopedik o'yinlarning turlari quyidagi chizma orqali yanada yaqqol namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Logopedik o'yinlarning turlari

Logopedik o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladi. Logopedik o'yinlar bolalarning nutqdagi nuqsonlarini bartaraf qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan tarbiyalanishlari va barkamol inson bo'lib voyaga yetishishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'yin bolalarni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, ya'ni o'yin jarayonida o'zaro munosabat malakalari paydo bo'ladi, murakkab axloqiy his-tuyg'ular shakllana boradi. Har bir o'yin tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur pedagog va shifokor Ye.A.Arkin o'yin bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga katta ta'sir etadi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha o'yin ruhiy vitamindir.

Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova, M.P.Hamidovalarining "Logopedik o'yin" nomli darsliklarida quyidagi jumalalar keltirib o'tilgan: "O'yinlar o'zining mazmuni, xususiyati va tashkil qilinishiga ko'ra xilma xildir, shu sababli ularni ijodiy va qoidali o'yinlarga ajratiladi. Ijodiy o'yinlarni bolalarning

o'zlari tomonidan o'ylab topiladi. Unda avvaldan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidalarini o'yin jarayonida bolalarning o'zlari belgilaydi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidalari kattalar tomonidan belgilanadi va nazorat qilinadi. Ular ko'proq musiqiy va harakatli o'yinlardir" [2].

Mashhur psixolog olim A.V.Zaporojes ham o'yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o'yinda tevarak-atrofdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari uyushmasini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib o'zgartiriladi. Bolaning kelajakdagi butun rivojlanishi uchun xayol yoki obrazning, tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebaho qiymatga ega, deydi [3].

Logopedik o'yinlarni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish o'ta muhim ahamiyatga ega. O'yinni o'tkazish jarayonini shunday uyushtirish kerakki, unda bolalar o'rtoqlarcha munosabatda bo'lishlari, insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda

bo'lishni o'rganishlari lozim. O'yin bolalar uchun haqiqiy hayotdir. O'yin bolaning asosiy faoliyati hisoblanadi. To'g'ri tashkil qilingan o'yin nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yangi so'zlarni o'rganish va ishlatish uchun ehtiyoj tug'diradi, ularning lug'at boyligini oshiradi.

O'yin mavzusini tanlashda mavzuning dastur talablariga muvofiqligini hamda tushunarligini hisobga olish lozim. O'yinlarning haddan tashqari turli-tuman bo'lishiga ortiqcha e'tibor berish ham to'g'ri emas. Ba'zan turli ta'limiy vazifalarni amalga oshirishda bitta o'yinni turli variantlarda o'tkazish ham maqsadga muvofiq bo'ladi va ijobiy natijalar beradi.

Logopedik o'yinlarni tashkil etishda tarbiyaviy-tashkiliy ishlardan farqli ravishda, logopedning ishi o'yinlarni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Logopedik o'yinlarni o'tkazishning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Bolalarni to'g'ri nafas olish va nafas chiqarishga o'rgatish;
2. Ovozni rivojlantirish, past va baland ovozda gapirishga o'rgatish;
3. Eshituv diqqati va nutq eshitishni rivojlantirish;
4. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
5. Bolalarda logopedik o'yinlar orqali duduqlanishni bartaraf etish;
6. Bolalarda mayda qo'l motorikasi hamda umumiy harakat motorikalarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining nutq buzilishlarining rivojlanishi va ularni bartaraf etish uchun bir necha xil o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, "Kapalaklar uchayapti", "Shamol esayapti", "Kimning qushchasi uzoqqa uchadi", "Quyosh va yomg'ir", "Mushuk va sichqon", "Aks-sado", "Shirin murabbo", "Quvnoq tilcha", "Do'kon", "Nasos", "O'z rasmingi top", "Chivinlar", "Poyezd" va "Asalarilar" kabi logopedik o'yinlardan foydalanish mumkin.

Logopedik o'yinlarni tashkil etish va bolalar bilan to'g'ri o'tkazishda logoped turli nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning qobiliyatlarini ham inobatga olishi lozim

bo'ladi. Logopedik o'yinlarni o'tkazish orqali bolalarda nutqdan uyalmaslik, muloqotga kirishish, to'g'ri va ravon gapirish kabi xislatlar rivojlantirib boriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkin, bolalar nutqining rivojlanishida logopedik o'yinlarning ahamiyati juda katta bo'lib, logopedik o'yinlarni o'tkazish orqali nutqdan uyalmaslik, muloqotga kirishish, to'g'ri va ravon gapirish kabi xislatlar rivojlantirib boriladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari ayrim xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Maxsus pedagogikaning logopediya sohasi bolalarni psixik-pedagogik va klinik jihatdan o'rganish, nuqson sabablarini aniqlash, pedagogik tasniflash va turlarga ajratish, maxsus ta'lim va tarbiya muassasalari sharoitida bolalarga individual muomala qilish, nuqsonli bolalarni jismoniy mehnatga tayyorlash kabi masalalarni ishlab chiqishdan iborat.

- Nutqdagi kamchiliklar bolalarning muomala qilishi va o'qishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq kamchiliklarini o'z-o'zidan mustaqil bartaraf etib bo'lmaydi. Nutq buzilishlari uzoq vaqt bartaraf etish ishlarini olib borishni talab etadi. Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarga ta'sir etishni to'g'ri tashkil etish uchun nutq faoliyati buzilishining sabab va mohiyatini anglab yetish, nutqdagi kamchiliklarning paydo bo'lishi, nutq buzilishlarining rivojlanishi va uni bartaraf etish qonuniyatlarini bilib olish kerak. Bu esa ravon to'g'ri nutqning yuzaga chiqishiga, aniq maqsadni ko'zlab harakat qilishga va nutqdagi kamchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

- Logopedik o'yinlarni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'yinni o'tkazish jarayonini shunday uyushtirish kerakki, unda bolalar o'rtoqlarcha munosabatda bo'lishlari, insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganishlari lozim. To'g'ri tashkil qilingan o'yin nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yangi so'zlarni o'rganish va ishlatish uchun ehtiyoj tug'diradi, ularning lug'at boyligini oshiradi.

- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham boshqa sog'lom tengdoshlari singari bir xil sharoitda ta'lim olishlari kerak. Ular ham sog'lom bolalar kabi qiynalmasdan maktabga borishlari, kelajakda o'z yo'llarini topishlari lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. З.М.Ахмедова, М.Ю.Аюпова, М.П.Хамидова. Логопедик ўйин (дарслик). Тошкент, "Файласуфлар" нашриёти, 2013 йил.
3. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: В 2-х т. М., 1986.
4. Adashaliyeva, M. ., Bekmirzayev, . M. ., & Bekmirzayeva, O. (2022). Training of qualified specialists is a challenging problem. *Scientific Impulse*, 1(3), 1104–1106. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1247>
5. Adashaliyeva, M., Bekmirzayev, M., & Bekmirzayeva, O. (2022). Training of qualified specialists is a challenging problem. *Международный научный журнал «Научный импульс»*. № 3 (100), часть 1. Октябрь.
6. Axmadjanovna, B. O. (2022, November). Bolalar nutqining rivojlanishida logopedik o'yinlarning ahamiyati. In *Conference Zone* (pp. 311-314).
7. Н.А.Игнатченко. Актуальные проблемы коррекционной педагогики. Кубанский государственный университет. Краснодар, 2019 г.
8. Axmadjanovna, B. O. (2022, December). Prospects of inclusive education. In *Conference Zone* (pp. 272-277).
9. Mirzoxid, B., Onaxon, B., & Mexribonu, A. (2023). Use of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 1013-1018.
10. Бекмирзаев, А. Ш., Бекмирзаев, М. А., & Бекмирзаева, О. А. (2011). Рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг долзарб масалалари.
11. В.И.Селиверстов. "Игра в логопедической работе с детьми", Москва, 1986.
12. А.П.Усова. "Роль игра в воспитании детей", Москва, 1976.
13. К.Шодиева. "Мактабгача ёшдаги болаларни тўғри талаффузга ўргатиш", Тошкент, 1995.
14. Ж.В.Хусанова. "Тўғри гапирайлик", Тошкент, "Ўқитувчи", 1995.
15. Р.Т.Талипова. "Игра и речь", Тошкент, 1974.
16. М.Ю.Аюпова. "Коррекцион ишлар методикасидан (логопедия)", Тошкент, 2001.
17. Л.Р.Мўминова, М.Ю.Аюпова. "Логопедия", Тошкент, 1993.
18. К.П.Беккер, М.Совак. "Логопедия", Москва, 1981.
19. Р.Ш.Шомаҳмудов, Л.Р.Мўминова. "Боғча ва кичик мактаб ёшдаги болалар талаффузидаги нуқсонларни тузатиш", Тошкент, 1981.
20. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nutq-uz>



Aziza AKMALOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: azizaxonakmalova1991@mail.ru
Abdugappar XAYDAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f-m.f.n
E-mail: haydarovabdu@rambler.ru
Gulmira PARDAYEVA,
TATU Qarshi filiali, p.f.f.d. (PhD)
E-mail: gulmira_pardayeva@mail.ru

O'zMU f. – m. f. d. Z.Raxmonov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF STUDENTS' INTELLECTUAL COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION OF HIGHER EDUCATION

Annotation

This article presents comments on the achievements of digitization of the higher education system, the development of online and distance education, the advantages of using digital technologies in the educational process, and the development of intellectual potential.

Key words: Digitization, Higher education, innovations in education, e-learning, online learning, creativity, Discussion, Mentoring.

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье представлены комментарии о достижениях цифровизации системы высшего образования, развитии онлайн- и дистанционного образования, преимуществах использования цифровых технологий в образовательном процессе, развитии интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: Цифровизация, Высшее образование, инновации в образовании, электронное обучение, онлайн-обучение, творчество, Дискуссия, Наставничество.

OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish yutuqlari, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishning online va masofaviy ta'limni rivojlantirish, ulardan foydalanishning afzalliklari, intellektual salohiyatini rivojlantirish haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, Oliy ta'lim, ta'limdagi innovatsiyalar, elektron ta'lim, onlayn ta'lim, yaratuvchanlik, Diskussiya, Mentorlik.

Kirish. Hozirgi kunda ilm-fan taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot- kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarni kundun kun yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni ja'dal egallash bilan bir qatorda muntazam va mustaqil shaklda bilim izlash vazifasini qo'yimoqda. Istiqloq egalari bo'lmish yosh avlodni bilimli, savodxon, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi-murabbiylarning hissasi benixoya kattadir. Ular berayotgan puxta bilim va ibratli tarbiya katta hayot ostonasida turgan o'g'il-qizlarning vatanparvar hamda hayotda chin inson bo'lishlari, vatanimizga, xalqimizga fidoiy va halol xizmat qiladigan insonlar bo'lib yetishishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir" deb yozgan edilar. Bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun har qanday ta'lim muassasasi jadal harakatlar asosida faoliyat olib bormoqda. Bu yo'lda maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, kollej, litsey va oliy ta'lim muassasi yosh avlod chuqur bilim egasi bo'lib yetishib chiqadi. Ayniqsa oliy ta'lim

muassasi juda ahamiyatli [1]. Chunki talaba bu yerdan yetuk kadr va oliy oliy ma'lumotli bo'lib shakllanadi. Oliy ta'lim jarayonida talabaga oliy ma'lumot beriladi. Oliy ma'lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi. Yaqinda Prezidentimiz oliy ta'lim sohasi bo'yicha zarur va kerakli qarorni imzoladi. "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy – boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga muhim ahamiyatga ega. Bundan ko'zlangan maqsad jamiyatga har tomonlama mukammal shaxsni yetkazib berishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan A.A.Abduqodirov, R.R.Boqiyev, U.Sh.Begimqulov, S.S.G'ulomov, M.H.Lutfillayev, D.Toshtemirov, D.X.Narziqulova va boshqalarning tadqiqot ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, elektron axborot-ta'lim

resurslarini yaratish hamda ta'lim jarayoniga joriy etish imkoniyatlari, Sh.Barotov, E.G'oziyev, M.Davletshin, B.Karimova, Z.Nishonova, F.Ro'ziyev, N.Safayev, G.Fayzullayevlar tomonidan o'quvchi shaxsida turli qobiliyat va sifatlarni, intellektual salohiyatni shakllantirish hamda rivojlantirish mexanizmlarining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.V.Bolotov, M.V.Goryainov, L.P.Grishenko, T.A.Duyjeva, M.A.Ivanova, Z.V.Semenova, E.E.Sivokon kabilarning tadqiqotlarida axborot texnologiya xususiyatlarini o'rganish, fanlarning metodik ta'minotini ishlab chiqish, turli sohalarida axborot texnologiyalardan foydalanish jihatlari, Sh.K.Amonshvili, D.B.Bogoyavlenskaya, L.N.Buxareva, L.V.Zankov, V.P.Zinchenko, E.P.Ilin, L.L.Kalyagin, L.N.Kotrutsa, A.H.Leontev, N.I.Sardjveladze, K.S.Stanislavskiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini o'stirish omillari ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Xorijlik olimlardan B.Atroistic, E.Brynjolfsson, L.Varshavskii, A.Mcafee, S.Nguyen, C.Fry, F.Barrom, J.Guilford, D.Harrington, C.Hoffmann, J.Piaget ilmiy tadqiqotlarida shaxsning rivojlanishi, shuningdek, bolalarda ijodiylik va intellektual xususiyatlari, o'quvchilar intellektualini rivojlantirishning pedagogik-psixologik masalalari keng yoritilgan [2,3,4].

Ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan "intellekt" tushunchasiga quyidagi ta'riflar keltirilgan.

N.V.Nijgorodsevaning fikriga ko'ra "intellekt" tushunchasi "shaxs xususiyati sifatida tavsiflanib, ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari, qonuniyatlari bilan ongda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyat" deya ta'riflaydi. S.I.Ojegovning izohli lug'atida: "intellekt (ong) bu – fikrlash qobiliyati, odamning aqliy faoliyati"– deb ta'rif beriladi. R.X.Djurayev "intellekt" tushunchasini "hayotni, tabiiy holatlarni ongda aynan tasavvur ettirish va o'zgatira olish, fikrlay olish, o'qish hamda uni o'rganish, dunyoni anglash va ijtimoiy tajribani qabul qila olish qobiliyati", deya ta'riflaydi. Intellekt haqida bahs ketganda ko'pchilik "nimadir"ni bajarishga harakat qilish, biror narsani bir-biridan qanday farq qilishni, aqlning qayerida yashiringanligini, ota-onadan meros bo'lib o'tishi yoki uni rivojlantirish tushuniladi [5].

"Intellekt", "Intellektual salohiyat" va "intellektual qobiliyat" tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadi. Ular birgalikda yaxlit bir tushuncha "talabalar intellektual salohiyati"ni tashkil qiladi. Oliy ta'limni axborotlashtirish sharoitida intellektual salohiyatni rivojlantirish keng qamrovi, aniq maqsadga qaratilgan jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning obyekt sifatida oliy ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayoni tanlab olingan.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, usul va texnologiyalari tashkil qilinadi.

Tadqiqot ishi doirasida kreativ yondashuv asosida shakllantirilgan fanga doir topshiriqlar ishlab chiqildi. Murakkabligi jihatidan Informatika fani boshqa fanlardan ajralib turadi. Kreativlik asosida fanning ayrim nazariy mavzularini oson va qulay o'rganish mumkin. Mazkur topshiriq tajriba-sinov ob'ektlarida qo'llanildi va ijobiy baholandi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'limni raqamlashtirish davrida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishni o'rganish juda muhimdir. Bu, talabalarning savodxonlik, muhokama qilish, muammolarni yechish va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Quyida keltirilgan usullar intellektual salohiyatni oshirishga yordam beradi:

1. Ilmiy tadqiqotlar va loyihalar: Talabalar o'zlarining qiziqtiradigan va muhim deb hisoblangan mavzular bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni olib borish orqali intellektual salohiyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

2. Problemlarni yechish uchun amaliy mashg'ulotlar: Real hayotda uzoq vaqt davomida intellektual salohiyat rivojlantirishni ta'minlash uchun talabalar problemlarni yechishda ishtirok etishlari, loyihalarni amaliyotga o'tkazishlari kerak.

3. Yangi texnologiyalardan foydalanish: Raqamli texnologiyalarni (masalan, ishonchli mexanizmlar, iqtisodiy modellovchi dasturlar) o'rganish va ularga qiziqish uyg'un intellektual rivojlanishni ta'minlaydi.

4. Diskussiya va munozaralar: Mavzular bo'yicha talabalar o'rtasida munozaralar va fikr almashishlarini olib borish orqali g'oyaviy salohiyatlarni rivojlantirish mumkin.

5. Mentorlik va yuqori darajadagi o'qituvchilar bilan ishlash: Talabalar o'zlarining intellektual salohiyatini oshirishda mentorlar yordam berishi, fikrlash va yaratishga yo'l qo'ymoqadi.

6. Maktab kutubxonalari va online resurslar: O'qish, ilmiy malumotlarga murojaat qilish va ko'proq bilim olish uchun kutubxonalardan, online resurslardan foydalanish.

7. Oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik: Oliy ta'lim tashkilotlari bilan ishlash, talabalarga katta tajriba va ilmiy imkoniyatlar taqdim etishi mumkin.

Har bir talabaning individual xususiyatlari va qobiliyatlariga e'tibor bering. Ularning shaxsiy hujjatlarini, maqsadlari va rivojlanish yo'li boyicha yaxshi qo'llanilishi muhim.

Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslari grafik, matnli, nutqli, musiqiy, video, audio, fota va boshqa axborotlar to'plamidan tashkil topadi. Elektron ta'lim resurslari ixtiyoriy elektron tashuvchilarda aks etadi, kompyuter ekrani va tarmog'ida nashi etilishi mumkin [6,7].

Elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayonida elektron vositalar hisoblanib, bilimlarning mos ilmiy-amaliy sohasi bo'yicha tizimlashtirilgan, talabalar tomonidan shu sohada bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy va faol egallashni ta'minlaydigan elektron nashrdan iborat bo'ladi.

Talabaning intellektini rivojlantirish pedagog-psixolog-lardan mashaqqatli harakatni talab qiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ham islohotlar sezilarli darajada o'sib borayotgani, innavatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida o'z o'rnini topib bormoqda. Masalan, ko'pchilik oliy ta'lim muassasalari ta'lim berishning kredit-modul tizimiga o'tdi. O'qish va o'qitishning ilg'or usullari, o'quv jarayonida foydalaniladigan metodlar, o'quv jarayonini kreativroq tashkil etish, oliy ta'limni innavatsion rivojlanishi uchun axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim platformalaridan foydalanish hamda oliy ta'lim muassasalarida kasb va ixtisoslik fanlarini o'qitishga ajratilgan soatlar ko'paytirilmoqda [8,9]. Bularning barchasi o'qituvchi va talabalarning kompyuter savodxonligini oshirishda yuqori natijalarni erishishga yordam beradi. Zamon takomillashgani sari insonlarning fikrlash doirasi ham o'sib bormoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda zamonaviy o'quv dasturlari asosida ta'lim berayotgan xorijiy va xususiy universitetlar faoliyat yuritishmoqda. Ulardagi ta'lim sifati yetarli darajadadir. Ta'lim sohasi uchun yangidan yangi imkoniyat yo'llari ochilmoqda. Yoshlar bunday imkoniyat-lardan foydalanishga olsa kifoya.

Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarajonlar juda murakkab. Pedagog va talabalar bu bilim maskanida chuqur bilim egasi bo'lib, yuqori natijalarga erishib kelmoqdalar. Buning boisi o'qituvchilarning harakatidir. O'qituvchilik oson

kasb emas, aksincha juda mas'uliyatli va mashaqqatli kasbdir. Chunki jamiyatning butun taqdiri o'qituvchining qo'lidadir. Bu kasb egalari kechayu-kunduz ter to'kib mehnat qilishadi.

Oliy o'quv yurtida talabalar o'qituvchilardan quyidagi usullarni egallaydilar:

- Pedagogik mahorat;
- o'z fikrini ravon ifodalay olish;
- o'quvchilar qiziqishini orttirish;
- darsni to'g'ri tashkil qilish;

Pedagogik ta'lim jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida talabalarining intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi;

-Masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratish;

- Kompyuter dasturchilar;
- Tegishli mataxassislarni birlashishi;
- Pedagoglar o'rtasida vazifaning taqsimlanishi;
- Talabalarining iqtidoriga qarab kasbiy bilimlarni o'rgatish;

-O'rganilayotgan voqea-hodisalarni modellashtirish kabilar orqali chuqur bilim egasi bo'lishga ko'mak beradi.

O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar milliy ta'lim tizimini takomillashtirish zarurligiga olib keladi.

Ta'lim jarayonining sifati kelajakda davlatning mutaxassislar bilan ta'minlanishiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi va shuning uchun bu muammolarga alohida e'tibor qaratish lozim. Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlanish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar asosan ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi. Axborot inqilobi zamonaviy jamiyat hayotida tez kirib, uning hayotining turli sohalarini faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirdi.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashlik etish talabalarining dars mashg'ulotlariga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehning oshishi va turli kompetensiyalarni rivojlanishiga sabab bo'ladi [10].

Intellektual salohiyatni rivojlantirish o'z navbatida intellektual qobiliyatlar tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Intellektual qobiliyatlar – bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi va yaxlitligi, u to'g'ri-sida keng ma'lumotlarga ega bo'lish, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o'z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlani-shining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda, yangi texnologiyalar va raqamlashtirish sharoiti talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda katta o'rin egallaydi. Bu jarayon o'quvchilarga mustaqil fikrlash, muhokama qilish, va yangiliklarga tayanishga olib keladi.

“Intellekt”, “Intellektualsalohiyat” va “intellektual qobiliyat” tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadi. Ular birgalikda yaxlit bir tushuncha “talabalar intellektual salohiyati”ni tashkil qiladi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida intellektual salohiyatni rivojlan-tirish keng qamrovi, aniq maqsadga qaratilgan jarayondir. Shundan kelib chiqib, quyidagicha mualliflik ta'rifi ilgari surildi: intellektual salohiyat bu – talabalarining kognitiv qobiliyatlar va ijodkorlikning mosligini hisobga olib, maqsadga erishish uchun o'z harakatlarini rejalashtirish, tartibga solish va boshqarish qobiliyati ekanligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedago-gik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish asosida o'quv faoliyat-i(intellektual, motivatsion va faoliyatli) jarayonlari elektron axborot ta'lim resurslari bilan integrallashib, takomillashtirishi aniq lashtirildi.

ADABIYOTLAR

1. Wang Q., H. L. Woo H.L., Quek C. L., Yang Y. and Liu M. Using the Facebook group as a learning management system: An exploratory study. *Br. J. Educ. Technol*, 2012, 43(3): 428–438.
2. Shea P. and Bidjerano T. Understanding distinctions in learning in hybrid, and online environments: an empirical investigation of the community of inquiry framework. *Interact. Learn. Environ*, 2013, 21(4): 355–370.
3. Saadé.R., Nebebe. F., and Tan.W. Viability of the ‘ Technology Acceptance Model’ in multimedia learning environments: A comparative study. *Interdiscip. J. E-Learning Learn. Objects*, 2007, 3(1): 175–184.
4. Zydney J. M., and Seo K. K.-J. Creating a community of inquiry in online environments: An exploratory study on the effect of a protocol on interactions within asynchronous discussions. *Comput. Educ*, 2012, 58(1): 77–87.
5. Joo Y. J., Lim K. Y., and Kim E. K. Online university students’ satisfaction and persistence: Examining perceived level of presence, usefulness and ease of use as predictors in a structural model. *Comput. Educ*, 2011, 57(2):1654–1664.
6. Umarova R.U. O'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // “Ilm sarchashmasi” ilmiy nazariy, metodik jurnal. – Toshkent, 2021. №7. – B. 102-105.
7. Umarova R.U. STEAM va SMART ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirish // “Xalq ta'limi” ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2021. 3-maxsus son. –B. 36-38.
8. Umarova R.U. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning konseptual qoidalari // “Xalq ta'limi” ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2020. 5- maxsus son. –B. 101-104.
9. Umarova R.U. Development of intellectual potential in the context of informatization of education // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 12, 2020. Part III ISSN 2056-5852, – B. 56-59.
10. Umarova R.U. Ta'lim tizimida SMART texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish // *Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”*.– Moskva, 2020. №12(79). –B. 288-292.



UDK:372.8

Ra'noxon ALIMQULOVA,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:alimqulova@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b M.Boltayeva taqrizi asosida

THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH CULTURE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Annotation

This article examines the significance and influence of modern technologies on the development of speech culture of future primary school teachers. The article examines various aspects of the use of technology, including interactive educational programs, online resources, multimedia materials and social networks.

Key words: Modern technologies, development of speech culture, future primary school teachers, educational technologies, effective teaching, interactive educational programs, online resources.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotasiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada texnologiyalardan foydalanishning turli jihatlari, jumladan, interfaol ta'lim dasturlari, onlayn resurslar, multimedia materiallari va ijtimoiy tarmoqlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy texnologiyalar, nutq madaniyatini rivojlantirish, bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilari, ta'lim texnologiyasi, samarali trening, interaktiv ta'lim dasturlari, onlayn resurslar.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается значение и влияние современных технологий на развитие речевой культуры будущих учителей начальных классов. В статье рассматриваются различные аспекты использования технологий, включая интерактивные образовательные программы, онлайн-ресурсы, мультимедийные материалы и социальные сети.

Ключевые слова: Современные технологии, развитие речевой культуры, будущих учителей начальной школы, образовательные технологии, эффективное обучение, интерактивные образовательные программы, онлайн-ресурсы.

Kirish. Zamonaviy ta'lim an'anaviy texnikalar va innovatsion yondashuvlar chorrahasida joylashgan bo'lib, ushbu o'zgarishlarning asosiy jihatlardan biri bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nafaqat o'qitish samaradorligi, balki o'quvchilarning til kompetentsiyasini shakllantirish ham o'qituvchilarning nutq qobiliyatlari sifatiga bog'liq. Kompyuter dasturlari, Internet-resurslar va multimedia dasturlari kabi zamonaviy texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Talaffuz va artikulyatsiyani o'rgatish. Zamonaviy texnologiyalar yordamida to'g'ri talaffuz va artikulyatsiyani o'rgatish uchun dasturlarni samarali ishlab chiqish mumkin. Maxsus dasturlar va onlayn platformalar o'qituvchilar va bo'lajak o'qituvchilarga nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish va talaffuzni yaxshilashga yordam beradigan audio va video darslardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bunday manbalar darslarni tuzish va talabalarga individual tavsiyalar berish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar talaffuz va artikulyatsiyani o'rganish uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi. Buni amalga oshirishning ba'zi usullari:

Talaffuz va artikulyatsiya bo'yicha darslarni taqdim etadigan ko'plab dasturlar va onlayn platformalar mavjud. Ushbu darslar ko'pincha turli xil mashqlarni va tovushlar va so'zlarni talaffuz qilish amaliyotini o'z ichiga oladi. Talabalar

tovushlarni to'g'ri ifodalashni yaxshiroq tushunish uchun videolarni tomosha qilishlari va audio fayllarni tinglashlari mumkin[1]. Ba'zi ilovalar talabalarining talaffuzini tahlil qiladigan va fikr-mulohazalarni taqdim etadigan interaktiv darslarni taklif qiladi. Bu talabalarga xatolarini tuzatishga va talaffuzlarini yaxshilashga yordam beradi. Talabalarining talaffuzini baholash uchun nutqni aniqlash va video tahlil texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Bu o'qituvchilar va talabalarga taraqqiyotni kuzatish va talaffuzning o'ziga xos jihatlarni yaxshilash ustida ishlash imkonini beradi. Ushbu manbalarning aksariyati talabalarga talaffuzdagi o'ziga xos muammolarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berishi mumkin. Bu yaxshilanishni talab qiladigan aniq jihatlarga e'tibor berishga yordam beradi. Ba'zi hollarda o'qituvchilar yoki nutq terapevtlari ushbu platformalardan onlayn darslar va fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun foydalanishlari mumkin. Bu, ayniqsa, ko'proq shaxsiy yondashuvga muhtoj bo'lganlar uchun foydalidir.

Bunday texnologiyalar nutq buzilishidan aziyat chekadigan yoki yaxshilanishi kerak bo'lgan aksentga ega bo'lgan bolalar uchun ham, kattalar uchun ham foydali bo'lishi mumkin[2]. Shuni esda tutish kerakki, eng yaxshi natijalarga erishish uchun ko'pincha tizimli amaliyot va sabr-toqat talab etiladi.

So'z boyligini rivojlantirish. Internet va mobil ilovalardan foydalanish boshlang'ich sinif o'qituvchilarining

so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar so'zlarni ishlatishning ma'nolari va misollarini tezda topishga imkon beradi, shuningdek, onlayn lug'atlar va entsiklopediyalarga kirishni ta'minlaydi. Bu o'qituvchilarga so'z boyligini boyitishga va talabalar bilan yanada samarali muloqot qilishga yordam beradi. Internet va mobil ilovalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining so'z boyligini kengaytirishni ancha osonlashtiradi. Bu qanday sodir bo'lishining ba'zi usullari:

O'qituvchilar onlayn lug'atlar, tezauslar va entsiklopediyalarga osongina kirishlari mumkin. Bu ularga ta'riflarni, sinonimlarni, antonimlarni va so'zlarni ishlatish misollarini tezda topishga imkon beradi, bu ayniqsa darslarni tayyorlashda foydali bo'lishi mumkin. Imlo va grammatikani avtomatik tekshirish: ko'pgina ilovalar va matn muharrirlari imlo va grammatikani tekshirish funksiyasini taqdim etadi, bu esa o'qituvchilarga yozish ko'nikmalarini oshirishga va so'zlarni kontekstda to'g'ri ishlatishga yordam beradi[3]. Bolalar uchun yangi so'zlar va ularning ma'nolarini o'yin usulida o'rganishga yordam beradigan ko'plab ta'lim dasturlari mavjud. O'qituvchilar o'quv jarayonida bunday dasturlardan foydalanishlari mumkin.

Interaktiv o'quv resurslari: Internet o'qituvchilarga so'z boyligini yaxshilashga va o'quvchilarni yanada samarali o'qitishga yordam beradigan veb-seminarlar, video darsliklar va onlayn kurslarni o'z ichiga olgan ko'plab interaktiv o'quv resurslariga kirishni ta'minlaydi. O'qituvchilar ijtimoiy tarmoqlarda va professional jamoalarda hamkasblari bilan tajriba va yangi so'zlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu bilimlarni doimiy ravishda yangilashga yordam beradi. O'qituvchilarning so'z boyligini rivojlantirish ularning kasbiy o'sishining muhim jihati bo'lib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni ancha osonlashtiradi.

Muloqot ko'nikmalarini o'rgatish. Nutq madaniyati nafaqat to'g'ri talaffuz va boy so'z boyligini, balki samarali muloqot qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalar kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'plab vositalarni taqdim etadi. Onlayn forumlar, suhbatlar, videokonferentsiyalar va ijtimoiy tarmoqlar o'qituvchilarga muloqot ko'nikmalarini mashq qilish, munozaralar va almashinuvlarda qatnashish imkonini beradi.

Nutq madaniyati va talabalar, ularning ota-onalari va hamkasblari bilan samarali muloqot qilish qobiliyati o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ba'zi usullar: o'qituvchilar pedagogik forumlar va suhbatlarga qo'shilishlari mumkin, bu erda ular o'qitish usullarini muhokama qilishlari, tajriba almashishlari va hamkasblari bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu ularga yozma aloqani yaxshilashga va so'z boyligini boyitishga yordam beradi. Videokonferentsiyalar virtual uchrashuvlar va o'quv tadbirlarini o'tkazishga imkon beradi. O'qituvchilar og'zaki muloqot bilan shug'ullanishlari, savollar berishlari va mutaxassislar bilan dolzarb mavzularni muhokama qilishlari mumkin bo'lgan onlayn seminarlarda qatnashishlari mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar o'qituvchilarga fikr almashish, materiallarni nashr etish va ta'lim jamoalarini yaratish uchun platforma yaratadi. Bunday tarmoqlarda ishtirok etish o'qituvchilarga muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, so'nggi ta'lim tendentsiyalaridan xabardor bo'lishga yordam beradi. Aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim qismi bu fikr-mulohazalarni olishdir. O'qituvchilar o'zlarining nutqlarini, intonatsiyalarini va muloqot uslublarini diqqat bilan tinglash va tahlil qilish uchun o'z darslarini yozib olishlari mumkin[4]. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan ko'plab onlayn

kurslar va vebinarlar mavjud. O'qituvchilar ushbu sohada o'z tajribalarini oshirish uchun bunday manbalardan foydalanishlari mumkin. Muloqot ko'nikmalarini o'rgatishning muhim qismi modellashtirish va amaliyotdir. O'qituvchilar rol o'ynash, dars simulyatsiyasi va boshqa usullar bilan talabalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganishlari mumkin.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish o'quv jarayonini barcha ishtirokchilar uchun yanada qiziqarli va samarali qilishi mumkin.

Interaktiv ta'lim materiallari. Interfaol o'quv materiallarini yaratish va ulardan foydalanish ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'yin dasturlari, interaktiv darslar va virtual ekskursiyalarni ishlab chiqish mumkin, bu esa o'rganishni yanada qiziqarli qiladi va o'qituvchilarga o'quvchilarni o'quv jarayoniga yanada samarali jalb qilish imkonini beradi. Interfaol ta'lim materiallarini yaratish va ulardan foydalanish zamonaviy ta'lim amaliyotida muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilar uchun, ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'rganishni yanada jozibali va samarali qilishga yordam beradi. Interaktiv ta'lim materiallaridan foydalanishning ba'zi usullari:

Multimedia elementlari, video, audio, animatsiya va interaktiv topshiriqlarni o'z ichiga olgan interaktiv darslarni yaratish o'quv materialini idrok etish va o'zlashtirishni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Talabalar darsda ko'proq ishtirok etishlari va mavzuni yaxshiroq tushunishlari mumkin[5]. O'rganishdagi o'yin elementlari jarayonni qiziqarli va rag'batlantiruvchi qilishi mumkin. Ko'pgina maktablar va o'qituvchilar matematika, savodxonlik va fanlarni o'z ichiga olgan turli ko'nikmalarni o'rgatish uchun ta'lim o'yinlaridan foydalanadilar.

Virtual sayohatlar va ekskursiyalardan foydalanish o'quvchilarga butun dunyo bo'ylab sayohat qilish, turli madaniyatlarni o'rganish va sinfdan chiqmasdan tarixiy joylarni o'rganish imkonini beradi. Ko'plab onlayn manbalar o'quv jarayoniga qo'shilishi mumkin bo'lgan interaktiv o'quv materiallarini taklif qiladi. Bu interaktiv darsliklar, onlayn kvizlar, forumlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Ko'plab o'quv platformalari o'qituvchilarga o'zlarining interaktiv materiallari va kurslarini yaratish uchun vositalarni taklif etadi. Bu sizga o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va uni har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Interfaol ta'lim materiallaridan foydalanish o'qituvchidan ta'lim va tayyorgarlikni talab qiladi, ammo bu o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitishi va uni bolalar uchun yanada jozibador qilishi mumkin[6]. Bunday materiallar zamonaviy dunyoda o'rganishning muhim jihati bo'lgan hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Fikr-mulohaza va o'z-o'zini o'rganish. Zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, o'qituvchilarga hamkasblar, mutaxassislar va hatto talabalardan fikr-mulohazalarni olish imkoniyatini beradi. Onlayn platformalar nutq ko'nikmalarini yaxshilash maqsadida video darslar, audio yozuvlar va matnli materiallarni yozib olish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu o'qituvchilarga nutq madaniyatini mustaqil ravishda rivojlantirishga va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va onlayn platformalar ushbu jarayonlarga qanday hissa qo'shishi mumkin: o'qituvchilar o'z darslarini yozib olishlari va keyinchalik o'zlarining o'qitish uslublarini, til pokligini va o'quvchilar bilan qanday munosabatda bo'lishlarini baholash uchun yozuvlarni ko'rib chiqishlari mumkin. Bu sizga kuchli va zaif tomonlarni aniqlash va ular ustida ishlash imkonini beradi.

Video darsliklari singari, audio yozuvlar va matnli materiallarni nutq ko'nikmalarini, grammatikasini va dars

tuzilishini takomillashtirish maqsadida tahlil qilish mumkin. O'qituvchilar sifatli fikr-mulohazalar va o'z ishlarini yaxshilash bo'yicha maslahatlar olish uchun hamkasblari va ta'lim mutaxassislari bilan hamkorlik qilishlari mumkin[7]. Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar tajriba va bilim almashishning oson usulini taqdim etadi. Talabalar o'qituvchilarga fikr-mulohazalarni ham taqdim etishlari mumkin, bu esa o'qituvchilarga o'z o'quvchilarining ehtiyojlari va umidlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu o'qituvchilarni yanada samarali o'rganishga undashi mumkin.

O'qituvchilar o'z-o'zini o'qitish uchun onlayn kurslar va manbalardan foydalanishlari mumkin. Bu ularga o'qitishning yangi usullarini o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. Ko'pgina o'quv muassasalari va ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun onlayn dasturlarni taqdim etadilar. Bu kurslar, sertifikatlash va boshqa o'quv resurslarini o'z ichiga olishi mumkin. Fikr-mulohaza va o'z-o'zini o'rganish o'qituvchilarga o'z ishlarida yanada moslashuvchan, malakali va samarali bo'lishga yordam beradi[8]. Zamonaviy texnologiyalar va resurslardan foydalangan holda, ular o'zlarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda davom etishlari mumkin, natijada talabalar uchun ta'lim sifati yaxshilanadi.

Siz kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning muhim rolini mutlaqo to'g'ri sezasisiz. Ushbu aloqaning ba'zi asosiy jihatlari: Internet va ta'lim platformalaridan foydalangan holda o'qituvchilar audio va video darsliklar, darsliklar va o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan boy o'quv materiallariga kirishlari mumkin. Bu ularning o'z-o'zini o'rganish va talabalari uchun qo'shimcha materiallar topish

imkoniyatlarini kengaytiradi. Audio va video materiallar, shuningdek ixtisoslashtirilgan dasturlar va ilovalar yordamida o'qituvchilar nutq madaniyatini rivojlantirishning asosiy jihati bo'lgan talaffuz va artikulyatsiya ko'nikmalarini oshirishi mumkin.

Mobil ilovalar, onlayn lug'atlar va nutqni aniqlash texnologiyalari talabalar va o'qituvchilarga so'z boyligini kengaytirishga va yangi so'zlardan to'g'ri foydalanishga yordam beradi. Virtual darslar, videokonferentsiyalar va o'quv forumlari muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilar va o'qituvchilarni o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda samarali ifoda etishga o'rgatadi. Turli xil dasturlar va dasturlar yordamida o'qituvchilar interaktiv darslarni yaratishi mumkin, bu esa o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning haqiqiy ehtiyojlariga yaqinroq bo'lgan o'quv muhitini yaratishga imkon beradi, bu esa ta'limni yanada qiziqarli va qulayroq qiladi. Bu, o'z navbatida, nutq madaniyatini muvaffaqiyatli shakllantira oladigan va o'qitishning dastlabki bosqichida yuqori sifatli ta'lim bera oladigan malakali o'qituvchilarni tayyorlashga yordam beradi.

Xulosa. Zamonaviy texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular turli xil ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi, talaffuz, lug'at, muloqot qobiliyatlari va interaktiv materiallarni yaratishni o'rganishni osonlashtiradi. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarning nutqining yuqori madaniyatini shakllantirish va o'qitishning dastlabki bosqichida sifatli ta'limni ta'minlashga qodir malakali o'qituvchilarni tayyorlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Антоненко Д.Р. и др. "Интеграция информационных технологий в процесс обучения как фактор формирования речевой культуры будущих учителей." // Инновации в образовании. 2017.
2. Богданова А.И. "Современные технологии и развитие речевой культуры будущих учителей начальных классов." // Педагогика и психология. 2019.
3. Гребенкина И.С. "Эффективное использование современных технологий в образовании для развития речевой культуры учащихся." // Научные исследования. 2018.
4. Turgunov, S. T., and D. T. Akmalova. "Mechanisms of application of modern approaches to the organization and management of educational processes in Universities." International Journal of Social Sciences 4.1 (2021): 162-167.
5. Кузнецова О.Н. "Влияние цифровых образовательных ресурсов на формирование речевой культуры будущих учителей начальных классов." // Интернет-журнал "Наука и образование". 2016.
6. Turgunov, Sobithon Toshpo'latovich, and Jamshid Shamsidinovich Kazimov. "Organization and Management of Pedagogical Processes in Secondary Schools on a Scientific Basis." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
7. Смирнова Н.П. "Роль мультимедийных технологий в формировании речевой культуры студентов-педагогов." // Современное образование. 2015.
8. Тихонова Е.А. "Интерактивные методы обучения и их влияние на развитие речевой культуры будущих учителей начальных классов." // Педагогические исследования. 2018.



Mohira ANKABAEVA,
JDPU o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi
E-mail: ziyadullag@bk.ru

JDPU professori, filologiya fanlari doktori (DSc) U.Jumanazarov taqrizi asosida

THE LIFE AND LEGACY OF KHOJAMNAZAR GOYBINNAZAR'S SON HUYAYDO

Annotation

In this scientific article, the life and creative legacy of Chimyan mystic, Sufi poet Khojamnazar Huvaydo is analyzed from the perspective of literary history.

Key words: Poetics, politics, thinking, spirituality, mysticism, pir, genealogy, Chimyan, Fergana, Afaqkhoja, Khojamnazar, caravanserai, pir, murid, oirots, Samarbanu, ghazal, mustahzad, musaddas, devan, Saqib, Siraji, Sheikh, Qutb, Sunnah.

ЖИЗНЬ И НАСЛЕДИЕ ХОДЖАМНАЗАРА ГОЙБИННАЗАРА, СЫНА ХУВАЙДО

Аннотация

В данной научной статье с позиций истории литературы анализируется жизнь и творческое наследие чимийского мистика, суфийского поэта Ходжамназара Хувайдо.

Ключевые слова: Поэтика, политика, мышление, духовность, мистика, учитель, генеалогия, Чимьян, Фергана, Аfaqходжа, Ходжамназар, караван-сарай, учитель, последователь, ойроты, Самарбану, газель, мустахзад, мусадды, деван, Сакиб, Сироджи, шейх, кутб, Сунна.

XOJAMNAZAR G'OYIBNAZAR O'G'LI HUVAYDO HAYOTI VA MEROSI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada chimyonlik mutasavvif, so'fiy shoir Xojamnazar Huvaydo hayoti, ijodiy merosi adabiyotshunoslik tarixi nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Poetika, siyosat, tafakkur, ma'naviyat, tasavvuf, pir, nasabnoma, Chimyon, Farg'ona, Ofoqxoja, Xojamnazar, karvonsaroy, pir, murid, oyrotlar, Samarbonu, g'azal, mustahzod, musaddas, devon, Soqib, Sirojii, shayx, qutb, sunnat.

Kirish. Milliy mustaqillik va yangicha siyosiy tafakkur sharofati bilan qaytadan kashf etilayotgan xalqimiz ma'naviyatining azim va hayotbaxsh sarchashmalaridan biri Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydoning boy va serqirra badiiy-poetik merosidir. XVIII asr tasavvuf adabiyoti va falsafasining yirik namoyandasi sifatida tanilgan Huvaydo Farg'ona tumanidagi Chimyon qishlog'ida tavallud topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Faxriddin Eshon Xokiy (Huvaydoning chimyonlik chevarasi)ning "Nasabnoma Eshon Huvaydo" asarida yozishicha, Huvaydoning ajdodlari asli o'shlik bo'lib, otasi G'oyibnazar eshon o'ziga pir tutinib, qashqarlik Ofoqxoja (vafoti 1695 yil) dargohiga borgan va o'ttiz yil uning xizmatida bo'lib, undan tasavvuf sirlarini o'rgangan. So'ng Ofoqxojaning marg'ilonlik o'g'li Xoja Muhyi Ahmad (xalq orasida Poshsho pirim nomi bilan shuhrat topgan) huzuriga keladi. Chimyon qishlog'ida uy-joy qiladi va uning xonadonida Xojamnazar dunyoga keladi.

Huvaydo o'zining "Rohati dil" manzumasi (dostoni)ning "Sababi nazmi kitob" bobida o'zining tarjimai holi haqida shunday ma'lumot beradi:

Kaminaning oti Xojamnazardur,
Atosining oti G'oyibnazardur.
Nasabda O'shiyu mavludi Chimyon
G'aribu xoksoru dil parishon.

Shuningdek, shoir mazkur devonga kiritilgan bir g'azalida:

Xojamnazar osiyg'a qo'ydim Huvaydoni laqab,
Bul g'aribi mustamandni shahri Chimyondin tila...-
deb yozadi.

Roboti ko'hnaga – eski karvonsaroy bo'lmish dunyoga XVIII asrda yana bir Alloh oshig'i Huvaydo kelgan bo'lib, butun olamni yaratgan Parvardigorga hamdu sano aytib, uning

rasuli Muhammad Mustafoga durudu salovotlar aytib, jahon ummati Muhammadga baxtu saodat tilab, bandalarni ezgu ishlariga chorlab, she'riyat osmonida to'lin oydek porlab bir shoir yashab o'tdi. Bu shoir naqshbandiya tariqati murshidlaridan G'oyibnazar o'g'li Huvaydodir. Uning otasi G'oyibnazar XVII - XVIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida piri komil deb, dong taratgan Hidoyatulloh shayx Yusuf o'g'li – Ofoqxojaning muridi, Farg'ona vodiysidagi xalifalardan edi.

Bir kun Ofoqxoja (rahmatullohi alayhi) o'z muridiga "Sen farzand ko'rsang, otini Xojamnazar qo'y, mening nazarim andadur" deb xushxabar berdi.

Yorkent va Jung'oriya (oyratlar yoki qalmoqlar) davlatlarining amaldagi podshohi, eshon Ofoqxoja hazratlari 1693 yili vafot etadi. Oradan 5- 6 yil o'tib G'oyibnazar o'g'li ko'rib ismini Xojamnazar qo'yadi. U paytda G'oyibnazar O'shda yashar edi. Keyinchalik u Farg'onaning Chimyon qishlog'iga ko'chib kelib, madrasa va xonaqoh ochib mudarrislik bilan mashg'ul bo'lgan.

Yaxshilar sharofati shu bo'lsa kerakki, bugungi Chimyon bevosita Huvaydo nomi bilan birgalikda tilga olinishida ham o'ziga xos fayziyoblik ma'nosi bordir. Huvaydo ta'lim – tarbiyani o'z otasidan olgan. So'ng Qo'qon madrasalarida tahsil olib, o'z qishlog'iga qaytib, mudarrislik qilgan, she'riy ijod bilan mashg'ul bo'lib g'azallar bitgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shoirming o'g'li Holmuhammad eshon o'z davrining qutbi edi. U zotning o'g'li Mavlaviy Sirojiddin Sirojiiy taxallusi bilan baytu g'azallar bitgan tariqat yo'lboshchisi edi. U kishining o'g'li Salohiddin Soqibiy hazratlari tariqat piri bo'lib, tariqat amaliyotiga bag'ishlangan risola va qo'lyozmalar yozib qoldirgan musannif alloma edi. Bu buzrukvorlar naqshbandiya tariqati davomdorigi uchun zahmatlar chekib, muridlarga ixlos bilan

saboq va tarbiya berib kelganlar. Soqibiyning “Ma’muloti Soqibiy” (Soqibiyning joriy qilinadigan amallari) risolasi naqshbandiya suluki soliklari uchun qo’llanma sifatida yozilgan. Salohiddin hazratlari muridlarga vazifalar berar ekan, o’z fikrining isboti uchun Huvaydo g’azallariga ham ko’p o’rinlarda murojaat etgan.

Xojamnazor Huvaydo boshlang’ich diniy maktab (dabiston)da toliblarga ilm beradi, hunarmandchilik bilan shug’ullanadi; rasululloh sunnatlari, naqshbandiya g’oyalari to’la amal qilib, podsholarga yaqin bormay, xonlik poytaxtidan olisdagi chekka bir qishloq – (o’zining ta’biri bilan aytganda) “shahri Chimyon”da xuddi Bahouddin Naqshband singari faqirona hayot kechiradi.

O’zining avliyolik sifatlarini odamlarga oshkor qilishni hohlamaydi. Kichik zamondoshi Nohse Chimyoniyning yozishicha, Xojamnazor Huvaydo har doim nafi ammora va shaytonlarga qarshi murosasiz jang qiladi, Ibrohim Adham singari mard Xudo bo’lishga intiladi. Samarali ijod qilib, o’zidan boy meros qoldiradi. Hijriy 1194 (1780) yili olamdan o’tadi.

Avvalo, buyuk so’fiy – avliyolar o’zlariga ayon bo’lgan ilohiy ilm va ma’rifatni zamondoshlaridan sir saqlashga, Allohning rizoligi va xushnudligi yo’lida qilgan xayrli va savobli amallarini elga ko’z – ko’z qilmaslikka, kamtarona va faqirona hayot kechirishga intilganlar. Zero, el ko’zi oldida shuhrat qozonishni ofat deb hisoblaganlar. Muhammad payg’ambar sunnatlariga, naqshbandiya tariqati g’oyalari, og’ishmay amal qilgan So’fi Olloyor, Boborahim Mashrab singari Xojamnazor Huvaydo ham zamondoshlariga botiniy olamida ro’y berayotgan tug’yonlari va o’z “Men”ligini oshkor etishni aslo istamagan; ikkinchidan, Huvaydo xonlik poytaxtidan ancha olisda – Farg’ona vodiysining Pomir – Oloy tog’ etaklarida joylashgan Chimyon qishlog’ida diniy ilm va tasavvuf g’oyalari targ’ib etdi va halol mehnati (hunarmandchilik) evaziga kamtarona hayot kechirdi.

Baxtli tasodif tufayli Huvaydoning shogirdi Nohse Chimyoniy (vafoti 1798) tomonidan Huvaydo vafotiga bag’ishlab yozilgan “Tarixi vafoti hazrat Eshon Huvaydo” asari hamda Huvaydoning chimyonlik chevarasi Faxriddin Eshon Xokiy (1832-1919) qalamiga mansub “Nasabnomai Huvaydo quddusa sirrixul aziz” asari, shuningdek, Xojamnazor Huvaydoning “Rohati dil”, “Sulton Ibrohim Adham qissasi” va devoniga kiritilgan asarlarida berilgan o’z tarjimai holiga doir ma’lumotlar Huvaydoning tarjimai holini tiklashda asosiy manbalar hisoblanadi.

Huvaydo o’z davrining farzandigina emas, balki butun Sharq musulmon olamining ulug’ mutafakkiri sifatida milliy ma’naviyatimiz tarixida alohida o’rin tutadi. Chunki uning asarlari xalqimiz tarixidagi eng og’ir va uqubatli davr bo’lgan XVIII asrda ro’y bergan mushkul muammolarni hal etishga, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy tanazzul asoratlarini bartaraf etishga bag’ishlangan edi.

Tahlil va natijalar. Huvaydodan bizga bir devon meros qolgan. Uning sulolasidan yetishib chiqqan Sirojii, Salohiddin Soqib, Samar Bonu kabi iste’dodli shoirlar adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldirdilar. Salohiddin Soqib bobosi merosini mukammal devon holida shakllantirib, qayta ko’chirtirib qoldirgan.

Devon mutolaasida Huvaydo g’azal, mustazod, ruboiy, chiston kabi ruh bob she’r turlari, masnaviy singari katta nazm namunalari mumtoz ustasi sifatida namoyon bo’ladi. Huvaydo g’azaliyoti asosan oshiqona, orifona ruhdagi g’azallardan tashkil topgan. Oshiqona g’azallarda ishqiy komil yo’lida insoniy kamolot sari sabot bilan intiluvchi oshiq kechinmalari va qiyofasi ta’sirchan tasvirlangan. Orifona g’azallarda esa, Huvaydo donishmand faylasuf siymo sifatida g’aydalanadi.

Akademik Vohidov Zohid Huvaydo she’riyatini tahlil etib yozadi: ... u o’z qalami va badiiy ijodi bilan hayotni keng qamrab olishga, har bir muhim masalaga o’z munosabatini bildirishga o’z zamonining hozirjavob shoiri bo’lishga intildi. Uning ijodida insonning, xalqning olijanob xislatlaridan va vatan tabiati go’zalliklaridan tortib, to davr chirkinliklari, odam qiyofasidagi yovuzlarning razil qilmishlariga qadar butun voqe’lik o’zining barcha ziddiyatlari, ilg’or an’analari va zaifliklari bilan aks etdi.

Huvaydoning ijodiy merosi XX asr boshlarida G’arb olimlarining e’tiborini jalb etgan va ana shu qiziqishning ilk samarasi sifatida nemis sharqshunosi Martin Xartmanning, rus sharqshunosi M.F.Gavrilovlarning tadqiqotlari dunyoga kelgan.

XX asr boshlarida Huvaydo kulliyotining “Kitobi Eshon Huvaydoyi Chimyoniy” nomi bilan Istanbul, Qozon va Toshkent bosmaxonalari ko’p marta nashr qilinishi va g’azallari barcha mo’tabar bayozlarga kiritilishi ham xalqimiz tomonidan Huvaydo g’azallarining katta qiziqish va tashnalik bilan mutolaa qilinganligidan guvohlik beradi.

Huvaydo beva – bechora, miskinlar manfaatini himoya qildi, bir g’arib ko’nglini shod qilishni, mashaqqat chekib Ka’bani ziyorat qilishdan afzal deb bildi:

Bir g’arib ko’nglini shod aylasang,
Yo’l bosib, Ka’ba sari bormoq abas.

Shoir ilgari surgan, aytmoqchi bo’lgan fikrlarning eng yuqori cho’qqisi Ibrohim Adham hikoyatida mujassamlashgan. Undagi mazmun sayyor suyuqetga asoslangan. “Ibrohim Adham hikoyati”da – behad mol – dunyoga ega bo’lgan, boylik, toju taxt, rohat – farog’atda yashashdan voz kechib, faqirlik yo’lini tanlagan Balx hokimi qissasi hikoya qilinadi. Quyidagi bir bayt Ibrohim Adham tutgan maqom haqida tasavvur bera oladi:

Seni deb taxtu baxtimni kechibman,
Ki, men vahdat sharobidan ichibman.

Bu so’zlardan Alloh yodi uchun taxtu baxtidan voz kechgan, ilohiy birlikka musharraf bo’lgan muqaddas oshiq ma’naviyatini anglash mumkin.

Huvaydo hayotligida devon tartib etmagan bo’lsa – da, bu xayrli ishni uning avlodlari oxiriga yetkazdilar. Shoirning chevarasi Hoji Salohiddin Soqib va Mirza Hakim ibn Marg’iloniy tartib etgan Huvaydo devoni boshqa mualliflar tuzgan devonlarga nisbatan to’liqroq va mukammalroq hisoblanadi. Bu devonga shoirning 351 g’azali, 28 ruboiysi, 41 to’rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi va 3 masnaviysi kiritilgan. Ammo professor I.Abdullaev va dotsent Q.Ro’zmatzoda nashrga tayyorlagan Huvaydo devonida yozilishicha, Salohiddin Soqib tomonidan tartiblangan va Muhammad Shohmurod kotib ko’chirgan hamda Toshkentda 1907 yilda chop etilgan devonda shoirning 374 g’azali, 100 dan ortiq murabba va ruboiysi, 3 ta muxammasi, bir musaddasi, bir musammani hamda 2 mustahzodi jamlangan.

Xulosa va takliflar. Huvaydo – mustaqil ovo’zga va uslubga ega bo’lgan iste’dodli shoir. U badiiy ijodning bor imkoniyatlaridan foydalangani holda o’z asarlarida xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi hayotbaxsh g’oyalarga umrbod sodiq bo’lib qoldi.

XVIII asr tasavvuf adabiyotining ulkan namoyandasi bo’lgan Huvaydo Chimyonda tug’ilib, 72 yil umr ko’rgan, ulug’ zotning otasi Sharqiy Turkistonda mashhur bo’lgan Ofoqxojaning va u kishining o’g’li Yusufxojaning muridi Farg’ona vodiysidagi xalifalaridan edi. Shuningdek, Ofoqxojaning nazari bilan Huvaydogo Xojamnazor ism qo’yilgan edi. Asli o’shlik bo’lgan bu oila Chimyon qishlog’iga kelib, xalqni ruhiy tarbiyalaydi, madrasa, xonaqo ochadi va mudarris bo’lib, islomiy savodini chiqargan. G’azallar “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” kabi dostonlar yaratgan.

ADABIYOTLAR

1. Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Xojamnazar Huvaydo. Rohati dil. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Ikromiddin Ostonaqul. Avliyolar sultoni Turonlik valiyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
4. Qodirqul Ro'zmatzoda. Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojida o'rni. Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: 2020.
5. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham. –T.: Navro'z, 2011.
6. Zohidov Vohid. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
7. Xartmann Martin. Huvaydoning chig'atoycha devoni / nemis tilida/. Berlin, 1902.
8. Gavrilov M.F. Sredneaziatskiy poet i sufiy Xuvaydo. –T.: 1927.
9. Xojamnazar Huvaydo. Devon. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2017.
10. Adizova Iqboloy. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: Fan, 2006.
11. O'zbek adabiyoti tarixi. 3- tom. – Toshkent: Fan. 1978.



Nargiza ASADULLAYEVA,
Quva kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi
Email: ulau8584@gmail.com

ADU katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD) M.E.Abdullayev taqrizi ostida

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA HUQUQIY FAOLIYAT TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA ZARUR BO‘LGAN JIHATLAR

Anotatsiya

Ushbu maqolada oliy o‘quv yurtlari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari yoshlarni huquqiy ongini yuksaltirishda muhim rol o‘ynashi, huquqiy tarbiyaning turli shakllari fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarning mustaqilligidan yanada samarali foydalanish uchun javobgarligi, boshqaruv organlari va jamoat institutlarining beqiyos pozitsiyasi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Talaba - yoshlar, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat, mahalla instituti, fuqarolik jamiyati, ayollar va qizlar.

ASPECTS NECESSARY TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF LEGAL ACTIVITY IN FUTURE TEACHERS

Annotation

In this article, higher educational institutions, youth women’s organizations play an important role in raising the legal awareness and legal culture of students and youth, are responsible for the more of legal education, including the independence of citizens in the process of forming a civil society, revealed the incomparable position of the governing bodies and public institutions.

Key words: Student youth, legal awareness, legal education, legal culture, neighborhood institution, civil society, women and girls.

АСПЕКТЫ НЕОБХОДИМЫЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРАВОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Анотация

В данной статье высшие учебные заведения, молодежные и женские организации играют важную роль в повышении правосознания молодежи, несут ответственность за более эффективное использование различных форм правового воспитания, в том числе самостоятельность граждан в процессе формирования гражданского общества, выявлена несравненная позиция органов управления и общественных институтов

Ключевые слова: Студенческая молодежь, правосознание, правовое воспитание, правовая культура, институт соседства, гражданское общество, женщины и девушки.

Kirish. Jahonda global raqobat muhitida yoshlarning huquqiy bilimini va siyosiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali ularda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

Bu borada O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham salmoqli o‘zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda hamda jamiyatning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar faolligini oshirishning ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-pedagogik asoslarini va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratil-moqda[1]. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyatni moderni-zasiyalash va fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirishda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish, fuqarolik madaniyatini qaror toptirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Fuqarolik madaniyati yuksak intellektual madaniyat, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya va bilim, madaniyat asosida shakllanadi. Shuningdek, fuqarolik madaniyatini rivojlantirishdagi muhim omil so‘z erkinligi qadrlanadigan, qonun usuvor bo‘lgan va fikrlar-hilma hilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Mazkur vazifalar asosida so‘nggi yillarda mamlakatimizda yangi tizim yaratildi va yangicha munosabat shakllandi. Fuqarolik kompeten-siyasini namoyish etish uchun so‘z erkinligi ta‘minlanmoqda va fuqarolarning huquq va erkinlilari kafolatlanmoqda.

Tadqiqot ob‘ekti va qo‘llanilgan metodlar. Talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda oliy ta‘lim muassasalari, yoshlar va hotin-qizlar tashkilotlari muhim o‘rin tutishi, ularning zimmasiga huquqiy ta‘lim va huquqiy tarbiyaning turli shakllaridan yanada samarali foydalanish, shu jumladan fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, hamda mahalla institutlarning mavqei beqiyosligi ochiq-tilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bo‘lajak o‘qituv-chilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda alohida e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan o‘ziga hos shart-sharoitlar va hususiyatlari ham borki, unga ta‘lim berishda, albatta hisobga olish zarur. Zero, bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy madaniyat turli yo‘llar va shart-sharoitlar asosida shakllanadi:

Birinchidan, talabalar ta‘limning turli sohalarida ishtirok etishlari bilan o‘zlarining bilim darajalarini oshirib boradilar. Ular turli fan sohasidagi bilimlar bilan birga huquqiy fanlar beradigan bilimlardan ham o‘zlashtirib boradilar. Bugungi oliy ta‘limda o‘tiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalarning ijtimoiy-huquqiy dunyoqarashini shakllantirish bilan birga ularda faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlashi, ijtimoiy mas‘uliyatni oshirishi ham talab etiladi.

Ikkinchidan, talabalar jamiyatning huquqiy va siyosiy hayotida hamda huquqiy munosabatlarida bevosita ishtirok etadi. Talabalarni huquqiy munosabatlarga yo‘naltirish,

o'zining huquqi va erkinliklarini erkin bildirish imkoniyati va shunday vaziyalarni yaratish, siyosiy faolligini oshirish, har hil harakatlarda o'zining huquqlarini, tashabbuslarini namoyon qilish imkoniyatini yaratib berish ham ularda huquqiy madaniyatni, faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlaydi. Bunday voqea va hodisalar, o'zgarishlar shaxs ongiga tasir etib, unda huquqiy madaniyatning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltiradi.

Uchinchidan, oliy ta'limda talabalarning malum bir aniq sohada bo'lg'usi mutaxassisligini ham hissobga olishimiz zarur. Ularda huquqiy madaniyatni shakllantirishda umumiy fundamental huquqiy bilimlarini berish bilan birga, iloji boricha o'z mutaxassisligiga taluqli bo'lgan huquqiy bilimlarni berishga ham muhim hisoblanadi. Masalan, noyuridik o'quv yurti hisoblangan Farg'ona davlat univesitetini oladigan bo'lsak, ko'proq pedagogik oliygoh bo'lganligi uchun ham pedagog huquqi, ta'lim-tarbiya huquqi kabi sohalar bo'yicha chuqurroq bilim olishlariga e'tibor berish lozim bo'ladi.

To'rtinchidan, oliy ta'lim talabalari huquqiy madaniyatini rivojlantirish orqali ularda faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlash va ta'lim-tarbiya berish vosita va usullarini tanlashda ularning yosh psixologiyasiga ham e'tibor berish zarur.

Beshinchidan, oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talabani aksariyati o'z uylaridan uzoqda viloyat va tumanlardan hatto boshqa davlatlardan kelishadi. Aksariyat talabalar o'zi tug'ilib o'sgan hudud va ota-onasidan uzoqda mustaqil yashashga majbur bo'ladi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ushbu sharoitlarni e'tiborga olish kerak.

Oldinchi, ommaviy axborot vositalari, hamda bosma nashrlar va ular ishining tahlil etilishi ham talabalarning huquqiy madaniyati va ongining rivojlanishidagi muhim omil hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari va bosma nashrlar orqali berilayotgan huquqiy ma'lumotlar, axborotlar, ilmiy-nazariy bilimlar talabalarning huquqiy ongi va bilimi oshishiga katta tasir ko'rsatadi. Ta'limda talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi mana shunday vositalardan foydalanish va real vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularda huquqiy bilim va dunyoqarashni rivojlantirish lozim. Bugungi oliy ta'lim esa talabalarga faqat atamalar, tushunchalar, faktlar va qoidalarni yodlatishdangina iborat bo'lib qolmoqda. Aniq keyslar bilan tanishish va ularni yechish yo'llarini o'rgatish orqali ularda huquqiy saviyani hosil qilish samarali hisoblanadi. Tadqiqotchi G.Qurbonova fikricha, "hayot hech qachon bir joyda to'xtab qolmaydi, u doimo harakatda va tinimsiz o'zgarishda bo'ladi. Shunday ekan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirishning har bir bosqichida o'ziga xos muammolar paydo bo'ladi va zamon bizning oldimizga ularni hal etish bo'yicha yangi-yangi vazifalarni qo'yadi. Shu ma'noda bugungi asosiy maqsadimiz bo'lgan mamlakat taraqqiyoti va farovonligini ta'minlashning yagona yo'li izlanish, yangilash va islohotlarni hayotga tatbiq etishdir. Yoshlarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashda ko'proq interfaol, innovation tarbiya texnologiyalaridan foydalanib, har bir o'quvchi-talabani shaxsiy ishtirokini ta'minlash, tajriba orqali, ya'ni o'zi bajarib tushinishiga intilish muvaffaqiyat garovi bo'ladi"[5].

Huquqiy tarbiya murakkab va ko'p qirrali hodisadir va uni bir yoqlama tariflash qiyin. Huquqiy tarbiya bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holda tasir ko'rsatishidir[4]. Huquqshunos olim O.Karimova huquqiy tarbiyaga quyidagicha ta'rif beradi, huquqiy tarbiya bu - tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga tasir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya etish hislatlarini vujudga

keltiradigan g'arakatdir[3]. Demak, talabalarning huquqiy tarbiyasi tushunchasiga tarif beradigan bo'lsak - bo'lg'usi yosh mutaxassislarining huquqiy bilimi, huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini tahlil qilishga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtining ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etadi, talabalarning sub'ektiv huquqlari va majburiyatlarini, huquqiy ijtimoiy - insonparvarlik mohiyatini imkon darajada anglashlari, shuningdek tashabbuskorlik, huquqiy tarbiya faoliyati tushuniladi. Shuningdek, huquqiy tarbiya huquqiy ta'limdan yoki faqat huquqshunoslikni o'qitishdangina iborat emas. OTMlarda huquqiy tarbiya tizimi va shakli talabalarning huquqiy tarbiyasiga har tomonlama yondashishdan kelib chiqadi. Biroq oliy ta'limda huquqiy tarbiyaga elementar, yuzaki yondashishdan voz kechish zarurligini ta'kidlash lozim. Zamonaviy huquqiy jamiyat, davlat, iqtisod, siyosat, ma'naviy-madaniy tarbiya va boshqa tizimlarni chuqur, har tomonlama amalda o'rganishni talab qiladi. Talabalarni huquqiy madaniyatini rivojlantirishda, huquqiy tarbiya berishda "Huquqshunoslik", "Falsafa", "Fuqarolik jamiyati", "Sotsiologiya", "O'zbekistonni eng yangi tarixi", "Madaniyatshunoslik" kabi o'quv fanlarining o'qitilishi eng samarali usul bo'lib, huquqiy tarbiya berishda kerakli fanlar sifatida asosiy e'tibor qaratilishi zarur.

Talabalarni qonunlarga, jamiyatning turmush qoidalarga hurmat bilan qarash, insonlarni va kishi shaxsini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, har bir talabada insonning huquqiga, qadr-qimmatiga zarracha bo'lsada tajavuz qilishga yo'l qo'yib bermasligiga, qat'iy ishonch hosil qilish, fuqarolik faoliyatini va axloq qoidalarga hilof ishlar hamda jinoiy harakatlarga keskin zarba berishga tayyor bo'lish ruhida tarbiyalash buni o'qitish va o'rgatishning bevosita vazifasi hisoblanadi.

Oliy ta'limda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlash va axloqiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy ta'lim samarasini malum ma'noda quyidagilar bilan belgilanadi:

- pedagogik jarayonga kompleks yondashish;
- ijtimoiy fanlarni o'rganishda konkret bilimlarni mohirlik bilan ajrata bilish;

- jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy hayotdagi huquqiy muammolarni amaliy keyslar bilan bog'liq holda tushuntirilishi, yechish usullarini o'rgatilishi va talabalarga qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, ularda faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlashda pedagogik jarayonga kompleks yondashish zarurligini ko'rsatadi va bu orqali quyidagilarga erishishni ta'minlaydi.

- Bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy dunyoqarash, ongillik, yuksak axloq, vatanparvarlikni rivojlantirish va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda g'oyaviy, siyosiy, axloqiy va huquqiy tarbiya birligini ta'minlash talab etiladi.

- Pedagogik jarayonda talabalar ongini, axloqiy qarashlarini va huquqiy madaniyatiga boshqa omillarning birgalikda tasir etishini ta'minlashdan iboratdir.

Huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni to'g'ri tushunish uchun, uning umumiy va maxsus tomonlarini to'g'ri va aniq asoslab olmoq kerak. Bunda:

- huquqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati;
- huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni ta'minlovchi qoidalar;
- huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantiruvchi usul va shakllar;
- huquqiy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi asosiy faktlarga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'limda talabalar huquqiy madaniyati, ularning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan

ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- huquqiy tarbiyaning mafkuraviy, siyosiy, mehnat va axloqiy tarbiya bilan o'zaro aloqasi;

- talabalarining yashash muhiti, oilaviy sharoiti va pedagogik jarayonda huquqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limni rejalashtirish va o'tkazish;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etishda huquqiy tarbiyani amalga oshirish va huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha ishlarni talabani dam olish va yashash sharoitlarini yaxshilash orqali takomillashtirib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy ongini shakllantirishda usul o'rtasida namunaviy jamoat tartibi, faolliklari uchun musobaqalardan moirona foydalanish;

- oila, ta'lim va ijtimoiy muhitning huquqiy-tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirib, birgalikda faoliyat yuritish;

- huquqiy tarbiya jarayoni samaradorligini o'rganish, boyitish va ijobiy tajribalarni kengroq tarqatish hamda ko'zlangan tadbirlarni bajarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish talabani shaxsiy axloqiy ichki quvvatiga yo'naltirishdir[6].

Oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlashdagi eng muhim tamoyil demokratik tamoyil hisoblanadi va bu asosiy ijtimoiy-siyosiy qoida bo'lib, u davlatchilik, huquq va qonunchilik masalalarini demokratik qadriyatlar orqali tushuntirilishni nazarda tutadi. Huquqiy tarbiyaning hayot bilan bog'liq ravishda olib borishda talabalarni huquqiy amaliyotga kirib borishga, hayotda uchrab turadigan huquqiy voqea-hodisalarga ularni jalb etish, masalan, qonuniy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish, saylov ishlarini olib borish kabi tadbirlar, ularda qonunga bo'lgan hurmatini tarbiyalashga yordam beradi. Oliy ta'limda talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularda huquqiy madaniyatni rivojlantirish va faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlashda pedagogik jarayondagi rejalashtirish tamoyili muhim o'rin tutadi.

Huquqiy tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha huquqlar va ularning ko'rsatmalari mazmunini o'rganish(intelektual tomoni).

- huquqning zarurligi, adolatligi, hamma uchun tengligi, foydalanishga bo'lgan ishonchni shakllantirish (tarbiyaning bag'olash tomoni)

-Bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy faollikni, huquqiy meyorlarga rioya etishni, huquqbuzarliklarga qarshi murosasizligini shakllantirish (irodaviy elementi).

Shuningdek, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda ommaviy ag'borot vositalari ta'sir mexanizmi vazifasini bajaradi. Ya'ni yangi tahrirdagi qonunlar to'g'ri-sidagi ma'lumotlarni xalqqa etkazib berishda ham matbuotni roli oshmoqda. Yoshlarimizda huquqiy madaniyatni yanada oshirish sharoitida yuksak saviyali teleko'rsatuvlar, maqolalar, reportajlar olib borish amalga oshirilayapti, lekin bu borada amalga oshirilayotgan ishlar maqtanishdan boshqa narsa emas. Eng katta muammo bu tanqidiy ruhdagi ko'rsatuvlar juda kam ko'rsatilayotganidir. Bu borada tijorat va hududiy nodavlat teleradiostudiyalarining faoliyatini yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Xulosa. Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha tarbiya muassalaridayoq xulq-atvor koidalariidan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur.

Xulosa qilganda, talabalarni huquqiy madaniyatini rivojlantirishda, huquqiy tarbiya berishda "Huquqshunoslik", "Falsafa", "Fuqarolik jamiyati", "Sotsiologiya", "O'zbekistonni eng yangi tarixi", "Madaniyatshunoslik" kabi o'quv fanlarining o'qitilishi eng samarali usul ekanligini e'tiborga olgan holda, ushbu kurslarga ajratilgan dars soatlarni ko'paytirish va unda mutaxassislikni e'tiborga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. -B.592.
3. Karimova. O. Huquqiy tarbiya metodikasi. Toshkent.: Nizomiy nomidagi. T.D.P. U.-2000.-B.5.
4. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. -Toshkent Sharq. 2011. -B. 160.
5. To'ychieva X.Shaxs huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy ta'limning o'rni va uning ilmiy-amaliy muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi.-Toshkent.: 2009 .-B. 160 .
6. Файзиев М.М., Чиннибаев Х.Ж. О реализации прав и свобод личности // Общественные науки в Узбекистане. 2000. № 6. -С.29.
7. Hahlweg W. Moderner Guerillakrieg und Terrorismus/ Probleme und Aspekte ihrer Theoretischen Grundlagen als Widerspiegelung der Praxis // Terrorismus. Hrsg.von M.Funke. Bonn, 1977. - P.118.
8. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-280680-1.html?page=2>(Ёшлар социологияси)



Ixtiyorjon ASQAROV,
Jizzax politexnika instituti professori, p.f.f.d
E-mail: ixtiyor.8778@mail.ru

Professional ta'limni rivojlantirish instituti dotsenti, pedagogika fanlari doktori D.Raxmatullayeva taqrizi ostida

BO'LAJAK MUHANDISLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK JIHLTLARI

Annotatsiya: Bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash bilan bog'liq masalalarni echishning muayyan nazariy metododik jihatlari, bu borada hali o'z echimini kutayotgan muammolar va talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash tizimi haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu maqolada bo'lajak muhandislarda ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari qarab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Muhandis, metod, metodologiya, ilmiy-tadqiqot, metodik jihatlari, shakllantirish, rivojlantirish, tadqiqotchilik ko'nikmalari.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Рассмотрены некоторые теоретические и методические аспекты решения вопросов, связанных с подготовкой будущих инженеров к научной и исследовательской деятельности, проблемы, еще ожидающие своего решения в этой связи, а также система подготовки студентов к научной и исследовательской деятельности. Также в данной статье рассматриваются вопросы формирования научно-исследовательских навыков у будущих инженеров.

Ключевые слова: Инженер, метод, методология, научное исследование, методологические аспекты, формирование, развитие, исследовательские навыки.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING FUTURE ENGINEERS FOR RESEARCH ACTIVITIES

Annotation

Some theoretical and methodological aspects of solving issues related to the preparation of future engineers for scientific and research activities, problems still awaiting solutions in this regard, as well as the system of preparing students for scientific and research activities are considered. This article also discusses the issues of developing research skills among future engineers.

Key words: Engineer, method, methodology, scientific research, methodological aspects, formation, development, research skills.

Bugungi zamonaviy fanlarda metodologiya quyidagi ikki jahat bo'yicha qaraladi: u falsafiy bilimlarning gnesologiyasi bo'lishi bilan chambarchas bog'liq nazariy tashkil etuvchi, shuningdek, muammolar echish va olamni o'zgartirishga mo'ljallangan amaliy tashkil etuvchi. Bo'lajak muhandislarning metodik tadqiqotchilik tayyorgarligi haqida fikr yuritish, "Ilmiy-ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati metodikasi" tushunchasiga aniqlik kiritish va turli mezonlar bo'yicha tasniflanadigan, foydalaniladigan metodlarni ko'rib chiqishni talab etadi. A.M. Novikov, V.S. Stenin va boshqalarning ishlarida, metodlar tizimi sifatida faqat nazariy ilmiy bilim sohasi bilan cheklanishi mumkin emas, uning chegaralaridan chiqishi va o'z orbitasiga amaliyot sohasini ham albatta kiritishi lozim deb ta'kidlangan. Bunda bu ikki sohaning jips o'zaro hamkorligini nazarda tutish kerak [6, 9].

Hozirgi paytda OTM larda o'qitishning turli bosqichlarida tadqiqotchiliklarini olib borishga tayyorgarligiga katta e'tibor qaratilishiga qaramasdan, A.V. Leontovich va boshqalar ishlarida bo'lajak mutaxassislarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatida ishtirok etuvchi ko'pchilik o'qituvchilarda metodik madaniyat etishmasligi haqida fikr yuritilgan [5].

Tadqiqotchilik ta'lim masalalarni echishga tayyor pedagog bir qator xarakteristikalar va maxsus ko'nikmalar majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ulardan eng asosiyarlari

muammoni ko'ra olish, farazni shakllantirish, kuzatish, tajriba o'tkaza olish va boshqa ko'nikmalar hisoblanadi.

Bulardan tashqari u quyidagi bir qator maxsus pedagogik qobiliyat va ko'nikmalarga ham ega bo'lishi kerak:

- muammoni his qilish, "hayratlanish" ga qobiliyatlilik;
- real o'quv – tadqiqotchilik masalalarni topish, ta'lim oluvchi oldiga ularni tushunarli shaklda qo'ya olish;
- ta'lim oluvchilarni ahamiyatli muammoga qiziqitira olish;
- tadqiqotchilik-izlanishda koordinatorlik vazifasini bajarishga qobiliyatlilik;
- quyilgan muammoning echimini topishga urinishlarda ta'lim oluvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklarga bardoshli bo'lish;
- tadqiqotchilik jarayoniga munosabatni qo'llab-quvvatlash va har tomonlama rivojlantirish;
- ishni takomillashtirish bo'yicha takliflarni rag'batlantirish va yangi original tadqiqot yo'nalishlarini ilgari surishni koordinatsiyalash [4].

Turli olimlarning tadqiqot ishlari tahlili asosida biz talaba-tadqiqotchilarning ko'pligida o'z fanining metodologiyasi bo'yicha bilimlar etarli emasligini aniqladik. Shuning uchun ham bu muammoni bartaraf etish, barcha ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi talabalarning vazifalaridan asosiyasi va ularning kasbiy kompetentligini

o'shinish maqsadida bo'lajak transport sohasi xodimlarini tayyorlashda tizim tashkil etuvchi omil hisoblanadi.

Metodikaning pedagogika fani rivojida o'rini V.I.Juravlev tomonidan ham tadqiq qilingan bo'lib, ushbu tadqiqotda asosiy etibor uning amaliy vazifalariga qaratiladi. Muallif bu boradagi vazifalarni aniq faoliyat sohaslarining ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish boshqaruviga oid tavsiyalarda ko'radi. Muallifning fikricha, fan va amaliy metodologiyasining shakllanishi hamda rivojlanishida ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Ulardan biri - metodologiyaning ilmiy va amaliy faoliyatining turli sohaslariga yanada chuqurroq kirib borish, uning bilish hamda faoliyatni o'zgartiruvchi omil sifatida keng tan olinishi: ikkinchisi - yanada mukammal hamda samarador bilish va ishlab chiqarish faoliyatini taminlovchi metodologik amallarning o'sib borishi, rivojlanishi va kengayishi [3].

Metod haqida fikr yuritgan, Angliyalik filosof va matematik A.Uaytxed ahamiyati nazariya bilan aniqlanadigan har qanday metod ma'lumotlar va dalillar bilan, "harakat usuli"ni belgilab beradi deb hisoblagan [10]. Ilmiy metodning xarakterli belgilariga quyidagilar kiradi: ob'ektivlik, ifodalanganlik, evristiklik, zaruriylik, aniqlik va boshqalar.

Hozirgi vaqtda falsafa va fan metodologiyasida metodlar shuningdek qo'llanilish sohasi bo'yicha ham tasniflanadi: falsafiy metodlar; umum ilmiy metodlar; hususiy ilmiy metodlar; fanlararo tadqiqot metodlari. Falsafiy metodlar orasida eng mashhuri dialektik va metafizik metodlar. Har bir falsafiy kontseptsiya metodik funktsiyaga ega bo'lib, o'ziga hos fikriy faoliyat usuli hisoblanadi. Shuning uchun falsafiy metodlar qayd etilgan ikki metod bilan cheklanmaydi. Ular qatoriga shuningdek analitik (zamonaviy analitik falsafa uchun xos bo'lgan), intuitiv, fenomenologik va boshqalarni ham kiritish mumkin.

Falsafiy metodlar faqat tadqiqotning bosh strategiyasini belgilanishini, ammo maxsus metodlarni almashtirishini va bilim natijalarini bilvosita va bevosita aniqlamasligini aniq tasavvur qilish kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ilmiy bilishning metodi qanchalik umumiy bo'lsa, u shunchalik bilishning aniq qadamlari ko'rsatmasiga nisbatan noaniq, tadqiqot yakuniy natijalarini aniqlashda bir ma'noli bo'lmasligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Zamonaviy fanda keng taraqqiyot va qo'llanishga erishgan umumilmiy yondashuvlar va tadqiqot metodlarini ko'rib chiqib, quyidagi shunday xulosaga kelish mumkin: falsafa maxsus fanlarning fundamental nazariy metodologik holatlari orasida oraliq bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Ilmiy tushunchalarga ko'pincha "axborot", "model", "tuzilma", "funktsiya", "tizim", "element", "optimallik", "ehtimollik" va boshqa tushunchalar kiritiladi.

Umumilmiy tushunchalarning xarakterli belgilari: birinchidan, ularning mazmunidagi alohida hususiyat, bir qator xususiy fanlar va falsafiy kategoriyalar tushunchalarning integrativligi, ikkinchidan ularni formallashtirish, matematik nazariyani belgilar mantig'i vositalari bilan aniqlashtirish imkoniyati hisoblanadi.

Fanda eksperiment faqat empirik metod sifatida taqdim etiladigan ilmiy metodlarni empirik va nazariy darajaga ajratish modeli ma'lum. Umumilmiy tushuncha va kontseptsiyalar asosida bilishning tegishli metod va tamoyillari shakllantiriladi, ular falsafani maxsus - ilmiy bilim va uning metodlari bilan aloqa va optimal o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Umumiy tamoyillar va yondoshuvlarga tizimli va tuzilmali-funksional, kibernetik, ehtimoliy, modellashtirish, faollashtirish va boshqa bir qator tamoyil va yondoshuvlar tegishli bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotda paydo bo'ladigan ijodiy masalalarni echishning kashfiyotchilik masalalarini echish nazariyasiga (KMEN) va funksional-bahoviy tahlil (FBT) ga asoslangan

ratsional usullaridan foydalanishda, tadqiqotchilik vaziyatini tahlil qilishda ustunlik qiluvchi metodlardan biri, muammoni aniq tuzilmashtirish imkonini beruvchi tizimli tahlil qilish metodi hisoblanadi [1].

"Metodologiya" atamasi yunoncha "methodos" - yo'l, usul va "logos" - tushuncha, g'oya so'zlaridan kelib chiqqan. Metodologiya - bu alohida olingan metodlar yig'indisi, ularning "mexanik birligi" emas, balki tadqiqot o'tkazishni tashkil etish usulidir.

A.M.Novikov o'zining "Metodologiya" deb nomlangan kitobida "tashkil etish" tushunchasini alohida ajratgan va uning quyidagi uchta talqinini keltirgan [6]:

1. Ichki tartiblanganlik, tuzilishi bilan shartlangan butunning tabaqalashgan va avtonom qismlarining o'zaro ta'sirining ko'p yoki kam muvofiqlashtirilganligi;

2. Butunning qismlari orasidagi o'zaro aloqalarining tashkil etish va takomillashishiga olib keluvchi jarayonlar yoki harakatlar majmuasi;

3. Birgalikda qandaydir dastur yoki maqsadni amalga oshiruvchi va aniq bajariladigan ish tartibi va qoidalar asosida harakat qiluvchi kishilar uyushmasi.

Faoliyatni tashkil etish - bu faoliyatni yaxlit tizimga aniq xarakteristikalar, mantiqiy tuzilmalar va uni amalga oshirish jarayoni - vaqti tuzilmadan kelib chiqqan holda, tartibga keltirishga yo'naltirilgan jarayon.

Asos deb bilish, fikrlash, faoliyat uchun etarli bo'lgan shartlarga aytiladi. L.G. Shedrovitskiyga tayangan holda metodologiyani faoliyatni tashkil etish haqidagi ta'limot deb hisoblab uning quyidagi uchta asosini ajratib ko'rsatish mumkin [11]:

1. Faoliyatning falsafiy - psixologik nazariyasi.

2. Tizimli tahlil - murakkab tizimlarni tadqiq qilish yoki loyihalash muammolarini bartaraf etish uchun mo'ljallangan izlash, rejalash va o'zgarishlarni amalga oshirish metodlari tizimi haqidagi ta'limot.

3. Fanshunoslik, fan nazariyasi. Birinchi navbatda metodologiyaga fanshunoslikning gnosologiya (bilish nazariyasi) va semiotika (belgilar haqidagi fan) bo'limlarining munosabati mavjud.

Metodologiya keng ijtimoiy - tarixiy amaliyotda signalgan faoliyatni tashkil etishning ratsional shakllarini umumlashtiradi. Faoliyatni tashkil etish madaniyatining turli tiplari ma'lum. Loyihalash - texnologik tip zamonaviy tip bo'lib, unda insonning (yoki tashkilotning) mahsuldor faoliyati alohida loyihalar deb ataladigan tugallangan tsikllarga bo'linadi. Tadqiqotchilik faoliyati madaniyatini tashkil etishning mazkur tipi butunlay ijodiy texnik masalalarini echishda keng qo'llaniladigan kashfiyotchilik masalalarini echish algoritmi (KMEA)ga mos keladi.

Tanlangan faoliyat tipida uni amalga oshirish jarayoni loyiha doirasida ko'rib chiqiladi: ma'lum vaqt ketma-ketligida fazalar, bosqichlar va bosqich osti elementlari bo'yicha amalga oshiriladi, bunda ketma-ketlik barcha faoliyat turlari uchun umumiy bo'ladi.

Faoliyat sikli tugallanganligi quyidagi uchta faza bo'yicha aniqlanadi:


- natijasi yaratilayotgan tizim modelini qurish va uni amalga oshirish rejasini bo'lgan loyihalash fazasi;

- natijasi tizimni amalga oshirishdan iborat bo'lgan texnologik faza;

- natijasi amalga oshirilgan tizimni baholash va uni koorektsiyalash yoki yangi loyihani "ishga tushurishni" zaruriyatini aniqlashdan iborat bo'lgan refleksif faza [6].

V.A.Slastenin [8], E.G. Skibitskiy [7]larning ishlariga tayangan holda, kasbiy kompetentsiyalar deganda, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga uning nazariy va amaliy tayyorligi birligini tushunamiz. Talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlanganligini quyidagi tizim ko'rinishida

taqdim etish maqsadga muvoffiq va unda ilmiy – (1-rasm). tadqiqotchilik nuqtai nazaridan uchta jihatini ajratish mumkin



1-rasm. OTM talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash tizimi

Psixik holat sifatidagi tayyorlikdan tashqari, shaxsning turg'un xarakteristikasi sifatida tayyorlik mavjud va namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvda, "tayyorlik" ba'zan aniq faoliyat ko'rinishiga tayyorlanganlik deb ataluvchi tayyorgarlik natijasi sifatida tushuniladi.

Hozirgi vaqtda fanda ilmiy-tadqiqot metodlari nazariy va empirik turlarga ajratiladigan metodikaning an'anaviy ikki darajali tasnifidan foydalaniladi [2].

Mavjud dalillarni tahlil qilish bosqichlari, muammoning qo'yilishi, farazlarni ilgari surish, mantiqiy-1-jadval

Faoliyatning loyihalash – texnologik tipi va KMEAni taqqoslash

| Faoliyatning loyihalash – texnologik tipi tuzilishi | | | KMEA tuzilishi | |
|---|---------------------------|--------------------------|-------------------|---|
| Fazalar | Bosqichlar | Bosqich osti elementlari | Bosqich-lar | Bosqich osti elementlari |
| Loyihalash fazasi | Kontseptual bosqich | Ziddiyatlarni aniqlash | Anali-tik bosqich | Masalani tahlil qilish |
| | | Muammoni shakllantirish | | Masala modeli tahlili |
| | | Maqsadni aniqlash | | Ideal yakuniy natijani va fizik ziddiyatlarni aniqlash |
| | Mezonlarni tanlash | | | |
| | Modellashtirish bosqichi | Modellarni qurish | | |
| | Optimallashtirish | | | |
| | Echimlarni qabul qilish | | | |
| | Konstruksiyalash bosqichi | Dekompozitsiya | | |
| | | Agregirlash | | |
| | | Shartlarni tadqiq qilish | | |
| Texnologik tayyorgarlik bosqichi | Dasturni qurish | | | |
| Texnologik faza | | | Texno-logik faza | Moddiy foydali resurslarini safarbar qilish va qo'llash |
| | | | | Masalani o'zgartirish yoki almashtirish |
| | | | | Mavjud ziddiyatlarni hal qilish |
| Refleksiv faza | | | | Echimni baholash |
| | | | | Olingan javobni rivojlantirish |
| | | | | Echish ketma-ketligini tahlil qilish |

Bu darajaga javob beruvchi eksperimentni texnik tadqiqotning eng xarakterli, evristik va ahamiyatli metodlardan biri deb hisoblash mumkin. Aynan, o'z ichiga nazariyani olgan va undan bir qadam oldinda turgan bunday turdagi eksperiment ko'pgina texnologik tadqiqotlarda etakchi hisoblanadi. G'oyasi va joriy etilishi bo'yicha yagona bir butun bo'lgani ilmiy-tadqiqot, eksperimental yoki nazariy jihatdan faoliyat, sifatida tavsiflanadi, ya'ni barcha o'zaro bog'langan komponentlarni o'z ichiga olgan yaxlit tizim hisoblanadi. Tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatishning mazmunida bu komponentlar, hodisadan mohiyatga qarab bilimni rivojlantirishning mantig'ini amalga oshiruvchi bilish tsikliga birlashadi.

A.M.Novikov fikriga ko'ra, bilish faoliyatining metodlarini predmet materiallari bilan bog'liq bo'lmagan holda o'zlashtirib bo'lmaydi [6]. Boshqa tomondan, bilish metodlarini, usullarini o'rganilayotgan predmetli materialga qat'iy "bog'lab qo'yish" esa ularni "bilish" komponentini

nazariy va material-yo'nalgan harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirish, olingan natijalarni qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish eksperimental tadqiqot tarkibida uning ajralmas tashkil etuvchisi sifatida qarab chiqiladi.

Faoliyatning tashkil etishning loyiha – texnologik tipi va KMEA orasidagi moslikning tahlili 1-jadvalda keltirilgan. Uning asosida quyidagi xulosani chiqarishi mumkin: ifodalanihidagi bir qator farqlarga qaramay mantiqiy tuzulishi va komponentlarining mazmuni bo'yicha, ular amalda ustma-ust tushadi.

shakllantirish uchun aynan qaralayotgan mashg'ulotda talab etgandek bo'lib qoladi. Bunday vaqtda bilish metodikasining ko'pchiligi, sababli, ularni ketma-ketlikda, tizimlilikda va chuqur o'rganish, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish qiyin kechadi.

Eksperimental metodni o'rganish, etarlicha tarmoqlangan va murakkab tushunchalar apparatini o'zlashtirish, ko'pgina aqliy va amaliy harakatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda shakllantirish, o'lchash va sonli modellashtirishning natijalarini qayta ishlashning maxsus metodlarini o'rganishni talab etadi.

Tadqiqotchilik faoliyati turli tadqiqotchilik masalalarini hal qilishni nazarda tutadi. Majmuaviy tadqiqotchilik masalalarini hal qilishga qobiliyatlilikni tahlil qilish uchun esa, A.Demetriou tomonidan kiritilgan "sababiy-eksperimental tafakkur" (Causal-experimental thought) tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Bu - eksperiment o'tkazish orqali sababiy aloqalarni aniqlashga yo'naltirilgan

tafakkur [12]. A.Demetriou tasnifi bo'yicha, eksperimental tafakkur insonning bilish faoliyatining beshta asosiy maxsuslashtirilgan tuzilmaviy tizimlaridan biri hisoblanadi. Uning vazifasi esa o'zaro birga faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmalardagi sababiy bog'lanishlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotchilik faoliyati jarayonida KMEA va FBT usulidan foydalanishda kombinatorik va evristik qobiliyatlar qaralayotgan vaqt momentida vujudga kelgan tadqiqotchilik muammolarini eng yaxshi echimini maqsadli qidirishga almashtiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Альтшуллер Г.С., Верткин И.М. Как стать гением: Жизненная стратегия творческой личности. - Мн.: Беларусь, 1994. - 479 с.
2. Askarov I.B. Basic stages of process of preparation to researchactivity of preparation of future professional education teachers. Eastern Evropean Seintific Journal. Germany, 2016. №-5. – P. 93-100.
3. Журавлев В.И. Взаимосвязь педагогической науки и практики. - М.: “Педагогика”, 1990. - С. 32.
4. Левитес Д.Г. Авто дидактика. Теория и практика конструирования собственных технологий обучения-М.: РАО МПСИ, 2003 г. - 320 с.
5. Леонтович А.В. Учебно-исследовательская деятельность школьников как модель педагогической технологии. Народное образование, №10, 1999. - С.152-158
6. Новиков А.М. Методология учебной деятельности. - М.: Издательство “Эгвес”, 2005. - 176 с.
7. Скибицкий Э.Г., Скибицкая И.Ю. Формирование компонентности начинающего исследователя. Инновации в образовании. - 2007. №9. -С.80-90.
8. Слостенин В.А. Педагогика. - М.: Издательство “Школа Пресс”, 1998. -512 с.
9. Стенин В.С., Горохов В.Г., Розов М.А. Философия науки и техники. - М.: Контакт-Альфа, 1995. - 384 с.
10. Уайтхед А. Избранные работы по философии. - М.: Высшая школа, 1990. - С. 624.
11. Щедровицкий Л.Г. Очерки по философии образования. - М.: 1998. - 358 с.
12. Demetriou A., Efklides A., Papadaki M., Papantoniou G., Economou A. Structure and development of causal-experimental thought: From early adolescence to youth. Developmental Psychology. 1993. Vol. 29. N 3. P. 480- 497. 47-б.



Shaxnoza AXMEDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shahnozahmedova9494@gmail.com

O'zMU dotsenti, sot.f.f.d. (PhD) Jiyanmuratova G.Sh. taqrizi asosida

INFLUENCE OF MIGRATION PROCESSES ON THE FUNCTIONALITY OF THE INSTITUTION OF FAMILY

Annotation

This article analyzes the impact of the transnational migration process on society and the institution of family. Since most countries in the world are either sending or receiving countries, it is only natural that migration affects some aspects of life. This phenomenon seriously affects not only the migrant himself, but also the family members around him. This is especially evident in societies based on national values. If some scientists, based on their research, believe that emigration helps strengthen the family, others believe that the opposite is true. Today, this has become one of the serious problems for Uzbekistan, which is one of the leaders in the number of labor migrants in Central Asia.

Key words: Migration, the institution of the family, influence, society, integration, assimilation, family relations.

ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ НА ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ИНСТИТУТА СЕМЬИ

Аннотация

В данной статье анализируется влияние транснационального миграционного процесса на общество и институт семьи. Поскольку большинство стран мира являются либо отправляющей, либо принимающей страной, вполне естественно, что миграция влияет на некоторые аспекты жизни. Это явление серьезно затрагивает не только самого мигранта, но и окружающих его членов семьи. Особенно это проявляется в обществах, основанных на национальных ценностях. Если некоторые ученые, опираясь на свои исследования, считают, что эмиграция способствует укреплению семьи, то другие считают, что все наоборот. На сегодняшний день это стало одной из серьезных проблем и для Узбекистана, который является одним из лидеров по количеству трудовых мигрантов в Центральной Азии.

Ключевые слова: Миграция, институт семьи, влияние, общество, интеграция, ассимиляция, семейные отношения.

MIGRATSIYA JARAYONLARINING OILA INSTITUTI FUNKSIONALLASHUVIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi kunda transmilliy ko'rinishdagi migratsiya jarayonining jamiyatga va oila institutiga ta'siri tahlil etilgan. Dunyo mamlakatlarining aksariyat qismi jo'natuvchi yoki qabul qiluvchiga aylangan bir paytda migratsiyani xayotning qaysidir jabxalariga ta'sir o'tkazishi tabiiy xol. Bu fenomen nafaqat migrantning o'ziga balki, atrofidagi oila a'zolariga ham jiddiy ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarga asoslangan jamiyatlarda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ayrim jahon olimlari o'zlarining tadqiqotlariga asoslanib, muhojirlik oilalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi deb hisoblasa, ba'zilari esa buning aksi degan fikrda. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda mehnat migrantlari soni bo'yicha yetakchilardan bo'lgan O'zbekiston uchun ham bu jiddiy muammolardan biriga aylangan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, oila instituti, ta'sir, jamiyat, integratsiya, assimilyatsiya, oilaviy munosabatlar.

Kirish. Oila ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy institutdir. Jamiyatning bir bo'g'ini sifatida u doimiy o'rganish va tadqiq etilishga ehtiyoj sezadigan tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Globalizatsiya, avlodlar almashinuvi, qadriyatlar yemirilishi, begonalashuv va migratsiya jarayonlari kuzatilayotgan bir davrda uning dolzarbligi yanada ortadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab migrantlar soni keskin ortmoqda. BMTning iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UNDESA) hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining uch foizdan ortig'i muhojirlardir [1]. O'zbekiston ham shular qatorida bo'lib, tashqi mehnat migrantlari soni bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchilardan hisoblanadi. 2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra, mamlakat tashqarisidagi O'zbekiston mehnat muhojirlari soni 2,4 mln.ni tashkil etadi. Ulardan 76 %ini erkaklar va 24 %ini ayollar tashkil etadi. O'zbekistondan asosan yetarli malakaga ega bo'lganlar iqtisodiy ishchilar va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar iqtisodiy yetishmovchilik va zaif ijtimoiy vaziyatini yaxshilash maqsadida xorijga ishlash uchun chiqib ketadilar. Bugungi kunda muhojirlarning 51,6 %i qurilish, 12,3 %i qishloq xo'jaligi, 9,2 %i foizi sanoat, 8,5 %i savdo va boshqa sohalarida mehnat faoliyatini olib bormoqda [2].

Mustaqillikni dastlabki yillarida ommaviy migratsiya jarayoni unchalik e'tiborni tortmagan. Hozirgi kunga kelib, uning salbiy oqibatini oilalar o'rtasidagi ajrashishlar, ayollarga va bolalarga nisbatan maishiy zo'ravonlik, suisid holatlari ortishi, ota-onalaridan alohida ulg'ayayotgan bolalarning reproduktiv va ruhiy salomatligining izdan chiqishi kabi holatlarda ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, global miqyosdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat, pandemiya mehnat migrantlari va ularning oilalari uchun turli qo'shimcha muammolarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 sentabrda "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari" to'g'risida 4829-sonli Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy qilindi [3].

2022 yil 1 martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 149-sonli qarorga ko'ra, xorijda mehnat migrantlarini huquqiy himoya

qilish, ish joylaridagi muammolarini tizimli ravishda o'rganish, ularni hal qilish bo'yicha zarur amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rilmoqda. Shu bilan birga, ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalash, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, farzandlariga kasb-hunar sirlarini o'rgatish va tadbirkorlik loyihalari qo'llab-quvvatlash, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb etish keltirib o'tilgan [4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Migratsiya sohasidagi dastlabki chuqur nazariy tadqiqotlar E.G.Ravenshteynga tegishli bo'lib ilmiy doirasiga ilk bor "aholi migratsiyasi" tushunchasini olib kirgan. O'zining "migratsiya qonuni"da aholi migratsiyasiga tegishli bo'lgan 11 ta asosiy qonuniyatlarini keltirib o'tgan. Ravenshteynning ilmiy izlanishlari keyingi tadqiqotlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda [5].

Amerika empirik sotsiologiyasi, xususan, Chikago maktabining rivojlanishi migratsiya jarayonlarini o'rganishdagi ilmiy asarlardan biri – F. Znanetskiy va U. Tomaslar tomonidan yozilgan "Polshalik dexqon Yevropada va Amerikada" 5 jildlik asari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi [6]. Unda olimlar migrantlarning shaxsiy hujjatlari yordamida o'zlari va oila a'zolarida kechgan moslashuv jarayonlarini sifatli tadqiqot usullari yordamida tahlil etgan va ushbu keng miqyosdagi tadqiqot migratsiya jarayonlarini sotsiologik tadqiq etishdagi eng yirik manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Migratsiya va uning oilaga ta'sirini o'rganish holatlari XX asrning ikkinchi yarmida Shimoliy Amerika va Osiyo Tinch okeani mintaqasi hududida dastlabki tadqiqotlar olib borila boshlandi. Tadqiqotchilar o'rtasida muhojirlikning oilaga ta'siri turli rakurslardan o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin.

E. Kofmann o'z tadqiqotida migratsiyada oilaning roli va funksiyasini 3 jihatdan: nazariy, metodologik va empirik tadqiq etgan. Birgalikdagi migratsiyaning oilaga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

oila muhojirlarning jo'nab ketayotgan mamlakatiga adaptatsiya bo'lish jarayonini osonlashtiradi;

migratsiya oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlab boradi;

oila - jarayon davomida vujudga keladigan ruhiy bosimlarni yengishga yordam beradi.

Bundan tashqari tadqiqotchi qabul qiluvchi mamlakatga oilalarning moslashuvi va assimilyatsiyasi jarayonini o'zgaruvchi uchta tuzilmaga ajratgan:

er-xotin munosabatlari;

ota-ona va bola munosabatlari;

aka-uka va opa-singil munosabatlari [7].

Oiladan alohida bo'lgan migratsiya jarayoni esa har ikki taraf uchun salbiy oqibatlariga ega, u oilaning rivojlanishi va barqarorligining izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotchi L. Nazarxudoyeva salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni Tojikiston misolida tahlil qilgan [8]. Unga ko'ra:

sog'lom oilaning o'zgarishiga hissa qo'shishi, ota-ona va er-xotin munosabatlarining o'z o'rnida bo'lmasligi, natijada esa farzandlarda deviatziya, ayollarda esa ruhiy muammolar yuzaga keladi;

madaniy uzluksizlik va milliy qadriyatlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Migrantlar sonining ortib borishi jarayonning yangi xususiyatlarini va shakllarini vujudga keltirmoqda. Ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish, madaniyatlararo integratsiyalashuv, transmilliy

xususiyatlarning yuzaga kelishi, qadriyatlar to'qnashuvi, shaxsning oldida yangi psixologik muammolarning paydo bo'lishini e'tiborga olib ular bilan individual ishlash mexanizmini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi [9].

Erazm Notterdam universiteti doktori M.Xendriks e'lon qilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, migrantlarning baxtilik ko'rsatkichi ular qaysi hududga ko'chib o'tganligi bilan bevosita bog'liq. Markaziy Osiyoliklarning aksariyati, G'arbiy Yevropada Sharqiy Yevropa va MDH davlatlariga nisbatan o'zlarini baxtli his etishi aniqlangan [10].

Shu o'rinda, oila va yaqinlardan ajralish, til va madaniy baryerlar tufayli qabul qiluvchi mamlakatda ijtimoiy izolyatsiya va kamsitilishning ta'sirini ham unutmashlik zarur. Ular o'zlari va oilalari uchun munosib iqtisodiy hayot yaratish uchun og'ir badal to'lashga majbur bo'ladi.

Xalqaro Gellap institutining 2007 – 2011-yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Markaziy Osiyolik muhojirlarning oila a'zolari (tojikistonlik va qirg'izistonliklar misolida) o'z yaqinlarining migratsiyada bo'lishini hayot sifati va ruhiy farovonlik darajasiga ta'sir o'tkazmaydi, deb hisoblaydi (ehtimol pul o'tkazmalari tufayli) [11]. Bundan ko'rishimiz mumkinki, oilalar uchun migratsiya hayotning ajralmas qismiga aylangan. Yaqinlarining vaqtinchalik migratsiyada bo'lishi iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etishiga ishonishadi.

Migratsiyaning oilaga ta'siri migrantning oiladagi maqomiga, vaqt davomiyligi va holatiga (yolg'iz yoki birgalikda migratsiyada bo'lishiga) bog'liq. O'zbekiston sharoitida quyidagi turdagi keyslar uchraydi:

bir kishidan iborat – ayol yoki erkak;

er-xotin;

er-xotin bolalari bilan;

farzand va boshqalar.

Yuqorida keltirilganidek, agar jarayon davomida oila a'zolari hamroxlilik qilsa bu oilaning yanada mustahkamlanishi, o'zaro munosabatlar va qadriyatlarining saqlab qolinishiga olib kelishi mumkin. Lekin Markaziy Osiyo mintaqasida asosan erkaklar noqonuniy va qora ishlar uchun jalb etilyotganligi sababli bu nafaqat oila mustahkamligini balki, migrantning hayotini ham xavf ostiga qo'yadi. Iqtisodiy manfaat yuqoriligi va huquqiy savodxonlikni yetishmasligi tufayli ularning aksariyat qismi noqonuniy mehnat faoliyatini olib borishga rozi bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Oila institutiga mehnat migratsiyasining ta'siri jahon sotsiologiyasida turlicha nazariya, konsepsiya, yondashuv, pozitsiya va yo'nalishlar asosida tadqiq qilinmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ichki va tashqi migratsiyani tartibga solishga hukumat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilib, tegishli soha olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin aynan migratsiyaning ajrashishlar sonining ortishi, bolalar sog'lig'i va ta'limidagi oqsash, qariyalarning e'tibordan chetta qolish holatlari bilan aloqadorlik jihatlari borasida yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan va amaliyotga tadbir etilmaganini kuzatishimiz mumkin.

Xalqaro tajribadan foydalangan holda iqtisodiyot, huquqshunoslik, psixologiya va sotsiologiya sohalar vakillari tomonidan birgalikdagi izlanishlar olib borish va natijalar asosida migratsiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish masalasida mexanizmlar ishlab chiqish zarur. Xalqaro darajadagi jarayon bo'lganligi bois bunda nafaqat mahalliy olimlar, balki davlat va nodavlat tashkilotlar bilan xalqaro miqyosda hamkorlik qilish zarur.

ADABIYOTLAR

1. "Ishchi-migrantlar va ularning oila a'zolarining haq-huquqlarini muhofazalash to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiya. BMT Bosh Assambleyasi 1990 yil 18 dekabrda 45/158-sonli rezolyutsiyasi.
2. <https://strategy.uz/index.php?news=1813>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2020 yildagi PQ-4829-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.03.2022 yildagi PQ-149-son
5. Блинова М.С. Современные социологические теории миграции населения. МГУ. 2008. – С. 8.
6. Dumon W.A. Family and migration 1989 Jun;27(2):251-70. doi: 10.1111/j.1468-2435.1989.tb00255.x.
7. Kofman E. Journal of ethnic Migration and Studies. "Family-related migration: a critical review of European Studies" 2007. – P. 243.
8. Назархудоева Л. Миграционные процессы в таджикистане и стабильность семьи. ХГУ. 2020. – С. 25.
9. Шоумаров Ф.Б. Мигрант оилаларнинг этномаданий-психологик модели // Academic research in educational sciences. Volume 4. TMA Conference. 2023. Б. 608-612.
10. J. F. Helliwell, R.Layard and Jeffrey D. Sachs. World Happiness Report. 2018. P. 63.
11. Счастье в миграции: какова ситуация в Центральной Азии? САА NETWORK, 26 марта 2018 г.



Odina AHMADJONOVA,
Namangan davlat universiteti doktoranti
E-mail:ahmadjonovaodina2020@gmail.com

NamDU p.f.f.d.(PhD) D.Sarimsoqova taqrizi ostida

INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sohasida keng muhokamaga sabab bo'layotgan, butun jahon ta'lim dasturlarida muhim o'rin egallagan qobiliyatlarni shakllantirish uchun xizmat qiluvchi STEAM ta'lim texnologiyasi hamda ingliz tili darslarida ushbu texnologiyadan foydalanib o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: STEAM, TBL(task based learning), PBL(problem based learning), PBL(project based learning), CLIL, Jigsaw reading, Klaster texnologiyasi.

METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF READING COMPETENCE OF STUDENTS USING STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS

Annotation

This article provides information on STEAM education technology, which today causes a wide discussion in the field of Education, serves to form abilities that occupy an important place in the entire world's educational programs, as well as methods for improving the reading literacy of students using this technology in English lessons.

Key words: STEAM, TBL(task based learning), PBL (problem based learning),PBL(project based learning), CLIL, Jigsaw reading, Cluster technology.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В этой статье представлена информация о образовательной технологии Steam, которая сегодня вызывает широкое обсуждение в сфере образования, служащей для формирования навыков, которые занимают важное место во всех мировых образовательных программах, а также о методах повышения грамотности чтения учащихся с помощью этой технологии на уроках английского языка.

Ключевые слова: STEAM, TBL(обучение заданиям), PBL(обучение на основе задач),PBL(обучение на основе проектов), CLIL, Метод четырех восьмерок, Кластерная технология.

Kirish. Texnologiya hukmronlik qilayotgan bugungi kunda STEAM maktablariga bo'layotgan talab va yehtiyojlar kun sari ko'paymoqda.Shuningdek, butun dunyo bo'ylab biznes, ta'lim, diplomatiya, axborot kommunikatsiya sohalari bo'yicha xalqaro darajadagi kasb yegalarini tayyorlashda ingliz tilida ta'lim beruvchi institutlarga talab ko'paymoqda[1;565]. Keyingi ikki o'n yilliklar ichida STEAM fanarini ingliz tilida o'qitish ommalashib bormoqda.[2;178] Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar soning ortib borayotgani STEAM sohasidagi ishchi kuchining ham xilma-xil bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ingliz tili o'rganishda STEAM fanlarining o'rni qay darajada muhim yekanligi aniq bo'lsa-da, Ingliz tili va STEAM ni integrasion tarzda o'qitish borasida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Bu borada izlanishlar olib borish tadqiqotimizning bir qismi deb hisoblaymiz. Ingliz tili STEAM fanlariga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki ingliz tili atrofimizdagi borliqni tushunish va anglashga asoslangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ko'plab ingliz tilida so'zlashuvchi va ingliz tilida so'zlashmaydigan davlatlarda STEAM va ingliz tilini ikkinchi til (ESL)sifatida o'qitishga asoslangan ko'plab metodik yondashuvlar mavjud. Bugungi kunda ingliz tilini umumiy yoki ma'lum bir soha misol uchun biznes yoki akademik maqsadlarda o'qitishda Kommunikativ til o'qitish (Communicative language teaching CLT), Mazmunga asoslanib o'qitish (Content based learning-

CBL), Topshiriqqa asoslanib o'qitish (Task-based learning TBL yoki TBI Task-based instruction) hamda Mazmun va tilni integrasion tarzda o'qitish (Content and language integrated learning CLIL) singari metodlardan foydalaniladi.

PBL- Problem based learning-Muommoga tayangan holda o'rganish STEAM ta'lim texnologiyasini o'qitishda foydalanadigan yondashuvlardan biridir.PBL – dars markazida o'quvchi bo'lishini qo'llab quvvatlaydigan texnologiya bo'lib,ta'lim oluvchilar fanni biror muommoga bir nechta yechim topish orqali o'rganadilar. PBL faqatgina muommoga yechim topishga o'rgatmaydi, balki jamoada ishlash, muloqot qilish singari qobiliyatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ingliz tilini o'qitish va STEAM fanlarini o'qitishning qanday aloqasi borligi haqida o'rgangan tadqiqotchilardan biri I.Z. Hussain bo'lib, bu ikki sohada muvaffaqiyatga erishish o'zaro bog'liq tushuncha deb hisoblaydi va bunga ikki sabab keltiradi: 1.STEAM sohasida faoliyat olib borish kishilarda keng ko'lamdagi o'qish va yozish ishlarini talab qiladi; 2.STEAM sohasi vakillari uchun kommunikativ qobiliyatlar juda muhim. [3] STEAM ta'lim texnologiyasini o'qitishda faol qo'llaniladigan yondashuvlardan yana biri Inquiry-based learning- so'rovga asoslangan o'rganish metodidir. Mazkur metod faol o'rganish metodi bo'lib, savollar so'rash, muommolarga yechim topish va vaziyatlar bilan o'qitish shaklidir hamda muommoga yechim topish, fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bu

metodning paydo bo'lishi o'tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi.[4] So'rovga asoslangan ta'lim turning bir necha turlari bor. Tadqiqotchilar Hether Benchi va Randy Bell [5] ushbu ta'lim yondashuvini 4 turga bo'ladi:

1. Confirmation inquiry. Tasdiq so'rov. O'qituvchi bir ilmiy mavzuni tushuntiradi. Bundan so'ng, o'quvchilar javoblari bilan tanish bo'lgan bir necha savol tuzib, uni mashg'ulot orqali taqdim etadi.

2. Structured Inquiry. Tizimli so'rov. Uslubning bu bosqichida o'qituvchi oldin savollar beradi hamda jarayonlarni tushuntirib beradi. Talabalar o'zlari ma'lumot to'plashadi va shu ma'lumotlarni o'rganish va analiz qilish orqali o'z topilma ta'riflarini ishlab chiqishadi.

3. Guided inquiry. Nazoratli so'rov. O'qituvchi savollarni o'zini beradi va hech qanday sharh bermaydi. Talabalar javoblarni topadi va fikr almashadi.

4. Open/True inquiry. Ochiq/To'g'ri so'rov. So'rovga asoslangan ta'limning bu bosqichida, savollarni ham talabalar o'zlari tuzishadi, jarayon qanday borishini ham o'zlari hal qilishadi va so'nggida topgan yechimlarini bir birlari bilan baham ko'rib, fikr almashadilar.

Ingliz tili darslarida STEAM ta'lim texnologiyasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishda, asosan Task-based language teaching [TBLT]- tilni ma'lum bir topshiriqqa asoslanib o'qitish uslubidan foydalaniladi. TBLT so'zi o'rniga odatda TBI (task based instruction) qisqartma so'zi ham ishlatiladi. TBLT Communicative language teaching (CLT) kommunikativ yondashuvning bir yo'nalishi sifatida shakllangan. Dars davomida TBL metodidan foydalanish 3 bosqichda o'tadi:


Pre-task- topshiqqacha bo'lgan qismda o'qituvchi o'quvchilarga qanday topshiriq berilishi haqida ma'lumot beradi. Agar, o'quvchilarni ingliz tilini bilish darajasi pastroq bo'lsa, topshiriqda ishlatilishi mumkin bo'lgan so'z va

grammatik shakllar mustahkamlanadi. Aynan shu jihati bilan TBL- PPP (present, practice, production-namoyish yetish, mashq qilish, yaratish) metodiga o'xshaydi.

Task cycle- topshiriq beriladigan qismda yesa, o'quvchilar topshiriqni asosan kichik guruhlarda bajarishadi. Agar o'qituvchi topshiriq davomida asosiy rolni o'ynamasa, uning vazifasi faqatgina nazoreat qilish va maslahat berish bo'ladi. Bu yesa darsda talabani faolligini oshirishga yordam beradi.[6]

Review-ko'rib chiqish qismida, talabalar o'zlari bajargan topshiriqqa, misol uchun montaj, taqdimot, videolarini sheriklari bilan almashib, bir-birlariga baho beradilar. Agar berilgan topshiriq uzoq vaqt oladigan bo'lsa, masalan biror bir qurilish modelini yasash singari, unda TBL PBL-Project based learning metodiga o'xshab qoladi. Ingliz tili darslarida STEAM texnologiyasi asosida ta'lim berish uchun mos metodlardan yana biri bu CLIL – Content and language integrated learning- fan va tilni uyg'unlashtirib o'qitishdir. Bu yondashuvni yaratishdan maqsad ta'lim tizimini rivojlantirish, chet tili va fanni uyg'unlashtirib o'qitish uchu zarur sharoitlarni yaratish, o'quvchilarning ona tili va chet tili bilish darajalarini oshirish, madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish deb qaraladi.

Matnoldi mashqlariga "Brainstorming" – "Aqliy hujum" mashg'uloti misol bo'la oladi. O'qituvchi tomonidan matn mavzusiga aloqador savollar beriladi hamda o'quvchilarning fikrlari o'rganiladi. Bu mashqda o'rganuvchilarning fikri "Cluster" texnologiyasi yordamida doskada jamlab yozib borilishi maqsadga muvofiq. Agar matn "Childhood" bolalik mavzusida bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilardan "What do you remember about your childhood?" "Bolalik deganda nima hayolingizga keladi?" qabilidagi savollar javobini quyidagi rasm tarzida qayd etib borishi mumkin.



Rasm: Cluster (klaster) metodi.


Shuningdek, matnoldi mashqlar turkumiga True/False: ta'lim beruvchi tomonidan matnga aloqador mavzuda, umumiy bilimga asoslangan 5ta rost hamda 5ta yolg'on gaplar tuzib tayyorlanadi, berilgan ma'lumotning rost yoki yolg'onligi o'quvchilar tomonidan aniqlanadi; Read and Move: sinf xonasi ikkiga ajratiladi: "rost taraf" va "yolg'on taraf", o'qituvchi tomonida oldindan tayyorlangan gaplar o'qib eshittiriladi, agar gap rost bo'lsa o'quvchilar rost tomonga o'tib olishadi yoki aksi; Definition Pairs: matnda uchraydigan asosiy 10 ta so'z tanlab olinadi va har bir so'z uchun ikkita dan ta'rif yoziladi: biri so'zning haqiqiy ma'nosini bersa, ikkinchisi bu so'zga tegishli bo'lmagan

ma'noni beradi, o'quvchilar to'g'ri javobni topishadi; Story on the Wall: bu turdagi mashg'ulotda o'qituvchi matn ichidagi yakka holda ma'no anglatuvchi gaplarni ajratib oladi hamda ularni xona devorlariga yopishtiradi, o'quvchilar xona bo'ylab harakatlanib, har bir gapga o'z fikrlarini bildirishadi; Synonym/Antonym Match: matnda qatnashgan bir necha soz'lar tanlab olinadi va ularning ma'modoshi yoki zidma'nolik juflari bir ustunda so'zlar esa boshqa bir ustunga joylanadi;

We have a Situation: matnda berilgan qahramonlarda 2-3 tasi tanlab olinadi va o'quvchilarga ushbu qahramonlar roli beriladi, kichik guruhlariga ajratilgan qahramonlarga ijro

etish uchun turli vaziyatlar beriladi; KWL chart: bu mashg'ulotda o'quvchilarga BBB –ya'ni Bilaman (Know), Bilishni xohlayman (Want to know) va Bilib oldim (Learned)

deb nomlangan uchta ustundan iborat jadval to'ldirishlari so'raladi.



2-rasm:BBB jadvali.(KWL chart)

Matn bilan ishlashning keying While-reading- Matnni o'qish bosqichida berilgan tekst bilan ishlanadi. O'qishning bu bosqichidagi asosiy maqsad matnda berilgan ma'lumotni o'zlashtirish ,o'qib tushunishdan iborat bo'ladi. Matn bilan ishlash bosqichida: Topic sentence(Asosiy mazmun beruvchi gap): matn ichidagi har bir paragraf asosiy mazmunga ega bitta gapdan tashkil topadi, o'quvchilar ana shu gapni topish uchun matn paragraflarini yaxshilab o'qib , dalil bilan


sharhlab berishlari zarur bo'ladi; Jigsaw Reading(Matnni qismlarga bo'lib o'qish): sinfdagi o'quvchilar 5-6 kishidan iborat guruhlariga ajratiladi hamda bir nechta paragrafdan tashkil topgan matn qismlari har bir o'quvchiga bittadan paragraph shaklida bo'lib beriladi, har bir o'quvchi o'zi mas'ul bo'lgan matn qismini o'qigandan so'ng, guruh bilan birgalikda tahlil qilishadi:



2-jadval : Aralash matn qismlarini tartiblab o'qish (Jigsaw reading)ning afzalliklari.

Matn o'qilgandan keyingi bosqichda o'quvchilarning matnni o'qib tushunganligini tekshirish va tushunish jarayonini osonlashtirish maqsadida Bloom's taxonomy(Blum turkumi) jadvalidan foydalanish mumkin. Bloom's taxonomy (Blum turkumi) Benjamin Bloom boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan kognitiv tushunish bosqichlari

turkumidir. Ushbu turkum olti darajadan iborat bo'lib, LOT(Lower Order Thinking) va HOT (Higher Order Thinking) kognitiv fikrlashning yuqori darajasi talab etiladigan ikki katta turkumga, o'z navbatida, bu turkumlar yana uchta turkumga bo'linadi.



3-rasm. Blum turkum (Bloom's taxonomy)

Ushbu rasmdagi quyida joylashgan uch bosqich Remember(eslab qolish) berilgan ma'lumotlarni yodda saqlash, Understand (Tushunish) eslab qolingan ma'lumotlarni tushunish, turlarga ajratish, muhokama qilish va boshqalarga tushuntirib bera olish hamda Apply (Qo'llash) eslab qolib, tushungan ma'lumotni yangi vaziyatda qo'llay olish deya nomlanadi. Fikrlashning yuqori darajasini talab qiladigan (HOT) turkumi Analyse (Tahlil qilish) darajasi olingan ma'lumotni taqqoslash, tahlil qilish, tekshirishdan iborat bo'ladi. Evaluation (Baholash) mantiqan tahlil qilish, tanqidiy yondashib o'z xulosalarini bildirish, berilgan ma'lumotga aloqador bahs-munozaralarda qatnashish nazarda tutadi. Keyingi daraja Create (Yaratish) ya'ni olingan ma'lumotlar asosida o'zining yangi loyihasini yaratish nazarda tutiladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan ma'lumki, STEAM ta'lim texnologiyasi bugungi zamonaviy ta'lim muhitida ta'limning barcha jabhalarida ildamligni qo'ldan bermay kelmoqda. Yurtimizda ham ushbu ta'lim texnologiyasini maktabgacha va maktab ta'limi bo'g'inlariga joriy etish borasida keng ko'lamda ishlar bajarilmoqda. Bizning fikrimizcha, STEAM texnologiyasi ingliz tili darslari bilan bog'liqlikda, ya'ni ingliz tili darslarida mazkur texnologiya metodlari orqali o'quvchilarning muommoni hal etish, yaratuvchanlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash singari qobiliyatlarini shakllantirish va bu orqali ularda STEAM fanlariga va kasblariga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. A.M.B. Altan, "English Language Provision in Australia within the Global Context of ELT," American Journal of Educational Research, vol. 4, no. 7, pp. 563-569, 2016
2. N.Sultana, H.Kahwaji, M.Kurup. The Influence of Teaching English in STEM Education for ESL Learners amidst a Changing World after COVID19. International Journal of Learning and Teaching : January 2021.
3. I.Z.Hussain. The surprising correlation between English skills and success in STEM. Journal of English Language Arts. 06.08.2020.
4. Schwab, J. (Summer 1960). "Inquiry, the Science Teacher, and the Educator". The School Review. The University of Chicago Press. 68 (2): 176-195.
5. Bell, R., Banchi, H. (2008). The Many Levels of Inquiry. Science & Children, 46(2), 26-29
6. Niemeier, Susanne (2017). Task-based grammar teaching of english: Where cognitive grammar and task-based language teaching meet.



Saidabzalxon A'ZAMXONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti (PhD)
E-mail: saidabzalxon.azamxonov.94@bk.ru

Sots. dots.v.b. F.M.Axmedova (PhD) taqrizi asosida

ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation

In this article, the author points out that students' independent education in the higher education system, at the same time, independent work, its planning, organizational forms and methods, the system of monitoring results is one of the weakest points in the practice of higher education, and pedagogical theory, especially modern scientifically analyzed that it is one of the less studied problems in relation to curriculum education.

Key words: Diversification, motivational, procedural, individualization, actuality, passivity, fundamental, innovation, interactive method, intellectual, management, training, immersion method, SIW, differentiation

ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье автор указывает, что самостоятельное обучение студентов в системе высшего образования, вместе с тем, самостоятельная работа, ее планирование, организационные формы и методы, система контроля результатов являются одним из самых слабых мест в практике высшего образования и педагогическая теория, особенно современная или научно проанализированная, представляют собой одну из наименее изученных проблем в отношении учебного плана.

Ключевые слова: Диверсификация, мотивационный, процессуальный, индивидуализация, актуальность, пассивность, фундаментальный, инновационный, интерактивный метод, интеллектуальный, управленческий, обучение, метод погружения, СИР, дифференциация.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARNI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim olishlari, Shu bilan birga, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakl va usullari, natijalarni kuzatish tizimi oliy ta'lim amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va pedagogik nazariyaning, ayniqsa, zamonaviy o'quv-uslubiy ta'limga nisbatan kam o'rganilgan muammolaridan biri ekanligini ilmiy tahlil etgan.

Kalit so'zlar: Diversifikatsiya, motivatsion, protsessual, individuallashtirish, aktuallik, passivlik, fundamental, innovatsiya, interfaol metod, intellektual, menejment, trening, immersion usuli, SIW, differensiya

Kirish. Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va innovatsiyalarga qodir bo'lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Bu muammoni faqat o'qituvchidan talabaga tayyor shaklda o'tkazish orqali hal qilish qiyin. O'quvchini passiv bilim iste'molchisidan muammoni shakllantirish, uni yechish yo'llarini tahlil qilish, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol bilim yaratuvchiga o'tkazish zarur.

Hozirgi oliy ta'lim islohoti o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan uzviy bog'liqdir. Shu munosabat bilan shuni e'tirof etish kerakki, talaba mustaqil ishi (SIW) nafaqat o'quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak.

Bu bilimlarni o'zlashtirishning faol usullariga yo'naltirishni, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda innovatsion ta'limdan individuallashtirilgan ta'limga o'tishni nazarda tutadi. Bu faqat mustaqil ish uchun soatlar sonini oshirish haqida emas. Talabalarning mustaqil ishi rolini kuchaytirish universitetdagi o'quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishni anglatadi, u bilim olish qobiliyatini rivojlantiradigan, talabaning o'zini o'zi rivojlantirish, ijodiy qo'llash qobiliyatini shakllantiradigan tarzda

qurilishi kerak. olingan bilimlar, zamonaviy dunyoda kasbiy faoliyatga moslashish usullari. Shu bilan birga, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakl va usullari, natijalarni kuzatish tizimi oliy ta'lim amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va pedagogik nazariyaning, ayniqsa, zamonaviy o'quv-uslubiy ta'limga nisbatan kam o'rganilgan muammolaridan biridir. vaziyat (oliy ta'limni diversifikatsiya qilish, ta'lim standartlarini joriy etish, pedagogik monitoring tizimini joriy etish va boshqalar).

Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotlarda L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, B.P.Esipov, V.A.Kozakov, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, N.A.Polovnikova, P.I.Pidkasisty va boshqalar[1]. umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy va faoliyati, bu faoliyatning uslubiy, mantiqiy va boshqa jihatlari ko'rib chiqiladi, o'rganilayotgan muammoning ko'p jihatlari, ayniqsa, an'anaviy didaktik rejada ochib beriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil sinf va sinfdan tashqari bilish faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi - o'quvchilarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim.

Avvalo, talabalarning mustaqil ishi nima ekanligini aniq belgilash kerak.

Umuman olganda, bu kelajakdagi mutaxassisning tafakkurini tarbiyalash bilan bog'liq har qanday faoliyat. Talabani mustaqil fikrlash, kognitiv faolligi yuzaga kelishi uchun sharoit yaratadigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ish bilan bog'liq. Keng ma'noda mustaqil ish talabalarning sinfda ham, undan tashqarida ham, o'qituvchi bilan aloqada bo'lgan va u yo'qligidagi barcha mustaqil faoliyatining yig'indisi sifatida tushunilishi kerak. Talabalar mustaqil ishlarini quydagicha amalga oshirishlari mumkin:

- To'g'ridan-to'g'ri auditoriya mashg'ulotlari jarayonida - ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida, laboratoriya ishlarini bajarishda;

- O'qituvchi bilan jadvaldan tashqari aloqada - ta'lim masalalari bo'yicha maslahatlashuvlarda, ijodiy aloqalar jarayonida, qarzlarni bartaraf etishda, individual topshiriqlarni bajarishda va hokazo;

- Kutubxonada, uyda, yotoqxonada, kafedrada talaba o'quv-ijodiy topshiriqlarni bajarayotganda; Ushbu turdagi ishlarining chegaralari ancha xiralashgan va mustaqil ish turlarining o'zi kesishadi. Shunday qilib, talabalarning mustaqil ishi sinfda ham, undan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, talabalarning mustaqil ishi masalalarini ko'rib chiqishda ular asosan sinfdan tashqari ishlarni anglatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, sinfda ishlash jarayonida bilimlarni faol egallash uchun, hech bo'lmaganda, o'quv materialini tushunish va eng maqbul tarzda uni ijodiy idrok etish kerak[2]. Haqiqatda, ayniqsa, kichik kurslarda o'rganilayotgan materialni tushunish elementlari bilan yodlash tendentsiyasi kuchli. Kafedralar va o'qituvchilar ko'pincha o'z fanlarini taqdim etishda mantiqiy tamoyilning rolini oshirib yuborishadi va uni talabalar tomonidan idrok etish muammosiga e'tibor bermaydilar. Ichki va fanlararo aloqalar sust yoritilgan, uzluksiz o'quv dasturlari mavjudligiga qaramay fanlar ketma-ketligi juda past. Aloqalar bilan ta'minlanmagan o'quvchilarning bilimlari yomon saqlanmoqda. Bu, ayniqsa, fundamental tayyorgarlikni ta'minlaydigan fanlar uchun xavflidir.

Ta'lim standartlari talabani o'qish vaqtining yarmini darsdan tashqari ishlarga ajratsa-da, ko'p hollarda bu me'yor saqlanib qolmaydi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar soni va hajmi va fan bo'yicha nazorat tadbirlari ko'p hollarda o'qituvchi yoki kafedra tomonidan "qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi" tamoyili asosida belgilanadi. Hatto mutaxassis har doim ham bajarilmaydi, ya'ni o'qituvchilarning shaxsiy tajribasi, topshiriqning murakkabligi va uni tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqtni baholash bilan oqlanadi. Turli fanlar bo'yicha uy vazifalarini topshirish muddatlari har doim ham o'z vaqtida muvofiqlashtirilmaydi, bu esa vaqt bo'yicha mustaqil ishlarning notekis taqsimlanishiga olib keladi[3]. Bu omillarning barchasi talabalarni ishni bajarishga, aldashga va paradoksal ravishda talabani ushbu ishga sarflaydigan vaqtini qisqartirishga rasmiy munosabatda bo'lishga undaydi. Uy vazifalarini, kurs loyihalarini va ishlarni (ba'zan pullik) o'z-o'zidan bajarmaslik, shuningdek, nazorat tadbirlarida aldash va aldash varaqlari juda keng tarqalgan. Ko'pgina o'quv vazifalari talabalarning faol ishlashi uchun belgilanmagan, ularni amalga oshirish ko'pincha bir qator rasmiy harakatlar darajasida, ijodiy yondashuvsiz va hatto bajarilgan operatsiyalarni tushunmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Talabalar mustaqil ishining maqsadi – turli manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishi. Mustaqil ishlarga darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, psixologiya klassiklarining ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar to'plamlari va ilmiy ma'ruzalarni, ixtisoslashtirilgan psixologik jurnallardagi ilmiy maqolalar, davriy nashrlardagi psixologiyaga oid materiallar, badiiy adabiyotlar bilan ishlash kiradi. So'nggi paytlarda

mustaqil ishlarda elektron shakldagi manbalar (Internet tizimi, kompyuter dasturlari va elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar) bilan ishlash katta o'rin egalladi. Talabalarning mustaqil ishlariga insholar, izohlar, tezislar yozish kiradi.

Universitetda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishidagi asosiy narsa uning alohida turlarini optimallashtirish emas, balki barcha turdagi darslarda darsda va undan tashqarida talabalarning yuqori faolligi, mustaqilligi va mas'uliyati uchun sharoit yaratishdir. ta'lim faoliyati.

Eng oddiy usul – mustaqil ish foydasiga auditoriya mashg'ulotlari sonini qisqartirish – ta'lim sifatini yaxshilash yoki hatto bir xil darajada ushlab turish muammosini hal qilmaydi, chunki sinfdagi ish hajmining kamayishi har doim ham o'z-o'zidan o'tish bilan birga bo'lmaydi. passiv tarzda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan mustaqil ishning haqiqiy o'sishi.

Oliy kasbiy ta'lim standartlarida talabani vaqt byudjetining kamida yarmi darsdan tashqari ishlarga ajratiladi - butun o'qish davri uchun haftasiga o'rtacha 27 soat. Bu vaqt mustaqil ish uchun to'liq ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, auditoriya vaqtining ko'p qismi mustaqil ishlarni ham o'z ichiga oladi[4]. Shunday qilib, o'quv jarayonida mustaqil ishlash uchun etarli vaqt bor, bu vaqtdan qanday samarali foydalanish masalasi. Umuman olganda, o'quv jarayonini talabalarning mustaqil ishi asosida qurishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud. Birinchisi, darsda mustaqil ishlarning rolini oshirish. Bu yo'lni amalga oshirish o'qituvchilardan o'quvchilarga mustaqilligini yuqori darajada ta'minlash va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish mumkin bo'lgan sinf faoliyatini tashkil etishning uslub va shakllarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mustaqil masalalarni yechish natijalariga ko'ra har bir dars uchun baho berilishi kerak. Talabani amaliy darsga dastlabki tayyorgarligini baholash ekspresstest (yopiq shakldagi test topshiriqlari) orqali 5, maksimal - 10 daqiqa davomida amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, intensiv ish bilan har bir o'quvchiga har bir darsda kamida ikkita ball qo'yish mumkin.

Ta'limning reyting tizimi o'quvchilarni ko'p balli baholashni o'z ichiga oladi, ammo bu besh ballik shkaladan oddiy o'tish emas, balki o'quvchilarning individual qobiliyatlarini baholash doirasi kengayishini ob'ektiv ravishda aks ettirish imkoniyatidir [5]. U yoki bu turdagi mustaqil ishlarni bajarishga sarflangan harakatlar. Differensiyalangan individual vazifalar blokini yaratish uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud, ularning har biri o'z "narxi" ga ega. Reytingli ta'limning to'g'ri tashkil etilgan texnologiyasi boshidanoq besh ballik baholash tizimidan voz kechish va unga faqat umumlashtirganda, ya'ni o'quvchilarga to'plagan ballar odatdagi baholarga (a'lo, yaxshi, qoniqarli) aylantirilganda kelish imkonini beradi. , qoniqarsiz). Bundan tashqari, reyting tizimi o'ziga xoslik, mustaqil ish yoki ilmiy muammolarni hal qilish uchun topshiriqlarni bajarish yondashuvlarining yangiligi uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi ballarni o'z ichiga oladi.

Talaba darsdan tashqari mashg'ulotlarda (olimpiada, konferensiyalarda qatnashish; individual ijodiy topshiriqlar, referatlar bajarish; ilmiy to'garak ishida qatnashish va h.k.) ishtirok etish orqali ta'lim reytingini oshirish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, ishni vaqtda topshirishga shoshilmayotgan talabalar ham salbiy ball olishlari mumkin. Shu bilan birga, alohida talabalar tomonidan dasturning tezroq o'tishi rag'batlantiriladi. Misol uchun, agar talaba guruh oldidan test topshirishga yoki mustaqil ish yozishga tayyor bo'lsa, unga qo'shimcha ball qo'shishingiz mumkin.

Aksariyat talabalar tayyorgarlik natijalarini kuza-tishning bunday tizimiga ijobiy munosabatda bo'lib, ta'limning reyting tizimi semestr davomida ularning kuchlarini teng

taqsimlashga hissa qo'shishini, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishni yaxshilashini va tizimli ishlashni ta'minlaydi. amaliy ish" mashg'uloti davomida. Mustaqil ta'lim uchun taklif qilinadigan ko'plab turli xil topshiriqlar va ularni baholashning turli shkalalari talabaga ularning muvaffaqiyatini kuzatish imkonini beradi va agar xohlasa, ular doimo kutmasdan o'z reytingini (qo'shimcha mustaqil ish turlarini bajarish orqali) yaxshilash imkoniyatiga ega imtihon uchun. Mamlakatimizning ayrim oliy o'quv yurtlarida reyting tizimini joriy etish tajribasi natijalarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, o'quv jarayonini ta'limning reyting tizimi doirasida mustaqil ishlarning har xil turlaridan foydalanish holda tashkil etish yanada yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi. an'anaviy universitet ta'lim tizimiga nisbatan talabalarni o'rganishda.

Reyting tizimidan foydalanish talabani semestr davomida yanada ritmik ishlashga erishish imkonini beradi, shuningdek, talabalarining ijodiy faolligini rag'batlantirish orqali bilim faolligini faollashtiradi [6]. Darxaqiqat, reytingni joriy etish fanlar mazmunini tuzish, turli darajadagi murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqish va hokozalar bo'yicha qo'shimcha ishlar tufayli o'qituvchilarning ish yukini oshirishga olib kelishi mumkin.

Ammo bunday ish o'qituvchiga o'zining pedagogik imkoniyatlarini ochib berishga va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha o'z g'oyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, ob'ektivligi bilan ajralib turadigan, o'qituvchining vaqtini tejaydigan, uni odatdagi ishlardan ko'proq ozod qiladigan va o'qitishning ijodiy qismiga ko'proq e'tiborni qaratishga imkon beradigan talabalar bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish juda foydali bo'lishi mumkin [7]. Ta'kidlash joizki, fanlarni bilim va ko'nikmalar darajasi bo'yicha yuqori darajada farqlash va reyting tizimini joriy etishda juda samarali bo'lib, amaliy mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun individual topshiriqlarni tanlash orqali o'quv jarayonini sezilarli darajada

individuallashtirishga imkon beradi, har bir talabani bilim olish tezligi va samaradorligi.

Ta'lim tizimida yoshlarni har tomonlama sifatli bilimga ega bo'lishlarini ta'minlash aslida jamiyat rivoji uchun kata qadam bo'lib xizmat qiladi [8]. Ta'bir joizki, sifatli ta'lim nafaqat yoshlarning, balki jamiyatning rivojlanish bosh omillaridan biri hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'qitish va o'qitishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari o'quv jarayoniga tobora ko'proq kirib bormoqda, bu talabaga ma'lum bir fanni mustaqil o'rganish imkonini beradi va shu bilan birga materialni o'zlashtirish darajasini nazorat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, o'quv kursi, talabalarining tayyorgarlik darajasi va boshqa omillarni hisobga olgan holda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos usullari va shakllari o'qituvchining ijodiy faoliyati jarayonida belgilanadi, shuning uchun ushbu tavsiyalar universal deb da'vo qilmang. Ularning maqsadi o'qituvchiga mustaqil ishini tashkil qilish uchun o'z ijodiy tizimini shakllantirishga yordam berishdir.

Zamonaviy jamiyatda zamonaviy o'qituvchining vazifalari keskin o'zgarib bormoqda. O'qituvchi passiv ob'ektlar emas, balki ta'lim jarayonining sub'ektlari bo'lgan talabalarining kognitiv, o'zgartiruvchi faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi. Har qanday yangi mutaxassis o'z profilida fundamental bilim, kasbiy ko'nikma va ko'nikmalarga, yangi muammolarni hal qilish uchun ijodiy va tadqiqot faoliyati tajribasiga, ijtimoiy va baholash faoliyati tajribasiga ega bo'lishi kerak, chunki oliy ma'lumot insonning kasbiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Binobarin, shaxsning muvaffaqiyati va umuman, butun jamiyatning ijobiy rivojlanishi taklif etilayotgan oliy ta'lim sifatiga bevosita bog'liq. Ta'lim muvaffaqiyatining ko'rsatkichlaridan biri o'qituvchilarning mustaqilligi bo'lib, bu o'qituvchining ta'lim qiyinchiliklarini bartaraf etish jarayonida mustaqil fikr yuritishi va harakat qilishi uchun zarurdir. Shuning uchun talabalarining mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish muvaffaqiyatli kelajak insonning asosiy omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Rivojlanish va pedagogik psixologiya: matnlar / kompozitsiya va sharhlar. Shuare Marta O.M.:Moskva nashriyoti. un-ta, 2010. 262 b.
2. Rivojlanish va pedagogik psixologiya: darslik. nafaqa. M.V.Gamezo. M.: Ma'rifat, 2010. 144 b.
3. Rivojlanish va pedagogik psixologiya: darslik. nafaqa / M.V. Matyuxina, T.S. Mixalchik, N.F.Prokina va boshqalar; ostida qizil. M.V. Gamezo. M.: Ta'lim, 2013. 222 b.
4. Komarova T.S. O'qitish metodikasi. - Moskva: Ma'rifat, 2014. 160 b.
5. Kulagina I.Yu. Yosh psixologiyasi. M., 2012. 192 b.
6. Lixachev B.T. Pedagogika. Ma'ruza kursi: Pedagogika ta'lim muassasalari talabalari va IPK va FPC tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma. M.: Prometey, Yurayt, 2013. 206 b.
7. Shapovalenko I.V. Yosh psixologiyasi. M.: Gardariki, 2012. 9 b.
8. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – C. 521-523.
9. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan- Eastern European Scientific Journal, 2018



UDK: 370.12

Iroda BERDIYEVA,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tayanch doktoranti

E-mail: irodaberdiyeva701@gmail.com

O'zDSMI rektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b. E.Shermanov taqrizi asosida

YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBİYALASHDA MEDIATA'LIMNING O'RNİ

Аннотация

Maqolada yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda mediata'limning ahamiyati haqida batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, qadriyatning mohiyatiga ham to'qalib o'tilgan. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda mediata'limning e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlari urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat tushunchasi, mediata'lim, tarbiya, an'analari, yoshlar tarbiyasi, axborot makoni.

РОЛЬ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ С УВАЖЕНИЕМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В статье подробно анализируется значение медиаобразования в воспитании молодого поколения в духе уважения к национальным ценностям. При этом была затронута и сущность стоимости. В частности, было уделено внимание аспектам медиаобразования, на которые необходимо обратить внимание в воспитании молодежи Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Концепция ценности, медиаобразование, образование, традиции, образование молодежи, информационное пространство.

THE ROLE OF MEDIA EDUCATION IN EDUCATING YOUNG GENERATION WITH RESPECT FOR NATIONAL VALUES

Annotation

The article analyzes in detail the importance of media education in raising the young generation in the spirit of respect for national values. At the same time, the essence of value was also touched upon. In particular, attention was given to the aspects of media education that need to be paid attention to in the education of young people of New Uzbekistan.

Key words: Concept of value, media education, education, traditions, youth education, information space.

Kirish. Dunyoda axborot makonining globallashuvi, ochiqligi va ommaviy kommunikatsiyaning kuchayishi integratsiyalashgan mediata'lim muhitida ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Yevropa davlatlari, AQSh, Avstraliya va Rossiya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mediata'lim, shaxs rivojlanishida media bilan muloqot madaniyati, ijodiy, kommunikativ qobiliyat, tahliliv-tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish medisavodxonlikni egallash imkonini berdi. Shu bois fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida o'quvchilarni mediata'lim muhitida zamonaviy kasb sohalari yo'naltirishning innovatsion usullari va texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shaxs ta'lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida bilim va tajribani talaba (yoki o'quvchi)ga uzatishda, moddiy ishlab chiqarish muhiti sharoitida, shuningdek, fan, madaniyat va xizmatlar ko'rsatish sohalari ishtirok etadi. Shu sababli, ta'limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat. Ta'lim muassasasi o'sib

kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlarini yaratadi[1:93].

Bugun jahon axborot makonining tobora tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani mediata'limni yanada takomillashtirish, sohada kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning kasb mahoratini muttasil oshirib borishni taqozo qilmoqda. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan, ta'limni rivojlanishini "media" (ya'ni: televidenie, radio, kinematograf, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin. Axborot makonini globallashuvi va uning "ochiqligi" zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida "media" atamasi paydo bo'ldi. "Media" atamasi lotin tilidan (media, medium so'zidan) olinib, qo'llanma, vositachi ma'nolarini anglatadi Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqitiruvchi, chalg'ituvchi makondir. Mediata'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Yevropa Ittifoqi hujjatlariga ko'ra, mediata'lim – (media education) bo'lib, olingan ma'lumotlar asosida o'z fikrlarini bildira oladigan mas'uliyatli talabalarni tarbiyalash uchun ommaviy axborot vositalariga tanqidiy va puxta o'ylangan munosabat sifatida rivojlanishga yo'naltiril-

gan ta'lim. Bu bo'lajak muhandislarga mutaxassislik yuzasidan kerakli axborotlardan foydalanish va ularni tahlil qilishni aniqlash imkonini beradi[2].

Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Mediata'lim usullari asosan quyidagi muhim bosqichlarga bo'linadi;

Media nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o'qitish media texnologiyasi);

Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish "o'qish, anglash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish" (kritik, ijodiy, intuitiv hamda obraz yaratish).

Mediata'lim faoliyatini olib borish uchun ma'lum bir professional bilim ko'nikma va ko'rsatgichlariga ega bo'lish lozim:

Maxsus yo'naltirilgan mediata'lim sohasida nazariy bilimlar hamda eng so'nggi axborotlarga ega bo'lish darajasi[3];

Mediata'lim esa yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda kata ahamiyatga ega bo'lmoqda. Sababi, qadriyat ancha keng ilmiy tadqiqot talab qiladigan keng mohiyatga egadir.

"Qadriyat – voqeikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha", – degan ta'riflar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq xoslik shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi[3]. Mediata'lim esa jamiyat taraqqiyoti bilan bilvosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan mediata'limni yoshlar tarbiyasidagi ko'lamini kengaytirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, "Mediasavodxonlik" (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat.

Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimedia savodxonligi o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi. Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondashish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir[5].

Mediata'limning jamiyat hayotidagi o'rni va uni ta'lim sohasiga keng joriy etish yoshlarni globallashtirishning salbiy ta'siridan asrash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini ularga keng tushuntirish, yoshlarimizning ongu shuuriga milliy qadriyatlarga ehtirom tuyg'usini singdirishga xizmat qiladi.

Qadriyat "inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha"dir[6].

G'ulomxon G'ofurov milliy an'analarga bag'ishlangan maqolalaridan birida milliy qadriyatlarining quyidagi ko'rinishlarini tilga olgan: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma'naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar. Jumladan, "Otabobolarimiz ilm o'rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar[7:6].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mediata'lim dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar tomonidan o'rganilmoqda. Mediata'limdan ko'zlangan maqsad esa yosh avlod mediasavodxonligini shakllantirishdir. Shu boisdan ham nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda mediata'limning imkoniyatlari va raqamli OAV tushunchalarini ilmiy jihatdan yoritish va tadqiq qilish ko'lamini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Demak, aytish mumkinki, boshqa sohalar qatori jahon siyosatshunoslik fani tizimida rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini O'zbekiston mediata'lim tizimiga tadbiiq qilish kelajakda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda o'z samarasini beradi. Ushbu muammolarni o'rganish uchun "aqliy markazlar", "xalqaro reyting agentliklari" tomonidan ishlab chiqilgan vazifalarni jamiyat hayotiga tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Mediata'lim – bu ta'limning yangi yo'nalishi, media va kommunikatsiya sohasidagi zamonaviy ta'lim shakli. Shuni ta'kidlash kerakki, boshqa sohalar qatori, siyosiy fanlar tizimida mediata'limni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[8:5].

Hozirda milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirishda mediata'lim ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarning tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya obyekti bo'lib ko'proq yoshlar tanlanadi, chunki:

- ular axborotning muhim qismini, to'liq idrok etmaydilar, chunki ular hali uni idrok etishga tayyor emaslar;
- ular xabarlarining ma'nosini yoki bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkinligini qisman tushunadilar;
- ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan nafaol pozitsiyani egallaydilar, o'zlarini ularning ta'siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko'pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar[9].

Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida yoshlarni tarbiyalashning innovatsion va pragmatik muammolari, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonlarini axborotlashtirish, axborotlarni qabul qilishning pedagogik va psixologik asoslari hamda ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish, masofaviy ta'limni amalga oshirish, mediata'lim texnologiyalarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'quvchilarning media savodxonligini va ta'lim muassasalarining standart media ta'minotini rivojlantirish, ularning Web-brauzerlar, ilmiy matn bilan ishlash kompetentligini takomillashtirish, mediata'lim texnologiyalari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasini shakllantirishga doir masalalar yechimini hal etilishi bilan bevosita bog'liqdir[10].

Xulosa va takliflar. Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda mediata'limning dolzarbligi va qulayligi uning harakatchan va mobilligidir. Hozirda ijtimoiy hayot dinimizni innovatsion izlanishlarga ehtiyoj tug'diradi, kadrlarimizni harakatchan, mobil, taraqqiyot talablariga muvofiqlashib yashashga undaydi[11]. Insoniyat foydadan ko'ra qadri, qiymatdan ko'ra qadriyatni ustuvor biladigan zamonlar yaqinlashib kelmoqda. Agar odam zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab foyda, qiymat va qo'shimcha qiymatdan ko'ra, qadriyatni ustuvor bilganida, yer yuzining manzarasi butunlay boshqacha bo'lgan, insoniyatni esa ekologik bo'ronlar, urush xavfi va ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo'lar edi!

Foyda va qiymat, so'ngra esa qo'shimcha qiymat va kapital inson hayotining barcha jabhalarida ustuvor tushunchalarga aylanishi uchun odamzot naslining ne-ne avlodlari olamga kelib ketmadi deysiz. Bugungi kunga kelib, insoniyat yana koinot, olam, bashariyat, tabiat va odamzot naslining uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat ham zarurroq ekanligini asta-sekin anglay boshladi[12].

Aslida, bashariyatni asrashda milliy qadriyatlar benihoya o'rin tutadi. Mediata'limning a'nanaviy ta'lim taraqqiyotiga qo'shadigan metodlari nihoyatda katta. Zamonaviy dunyoni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgani kabi ta'lim jarayonlarida mediata'lim unsurlaridan ko'proq foydalanishimiz kerak.

Dunyo taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali muhandislar tayyorlash jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois, muhandislarining texnologik kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning

innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirish bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon taraqqiyotining asosiy tendensiyalari orasida axborot jamiyatiga o'tish muhim vazifa hisoblanadi, ya'ni, ommaviy axborot (media) vositalarining jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'siri dolzarb muammo hisoblanadi.

Talabalar faoliyatiga o'yin, mehnat, san'at, bilim hamisha xosdir. Shu sababli, pedagoglar talabalarining ushbu turdagi faoliyatini sun'iy emas, balki ular bilan birgalikda qo'llab-quvvatlashi kerak. Pedagogning talabalar bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish va jamoaviy ijodiy ishni o'tkazish, qisqa muddatda tarbiyaviy ishlarni olib borish ulardan kasbiy bilim, pedagogik mahoratga, dars jarayonlarida mediata'limi qo'llashda yaxshi samara eradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik, mediata'lim vositalari tatbiq etilsagina ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi. Mediata'lim vositalari orqali ta'lim jarayonida

yoshlarning dars jarayonida zamonaviy media manbalariga bo'lgan talabi, istak-xohishi va darsni tushunish imkoniyatlari ortadi;

Mediata'lim vositalari orqali bilimlarini mustaqil egallash malakalari shakllanadi;

Ovozni eshitish, video mahsulotlarini ko'rish orqali tasavvuri boyib, o'qigan mavzusini ko'rish orqali o'qishiga yanada qiziqishi ortadi;

erkin va kreativ fikrlash malakasi shakllanadi;

ta'lim va tarbiya jarayonini tezroq o'zlashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.
2. Xudoykulov R. Bo'lajak muhandislarida texnologik kompetentlikni mediata'lim vositalari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Qarshi, TerMTI. – 52 b.
3. Mahmudova N. Mediata'lim texnologiyasi asosida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya (108-115 b).
4. Farmonova, M. Qadriyatlar–ma'naviy kamolot asosi. – Toshkent: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, 36 b.
5. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>
6. Umarova N. Yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash – davr talabi// konf. Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar. – Toshkent.: Navro'z. 2014. – 190. (97-100 b).
7. Farmonova M. Qadriyatlar–ma'naviy kamolot asosi. – Toshkent: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, 36 b.
8. Qarshiyev B. Jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda mediata'limning o'rni. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (rhd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, O'zMU, 2020. – 46 b.
9. Sheranova M. Mediata'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasini shakllantirish. - Jizzax, JDPU, 2022. – 56 b.
10. Qarshiev B. Mediata'lim – yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilishning muhim omili. Academic Research in Educational Sciences www.ares.uz. (340-345).



Dilnoza BOYMAXMATOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dboymaxmatova@mail.ru

F.f.d., prof. L.Raupova taqrizi asosida

ONA TILI TA'LIMIDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada tillarni o‘qitishda tilning muloqot qilish funksiyasidan kelib chiqib, ma’lum bir ilmiy qarashlarni tahlil qilish, tavsiflash va ona tili ta’limida madaniy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda uni rivojlantirish jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha mahalliy, xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, kognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistika, neyrolingvistika, hermenevtika, etnolingvistika.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

На основе коммуникативной функции языка в обучении языку в статье анализируются, описываются некоторые научные взгляды и применяются их к процессу формирования и развития культурных знаний и умений в обучении родному языку.

Ключевые слова: Знания, умения, компетентность, компетентность, когнитивная, лингвокультурная, психоллингвистика, нейролингвистика, герменевтика, этнолингвистика.

LINGUOCULTURAL APPROACH TO TEACHING YOUR NATIVE LANGUAGE

Based on the communicative function of language in language teaching, the article analyzes and describes certain scientific views and analyzes local and foreign scientific literature on the formation of cultural knowledge and skills in teaching native language and its process of development.

Kirish. Olamda mavjud har qanday til u yoki bu xalqning madaniyati va an‘analarini o‘zida aks ettiradi. Qo‘llaniladigan har qanday so‘zning o‘z tarixi va kelib chiqish sabablari bor. “Mentalitet” tushunchasi yuzasidan mulohaza yuritish, uni tahlil qilish bizga millatning madaniy an‘analari va qadriyatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Til – bu madaniyatning eng muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Insonning ayni vaqttdagi o‘ylayotgan fikri, uning dunyoqarashi, atrofdegilar bilan muloqoti aynan shu til orqali shakllanadi hamda ifodalanadi. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi falsafa, antropologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslikning turli sohalarini (psixolingvistika, neyrolingvistika, hermenevtika, etnolingvistika va boshqalar)ning ilmiy tahlil obyekti bo‘lib kelmoqda.

Dunyo tilshunosligida I.Gerder, V.F.Gumbold, E.Sapir, B.L.Vorf, J.L.I.Buslayev, I.I.Sreznevskiy, K.D.Ushinskiy, A.A.Potebnya, G.O.Vinokur kabi olimlarning asarlarida til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi g‘oyalar ilgari surilgan. XX asrning ikkinchi yarmi shaxs asosiy o‘rinni egallagan yangi antropotsentrik ilmiy paradigmaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Endi tadqiqotchilarning diqqat markazida obyekt emas, balki subyekt muhim ahamiyat kasb eta boshladi, ya‘ni insonning tildan foydalanishi hamda tilda insonning roliga qiziqish boshlandi. Shu munosabat bilan inson, uning madaniyatda mavjudligiga qaratilgan fan sohalarining jadal rivojlanishi yuzaga keldi. Tilshunoslikda lingvistik shaxs tushunchasi, dunyoning lingvistik tasviri shakllandi, uning kognitiv va lingvokulturologik yo‘nalishi esa bugungi kunda faol rivojlanib kelmoqda.

Asosiy qism. Har bir ilmiy izlanishning zamirida yotuvchi nazariy qarashlar xorijiy til ta’limida ham keng

qamrovli va uzoq davrlik ildizga ega sanaladi. Xorij tajribasida mazkur yo‘nalishda yaratilgan metodologik asoslarni tahlil qilish ona tili ta’limida madaniy yondashuvdan foydalanish masalasiga oid bir qancha ilmiy-nazariy fikrlarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, dunyoda mavjud tillarni o‘qitishda tilning muloqot qilish funksiyasidan kelib chiqib, ma’lum bir ilmiy qarashlarni tahlil qilish, tavsiflash va tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishda madaniy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda uni rivojlantirish jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha mahalliy, xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va chuqur o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So‘nggi yarim asr davomida ona tili ta’limida bo‘lgan ehtiyoj va talablarning kattaligiga qaramasdan, ona tili ta’limining mazkur yo‘nalishida hozirgi kun til ta’limi talablariga javob bera oladigan darsliklar, qo‘llanmalar, platforma va boshqalar yetarlicha rivojlantirilmagan. Zero, bugun muayyan tilni o‘qitishda beshta muhim ko‘nikmadan iborat nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, til o‘rganuvchining o‘rganilayotgan tilda gapirish ko‘nikmasi, yozma savodxonlik, eshitib tushunish, o‘qib tushunish va madaniy kompetentligini oshirish davr talabiga aylanayotgan bir davrda kommunikativ yondashuvga asoslangan madaniy kompetentlikni ham alohida ko‘nikma sifatida qabul qilish yoki qolgan to‘rt ko‘nikmaning ichiga singdirib yuborish bahsli masala sifatida qaralmoqda [1].

Lingvokulturologiya nomidan kelib chiqqan holda bu soha bir tomondan, tilni o‘rganishni o‘z ichiga olgan fan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘rganilayotgan til mamlakati haqida ma’lum bilimlarni beradi. Ona tili ta’limida lingvokulturologik yondashuv o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan tashqari madaniyatlararo muloqot uchun kommunikativ kompetensiyani ta’minlashdir.

Lingvokulturologiyaning didaktik mazmunida madaniy yondashuv ikkinchi tilni o'rganuvchi o'quvchiga kommunikativ ko'nikmani shakllantirishning nazariy asosi sifatida tanishishiga xizmat qiladi va maqsad til leksikasini o'zlashtirish, talaffuz normalalarini shakllantirish madaniyatlararo muloqotni ta'minlashga qaratiladi. Boshqa millat vakilining ma'lum bir til leksikasini o'rganishi va uni lingvo-madaniy jihatdan o'zlashtirishi til shaxsini shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa belgilar tizimiga o'tish imkonini beradi. [2]. Turli madaniyatdagi odamlar nafaqat turlicha muloqot qilishlari, balki turlicha vaziyatlarni ham boshqacha boshdan kechirishlari mumkin. Madaniy qadriyatlarni qaramaqarshi qo'yish orqali biz turli xil madaniy kelib chiqishi odamlarning muayyan vaziyatlarda qanday harakat qilishlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. [3].

Ma'lumki, tillarni o'rganish tushunchalarni o'rganish orqali madaniyatni o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir. Lingvistik tushunchalarni o'rganishning ikkita asosiy: kognitiv va lingvomadaniy tamoyillari hozirgi kunga kelib shakllangan. Bu usullarning ikkalasidan ham foydalanishdan maqsad lingvistik ongning mohiyatini aniqlash va madaniyatlar orasidagi farqlar asosini belgilashdir.

Kontseptsiyani anglashning kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlari bir-biriga zid emas; aksincha, ular bir-birini to'ldiradi, chunki ular bir hodisaning ikki tomoni bo'lib, ular bir psixik jarayonning so'z va uning ma'nolarini birlashtirish va so'zni madaniy kontekstga kiritish kabi ikki bosqichni aks ettiradi.

Ona tili ta'limida o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad tilni o'rganayotgan o'quvchining tabiiy til egalari muhitida faol muloqot qila olish ko'nikmasini shakllantirishdir. Bunda til o'rganayotgan o'quvchi madaniyatning tilga bo'lgan ta'sirini aniqlay olishi, uning kundalik muloqotida duch kelayotgan madaniy to'siqlarni yengib o'tishi hamda jamiyat bilan muloqotga erkin kirisha olishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, lingvomadaniy yondashuvning predmetidan kelib chiqib, ona tilini o'qitish ancha kengroq jarayon hisoblanadi, unda matn va nutq birliklari kabi aforizmlar, maqollar va boshqa birliklarning semantikasini o'rgatish metodikasini o'z ichiga oladi.

O'quv materiallari qanday bo'lishidan qat'i nazar, ular turli xil madaniy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan turli xil nutqlar va tegishli mashqlardan iborat. O'quv resurslaridagi madaniy ma'lumotlar turli darajalarda turli shakllarda o'zini namoyon qiladi. Farqi faqat o'zgaruvchan madaniy ma'lumotlarning miqdori, uning materiallarga kirish darajasi va o'zini aniqlash usullarida. U vizual tarzda tasvirlangan yoki matnga kiritilgan bo'lishi mumkin.

Ona tili ta'limida madaniyatni ham o'rgatish an'anasi xalqaro miqyosda qariyb bir asrdan buyon muhim deb hisoblanib kelmoqda. Hammamizga ma'lumki, tilni tushunish nafaqat grammatika, fonologiya va leksika haqidagi bilimlarni, balki madaniyatning ayrim xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ba'zi mutaxassislar ona tilini tilni o'rganishning asosi sifatida shu til madaniyatini o'qitish va o'rganishning turli jihatlarini eslatib o'tadilar va ular o'quvchilarni rag'batlantirish uchun mazkur tomonlarni e'tiborga olishlari kerakligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, tilning bir qismi bo'lgan madaniyat birlashmalari, shuningdek, tilning ijtimoiy-madaniy kelib chiqishini o'rgatish ta'lim muhiti ishtirokchilarining oxir-oqibatda tilni qanday va qanchalik yaxshi o'rganishiga ta'sir qiladi.

Madaniyat va til o'rtasidagi munosabatlarga murojaat qiladigan bo'lsak, olimlar tomonidan bildirilgan ba'zi ajoyib sharhlarni ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan, amerikalik tilshunos va etnolog Edvard Sapir o'zining "Til. Nutqni o'rganishga kirish" asarida "til, irq va madaniyat bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi shart emas", deb ta'kidlab o'tar ekan,

tilga nisbatan "kundalik hayotimizda til va fikrimiz o'zaro chambarchas bog'liq bo'ladi, ular bir-biri bilan qaysidir ma'noda bir xil" [4]., degan mulohaza qo'shgan. Ammo bu birgina mulohaza nima uchun til o'qitishda madaniyatni o'rgatish kerak degan savolga qoniqarli javob bermaydi. Yaponiyaning Doshisha universiteti professori Kitao bir nechta mualliflarga murojaat qilib, madaniyatni o'qitishning ba'zi afzalliklarini quyidagicha sanab o'tadi:

madaniyatni o'rganish o'quvchilarga biror xorijiy tilni, shuningdek, ikkinchi tilni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda o'rganish jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi;

til o'rgatishdagi asosiy muammolardan biror xorijiy tilda so'zlashuvchilarni haqiqiy shaxs sifatida tasavvur qilishdir. Tilni o'rgatishga mo'ljallangan grammatika kitoblardagi haqiqiy hayotdan misollar keltirilsa-da, kontekstsiz bu real vaziyatlar o'quvchilar tomonidan xayoliy deb hisoblanishi mumkin. Tilning madaniy jihatiga kirishni ta'minlashdan tashqari, madaniyatni o'rganish o'quvchilarga mavhum bo'lgan jihatlarini haqiqiy odamlar va joylar bilan bog'lashga yordam beradi;

tilni o'rganishda motivatsiyaning ta'siri Gardner va Lambert kabi mutaxassislar tomonidan isbotlangan. Yuqori motivatsiyaga erishishda madaniyat darslari katta rol o'ynaydi, chunki o'quvchilar qo'shiq aytish, raqsga tushish, rol o'ynash, mamlakatlar va xalqlar bo'yicha kichik tadqiqot olib borish kabi madaniy faoliyatni yaxshi ko'radilar;

madaniyatni o'rganish o'quvchilarga maqsadli tilning ona tilida so'zlashuvchilariga nisbatan hurmat hissining shakllanishiga imkon beradi. Madaniyatni o'rganish umumiy ta'limda ham foydali rol o'ynaydi; xorijiy yoki ikkinchi til madaniyatining geografiyasi, tarixi va boshqalarni ham o'rganishiga sabab bo'ladi. [6].

Shu bilan birga, ona tili ta'limida madaniyatni o'rgatishda, ayniqsa, pedagogik tomonlama ba'zi muammolar mavjud. Ulardan biri kerakli madaniy ma'lumotlarni qanday taqdim etishdir. Ko'pgina o'qituvchilar o'zbek tili darslarida madaniyatdan dars berish uchun yetarlicha qurollanishmagan va buni muhim deb hisoblashmaydi. Boshqa toifadagi o'qituvchilar sinfda o'rganilayotgan til madaniyatini o'rgatishning ahamiyatini bilishmaydi va ular darsning shakli va dasturiga e'tibor qaratishning o'zi kifoya, deb o'ylashadi. Yana bir muhim muammo – bu o'quvchilar ma'lumotni tushunishlari va ular bilan bog'lashlari mumkin bo'lgan madaniy yondashuvni taqdim etish usullarini qanday yaratishdir. To'rtinchi muammo dars jarayonida madaniy yondashuvni o'z ichiga olgan metod uchun vaqt topish. Shuning uchun tavsiya qilingan ko'plab didaktik texnikalar darsga nisbatan ko'proq vaqtni oladi.

Bularning barchasi zamonaviy metodologiyaning asosiy usuli bo'lgan til o'qitishning kommunikativ usuli bilan bog'liq bo'ladi. Bizning maqsadimiz o'quvchilarni o'zbek tilida to'g'ri muloqot qilishni o'rgatish va o'zbek tilida so'zlashuvchilar bilan teng ravishda muloqot qila oladigan darajada o'quvchilarning lingvo-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishdir.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilarning asosiy maqsadi o'quvchilarning lingvo-madaniy kompetensiyalarini hisobga olish va o'qitish jarayonida o'quvchilarning til muhitining asosiy obyektiv atributlariga e'tibor qaratishdir. Bu, birinchi navbatda, asl nusxada ijtimoiy-siyosiy hamda badiiy matnlardan foydalanish, badiiy filmlar, qo'shiqlardan va internetdan qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ona tilimizdagi lingvo-madaniy bilim – bu tilimizning ma'lum bir shakl sifatida tugallangan hamda inson ongida tasvirlangan (so'zlar, iboralar, badiiy asar matnlaridagi madaniy birliklar) jarayondir. Til madaniyati bilimlariga

mamlakatimiz tarixi, madaniyati, an'analari, muloqot tilining o'ziga xos xususiyatlari va xalqimizning ijtimoiy hayoti kabi tushunchalar kiradi.

O'quvchilar lingvo-madaniy kompetensiyani egallashlari uchun ular quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishlari kerak: o'quvchilarda til madaniyatiga oid tushunchalarning shakllangan bo'lishi; tilimizda shakllangan lingvo-madaniy ma'lumotlarni tahlil qila olish, shuningdek, lingvo-madaniy bilimlardan ijodiy foydalanish; o'quvchilar o'zlarining olgan nazariy bilim va ko'nikmalaridan foydalana olishi; o'quvchilarda axborot va madaniy hodisalarni to'g'ri qabul qila olish ko'nikmasini shakllantirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, madaniy tushunchalarni o'rgatish jarayonida qanday uslub yoki yo'nalishni tanlash, o'z navbatida, o'qituvchiga, uning

tanloviga yoki madaniyatni o'qitish amaliyotiga qay darajada tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq. Tabiiyki, o'quvchi yangi madaniy tushunchalarni o'rganish jarayonida ba'zi holatlarni o'ziniki bilan solishtiradi, qiyoslaydi, tahlil qiladi va bu jarayon o'rganuvchida ziddiyatli savol va ba'zi tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda o'qituvchi yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarga yechim topishi va o'quvchining madaniy bo'shliqqa tushib qolishining oldini olishga harakat qilishi lozim. Bu kabi dars jarayonlarini tushunish bosqichida o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib borishi o'rindir. Asosiy e'tibor to'g'ri va yangi madaniy tushunchalarni, hayotiy ko'nikmalar asosida tushuntirib berishdan iboratdir. Chunki bu usulda tashkil etilgan dars jarayonlarining o'zlashtirish ko'rsatkichi ham yuqori bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Isroilov D. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda madaniyat aspektidan foydalanish metodikasini takomillashtirish.
2. Sevinch Hasanova. Linguo-Cultural Aspect of Interrelation of Language and Culture. Azerbaijan University of Languages, Baku, Azerbaijan. 2014
3. M.Тошхонов. Обучение лингвокультурологии на уроках испанского языка. Ўзбекистонда хорижий тиллар, № 4/2014.
4. Васильева Анна Алексеевна. Methods of studying concepts in linguoculturology. Международный научный журнал «Символ науки». №10/2015
5. Edward Sapir. Language An introduction to the study of speech. New York: Harcourt, Brace, 1921. 103 p.
6. Erdo'g'an Bada. Culture in language learning and teaching.



Fotima BOYSARIEVA,
Uzbekistan State University of World Languages senior lecturer
E-mail: f_boysarieva@gmail.com

Under the review senior lecturer, (PhD) of Uzbekistan State University of World Languages Yakubova Noira

LINGUACULTURAL APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE

Annotation

In modern conditions, the task of preparing students for intercultural communication is becoming urgent. In this regard, there is a need to educate students who are able to act as subjects of a dialogue of cultures. This article highlights the linguistic and cultural approach in teaching a foreign language as a second foreign language.

Key words: Linguoculturology, culture, foreign language, methodology, ICT, quality of education, training.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ИНОСТРАННОМУ

Аннотация

В современных условиях актуальной становится задача подготовки обучающихся к межкультурной коммуникации. В связи с этим возникает необходимость воспитывать учащихся, способных выступать в качестве субъектов диалога культур. В данной статье освещено лингвокультурологический подход в обучении иностранному языку как второму иностранному.

Ключевые слова: Лингвокультурология, культура, иностранный язык, методика, ИКТ, качества образования, обучения.

XORIJIY TILNI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA LINGVOMADANIY YONDASHUV

Annotatsiya

Zamonaviy sharoitda talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlash vazifasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan madaniyat muloqoti sub’ekti sifatida harakat qila oladigan talabalarni tarbiyalash zarurati paydo bo‘ladi. Ushbu maqolada xorijiy tilni ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda lingvokulturologik yondashuv yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Lingvokulturologiya, madaniyat, chet tili, metodologiya, AKT, ta’lim sifati, o‘qitish.

Introduction. In the context of intensive globalization processes, the success and relevance of modern university graduates depends on their personal qualities, the level of formation of their professional competencies, professional skills to carry out intercultural and professional communication. The new living conditions have significantly changed the entire focus of the language training of modern specialists. The current trend of our time, designed to solve the problem of harmony and mutual understanding between people, is multilingual and multicultural education. In the process of such education, a person is formed who is able not only to preserve his cultural identity, but also to understand and accept the values of representatives of other cultures. Proficiency in one or more foreign languages, along with knowledge of foreign language culture by a specialist in any industry, is an essential aspect, a necessary condition for building a dialogue in intercultural communication within the framework of their professional activities.

Methodology and Literature review. However, the methodology of teaching a foreign language as an aspect of foreign language culture in language universities has not yet been sufficiently developed. Awareness of the need to include foreign language culture in the process of teaching a foreign language in most cases is expressed either in the introduction of disparate fragments of regional information in language practice classes, or in the development of lecture courses on the history and culture of the country. This problem is especially evident when working with texts of mass media.

In preparing the article, theoretical methods were mainly used, namely: a critical analysis of pedagogical and methodological literature on the research topic.

In modern linguistic science, the most important area of linguistic research is linguoculturology, and the use of a linguoculturological approach in foreign language teaching contributes to a more effective formation of intercultural professional and communicative competence of students[1].

It is safe to say that a foreign language contains not only a system of linguistic knowledge, but also a system of knowledge about social norms, spiritual values, and the totality of relations between people. Based on this, the linguistic and cultural aspect becomes an integral part of foreign language classes.

navbatda, lotincha "idem" – "aynan o'sha" so'zidan kelib chiqqanini nazarda tutish kerak. Shuningdek, mazkur tushunchaga tegishli inglizcha "identity" so'zi ham bir nechta ma'noga ega, bular: aynanlik, bir xillik, individuallikdir. Ta'kidlash joizki, "identiklik" va "identifikatsiya" tushunchalarini farqlash lozim, chunki identifikatsiya – jarayon, identiklik esa – mazkur jarayonning natijasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sh.Madayeva tomonidan identiklik hodisasining nazariy-metodologik tadqiqi amalga oshirilgan. Z.Odinayeva esa falsafiy-konseptual yondashuv orqali o'zbek milliy identikligining aksiologik tamoyil va qonuniyatlarini o'rgangan. Z.Odinayeva o'zbek xalqi tarixida "milliy identiklik", "milliy identifikatsiya" tushunchalarini aksiologik nuqtai nazardan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida ochib bergan.

O'zbek xalqi etnogenezing shakllanishi muammosi taniqli tarixchilar A.Asqarov, V.Bartold, A.Ilhomov, A.Yakubovskiy, K.Shoniyozov asarlarida tadqiq etilgan. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'zbek milliy identikligining o'ziga xos xususiyatlari M.Asqarov asarlarida etnografik yondashuv prizmasi orqali ko'rib chiqilgan. Respublika olimlari Sh.Madayeva, A.Ashirov, M.Quronov, M.Bekmurodovlarning ilmiy qiziqishlari milliy mentalitet rivojiga qaratilgan.

Yuqorida qayd etilgan asarlar, asosan, milliy mentalitetni, uning mustaqillik sharoitida shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, ular milliy identiklikni saqlashga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Globallashev sharoitida milliy identiklikning shakllanishi va saqlanishida milliy o'z-o'zini anglashning determinatsiya qiluvchi roli S.Otamuratov, U.Saidov, N.Nazarov, I.Xo'jamurodov, J.Tulenov asarlarida o'rganilgan. Etnik va milliy

identiklikning sotsiologik tadqiqotlari M.G'anieva va X.Qodirova ishlarida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Identiklik muammosi ko'pqirrali muammolar qatoridan bo'lib, globallashuv jarayonlari inson borlig'i mohiyatining asoslarini dolzarblashtirib, global identiklik masalasini kun tartibiga olib chiqar ekan, nafaqat har bir inson va har bir madaniyat uchun aynanlik va farqlilik nuqtai nazaridan muhim bo'lgan "Biz kimmiz?", "Bizning boshqalardan farqimiz nima?" savollari, balki "Inson nima?" degan, inson borlig'i bilan bog'liq eng chuqur metafizik savol ushbu masalaning yakuniy asosi sifatida eng muhim masalaga aylangan. Identiklik (identifikatsiya) (ingliz tili (identity), lotincha (identus) – aynanlik, mansublik, o'xshashlik) atamasi – shaxs tomonidan o'zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, ahloqiy stereotiplarga amal qilinishidir[2]. Inson uchun o'z identikligini aniqlash, shakllantirish va mukammallashtirib borish barcha davrlarda muhim bosqich bo'lgan. Indivud ijtimoiylashuv jarayonida o'zini boshqalar bilan qiyoslash orqali o'z "Men"ini shakllantiradi va mustahkamlaydi, o'zi mansub bo'lgan etnomilliy jamoa madaniy an'analari, qadriyatlarini, odatlarini o'zlashtirish orqali o'z xulq-atvori, qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Identiklik murakkab tashkiliy tuzilмага ega bo'lib, uning barcha tuzilmaviy elementlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi va ijtimoiy-madaniy hamda psixologik funksiyalarini bajaradi. Identiklik – o'z-o'zini saqlash natijasi bo'lsa, identifikatsiya mexanizm, doimiy tanlash jarayoni, meyorlar, munosabatlar va an'analarni qabul qilishdir.

O'smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlari fonida ularning oilasi bilan munosabatlari mavjud. O'smirlarning tengdoshlariga munosabati ular o'sgan madaniyatning urf-odatlarini va madaniy an'analari bilan bog'liq. Bu urf-odat va an'analarning o'z o'zlarida mavqei belgilovchi qator omillar bilan bog'liq. Do'stona munosabatlarni o'rnatish qobiliyati asosan oilada olinadi, oilaviy munosabatlar va o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. 15-17 yoshli qizlarni kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, ularning oila a'zolariga nisbatan yaqinlik hissi tengdoshlari bilan bevosita aloqa qilish darajasiga ta'sir qiladi. O'smirlar o'z ota-onalari bilan yaqin aloqani his qilsalar, boshqa insonlarga nisbatan do'stlik munosabatlarini o'rnatishga muvaffaq bo'lishadi. Ota-ona yordamidan mahrum bo'lganlar bilan do'stlik o'rnatish qiyin kechadi. Darhaqiqat, o'smirlik - bu bolalarning mustaqillikka intila boshlagan davri. Qaror qabul qilish va o'z taqdiri uchun javobgar bo'lish qobiliyatisiz o'smir yetuk shaxs bo'la olmaydi. Oiladagi muloqot uslubi va bolaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Alekseeva, oiladagi muloqot uslubining o'quvchilar faolligiga, ularning muloqot qobiliyatiga va o'zini o'zi qadrlashiga ta'sirini o'rgangan. Oila ichidagi munosabatlar bolaning shaxsiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shaxsning gender sotsializatsiyasi bilan bog'liq holda, oilaviy munosabatlarning quyidagi tizimlarini ajratish mumkin: turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi, ota-ona va bola munosabatlari tizimini o'z ichiga oladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maxsus tadqiqotlar singari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillar bolaning psixosotsial rivojlanishida, xususan, gender sotsializatsiyasida alohida ahamiyatga ega. Oilada eng muhim va asosiy narsa er-xotin o'rtasidagi munosabatlardir. Gender roli, muayyan xatti-harakatlarda bolalarning gender identikligini aniqlashning eng keng tarqalgan mexanizmlaridan biri sifatida, ota-onalar bilan muloqot va faoliyatda o'zining mustahkamlanishi va aniqligini topadi. Aynan ota-ona munosabatlari butun oilani yagona

jamoaga bog'laydigan ma'naviy aloqalarning samimiyligini belgilaydi. Ular bolaning xavfsizligini, shuningdek, dunyodagi o'rnini qanday his qilishini aniqlaydi. Ko'pgina psixologlar bolaning rivojlanishidagi asosiy narsa uning mehrga bo'lgan ehtiyojini qondirish ekanligiga e'tibor berishadi. Va bu faqat ota-onalar o'rtasida kelishuv mavjud bo'lgan farovon oilada sodir bo'lishi mumkin.

Ota-ona va bola munosabatlari tizimida hissiy munosabatlar bolaning gender ijtimoiylashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Psixologik tadqiqotlar ota-onalar va bolalar o'rtasida kuchli ma'naviy aloqalarni shakllantirishga yordam beradigan, gender sotsializatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarga e'tibor qaratadi. "Ota-onalar va bolalar" munosabatlari tizimini gender sotsializatsiyasi omili sifatida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. I.Kon quyidagi mexanizmlarni qayd etadi:

mustahkamlash: ota-onalar to'g'ri deb hisoblaydigan xatti-harakatlarni rag'batlantirish va jazolash orqali ota-onalar bolaning ongiga ma'lum me'yorlar tizimini kiritadilar, unga rioya qilish bolalar uchun odat tusiga kiradi.

aniqlash: bola ota-onasiga taqlid qiladi, ular kabi bo'lishga intiladi;

v) tushunish: bolaning ichki dunyosini bilish va uning ehtiyojlariga javob berish, ota-onalar shu bilan uning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi;

rolning bir-birini to'ldiruvchiligi: masalan, oilada ota-ona hech qanday sifatarga ega bo'lmasa, shart-sharoit talab qilsa, bu fazilatlar bolada hosil bo'ladi;

psixologik qarama-qarshilik mexanizmi: erkinligi keskin cheklangan bolada mustaqillikka intilish kuchayishi mumkin va hamma narsaga ruxsat berilgan bola qaram bo'lib o'sishi mumkin. Demak, oila shaxsning gender sotsializatsiyasi omili sifatida doimo ichki dinamika holatida bo'ladi va turli ijtimoiy vaziyatlarda ma'lum bir yangilik va dolzarbliikka ega bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Oilada o'smirlarning gender o'ziga xosligini shakllantirishning xususiyatlarini o'rganishda o'rta maktabning 12 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 56 nafar maktab o'quvchilari ishtirok etdi. O'quvchilar so'rovidan olingan ma'lumotlar yosh kabi omillarga qarab guruhlarga bo'lingan: kichik o'smirlar (12-14 yosh) va kattaroq o'smirlar (15-17 yosh) va jins (ayol va erkak). Tadqiqotning borishi: S. Bem Erkaklik-Ayollik Metodologiyasi (BSRI) yordamida olingan natijalarni tahlil qilib, biz quyidagi xulosalarga keldik:

So'rov natijalarini hisoblash shuni ko'rsatdiki, bizning tanlovimizdagi respondentlarning katta qismi (80%) androginlar bo'lib, ularning aksariyati (46,8%) erkaklar guruhlari orasida, 37,2% ayollar orasida.

Androginlar - bu ayollik va erkaklik fazilatlarini bir xil darajada yuqori bo'lganlar. Qizlar va o'g'il bolalarning androgin turlari an'anaviy jins turiga ega bo'lgan shaxslarga qaraganda ancha moslashuvchan xulq-atvorni namoyish etadi. Ular turli xil hayotiy vaziyatlarga ko'proq moslashgandek taassurot qoldiradilar. Androgin tipidagi odamlar umumiy til topish va boshqa odamlar bilan samarali hamkorlik qilishni yaxshi ko'radi. Olingan ma'lumotlar gender ko'rsatkichlarining o'rta androginiya darajasini shakllantirish tomon o'zgarishini tasdiqladi, bu qizlarda va o'g'il bolalarda turli xil o'zgarishlar bo'yicha erkaklik va ayollik muvozanati sifatida amalga oshiriladi. Shunday qilib, bizning tadqiqotimizdan xulosa qilishimiz mumkinki, o'smirlarning oiladagi gender sotsializatsiyasining o'ziga xos xususiyati - androgin jinsi shaxs turini shakllantirish tendentsiyasi tahlil qilindi.

Xulosalar. Gender sotsializatsiyasi omillari orasida oila eng muhim va ta'sirchan hisoblanadi. Oila va oilaviy munosabatlar inson rivojlanishining barcha bosqichlarida uning gender identikligini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Oilaning ulkan ahamiyati oilaviy muloqotning davomiyligi va

chastotasi, uning o'z-o'zidan va qarindoshligi, faoliyat motivlarining birligi, oila a'zolariga munosabat, maqsad va niyatlarning birligi, ularning harakatlarining muvofiqligi va eng muhimi, o'zaro oila bilan belgilanadi. Oila - bu inson hayoti davomida doimiy aloqada bo'lgan asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Oila insonning samimiy, shaxsiy dunyosini

tashkil qiladi. Oila ham jamiyatning birlamchi bo'g'ini, ham ijtimoiy psixologik joyi hisoblanadi. Oila sharoitlari, jumladan, ijtimoiy mavqei, kasbi, ota-onalarning moddiy va ma'rifiy darajasi, oilaning psixologik iqlimi - bularning barchasi insonning jinsi o'ziga xosligini shakllantirishga, uning hayot yo'lini belgilashga ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Alekseeva M.I. Oiladagi muloqot uslubining o'rta maktab o'quvchilarining ijtimoiy va kommunikativ faoliyatiga ta'siri / M.I. Alekseeva, T.V. Latsuzbal // Pedagogik muloqot psixologiyasi. - T. 1. - Kirovograd, 1991. - S. 102-112.
2. Kogon V.E. Erkaklik-ayollik stereotiplari va o'smirlardagi "o'zini-o'zi qiyofasi" / V.E. Kogon // Psixologiya savollari. - 1989. - No 3. - B. 53-62.
3. Kon I.S. Erta o'smirlik psixologiyasi / I.S. Con. - M.: Ta'lim, 1989. - 225 b.
4. Levkovich V.P. Oiladagi munosabatlar bolaning shaxsini shakllantirish omili sifatida / V.P. Levkovich // Shaxsiyat psixologiyasi va turmush tarzi. - M.: Nauka, 1987. - 114-136.
5. Rays F. O'smirlik va yoshlik psixologiyasi / F. Rays. - Sankt-Peterburg: Peter, 2000. - 624 p.
6. Sobchik L.N. SMIL shaxsiyatini o'rganish uchun standartlashtirilgan multifaktorial usul. Uslubiy qo'llanma / L.N. Sobchik. - M.: VNIIMT, 1990. - 76 p.



Dilafuz YOQUBOVA,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: dilafuzekubova4@gmail.com

Nargiza G'ANIYEVA,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

E-mail: nargiza@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti professori v.b. D.Arziqulov taqrizi asosida

BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari, ularni o'yin faoliyatida rivojlantirish yo'llari batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha talim, bilish jarayonlari, sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol.

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТСКИХ САДА

Аннотация

В данной статье подробно описаны познавательные процессы дошкольников, способы их развития в игровой деятельности.

Ключевые слова: Дошкольное образование, познавательные процессы, интуиция, восприятие, внимание, память, воображение, созерцание, речь, воображение.

DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN KINDERGARTENS

Annotatsion

This article describes in detail the cognitive processes of preschool children, ways to develop them in play activities.

Key words: Preschool education, cognitive processes, intuition, perception, attention, memory, imagination, contemplation, speech, imagination.

Kirish. So'nggi yillarda barcha mamlakatlar ilmiy manbalarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning turli muammolarini hal yetishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 30 sentyabrda PF-5198-sonli farmonida xam ko'rsatilganidek, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.[1] Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borish hamda bolani maktabga tayyorlash, umumiy o'rta ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan kichik maktab yoshi davrida pedagog faoliyatining asosiy ish mazmuni bola shaxsini tarbiyalashdek ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan tarbiyachilardan avvalo kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus tomondan kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonining sezilarli darajada intensivlashishi, o'qitishning turli xil innovatsion usullaridan foydalanish barobarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich maktablarning an'anaviy dasturi va tarbiyalanuvchilari o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'la boshladi. Ushbu hodisaning sababi ko'pincha miya tuzilmalari shakllanishining yoshiga va individual xususiyatlariga bog'liq bo'lgan bolalarda kognitiv funktsiyalarni rivojlanishining heterok-ronizmi sabab bo'ladi (Simernitskaya e.G., Tsvetkova L.S., Semenovich A.V., Axutina T.V., Lebedinsky V.V.) , Manelis N.G.). Rossiya ta'lim Akademiyasining Rivojlanish fiziologiyasi institutining ko'plab tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich maktab o'quvchilarining 15-40 foizida o'qishdagi qiyinchiliklar qayd etilgan [2].

Bundan tashqari, qiyinchiliklar sabablarini etarli darajada aniq baholamaslik, shuningdek, maktabgacha ta'lim darajasida tashhis qo'yish ishlari yanada ko'proq muammolarni keltirib chiqarmoqda.

I. Yu.Levchenkoga ko'ra [3], maktabgacha yoshdagi bolalarning 25 foizi individual yondoshishni, o'qitish va ta'lim olish uchun alohida sharoitlarni talab qiladi. Insonni ontogeneza majmuali o'rganish muammosini ilgari surgan olimlar psixik va motor rivojlanishning o'zaro aloqadorligi masalasiga katta ahamiyat beradilar. Psixik va somatik xususiyatlar birligini ko'pgina mutaxassislar qayd etgan edilar. Harakatlar barcha psixik faoliyatlarga beistisno holda samarali ta'sir ko'rsatishi ko'pdan beri ma'lum. G.M.Kasatkinaning (1992) tadqiqotlarida bolalardagi harakat faolligi xususiyatlari bilan idrok, xotira, tafakkur va hissiyotlarning namoyon bo'lishi orasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjudligi tasdiqlangan.

Maktabgacha davrda bola idrokining rivojlanish jarayoni A.A.Venger tomonidan batafsil tadqiq etilib, bayon qilingan. 3 yoshdan 7 yoshgacha bolada sermahsul konstruktivlik va badiiy faoliyat ta'sirida perspektiv analitik – sintetik faoliyatning murakkab ko'rinishlari yuzaga keladi, xususan, ko'rib turgan predmetini amalda qismlarga bo'lib, keyin yana yaxlit predmetga birlashtirishdan avval bunday muolajalarni xayolan bajarish qobiliyati paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar (3-6 yosh) idrok jarayonini o'rganar ekanlar, L.A.Venger, A.V. Zaporozhes [4] shuni aniqladilarki, idrokning boshqa psixik jarayonlar kabi muhim xossasi uning motivasion jihatidir. Bolada so'z yuritilayotgan yoki mashg'ulotlarda namoyish etilayotgan narsa bor yoki yo'qligiga qarab idrok natijalari (uning tezligi, obrazlar aniqligi, belgilarining to'la aks etishi va h.k.) kabi

istak hamda qiziqish turlicha bo'lishi mumkin. Diqqat bolaning psixik rivojlanishini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biridir. Maktabgacha davrda diqqat qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bilish va hisobga olish bolaning maktabda o'qishga tayyorligini psixologik-tashxislash nuqtai nazaridan ham, ta'lim va tarbiyaning eng ma'qbul sharoitlarini tashkil etishda ham juda muhim. Psixik faoliyatning mavjud dunyodagi muayyan predmetlar va hodisalarga boshqa hamma narsani e'tibordan soqit qilgan holda yo'naltirilishi diqqat deb ataladi [5]. Diqqatning fiziologik asosi bosh miya po'stlog'ida sodir bo'ladigan asab jarayonlari - tormozlanish va qo'zg'alistirishning o'zaro ta'siri mexanizmi hisoblanadi [6]. Diqqat barcha psixik jarayonlar kechishining eng muhim shartidir. Zarur irodaviy kuchlanishlar maqsad yo'nalishining ifodalanishi hamda darajasiga qarab diqqat g'ayri-ixtiyoriy hamda ixtiyoriy bo'ladi [7]. Lekin maktabgacha bo'lgan davrda faoliyatning yangi turlari va yangi talablari ta'sirida bolaning oldida o'ziga xos vazifalar paydo bo'ladi - diqqatni nimadadir jamlash va tutib turish, ma'lumotni eslab qolish va takrorlash, o'yinning rejasini tuzish va hokazo; u kattalardan o'rgangan muayyan yo'llardan foydalana boshlaydi. Bu diqqat, xotira, tasavvurning yangi, erkinligi bilvositaligi bilan tavsiflanuvchi darajasi shakllanishiga olib keladi. Maktabgacha davrda bola ancha-gina tajriba orttiradi, u muntazam ravishda boyib boradi: bilimlar, tasavvurlar, dastlabki tushunchalar to'planadi, ko'nikma va malakalar o'zlashtiriladi. Bolaning keyingi aqliy rivojlanishida obrazli xotira katta ahamiyatga ega bo'lib, u aynan maktabgacha davrda ayniqsa shiddat bilan boyib boradi. Tasavvurlar yoki ilgari idrok etilgan predmetlarning saqlab qolingani obrazlari maktabgacha yoshdagi bola xotirasining asosiy mazmunini tashkil etadi [8]. Xotiraning turlari ham ixtiyoriy va g'ayri-ixtiyoriyga ajratiladi. Ixtiyoriy xotira o'rganish, ya'ni bilimlarni oldindan maqsad qilib mustahkamlash (asosan takrorlash) yo'li bilan kuchliroq bog'langan. G'ayri-ixtiyoriy xotira ko'proq bevosita eslab qolish bilan bog'liq bo'lib, u yaqqol ifodalangan mnemik yo'nalishga, ya'ni eslab qolishga ruhiy hozirlik yo'nalishiga ega emas. Eslab qolingani narsa xotirada qancha uzoq saqlanishiga qarab lahzalik qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira farqlanadi [9]. Maktabgacha davrda xotiraning rivojlanishi g'ayri-ixtiyoriy, bevosita eslab qolish va yodga olishdan ixtiyoriy, bilvosita eslab qolishga asta sekin o'tish bilan tavsiflanadi. Bunda 3-4 yoshli bolalarda kichik va o'rta maktabgacha davrda xotirani rivojlantirishning tabiiy sharoitlarida, ya'ni mnemik muolajalarga maxsus o'rgatilmay eslash va xotirada tasavvur qilish g'ayri-ixtiyoriy xisoblanadi.

Maktabgacha davrda tafakkur rivojlanishining quyidagi bosh yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlanayotgan tasavvur zaminida ko'rgazmali-tasirchan tafakkurning yanada takomillashuvi, erkin va bilvosita xotira asosida ko'rgazmali - obrazli tafakkurning yaxshilanishi, nutqdan aqliy vazifalar qo'yish va hal etish vositasi sifatida foydalanish yo'li bilan og'zaki-mantiqiy tafakkurning faol shakllana boshlashi [10]. Maktabgacha bo'lgan davr so'ngida bolada rivojlana boshlaydigan og'zaki - mantiqiy tafakkur endi so'zlar bilan muolaja qilish hamda mulohazalar mantiqini tushunish malakasini ko'zda tutadi. Vazifalarni yechishda og'zaki mulohazalarni qo'llash qobiliyatini maktabgacha davr o'rtalarida ko'rish mumkin, lekin tasvirlab berilgan egosentrik nutq fenomenida juda yorqin namoyon bo'ladi kashf etgan va shu yoshdagi bolalarga taalluqli bo'lgan boshqa hodisa - bolalarning, masalan, predmetlar o'lchami va miqdorini taqqoslashdagi mulohazalariga xos mantiqsizlik shundan dalolat beradiki, hatto maktabgacha davrning oxiriga kelib, ya'ni 6 yoshda ham ko'pchilik bolalar mutlaqo mantiqiy fikrlay olmaydilar. Bolalarda og'zaki - mantiqiy tafakkurni rivojlantirish 2 bosqichda boradi. Ularning birinchisida bola

narsa va harakatlarga doir so'zlarning ma'nosini o'zlashtiradi, masalalarni hal etishda ulardan foydalanishga o'rganadi, ikkinchi bosqichda u munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar tizimini bilib oladi, mulohazalarning mantiqiy qoidalarni o'zlashtiradi. Bu so'nggi jarayon, odatda, maktab ta'limining boshiga tegishlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida ko'rsatilishicha bugungi maktab boladan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etish va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Shunday ekan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish, fikr yuritish jarayonlarini shakllantirish va shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga yaratuvchanlikni singdirish ota-ona, tarbiyachi va pedagoglarning muhim vazifasidir. Ana shunday ma'suliyatli vazifa hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari zimmasiga yuklatilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim jarayonining sezilarli darajada intensivlashishi, o'qitishning turli xil innovatsion usullaridan foydalanish barobarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich maktablarning an'anaviy dasturi va tarbiyalanuvchilari o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'la boshladi. Ushbu hodisaning sababi ko'pincha miya tuzilmalari shakllanishining yoshiga va individual xususiyatlariga bog'liq bo'lgan bolalarda kognitiv funksiyalarni rivojlanishining xyeterokronizmi sabab bo'ladi (Simernitskaya E.G., Tsvetkova L.S., Semenov A.V., Axutina T.V., Lebedinsky V.V.), Manelis N.G.). Rossiya ta'lim Akademiyasining Rivojlanish fiziologiyasi institutining ko'plab tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich maktab o'quvchilarining 15-40 foizida o'qishdagi qiyinchiliklar qayd etilgan [2]. Bundan tashqari, qiyinchiliklar sabablarini yetarli darajada aniq baholamaslik, shuningdek, maktabgacha ta'lim darajasida tashxis qo'yish ishlari yanada ko'proq muammolarni keltirib chiqarmoqda. I. Yu. Levchenkoga ko'ra [3], maktabgacha yoshdagi bolalarning 25 foizi individual yondoshishni, o'qitish va ta'lim olish uchun alohida sharoitlarni talab qiladi. Insonni ontogenezda majmual o'rganish muammosini ilgari surgan olimlar psixik va motor rivojlanishning o'zaro aloqadorligi masalasiga katta ahamiyat beradilar. Psixik va somatik xususiyatlar birligini ko'pgina mutaxassislar qayd etgan edilar. Harakatlar barcha psixik faoliyatlarga beistisno holda samarali ta'sir ko'rsatishi ko'pdan beri ma'lum. G.M. Kasatkinaning (1992) tadqiqotlarida bolalardagi harakat faolligi xususiyatlari bilan idrok, xotira, tafakkur va hissiyotlarning namoyon bo'lishi orasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjudligi tasdiqlangan. Maktabgacha davrda bola idrokining rivojlanish jarayoni A.A. Venger tomonidan batafsil tadqiq etilib, bayon qilingan. 3 yoshdan 7 yoshgacha bolada sermahsul konstruktorlik va badiiy faoliyat ta'sirida perspektiv analitik - sintetik faoliyatning murakkab ko'rinishlari yuzaga keladi, xususan, ko'rib turgan predmetni amalda qismlarga bo'lib, keyin yana yaxlit predmetga birlashtirishdan avval bunday muolajalarni xayolan bajarish qobiliyati paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar (3-6 yosh) idrok jarayonini o'rganar ekanlar, L.A. Venger, A.V. Zaporozhes [4] shuni aniqladilarki, idrokning boshqa psixik jarayonlar kabi muhim xossasi uning motivatsion jihatidir. Bolada so'z yuritilayotgan yoki mashg'ulotlarda namoyish etilayotgan narsa bor yoki yo'qligiga qarab idrok natijalari (uning tezligi, obrazlar aniqligi, belgilarning to'la aks etishi va h.k.) kabi istak hamda qiziqish turlicha bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv jarayonlari rivojlantirishning amaliy ahamiyati takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzusi yuzasidan nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish hamda tadqiqot manbasini yaratish;

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kognitiv jarayonlari rivojlantirishni diagnostika qilish metodikalarini tizimlashtirish va tatbiq qilish;

Tadqiqotning psixologik usullari ko'rish va eshitish xotirasi, tasavvur, idrok, ko'rgazmali-ramziy (obrazli) tafakkur va diqqat psixik sifatleri rivojlanishining yosh-jins dinamikasi xususiyatlarini aniqlash maqsadida qo'llandi.

Maktabgacha davrda tafakkur rivojlanishining quyidagi bosh yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlanayotgan tasavvur zaminida ko'rgazmali-tasirchan tafakkurning yanada takomillashuvi, erkin va bilvosita xotira asosida ko'rgazmali – obrazli tafakkurning yaxshilanishi, nutqdan aqliy vazifalar qo'yish va hal etish vositasi sifatida foydalanish yo'li bilan og'zaki-mantiqiy tafakkurning faol shakllana boshlashi. Maktabgacha bo'lgan davr so'ngida bolada rivojlana boshlaydigan og'zaki –mantiqiy tafakkur endi so'zlar bilan muolaja qilish hamda mulohazalar mantiqini tushunish malakasini ko'zda tutadi. Vazifalarni yechishda og'zaki mulohazalarni qo'llash qobiliyatini maktabgacha davr o'rtalarida ko'rish mumkin, lekin tasvirlab berilgan egosentrik nutq fenomenida juda yorqin namoyon bo'ladi kashf etgan va shu yoshdagi bolalarga doir so'zlarning ma'nosini o'zlashtiradi, masalalarni hal etishda ulardan foydalanishga o'rganadi, ikkinchi bosqichda u munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar tizimini bilib oladi, mulohazalarning mantiqiyligi qoidalarni o'zlashtiradi. Bu so'nggi jarayon, odatda, maktab ta'limining boshiga tegishlidir.

Tahlil va natijalar. Harakatli o'yinlar harakat qobiliyatleri va psixik jarayonlarni majmuali rivojlantirish vazifasining amalga oshirilishini maksimal darajada ta'minlaydi, chunki ularning mazmuni harakat dasturlarini shakllantirish va almashtirishga yo'naltirilgan. Ma'lumki, insonning rivojlanish jarayonida egallab boradigan harakat tajribasi turli darajadagi harakat dasturlarining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida o'z ifodasini topadi. Harakat malakalari qanchalik xilma-xil bo'lsa, yangi harakatlarni o'zlashtirish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'lishi tabiiy harakatli o'yinlar murakkab tizimlar bo'lgan tana va uning qismlari holatlari, harakatlar va harakat faoliyatlarining tez-tez almashinib turishi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib sensor va motor tarkibiy qismlar, ularning tizimidagi turli sathlari

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли қарори.lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси «Болалар ва ўқувчи ёшларни жисмоний тарбиялаш концепцияси» «Учитель Узбекистана» газетаси 1992 .
3. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество: Учебник для студ. вузов.- 5-е изд., стереотип. - М.: Изд. центр «Академия», 2000. - 456 с.
4. Козлова В.И., Фарбер Д.А. Физиология школьника. - М.: Педагогика, 1990.-64 с.
5. Бальсевич В.К. Онтокинезиология человека. - М.: Теория и практика физической культуры, 2000. - 275 с
6. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Под ред. Давыдова В.В. -М.: Педагогика, 1991.- 480 с.
7. Зеньковский В. В. Психология детства: Учебное пособие для вузов. -Екатеринбург: Деловая книга, 1995. - 347 с.
8. Яценко Л.Б. Влияние различных мышечных нагрузок на функциональное развитие нервной системы у дошкольников: Материалы всесоюз. науч. конф. М. 1999- 78-79с.
9. Асеев В.Г. Возрастная психология: Учебное пособие – Иркутск, 1989. – С.62-89
10. Эльконин Б.Д. Психология игры. -М.: Педагогика, 1978.-300с.

orasida o'zaro ta'sir yuzaga keladiki, bu yangi harakat dasturlarining paydo bo'lishi bilan kuzatiladi. Pedagogika amaliyotida predmetlar bilan syujetli, harakatli va didaktik o'yinlar farqlanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar juda katta ahamiyatga ega, harakatli o'yinlar kichik, o'rta va katta harakatchanlik darajasiga ega bo'lishi mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar tabiiy harakatlarni o'yinlar yordamida o'zlashtiradilar (qadamlab yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashish). Harakatli o'yinlar bolalarni jismonan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri. Ularni ikki yoshdan boshlab qo'llash mumkin. Bu davrda bolalar yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi hayot uchun zarur harakat ko'nikmalarini o'zlashtira boshlaydilar [8, 3]

Qiz bolalarda psixik jarayonlarning yillik o'zgarishlari o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha kuchli bo'lgan. Uch yoshda ularda o'quv yili uchun o'zgarishlar ko'rish xotirasi, idrok, tasavvur hamda diqqat ko'rsatkichlari bilan; to'rt yoshda – ko'rish va eshitish xotirasi, idrok hamda tafakkur bilan; besh yoshda – eshitish xotirasi, diqqat va tafakkur bilan; olti yoshda – eshitish va ko'rish xotirasi hamda idrok xotirasi bilan bog'liq bo'ldi. Yil davomida u yoki bu yosh guruhida psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining ishonchli bo'lmasa-da, pasayish faktleri ham sodir bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz. o'g'il bolalarda bu hodisa to'rt yoshda tasavvur ko'rsatkichlarini, olti yoshda tasavvur va diqqatni tahlil qilish vaqtida kuzatilgan bo'lsa, qizlarda muvofiq ravishda to'rt hamda besh yoshlarda idrok ko'rsatkichlari tahlili chog'ida ma'lum bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'quv mashg'ulotlarni o'tkazganda, psixik sifatlarining rivojlanishidagi sensitiv davrlarni hisobga olish zarur: o'g'il bolalarda uch yoshda diqqat va tasavvur hammasidan ko'proq rivojlanadi, qizlarda – ko'rish xotirasi va idrok; to'rt yoshda o'g'il bolalar va qizlarda ko'rish xotirasi va diqqat bir hil rivojlanadi; besh yoshda o'g'il bolalarda – ko'rish xotirasi va tasavvur, qizlarda – ko'rish xotirasi va tafakkur; olti yoshda o'g'il bolalar va qizlarda – ko'rish xotirasi va tasavvur ahamiyatli hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'quv mashg'ulotlarni o'tkazganda, psixik sifatlarining rivojlanishidagi sensitiv davrlarni hisobga olish zarur: uch yoshbolalarda idrok va diqqat hammasidan ko'proq rivojlanadi, to'rt yoshlilarda – tafakkur va idrok; besh yoshda idrok va tafakkur, olti yoshlilarda ko'rish xotirasi va tafakkur yuqori rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

Psixik jarayonlarning rivojlanish darajasini baholash maqsadida nazorat test o'tkaziladi. Keyin ilgari rejani takrorlash boshlanadi lekin endi boshqa harakatli o'yinlar guruhi, masalan, tezkorlik va diqqatni, tezkorlik va tafakkurni, tezkorlik va idrokni, tezkorlik va tasavvurni rivojlantiruvchi mashqlar beriladi. Shunday qilib barcha jismoniy sifatlarini kamrab oladigan jarayon nazorat sinovlarini ham inobatga olganda ko'pi bilan 6 – 8 oyni tashkil etadi.



Mahbuba JUMAYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: maxbubauktamovna@gmail.com

TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L. Muxtarova taqrizi asosida

YOSHLAR MA'NAVİYATIDA GLOBALLASHUVNING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Maqolada fan va texnikaning eng yuqori darajada taraqqiy etishi sababli butun er yuzida vujudga kelgan globallashuv jarayoni ta'sirida dinlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tillar va madaniyatlarning integratsiyalashuvi natijasida yoshlarni xulq-atvorida vujudga kelgan salbiy o'zgarishlar va ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar hamda uning echimiga asosli fikrlar bilan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'rifat, axloq, ta'lim, tarbiya, globallashuv, axborot, internet.

РОЛЬ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье описаны негативные изменения в поведении молодежи и образовании в результате интеграции религий, национальных ценностей, традиций, языков и культур под влиянием процесса глобализации, возникшего на всей земле из-за высочайшего уровня, уровень развития науки и техники. Проблемы, возникающие в процессе, и рекомендации по их решению даны с обоснованными соображениями.

Ключевые слова: Просвещение, этика, образование, воспитание, глобализация, информация, Интернет.

THE ROLE OF GLOBALIZATION IN YOUTH SPIRITUALITY

Annotation

The article describes negative changes in the behavior of young people and education as a result of the integration of religions, national values, traditions, languages and cultures under the influence of the globalization process that has arisen on the whole earth due to the highest level of development of science and technology. problems arising in the process and recommendations for its solution are given with reasonable ideas.

Key words: Enlightenment, ethics, education, upbringing, globalization, information, Internet.

Kirish. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi hamda yetuk mutaxassis bo'lib ona Vatanga xizmat qilishi uchun ular oldiga bir qancha talablar qo'yiladi: o'z-o'ziga talabchan bo'lish; o'z-o'zini nazorat qilish; o'zgalarni hurmat qilish; doimo kamtarlik yo'lini tutish; o'ziga ishonchi yuqori bo'lishi; iboli-hayoli bo'lish; halol va adolatparvar bo'lish; samimiy va beg'araz bo'lish; o'zgalar mehnatini qadrlay bilish; kasbiy va ma'naviy bilimlarni egallab borish; o'z manfaatlarini Vatan manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'rish; kamolotga erishishga intilish; barcha axloq qoidalari bo'yusinish; malakali mutaxassis bo'lishga astoydil intilish.

Ma'lumki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 25-dekabrda O'zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi.

Tahlil va natija. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori bilan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" qabul qilindi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi- yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, uni amalga ro'yobga chiqarish uchun Oliy

ta'lim hamda Xalq ta'limi xodimlaridan quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etilgan:

-ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

-tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish;

-bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

-tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

-ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

-ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Konsepsiya vazifalaridan ravshanki, "Har bir jamiyat va xalqning ma'naviyati va axloqi, inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan dini, iymon va e'tiqodi, urf-odat, axloq-odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va kishilarning faoliyati, qobiliyati yurish-turishida namoyon bo'ladi. Kishilarning ma'naviy fazilatlarini, dunyoqarashi, mafkuraviy e'tiqodi bilan bog'lanib muayyan tartibga tushadi va ularning bevosita ta'siri natijasida jamiyat oldidagi vazifalarni anglashga yordam beradi".

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichki-na-xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib,

ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o'chab bo'lmaydigan ziyonyetkazishi mumkin. Jumladan, ma'naviy tahdidlarning bir ko'rinishi bo'lgan «ommaviy madaniyat» niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta'siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyagaytmagan bolalarning turli internet klublarida o'tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;

- yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalarini bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongigayetakzadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundaygina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

Hozirgi davr - dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda eng dolzarb va olamshumul muammolardan hisoblangan xavfsizlik, barqarorlik va tinchlik masalalariga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Dunyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyoti va rivojlanishi aynan shu muammolarning qay darajada yechilishiga bog'liqdir. Hozirgi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir davrda Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikning, shuningdek, yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlanishi va ularni milliy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, hayotda o'zlarini munosib o'rinarini topish uchun zarur shart-sharoitlarini yaratib berish mintaqa davlatlari oldida turgan dolzarb masala bo'lib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini kuchaytirishni taqozo etadi. O'zbekistonning jadal rivojlani-shi, keng qamrovli islohotlar istiqboli, xalqning farovon bo'lishi yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yichayo'l xaritasida mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilmoqda. To'rtinchi ustuvor yo'nalish-adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning 70-maqsadi "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlanib, unda:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

- yoshlarning hayoti va sog'ligini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash;

- yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash;

- yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash;

- hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyat-larga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash;

- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

- iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllan-tirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalar qo'yilgan [1; 2].

Globalashuv jarayonining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan nomaqbul ko'rinishlarini va salbiy tomonlarini anglash, ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish bugunning zarurati hisoblanadi, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir; Globalashuv jarayo-nida jamiyatning barcha sohalaridagi o'zgarish va yangilanishlar turmushimizga goh ijobiy, goh salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash masalalari alohida o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Globalashuv jarayonining tezlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlarini va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan odob-axloq, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'naviy tahdid muammosiga alohida e'tibor qaratib, —Avvalambor, "Ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstre-mizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlari-mizning boy ma'naviy meroslariga tayanamiz, - deb ta'kidlaydi. Xalqimiz ma'naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan, bir so'z bilan aytganda, m'naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, globallashuv jarayonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli xil ko'rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta'siridan asrashda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratish zarur:

- mustaqil fikrga ega, sog'lom muhitda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega shaxslarni tarbiya-lash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siri hamda aqidasiga qarshi immunitet hosil qilish;

- mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash, internet tizimida diniy ekstremizm, terrorizm va missionerlikni targ'ib qiladigan saytlardan yoshlarni muhofaza qilish;

- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish;

- axborot madaniyatini shakllantirish;

-kishilarda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borish;

-diniy ekstremizm va terrorizm bilan kurashda huquq-tartibot idoralarini faoliyatini takomillishtirish.

Jamiyatimizda yoshlarni ruhiy-ma'naviy jihatdan xavfsizligini ta'minlash zaruriyatining sabablaridan biri shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti chet el sarmoyalari, zamona-viy texnika va texnologiya, bozorni shakllantirish usullari bilan bir qatorda mamlakatimizga o'zining madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va tasavvurlarini ham olib kirmoqda. Bu tabiiy jarayon, albatta va uni hech qanday to'siq bilan to'xtatib ham bo'lmaydi. Mafkuraviy muammo va

ma'naviy tahdidlarga ham aynan shunday xarakter xos bo'lganligi uchun ham keyingi paytda jamiyatimizga ayrim noxush va zararli mahsulotlar kirib keldi va keng tarqala boshladi. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz yoshlarini bunday ta'sirlardan ma'muriy yo'l bilan saqlab ham to'xtatib ham bo'lmaydi. Bunday yo'l tutilgudek bo'lsa, yoshlar orasida mafkuraviy muammo va ma'naviy tahdidlarga nisbatan qiziqish kuchayib, ularni yoshlar dunyoqarashiga ta'sir etish quvvati yanada oshib boradi. Bunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, endilikda "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. Lex.uz, 29.01.2022
2. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiёт kafolatidir // <http://uzlidep.uz/uzc/news>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>.
4. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". Toshkent, "O'zbekiston", 2021.B-457.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: O'zbekiston, 2008.- 61 b
6. Sh.Sh.Olimov "Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari" (Monografiya).-T.: "Fan va texnologiya" 2015. 228bet. 10-bet.
7. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T. «Sanostandart» nashriyoti, 2017-yil
8. <http://www.ziyonet.uz>
9. <http://www.edu.uz>



Shixnazar JUMANIYAZOV,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori
E-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

UrDU professori, DSc, M.Xajiyeva taqrizi asosida

TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA TALABA-YOSHLARDA AXLOQIY VA ESTETIK TARBIIYANI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Аннотация

Ushbu maqolada, rassomning go'zal asarlarini tomosha qilish orqali talabalarda rasm chizishga ishtiyoq va ijodkorlik va mehnatsevarlik belgilari paydo bo'lishi hamda rassomning tarbiyaviy-ma'rifiy xarakterga ega bo'lgan, muvaffaqiyatining asosini to'g'ri tanlashda halollik, donolik, insoflik, poklik fazilatlarini namoyon bo'lish xususiyatlari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek san'ati, rassom, asarlar, axloq, erkin fikrli kishilar, o'zbek xalqining kundalik turmushi, turmush tarzi, urf-odatlar, ijodkorlar qahramonlari, go'zallik tarbiyasi, o'zbek xalqi tarixi.

FACTORS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH FINE ART

Annotation

This article highlights that by watching the beautiful works of the artist, the enthusiasm for painting and signs of creativity and hard work appear in the students, and characteristics of the artist's educational and moral character, the features of honesty, wisdom, and purity in choosing the basis of his success.

Key words: Uzbek art, artist, works, morality, free-thinking people, everyday life, lifestyle, traditions of the Uzbek people, heroes of creators, beauty education, Uzbek history of the people.

ФАКТОРЫ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что при просмотре прекрасных работ художника проявляется увлечение живописью и признаки творчества и у учеников появляется трудолюбие, а также особенности образовательного и нравственного характера художника, черты честности, мудрости и чистоты в выборе основы своего успеха.

Ключевые слова: Узбекское искусство, художник, произведения, нравственность, свободомыслящие люди, повседневная жизнь, образ жизни, традиции узбекского народа, герои-творцы, образование красоты, история узбекского народа.

Kirish. Markaziy Osiyoda tarixiy, axloqiy, ma'naviy va go'zallik tarbiyasini tari Talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirish, san'at, an'ana va milliy urf-odatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirishda umumta'lim muassasasining o'rni, o'quv jarayoni va alohida fanlarning saviyasi va sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, tasviriy san'atning talabalarni milliy qadriyatlar va madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalashda kuchlantiruvchi omil sifatidagi o'rni kam o'rganilgan. Bu muammoni muvaffaqiyatli hal etishda oila va maktabning, olimlar va olimlar, madaniyat, adabiyot va san'at mutaxassislarining o'rni jamiyatga yordam beradi. Ayniqsa, qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'i nazar, insonlarda ezgu tuyg'ularning shakllanishi va tarbiyalanishi jarayonida birinchi navbatda, san'at mutaxassislari va soha mutaxassislarining o'rni juda muhimdir.

Shu nuqtai nazardan milliy san'atning imkoniyatlari keng hisoblanadi. Tarixiy shakllangan an'analarning o'ziga xos xususiyatlari tasviriy san'at talaba shaxsini axloqiy tarbiyalashda o'zining estetik kuchidan foydalanish imkonini beradi. "Estetik ong va estetik faoliyat tushunchasi mohiyatan yaxlit, o'zaro bog'liq bo'lib, estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi,-deya ta'kidlaydi nafosatshunos olim E. Umarov.-Mazkur fikrni boshqacha ifodalaganimizda, estetik faoliyat estetik ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirilishidir. Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Inson

faoliyatining xususiyati ana shu talab va ehtiyoj tabiati bilan belgilanadi"[1].

Insonparvarlik - bu shaxsning sifati bo'lib, uning axloqiy va psixologik xususiyatlarining yig'indisi bo'lib, insonga yeng oliy qadriyat sifatida ongli va yempatik munosabatni ifodalaydi. Insonparvarlik nuqtai nazaridan ta'limning yakuniy maqsadi har bir shaxsning to'laqonli faoliyat, bilim va muloqot subektiga, ya'ni bu dunyoda sodir bo'layotgan voqealar uchun javobgar, yorqin, mustaqil mavjudotga aylanishi mumkinligidir. Hozirgi vaqtda ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy ijtimoiy tendensiyalarini aks yettiruvchi yeng muhim ijtimoiy-pedagogik tamoyil sifatida qaralmoqda. Bu holda ta'limning asosiy ma'nosi shaxsni rivojlantirish, uning kognitiv, ma'naviy va faol salohiyatini faollashtirishga aylanadi. Ta'limni umumlashirilgan ma'noda insonparvarlashtirishni pedagogik jarayon subektlari o'rtasidagi munosabatlarni bir-birining shaxsiga o'zaro hurmat qilish asosida qurish sifatida tavsiflash mumkin. Shu bilan birga, pedagogik jarayonning mohiyati ijtimoiy tajribani shaxsiy tajribaga maqsadli aylantirishga erishishga aylanadi. Insonparvarlik tamoyili pedagogik jarayon ishtirokchilari, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aloqalar o'rnatilishini belgilaydi. U shaxsning umumiy madaniy, ijtimoiy, axloqiy va kasbiy rivojlanishining birligini nazarda tutadi. Bu jarayon o'quvchi ta'lim subyekti sifatida namoyon bo'lganda yeng yaxshi xususiyat kasb yetadi. Insonparvarlik tamoyili pedagogik jarayon ishtirokchilari, o'qituvchi va talabalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishini belgilaydi. U shaxsning umumiy madaniy, ijtimoiy, axloqiy va kasbiy

rivojlanishining birligini nazarda tutadi. Bu jarayon o'quvchi ta'lim subekti sifatida namoyon bo'lganda eng yaxshi xususiyat kasb yetadi. Insonparvarlik tamoyili pedagogik jarayon ishtirokchilari, ustoz va talabalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishini belgilaydi. U shaxsning umumiy madaniy, ijtimoiy, axloqiy va kasbiy rivojlanishining birligini nazarda tutadi. Bu jarayon o'quvchi ta'lim subyekti sifatida namoyon bo'lganda eng yaxshi xususiyat kasb yetadi.

Maqolaning nazariy jihatlariga e'tibor berar ekanmiz, Bugungi kunda mamlakatimizning turli hududlarida 130 dan ortiq millat va yelat vakillari yurtdoshlarimiz bilan bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashab kelishmoqda. Ular umumiy uyimiz - jonajon O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda.

Hozirgi kunda bag'rikenglik insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlar fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu ruhda va shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib kelmoqda.

Yurtimizda hukm surayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini kelgusida yangi bosqichga ko'tarish uchun hurmatli prezidentimiz oldimizga quyidagi maqsadlarni qo'yimoqda:

- jamiyatda fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldidagi tengligini ta'minlashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatni samarali tashkil yetish;

- millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi jarayonlar rivojining muttasil monitoringini yo'lga qo'yish;
- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish;

- yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida o'tkazilayotgan millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, anjumanlar, seminarlar, davra subhatlari, ma'ruzalar va boshqa tadbirlarning samarasini oshirish;

- millatlararo munosabatlar sohasidagi muammolarni o'rganish va ularni hal yetishda xorijiy tajribani tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida ana shu tajribadan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va yelat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini va ularning konstitusiyaviy huquq, erkinliklarini ta'minlash.

Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda biz pedagoglar uchun ham o'z yo'nalishimiz doirasida kasbimizga masuliyat hissini yuklatib kelmoqda. Biz pedagoglar doimo ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi asosiy kuch yekannimiz bu jarayoning qanday vujudga kelganiga, bu jarayonda bizga yuklatilgan muhim vazifalarni unutmasligimiz lozim. "Insonparvarlik pedagogika"si zamonaviy tarbiya nazariyasi va amaliyotida asosiy yo'nalishlardan biri xisoblanib. Insonparvarlik pedagogika yo'nalishi XXasrning 50-yillari oxiri-60-yillarining boshlarida AQShda paydo bo'lgan yo'nalish bo'lib, Insonparvarlik pedagogikasining falsafiy-g'oyaviy yo'nalganligi pedosentrizm g'oyalari yaqin. Pedosentrizm - tarbiyaviy konsepsiya bo'lib, oilaning qiziqishlari faqat bolaga qaratiladi. Insonparvarlik pedagogikasi yesa yangicha tarbiyalash va "progressivizm"

pedosentrizmi g'oyalari yaqinroq. Pedagog mutaxassislardan u bolani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishni, uning sezgisi va yehtiyojlarini his yetishni talab yetadi. Rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan AQShda yesa u boshlang'ich, o'rta va oily maktabda o'quv kurslarining mazmuniga va qurilishiga ta'sir ko'rsatadi bu esa o'qish sifatini yaxshi bo'lishi olib keldi.

Insonparvarlik deganda inson insonga dushman yemas, balki do'stligi va xayrixohlik demakdir. Bu qo'shningizga yordam berish, uni muammolar va qiyinchiliklardan himoya qilish istagi. Gumanizm, shuningdek, inson atrofida odamlarga sabr-toqat ko'rsatishi bag'rikenglik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Insonparvarlik barcha odamlarning teng huquqliligini, ularning fikr va his-tuyg'ularini erkin ifoda yetishni targ'ib qiladi va shuningdek ularni teri rangiga yoki diniga qarab hukm qilmaydi. Insonparvar inson faqat o'z aql-idroki va ijtimoiy me'yorlari asosida boshqariladigan hayvon instinktlari yo'lga ergashmaydi.

Zamonaviy davr insonparvarlik g'oyasiga o'ziga xos tuzatishlar kiritdi. Iqtisodiy beqarorlik, xalqlar o'rtasida jiddiy nizolarga olib keladigan millatchilikning avj olishi, aholining muhim qismining turmush darajasining pastligi insoniyatning, butun xalqlarning va har bir alohida shaxsning omon qolish muammosini keltirib chiqaradi. Axloqiy qadriyatlarda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda - kollektivizm, jamoat manfaati uchun g'amxo'rlik tobora ko'proq xudbinlik bilan almashtirilmoqda. Yosh avlodning bilim darajasi pasayib bormoqda. G'arbning "ommaviy" madaniyatining kuchli hujumi odamlarning ma'naviy salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Bularning barchasi, istisnosiz, insonparvarlik tarbiyasi - yosh avlodni insoniyat tarixi oldida o'z xalqi va o'z taqdiri uchun mas'uliyatni anglagan holda tarbiyalash muammosini dolzarblashtiradi.

Maqolaning amaliy jarayonida nazar solar ekanmiz, Insonparvarlikda barcha belgilar bir-biri bilan shunday bog'langanki, ulardan kamida bittasini amalga oshirish uchun real shart-sharoitlarning yo'qligi ushbu axloqiy hodisaning butun yaxlitligini buzadi va muqarrar ravishda insoniylikning buzilgan, qarama-qarshi shaklda namoyon bo'lishiga olib keladi. yoki ikkiyuzlamachilik zarurligiga yoki xayriyani inkor yetishga. Shunday qilib, inson farovonligiga g'amxo'rlik qilish insonparvarlikdir. Ammo, agar ma'lum bir shaxsning farovonligi uning qadr-qimmatini kamsitish, boshqa odamlarning qadr-qimmatiga zarar yetkazish hisobiga yaratilgan bo'lsa, xatti-harakatlar g'ayriinsoniy bo'lib qoladi.

Yaxshi o'qituvchilar har doim o'quvchilarning darsda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam berish uchun o'z usullarini yaxshilash yo'llarini izlaydilar. Turli xil o'qitish nazariyalari va usullari o'qituvchilarga turli talabalar bilan ularning ta'lim uslublari va qobiliyatlari asosida muloqot qilishlariga yordam beradi. Talabalarga yo'naltirilgan o'qitish strategiyalari ko'pincha o'quvchilarga yaxshiroq o'rganish va o'sishga yordam berishda katta muvaffaqiyatlarga yerishadi. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlar o'quvchini ta'lim muhitida obro'-ye'tiborga aylantiradi va ular ta'limning markazida bo'lishini ta'minlashga yordam beradi va o'z bilimlarini nazorat qiladi.

Talabaga yo'naltirilgan ta'lim g'oyasi harakatdagi insonparvarlik tamoyilining namunasi. Hozirgi va intiluvchan o'qituvchilar o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim va o'z sinflarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan boshqa gumanistik yondashuvlarni o'rganishdan foyda olishlari mumkin. Ushbu yondashuvlar talabalarga haqiqatan ham o'rganish va akademik muvaffaqiyatga yerishish uchun juda muhim bo'lishi mumkin.

Gumanizm tamoyili o'z-o'zini namoyon qilishga olib keladigan bir nechta muhim fikrlarni o'z ichiga oladi. O'z-

o'zini namoyon qilish - bu sizning barcha yehtiyojlarinigiz qondirilganda, siz o'zingiz bo'lishi mumkin bo'lgan yeng yaxshi odamga aylangansiz va siz qoniqasiz. Maslou va gumanistlar ko'pchilik odamlar o'z-o'zini anglashga yerisha olishlariga ishonmasalar ham, ular biz doimo uni izlashda yekanaligimizga ishonishadi va biz qanchalik yaqin bo'lsak, shuncha ko'p o'rganishimiz mumkin. Tanlov insonparvarlik tamoyilida markaziy o'rin tutadi. Gumanistik ta'lim o'quvchilarga qaratilgan bo'lib, talabalarni o'z ta'limini nazorat qilishga undaydi. Ular kundalik ishlardan tortib kelajak maqsadlarigacha bo'lgan tanlovlarni amalga oshiradilar.

Talabalar o'zlarini tanlagan vaqt ichida ma'lum bir qiziqish sohasiga ye'tibor qaratishlari tavsiya yetiladi. Gumanistik ta'limdan foydalanadigan o'qituvchilar bunga ishonishadi. Talabalar uchun motivasiya va o'rganishga jalb qilish juda muhim va bu talabalar haqiqatan ham bilishni xohlagan narsani o'rganishga qaror qilganlarida sodir bo'ladi. Talabalarni mustaqil o'rganishga ilhomlantirish uchun faollikni targ'ib qilish. Ushbu psixologik yondashuvning samaradorligi o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirishi va motivasiyasini his qilishlariga asoslanadi, shuning uchun ular o'rganishni xohlashadi. Shunday qilib, insonparvarlik prinsipi o'qituvchilarning o'quvchilarni qiziqtirishi uchun ularni o'rganishga qiziqadigan narsalarni topishga undashga tayanadi. Ushbu psixologik yondashuvning samaradorligi o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirishi va motivasiyasini his qilishlariga asoslanadi, shuning uchun ular o'rganishni xohlashadi.

Shunday qilib, insonparvarlik prinsipi o'qituvchilarning o'quvchilarni qiziqtirishi uchun ularni o'rganishga qiziqadigan narsalarni topishga undashga tayanadi. Ushbu psixologik yondashuvning samaradorligi o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirishi va motivasiyasini his qilishlariga asoslanadi, shuning uchun ular o'rganishni xohlashadi.

Shunday qilib, insonparvarlik prinsipi o'qituvchilarning o'quvchilarni qiziqtirgan narsalarini topishga undash orqali ularni o'rganishga qiziqishlariga tayanadi.

O'z-o'zini hurmat qilishning ahamiyati. Aksariyat insonparvar o'qituvchilar uchun baholar muhim yemas. O'z-o'zini baholash - ta'lim qanday ketayotganini baholashning yeng muhim usuli. Talabalarni baholash o'quvchilarni o'rganishdan qoniqish va hayajonga asoslangan biror narsa qilishdan ko'ra baholash uchun ishlashga undaydi. Muntazam sinov va yeslab qolish mazmunli o'rganishga olib kelmaydi va shuning uchun insonparvar o'qituvchilar tomonidan rag'batlantirilmaydi. Gumanistik o'qituvchilar bolalarga o'z taraqqiyotiga qanday munosabatda bo'lishlarini ko'rishlari uchun o'z-o'zini baholashga yordam beradi.

Tuyg'ular va bilimlar o'quv jarayoni uchun muhimdir va ularni gumanistik psixologiyaga ko'ra ajratmaslik kerak. Gumanistik o'qituvchilar bilim va his-tuyg'ular o'quv

jarayonida yonma-yon borishiga ishonishadi. Kognitiv va hissiy ta'lim gumanistik ta'lim uchun muhimdir. Dars va mashg'ulotlar u yoki bu narsaga yemas, balki butun o'quvchiga, uning aql-zakovati va his-tuyg'ulariga qaratilishi kerak.

Xavfsiz o'quv muhiti. Insonparvarlik tamoyili butun o'quvchiga qaratilganligi sababli o'qituvchilar o'quvchilar o'z yehtiyojlarini iloji boricha qondirishlari uchun xavfsiz muhit yaratish zarurligini tushunadilar. O'rganishga ye'tibor qaratish uchun ular jismoniy, aqliy va hissiy jihatdan xavfsiz his qilishlari kerak. Gumanistik o'qituvchilar talabalarga imkon qadar ko'proq yehtiyojlarini qondirishga yordam berishga ishtiyoqlikdir.

Ta'limdagi ushbu tamoyilning ildizlari gumanistik psixologiyaga asoslangan bo'lib, asosiy tushunchalar bolalarning tabiatan yaxshi ekanligi va ta'lim "butun" bolani o'qitishning barqaror usullariga qaratilishi kerak degan g'oyaga asoslangan. Bu nazariya shuni ta'kidlaydiki, talaba qanday o'rganish bo'yicha dominantdir va ular yaxshi o'rganishlari uchun ularning barcha yehtiyojlarini qondirilishi kerak. Gumanistik nazariya yondashuvi ta'limning bir qismi sifatida ijtimoiy ko'nikmalar, his-tuyg'ular, aql, badiiy mahorat, amaliy ko'nikmalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, Hozirgi zamonda irqchilik, etnik kamsitish, nogiron fuqarolarga nisbatan kamsitishning hozirgi bosqichida ta'limning maqsadi o'quvchilarning bilim va tushunchadan faol faoliyatga o'tishini pedagogik jihatdan osonlashtirish bo'lishi kerak: madaniyatlar tengligini tushunishdan muammoni hal qilishga qaratilgan faoliyatga. mavjud madaniy mojarolar, madaniy kamsitish, madaniy tajovuz va madaniy vandalizmni minimallashtirish. Bu turli darajadagi ta'lim dasturlariga turli etnik, irqiy, ijtimoiy, diniy, gender va boshqa guruhlarning madaniyatlarini kiritishni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan insonparvarlik dunyoqarashi, insonparvarlik kabi tushunchalarning mohiya-tini dolzarblashtirish alohida ahamiyat kasb yetadi. Uyg'onish davri o'zining Sharq va G'arb versiyalarida dunyoga yangicha qarashni, ilm-fan va insonparvarlikni anglashni olib keldi. Uyg'onish davri antroposentrizmi insonni barcha bilimlar, tafakkur va insonparvarlik ideallarining markazi va maqsadi qilib qo'yadi. Mutafakkirlar insonning ma'naviy-axloqiy tabiatini shakllantirishga katta ye'tibor berishadi, fan ijodiy shaxsning kognitiv va faol yerkinligi chegaralarini kengaytirish vositasi sifatida qaraladi. Bu davr insonparvarlik madaniyatida fanning qadriyat-axloqiy, insonparvarlik, dunyoqarash yo'nalishlari tendensiyasi amalga oshadi. Ilmiy bilim va insonparvarlik qadriyatlari ustuvorligi bilan o'zaro bog'langan, o'zaro bog'liq kategoriyalar sifatida talqin etiladi. Uyg'onish davri antroposentrizmi insonning kosmik faoliyati va zamonaviy ilm-fanning gumanistik masalalarga jiddiyroq burilishlari bilan ajralib turadigan zamonaviy jamiyatimizda o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak Ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat. 2008.
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T.: Adolat, 2017. – B. 22.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi 60-son —“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni” Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son
4. Abdullayeva Sh.A. Obmaya pedagogika. –T.:O'qituvchi, 2017 g
5. Voxidov R, Maxmudov M. Imon qalb gavhari. Toshkent.; Ma'naviyat, 1999. – 200 b
6. Qurbonova D.A. Ingliz tili darslarida o'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglik kompetensiyasini shakllantirish usullari, metodlari, mexanizmlari // Filologiya va til o'qitish metodikasining dolzarb muammolari va istiqbollari: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021 yil 21-22 may. – Jizzax, 2021. – B. 601-603
7. Xudoyqulov X.J. Pedagogika va Psixologiya. –T.: Dizayn Press, 2011 y
8. Xudoyqulov X.J. Pedagogik mahorat. –T. Navro'z, 2011.
9. Xudoyqulov X.J. O'zbekning g'ururi- uning odobida. Toshkent.Dizayn Press, 2007.150 b



UDK:378.2

Nazar YO'LDOSHEV,

Qarshi innovatsion ta'lim universiteti Pedagogika va xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail:nazaryuldashev7@gmail.com

Dotsent, filologiya fanlari nomzodi K.Marqayev taqrizi asosida

PROBLEMS OF DOLZARB OF NATIVE LESSONS OF PRIMARY CLASS

Annotation

This article reflects on the current problems of primary school mother tongue classrooms today. Every day new decisions and decrees are introduced by our president and the Ministry of Education to improve the quality of education. Through this article, we would like to highlight some of the problems of elementary school mother tongue subjects and explain the measures to eliminate them.

Key words: Nutrition, training, methodology, literacy, development, speech development, phonetics, grammar, content, essence, task, knowledge, memory, intelligence, perception, speech development.

ПРОБЛЕМЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Аннотация

В данной статье размышляют актуальные проблемы кабинетов родного языка в начальной школе на сегодняшний день. Каждый день наш президент и Министерство образования вносят новые решения и указы для улучшения качества образования. В этой статье мы хотели бы осветить некоторые проблемы преподавания родного языка в начальной школе и объяснить меры по их устранению.

Ключевые слова: Питание, обучение, методика, грамотность, развитие, речевое развитие, фонетика, грамматика, содержание, сущность, задача, знания, память, интеллект, восприятие, речевое развитие.

BOSHLANG'ISH SINIF ONA TILI DARSLARINI DOLZARB MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarining bugungi kundagi dolzarb muammolari haqida fikr yuritilgan. Kundan kunga ta'lim samrasini yaxshilash uchun prezidentimiz va ta'lim vazirligi tomonidan yangi qarorlar va farmonlar joriy qilinmoqda. Biz ham ushbu maqola orqali boshlang'ich sinf ona tili fanlarining ayrim muammolarini yoritib uni bartaraf etish choralari bayon etmoqchimiz.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, metodika, savod chiqarish, rivojlanish, nutq o'stirish, fonetika, grammatika, mazmun, mohiyat, vazifa, bilish, xotira, aql, idrok, nutq o'stirish.

Kirish. Boshlang'ich sinf ona tili fanining asosiy maqsadi o'quvchilarga savod chiqarishlarida, o'quv mashg'ulotlarini yaxsh o'zlashtirishlarida ko'mak berish va yosh avlodni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Mag'rur jaranglab kelayotgan ona tilimizning go'zalligi, jozibadorligi, sofligini saqlash, uning beqiyos go'zalligini ta'minlash, shu tilda bitilgan asarlarning mazmun –mohiyatini anglash, milliy urf-odatlar va milliy qadriyat-larimizni yosh avlod ongiga va ruhiyatiga singdirish biz ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining asosiy vazifadir. Bizga ma'lumki, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchi-larda fonetika va grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyat-laridan unumli foydalan-gan holda nutqni to'g'ri va ravon bayon etishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni, shuningdek, o'quvchi shaxsini tarbiyalash-ga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iboratdir. Mana shu vazifalarni chuqur his qilgan va anglagan holda har bir ona tili va adabiyot o'qituvchisi o'quvchi-larimizda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun fidoyi ustoz bo'lishga harakat qilishi lozim. Nutqiy ravon, dunyoqarashi keng bo'lgan, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ifoda eta oladigan, ma'naviyatli va madaniyatli, har tomonlama yetuk shaxsni barkamol inson qilib tarbiyalash bizning vazifamiz. Biz bunday mas'uliyatli vazifani ado etishda ba'zi ona tilini o'qitishdagi muammolarga duch kelamiz, ularning kelib

chiqish sabablari va muammoni bartaraf etish yo'llari bo'yicha o'z fikr va mulohazalarimni aytib o'tmoqchiman.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari bu davrda ona tili kursida tilning hamma tomonlarining o'zaro bog'liq holda o'rganilishlari, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasalishi haqida elementar bilim beriladigan. Chunki darslikning bunday tuzilishi tilning barcha tomonlarini birbiriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jaryonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini bajaradi.

Dasturning grammatika, imlo va nutq o'stirish bo'limida har bir sinfda quyidagicha qismlarni o'z ichiga olgan: tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq. Asosiy mavzular bosqichli izchillikka asoslanib, har bir sinfda o'rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratilgan. 1 va 2-sinflarda fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta ahamiyat berilgan, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini o'rganadilar. 3-sinfda so'zning morfemik tarkibi va gapni o'rganish muhim sanaladi. So'z yasalishiga doir bilimlar asosida o'quvchilarda so'zning leksik ma'nosini, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat bildiradilar. 4-sinfda esa so'z turkumlarini o'rganish birinchi o'rinda ahamiyatga kasb etgan (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qo'shirmalarini, fe'llarning tuslovchi qo'shimchalarini to'g'ri yozish malakalari rivojlantiriladi).

Bog'lanishli nutq ustida to'rt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni o'rganish izchillikda olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma'nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi haqida o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini birinchi o'ringa qo'ydi. Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirildi va bugungi kunda ham davom etirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi hisoblanadi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yaratishda va yangi avlodni yaratishda dasturulamal vazifasini bajarmoqda.

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qilish, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'zini anglash salohiyatini rivojlantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini anglashga, go'zallik va nafosatdan zavqlanishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi“.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni talab etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, „Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarda“ ta'lim sohalar bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak.

„Ta'lim to'g'risida“ gi qonunda boshlang'ich ta'lim va umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalar asoslarini shakllantirishga qaratilganidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Demak bugungi kunda, ona tili fanni o'qitishda qanday muammolarga duch kelishimiz mumkin?

1. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqning hali to'liq va ravon rivojlanmaganligi.

2. O'z fikrlarini to'g'ri bayon eta olmaslik;

3. O'qituvchilarning adabiy til me'yorlariga amal qilmaslik;

4. Darsliklarda fonetika va orfografiya bo'limlari bo'yicha o'quvchilarda hali ma'lumotlarning kam ekanligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqidagi bunday muammolarni bartaraf etish uchun ularning

so'z boyliklari va ona tili darslarini yaxshi o'zlashtirib borishlarini nazorat qilib borish kerak.

Og'zaki nutqdagi bunday muammolarni hal etish uchun bir qator ishlarni amalga oshirish lozimdir. Jumladan:

- 3 va 4-sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik konkurslarini tashlik etish;

- o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan dars mashg'ulotlarida hamda to'garak mashg'ulotlari davomida bahs-munozaralar tashkil qilish;

- maktabda teatr va shu kabi o'quvchilarga qiziqarli bo'lgan tadbirlarni tashkil etish;

- o'qilgan asarlarni sahnalashtirib, teatr tomoshalari namoyishi etishlari;

- teatr tomoshalariga dars jarayonlarini o'zlashtirishlari qiyin bo'lgan o'quvchilarni jalb qilish;


- o'quvchilar nutqini rivojlantirish, to'g'ri va ravon gapirishga yo'naltirish uchun „Nutq madaniyati“, „Notiqlik sanati“ „Savodxonlik“ kabi to'garaklar tashkil qilish lozim.

Yozma nutqdagi muammolarning yuzaga kelishiga esa:

- darsliklarda fonetika va orfografiya bo'limlari bo'yicha ma'lumotlarining kam ekanligi,

- o'quvchilar so'z boyligining yetarli emasligi va ularni o'z o'rnida qo'llay bilmasliklari, so'z ma'nolarini to'g'ri anglamasliklari, bir biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni to'g'ri ishlata olmaslik ma'nodosh so'zlarni to'g'ri ishlata olmasliklari kabi holatlar sabab bo'ladi.

1995-yilda qabul qilingan „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ 7 bo'lim va 82 bandedan iboratdir. Mana shu qoidalar darsliklarda alohida mavzu, bo'lim sifatida o'rganil-maydi. To'g'ri, bu qoidalar mavzular tarkibida organi-ladi, lekin toliq qamrab olinmagan. „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ning qo'shib yozish bo'limida tarkibida poya, xush, ham, bop, baxsh, mijoz, sifat, talab noma so'zlari bo'lgan qo'shma ot va sifatlarning qo'shib yozilishi to'g'risida to'liq ma'lumot berilmagan (bedapoya, ommabop, kamquv-vat) narsaning rangi, mazzasi o'zidagi biror belgisi asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yozilishi haqida darsliklarda tushunchalar berilmagan. O'qituvchi bunday ma'lumotlarni o'quvchilarga qo'shimcha ravishda ot va sifat mavzularini o'tish davomida tushuntirib ketmasa, o'quvchilar yozma nutqida ko'plab mumammolarga duch kelishlari mumkin. Bunday mummmolarni oldini olish uchun o'qituvchidan katta kuch va mahorat talab qilinadi. Agar o'quvchilar imlo qoidalari bilan to'liq tanishgan bo'lganlarida edi, ularning yozma nutqidagi kamchiliklar osongina bartaraf qilingan bo'lar edi.



Tahlil va natijalar. Nutq tovushlari va ularning tasnifi bo'yicha o'quvchilarga to'liq ma'lumot berish lozimdir. Bunda:

orfografiya va uning tamoyillari bo'yicha ko'proq tushuncha berish;

imlo lug'ati bilan ishlashni o'rgatish va tushuntirish;

har darsda lug'at diktantlar olib borishni yo'lga qo'yish;

ma'nosh va qarama qarshi ma'noli so'zlarni va ularning ma'nolarini o'quvchilarga batafsil tushuntirish orqali ham yozma nutqda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga yo'l qo'ymaslik mumkin.

Shuningdek ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil etish shakillarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi muammolarni e'tiborga olsa va shu asosida ish yuritisa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Umumiy o'rta ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4- sinflarni o'z ichiga oladi va bu bosqich ta'lim sohasi uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar boshlang'ich sinfda birinchi navbatda tilni, nutqni, o'quv predmeti sifatida biladilar va anglaydilar, ular istagan va qiziqarli narsalarinigina emas, balki zaruriy narsa va predmetlar haqida o'ylab fikr yuritadilar va rejali nutq tuzish zarurligini ham tushunib boradilar. Bu borada ona tili fani kata ko'mak beradi, chunki ona tili fani orqali o'quvchilar so'z boyligi ortadi va o'z fikr muohazalarini to'g'ri va to'liq bayon etishni o'rganadilar. Lekin shuni e'tiborga olish kerakki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida bog'lanishli nutq alohida bo'lim sifatida darslikka kiritilmagan va u darslikning boshqa bo'limlari bilangina shakllantirilgan.

Boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi fani quydagi bo'limlarni o'z ichiga oladi;

Savod o'rgatish metodikasi;
O'qish metodikasi
Grammatika, fonetika va so'z yasashni o'rgatish metodikasi;

Nutq o'stirish metodikasi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi muammolar ijobiy hal qilinsa, o'quvchilar to'g'ri yozishning fonetik, morfologik, shakliy tamoyillarini yaxshi o'zlashtirishadi, o'z fikr mulohazalarini og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rganadilar, xatosiz yozishga odatlanadilar, unli va undoshlar tasnifini to'liq organib, so'zda ularni to'g'ri ishlata o'rganadilar, shuningdek, so'zlarning ma'nolarini tushunib yetadilar. Biz o'qituvchilar har birimiz o'z ishimizga mas'uliyat bilan yondashib, tilimizning beqiyos go'zalligini yosh avlodning qalbiga va ongiga singdirib borsakkina, ota-bobolarimizdan meros bo'lgan ona tilimizni kelgusi avlodlarga sofligicha topshira olamiz. Zero, Alisher Navoiy bobomiz tabiri bilan aytganda, o'n sakkiz ming olamdan ham boyroq bo'lgan ona tilimizning boyligi va sofligini ta'minlash bu bizning odamiylik burchimizdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/> - 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами.–Т., 2017. Б.38.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi erak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Abdullayeva B.S.Fanlararo aloqadorlik turlari hakida // Uzluksiz ta'lim. -2005.
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai. -T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
6. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.–160 b.
7. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990. – 199 b.
8. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome' As-sahih. 4 kitob. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 550 b.
9. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
10. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. O'quv qo'llanma.-Almati: Nurli beyne, 2004.-201 b.
11. Amir Temur o'gitlari (to'plam)Tuzuvchilar:B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro'z, 1992. – 64 b.
12. Baxramov A., Sharipov Sh., Nabiye M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktblarining 3-sinf uchun darslik. – T.:Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019-yil. –28 b.
13. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl.asarlar.– T.: Fan, 1 t. 1968. – 488 b.
14. Ergashev Q. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi. Toshkent: Ma'naviyat. – 1999, 38 b.



UDK:7.01(075.8)

Dilbar KADIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professor v.b., falsafa fanlari nomzodi
E-mail: dilbarkadirova1@gmail.com

University of management and future technologies dotsenti, (PhD) Z.Nurullayeva taqrizi asosida

NOSAN'AT OB'EKTLAR ESTETIKASIDA ESTETIK ME'ZON VA ME'YORLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada tabiat estetikasi, mehnat estetikasi, turmush estetikasi kabi nosan'at ob'ektlarda nafasatni, uyg'unlikni, yaratilishida estetik mezon va me'yorlarning o'rni, ularda garmoniya, ritm, ranglar, mutanosiblik, fraktallar va simmetriyaning ahamiyati va nosan'at ob'ektlarning estetika bilan uzviyligi masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tabiat, mehnat, turmush estetikasi, moda, kiyinish estetikasi, reklama, logotiplar estetikasi, san'at, me'yor, mezon, rang, fraktallar, simmetriya, garmoniya, proporsiya, go'zallik.

ЗНАЧЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКИХ КРИТЕРИЙ И НОРМ В ЭСТЕТИКЕ НЕХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБЪЕКТОВ

Аннотация

В статье изучается роль и особенности эстетических критериев и норм в создании прекрасного и гармонии в нехудожественных объектах, таких как эстетика природы, эстетика труда, эстетика повседневности, а также значение гармонии, ритма, цвета, пропорции, фракталов и симметрии в них, и связь нехудожественных объектов с вопросами эстетики.

Ключевые слова: Природа, труд, эстетика повседневности, мода, эстетика одежды, реклама, эстетика логотипов, искусство, норма, критерия, цвет, фракталы, симметрия, гармония, пропорция, прекрасное.

THE IMPORTANCE OF AESTHETIC CRITERIA AND NORMS IN THE AESTHETICS OF NON-ART OBJECTS

Annotation

The article studies the role and features of aesthetic criteria and norms in the creation of beauty and harmony in non-artistic objects, such as the aesthetics of nature, the aesthetics of work, the aesthetics of everyday life, as well as the meaning of harmony, rhythm, color, proportion, fractals and symmetry in them, and connection of non-artistic objects with issues of aesthetics.

Key words: Nature, work, everyday aesthetics, fashion, clothing aesthetics, advertising, logo aesthetics, art, norm, criteria, color, fractals, symmetry, harmony, proportion, beauty.

Kirish. Ma'lumki, estetika fani nafaqat san'atni o'z ichiga oladi, estetika nosan'at obyektlarda ham mavjud bo'lib, bugungi kunda kundalik hayotimizni estetik qonuniyatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Nosan'at obyektlar estetikasi esa, asosan tabiat, mehnat va turmush estetikasidan iboratdir. Masalan, san'at va dizaynni ni vujudga kelishida tabiat munosib o'rin egallagan, tabiatga taqlid asosida ko'plab san'at asarlari va san'at janrlari vujudga kelgan. Odam tabiatning tovushlarini, ritmlarini, ranglarini, tebranishlarini o'z sezgilarini orqali anglaydi va ular asosida turli shakllar, tasvirlarni yaratadi. Ammo inson, tabiatni mexanik tarzda nusxalamaydi. Mutlaq mukammallikka intilish, inson tabiatiga xos bo'lgan ijodkorlikning asosidir. Maqsadga muvofiq harakat qilib, inson yangi voqelikni – moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratdi, unda insonning ijodiy dahosi mujassamlashdi. Shunday qilib, madaniyat "ikkinchi tabiat" sifatida tabiatni o'zgartirdi, takomillashtirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Antik falsafada tabiatga; stixiyali kuchlar (Demokrit); ideal dunyoning in'ikosi (Aflotun); uyg'un jarayon (Pifagor); mukammallik (Arastu), deb qaralgan[1]. Diniy ta'limotlarda tabiat ruhiy ibtidoaning moddiy gavdalanishi va Xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg'onish davrida tabiatga barcha tabiiy uyg'unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida qaralgan. G'arb faylasuflaridan Benedikt Spinoza esa, bundan farqli ravishda: "Men tabiatni na go'zal, na xunuk, na tartibli, na betartib deb tariflamayman. Zero, tabiat ham narsalar kabi faqatgina bizning tasavvurimizga ko'ra go'zal

yoki xunuk, mukammal yoki tartibsiz deb baholana-di"[2]. Tarixan qadimgi Misr va Bobilda (Bobil "osma bog'lari"), Qadimgi Yunoniston shaharlarida bog' san'ati mavjud bo'lgan. "Yevropada peyzaj bog'dorchiligining yuksalishi, Uyg'onish davrida, asosan Italiya va Fransiyada qayd etilgan; bu yerda monumental zinapoyalar, kaskadlar, ko'plab haykallar bo'lgan hudud reliefi faol ishlatilgan. Keyinchalik klassitsizmning estetik ideallari (qat'iy uyg'unlik, ratsionalizm, simmetriya) park ansamblarini rejalashtirish tamoyillarida o'z aksini topgan"[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, estetika fani san'atning turli ko'rinishlari va janrlarida mavjud bo'lgan umumiy va universal qonuniyatlarni topishga intiladi, mazkur sohaning eng fundamental tushuncha va prinsiplarini shakllantiradi. Tarixan tabiat va san'atning birlashtirgan bir qancha tarmoqlar yuzaga keldi, masalan: landshaft bog'dorchiligi, bog' va park san'ati, floristika, ekibana, fitodizayn va b. Ularda barcha estetik mezonlar amal qilishini kuzatishimiz mumkin, ya'ni g'oyaviy mezonlar (g'oya, mazmun, uslub), rivojlantiruvchi mezonlar (dinamika, kontrast), me'yor mezonlari (garmoniya, ritm) va tashkiliy shakliy mezonlar (shakl, janr va kompozitsiya). Biz maqolada, tabiat, mehnat, turmush estetikasi kabi nosan'at ob'ektlar estetikalarida estetik ob'ektlarni ushbu mezonlar va ularning qonuniyatlari asosida umumlashtirgan holda tahlil qildik.

Tahlil va natijalar. Inson uzoq davom etgan ijod faoliyati jarayonida, san'at asarlari va me'morchilikda, buyumlarning tuzilishida, simmetriya va asimmetriya bilan

bog'liq qonuniyatlarni qo'llagan. Simmetriya va asimmetriya vositalari orqali badiiy muvozanatning statik (tinch holati) va dinamik (serharakat) kompozitsiyalariga erishiladi.

Simmetriya tabiatda o'zida mavjud bo'lib, unda tirik organizmlar evolyusiyasi jarayonida o'z simmetriyasini shakllantirganlar. Tana a'zolari qismlarining simmetrik joylashuvi, tirik organizmlarga harakat va ish paytida muvozanatni, hayotiylikni va moslashishni ta'minlaydi. Tabiatdagi simmetriya turlari 1 - ko'zguli (ikki tomonlama; barg simmetriyasi); 2 - radial nurlil (moychechak simmetriyasi); 3 - konus simmetriyasidan iboratdir.

Ritm – elementlarning vaqt va makonda muntazam almashinuvi, takrorlanishi bo'lsa, biologik ritm (bioritmlar), vaqti-vaqti bilan biologik jarayonlar va hodisalarning tabiati va intensivligining o'zgarishidir. Kundalik va mavsumiy ritm - kunduzi va kechasi va mavsum o'zgarishi tufayli, biologik jarayonlar va hodisalarning intensivligi va tabiatining davriy o'zgarishini anglatadi.

Fraktallar. "Fraktal" atamasi Benoit Mandelbrot tomonidan 1975 yilda kiritilgan va u 1977 yilda "Tabiatning fraktal geometriyasi" kitobining nashr etilishi bilan mashhur bo'lgan[4]. Fraktal (lotincha – singan, bo'laklarga bo'lingan) – u o'ziga o'xshashlik xususiyatiga ega, bo'lgan geometrik shakldir, ya'ni u bir nechta qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri, butun tasvirga o'xshaydi. O'simliklar, masalan, hayvonlardan farqli o'laroq, aniq fraktal shaklga ega. Daraxtdan shoxga, shoxdan novdaga qarab, daraxtga aynan o'xshash shakl kichrayib boradi [5]. Landshaftning sifatini belgilovchi yetakchi uchta blok mavjud bo'lib, ular: topologik, funksional va estetik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Mehnat estetikasida mehnat va ishlab chiqarishni go'zallik va maqsadga muvofiqlik asosida tashkil etish quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish binolari uchun estetik mos arxitekturani loyihalash; dam olish joylarining intererlarini bezatish; qulay va chiroyli ish kiyimlarini yaratish; hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish va b. Ular esa, o'z navbatida estetik mezonlarga amal qilishni talab qiladi, estetik mezonlar esa, mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Estetika fanining tadqiqot ob'ektlaridan biri san'at ekan, san'atning kelib chiqishida ham mehnatning rolini unutmashimiz kerak. Qadimgi inson nafaqat g'orlarga, eng avvalo mehnat qurollariga bezak bera boshlaganini ko'plab manbalarda uchratishimiz mumkin. Mehnat orqali san'at ham charxlanib borgan. Shuningdek, mehnat estetikasi - ishlab chiqarish muhitiga yangi estetik ko'rinish berish maqsadida, unga estetik qonuniyatlarni kiritish va ishlab chiqarishning umumiy madaniyatini oshirish demakdir. O'tgan asrlardan boshlab estetika sohasida texnika estetikasi, ishlab chiqarish estetikasi, badiiy dizayn nazariyasi kabi fanlar paydo bo'lgan bo'ldi. Jamiyat rivojlangan sari insonlarning estetik ehtiyojlari ham yuqorilab boradi. Shu jihatdan, mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning nafaqat iqtisodiy, texnologik, ergonomik, balki, estetik jihatlariga ham katta e'tibor qaratila boshlandi, chunki, mahsulotning estetik jihati, insonga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan – ma'naviy qoniqish hissi bilan bog'liqdir. Bu talablarning bajarilishi, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning maqsadga muvofiqligini, ishlab chiqaruvchining odamlarning doimiy o'zgarib turadigan did va talablariga o'z vaqtida javob berishini ta'minlaydi. Mehnat estetikasida ergonomika muhim o'rin egallaydi.

Ergonomika – (grekcha so'z bo'lib, "ergon – ish va "nomos" – qonun) ilmiy fan bo'lib, insonning mehnat faoliyatini imkoniyatlarini o'rganadi, hamda, inson uchun qulay shart-sharoitlarni o'rganish, ishlab chiqish va ulardan amaliyotda foydalanishni o'z ichiga oladi, inson faoliyatini texnikaga bog'lagan holda loyihalashtiradi[6]. Ergonomika texnika estetikasi bo'lmish dizayn va uning yo'nalishlari,

hamda arxitektura bilan bog'liq ekan, bu ergonomikada estetik asoslar va qonuniyatlarning o'rni muhimligini ko'rsatadi. Ergonomikaning estetik mezonlariga to'xtalsak.

Rang. Mehnat estetikasi va ergonomikada rangning ob'ekt funksiyasi bilan bog'liqligi, hamda, ishlab chiqarish jarayonining texnologik xususiyatlari hisobga olinadi. Rang odamga katta psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Issiqlik bilan ishlaydigan mehnat muassasalari uchun qizil, to'q sariq va boshqa "issiq" ranglarni emas, balki ko'k, yashil ranglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki bu ranglar odamning jismoniy holatini yaxshilaydi va uning ish qobiliyatini oshiradi. Ranglarning xususiyati, ranglarni aralashtirish, ranglar uyg'unligi, yorug'lik va rang, dizaynda ranglar ishlatishning asosiy qonun-qoidalarini "Rangli kompozitsiya" fani o'rganadi.

Mutanosiblik – loyqlikni bildirib, ayrim qismlarning, buyum va hodisaning aniq o'zaro munosabati hisoblanadi. Mutanosiblik-me'morchilikda, texnikada, dizaynda qo'llaniladigan eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mutanosiblikka tegishli qonuniyatlarni – qadimgi Misr matematiklari, faylasuflari, yunon olimlari, ayniqsa, Pifagor, Arastu, Uyg'onish davri ijodkorlari Leonardo va Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Vinola, Brunelleski, Albertining shu soha bo'yicha olib borgan ilmiy-tekshirish ishlarida mujassam topgan bo'lib, butun insoniyat diqqatini hozir ham o'ziga jalb etadi.

Garmoniya. Dizayning asosiy maqsadlaridan biri, insonni moddiy va ma'naviy talablariga javob beradigan garmonik muhitni shakllantirishdir. Bu yerda predmetlarni nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ko'proq ularning strukturaviy aloqalariga e'tibor qaratiladi. Bu jixat tizimga funksional va kompozitsion birlik beradi.

Estetika fanining amaliy tarmoqlaridan biri – bu turmush estetikasidir. Turmush estetikasi texnik estetika, ekologik estetika, atrofini estetik tashkil etish, estetik tarbiya bilan chambarchas bog'liq. Turmushni estetik tashkil etilishi, insonning, hayotning barcha sohalarida go'zallikka intilishining namoyon etilishidir va u insonni estetik tarbiya-laydi, hayotini yanada uyg'un qiladi. Estetik qonuniyatlarni bo'lmish, uyg'unlik, proporsionallik, yaxlitlik, moslik, ritm, shakl va mazmun uyg'unligi va b. turmush estetikasida ham, go'zallikni va jozibadorlikni yaratishda munosib o'rin egallaydi. Shuningdek, go'zallik bu yerda nafaqat tashqi shaklni iffodalaydi, balki u "qulaylik", "foydalilik", "ergonomiklik" tushunchalari bilan uyg'unidir. Hayotda tashqi xulq-atvor madaniyati estetikasi, inson haqida birinchi taassurotni shakllantiradi, bu juda muhimdir. Bularga; tashqi ko'rinish – kiyim, poyabzal, soch turmagi, aksessuarlar, shuningdek, muloqot estetikasi, jestulyatsiya, ovqatlanish estetikasi va b. kiradi.

Kiyinish estetikasi. Kiyim-kechak (liboslar) dizayni andozalashtirish va loyihalashtirishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy liboslar uchun xom-ashyo tanlayotib, shakl, andoza va rangni tanlashni amalga oshiradigan dizayner, libosni – bir vaqtning o'zida takrorlanmas va xotirada qoladigan qilib yarata olishi kerak. Kiyim bir tomondan, ma'lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan, u amaliy-bezak san'ati namunasi hamdir. Mato va kiyim ixtiro qilinishidan oldin ham, odam o'z tanasini tatuirovka, rasmlar, hayvon-larning terilari, patlari va turli bezaklar bilan bezashga harakat qilgan. Jamiyat taraqqiy etib borgan va insonlarning estetik didi oshib borgan sari, kiyimlarning bezagiga, jozibasiga e'tibor ortib borgan. Ma'lumki, kiyinish estetikasining bir qancha qoidalari mavjud bo'lib, kiyinishda rang sxemasi ularning ichida asosiylaridan birini tashkil qiladi[6].

Rang sxemasi – ranglarning uyg'un kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Rang sxemasining murakkabligi, unga

kiritilgan ranglar soniga bog'liqdir. Masalan: monoxromatik shkala; ikki rangli shkala; uch rangli shkala va h.k.

Kiyimlardagi moda – bu naqshlar, chiziqalar, hoshiyalar, ranglar, bichim va bezaklarning shunday element-lari-ki, odamlar ma'lum davrda, muayyan ijtimoiy muhitda ularni eng chiroqli holat, deb hisoblaydilar. Unda tasviriy va dekorativ san'atlar hatto arxitekturaning me'yorlari va mezonlari muhim o'rin tutadi. Moda- doimiy ravishda “qanday bo'lishi lozim” yoki “lozim emas” degan baholovchi savollar orqali insonlarga o'z xukmini o'tkazuvchi tez o'zgaruvchan ijtimoiy-estetik jarayondir. Nima uchun “estetik?”, chunki unda nafasot, estetik did, ehtiyoj va idealning me'yor va mezonlari o'zgaradi va bu o'zgarish esa, jamiyatning ijtimoiy oqimga ta'sir qiladi. Har bir modada estetik me'yorlarning sifat va miqdori va uslublari, o'zgaradi. Masalan: klassik, romantik, modern, barokko, gotika va h.k.; Estetik talablar modada; qulaylik, go'zallik, kiyimning rangi, uslubini yaratish, kiyimni bezatish, naqsh va bezak uchun material tanlash, kiyim qismlarining nisbatlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Moda – bir qancha vizual va reprezentativ asoslarga ega bo'lgan, ramziy shaklda ifodalangan- did demakdir.

Moda (urf) haqidagi dastlabki falsafiy ocherklar Angliyada paydo bo'lgan. A.Sheftsberi o'zining “Erkinlik haqidagi tajriba” asarida modaning insonning ichki dunyosiga va ma'naviy erkinligiga ta'sirini ta'riflab bergan[8].

Bugungi kunda estetika faniga ham, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridan yangidan-terminlar ham kirib kelmoqda. Masalan: marketing estetikasi; tovar estetikasi; brend estetikasi; kompaniya estetikasi va b. Ijtimoiy media estetikasida, tovarning yoki biznesning o'z “ohangi”, yoki, estetik “tili”, uslubi aks ettirilishi kerak. Ushbu “ohang”, xabar, ranglar, shriftlar va b.ning “yaxlitligi”, yoqimli uyg'unlikni yaratishga, tovarning jozibadorligini oshirishga yordam beradi[9]. Ular o'zida avvalambor vizuallikni aks etadi, unda esa, tasviriy san'at va grafikaning qonuniyatlari va mezonlari o'z ifodasini topadi. Shuning bilan birgalikda, ramz va timsollar estetik tasavvur, idrok va mushohada qilish uchun asos omil vazifasini o'taydi. Yuqorida keltirilgan estetika fanining mazu-g'oya, garmoniya, ritm, faktura, dinamika, kompozitsiya, uslub va shakl va mazmun, nur-soya va boshqa omillari reklamada ham muhim ahamiyatga ega, hamda, reklamanning muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. Yangi kompyuter tizimlari reklama beruvchilarga qulaylik va keng imkoniyatlarni bermoqda. Dizayner grafiklar va bezovchilarning ishlarini yengillashtirib, tezlashtirmoqda. Reklamanning ayrim texnologik muammolari: illustriyalari texnik nozikroq rangda tasvirlash; shrift o'lchamlariga aniq rioya qilish; illustriyasi tevaragiga matnini to'g'ri joylashtirish; solishtirishning zarurligi; reklama e'lonini konstruksiyalash, badiiy bezak va matn uyg'unligi mavjud bo'lib, ular nafasot qonunlari doirasida bo'lishlikni talab etadi. Sahna san'ati, dizayn va arxitektonika uyg'unligi natijasida, yangi – ekspozitsion yo'nalish paydo bo'ldi. U ikki xil janrdagi shaklga ega, ular; manumental va kamer. 1-si milliy mintaqaviy va xalqaro masshtabdagi mahobatli badiiy konstruksiyalashgan ko'rgazmalar uchun, 2-si kichik ko'rgazmalar, magazin vitrinalarida o'ziga xos “buyumlar teatri” sifatida qo'llaniladi. Ularning yaratilishi dizayn va arxitektoralarning yangi mutaxassislik yo'nalishiga aylandi-ki, u o'ziga xos qobiliyat bilim va mahoratni talab qiladi.

San'at omillari bo'lmish; shakl va mazmun, syujet, uslub, ijodiylik, g'oya, qisqa lo'ndalik, uyg'unlik, nur soya, kompozitsiya, ritm, ranglarning to'g'ri tanlanishi va b. reklama turli ko'rgazma logotip va brendlarning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Logotipda ranglar. Shu bilan birga logotipda rang, (Amerika tadqiqotlariga ko'ra) 60%ni tashkil qiladi, bu esa,

rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Qizil rang; faollikni, quvvatni oshiradi. U avtoulavlar, ovqatlanish muassasalari, kino sanoatida faol qo'llaniladi. Moviy rang; sokin, ishonch, himoyani his ettirish hususiyatlariga ega va u energetika, tibbiyot, bank sohasida keng qo'llaniladi. Yashil rang; boylik, obro'-e'tibor ekologik tozalik va tabiiylik ramzidir. “Yaxshi logotip uchun ikki, uch, to'rtta rang yetarli bo'ladi. Dizaynerlar ko'pincha 60-30-10 qoidasidan foydalanadilar. Bunda 3xil rang tanlanadi.

Logotipda shakllar. Oddiy geometrik shakllar, minimal uslubda logotiplarni yaratish uchun ajoyib hisoblanadi. Oddiy shakl – osonlik bilan ajralib turadi, u o'z-o'zidan “ishlaydi”. Dizaynerning vazifasi, tasvir va brend o'rtasidagi aloqani mustahkamlashdir. Logotipda shakllar ko'pincha ma'lum bir ramzlarni ifodalaydi. Doira-doimiy harakat, birlik, do'stlikni; egri-egiluvchanlik-moslashuvchanlikni; kvadrat – barqarorlikni; uchburchak-kuchni, bilimni; vertikal chiziqalar- chidamlilikni; gorizontaal chiziqalar-tinchlilikni anglatadi.

Aytish mumkinki, ushbu faoliyat turlarida, badiiylik, ijod va nafasotga, go'zallikka intilish maqsadi mavjud ekan, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining ongli, yoki, intuitiv ravishda – uyg'unlik, proporsiya, ritm, ranglar, kompozitsiya, faktura kabi, asosan san'atda ishlab chiqilgan estetik qonuniyatlar, me'yor va mezonlarga amal qilinish talab qilinadi. Agar ushbu talablarga amal qilinmasa, muayyan maqsad bo'lgan “go'zallik”, xunuklikka aylanadi”[10].

Bugungi kunda o'z o'rnida iste'molchilar ham bir necha guruhga bo'linib, tovar sotib olishga undovchi bir qancha omillar qatorida har bir iste'molchining o'z estetik qarashlari, ideallari va uslublari ham mavjud.

ga teng bo'ladi. Buni hisobga olib halqani magnit momenti (7) ifodaga muvofiq $p = i \cdot S = \omega R \tau \cdot \pi R^2 = \pi \tau R^3 \omega$ (21) ga teng bo'ladi. (19) ifodani hisobga olib

$$p = \frac{qR^2}{2} \omega \quad (22)$$


ko'rinishida ham yozish mumkin

2-usul. Mexanika kursidan ma'lumki halqa markazidan o'tuvchi halqa tekisligiga tik o'qqa nisbatan inertsia momenti $I = mR^2$ ga teng [5]. (12), (13) va (19) ga asosan halqani magnit momenti


$$\vec{p} = \frac{q}{2m} \vec{L} = \frac{q}{2m} I\vec{\omega} = \frac{q}{2m} mR^2 \vec{\omega} = \pi \tau R^3 \vec{\omega}$$

ga tengligini topamiz. Olingan natija 1-usulda olingan (19) ifoda bilan bir xil.

4-masala. σ sirtiy zichlik bilan bir tekis zaryadlangan massasi m va radiusi R ga teng bo'lgan disk markazidan o'tuvchi o'q atrofida ω burchak tezlik bilan aylanayotgan bo'lsa sistemani magnit momentini toping (4-rasm).



4-rasm. ω burchak tezlik bilan aylanayotgan zaryadlangan diskning magnit momentini hisoblash



5-rasm. ω burchak tezlik bilan aylanayotgan zaryadlangan sharning magnit momentini hisoblash

1-usul. Disk markazidan r masfada dr qalinlikdagi halqa aylanishi natijasi hosil bo'lgan tok kuchi (5) va (6) asosan $di = dq/T = \sigma\omega dS/2\pi$ deb yozish mumkin. Bu yerda dS halqa yuzasi bo'lib $dS = 2\pi r dr$ va $dq = \sigma dS$ ga teng. Agar ajratib olingan halqani tokli kontur deb hisoblasak tokli kontur yuzasi $S = \pi r^2$ ga teng bo'ladi. Bu tokli konturning magnit momentini

$$dp = di \cdot S = \frac{\sigma\omega dS}{2\pi} \pi r^2 = \pi\sigma\omega r^3 dr$$

deb yozish mumkin. Butun diskning magnit momenti

$$p = \int dp = \int_0^R \pi\sigma r^3 dr = \frac{\pi\sigma R^4}{4} \omega \quad (23)$$

ga teng bo'ladi.

2-usul. Mexanika kursidan ma'lumki disk markazidan o'tuvchi disk tekisligiga perpendikulyar o'qqa nisbatan diskning inertsiya momenti $I = mR^2/2$ ga teng [6]. (12) va (13) ga asosan diskning magnit momentini

1-jadval

Oddiy shakldagi zaryadlangan jismlarning ma'lum bir o'q atrofida aylanishi natijasida hosil bo'lgan magnit momenti

| Jism | O'q | Magnit momenti |
|--|---|---|
| q nuqtaviy zaryad (1-rasm) | Zaryaddan R masofadagi o'q | $\vec{p} = \frac{qR^2}{2} \vec{\omega}$ |
| τ chiziqli zichlik bilan bir tekis zaryadlangan R uzunlikdagi tayoqcha (2-rasm) | Tayoqcha bir uchidan o'tuvchi tayoqchaga perpendikulyar o'q | $\vec{p} = \frac{\tau R^3}{6} \vec{\omega}$ |
| τ chiziqli zichlik bilan bir tekis zaryadlangan R uzunlikdagi tayoqcha (3-rasm) | Tayoqcha markazidan o'tuvchi tayoqchaga perpendikulyar o'q | $\vec{p} = \frac{\tau R^3}{24} \vec{\omega}$ |
| τ chiziqli zichlik bilan bir tekis zaryadlangan R radiusli halqa | Halqa o'qi | $\vec{p} = \pi\tau R^3 \vec{\omega}$ |
| σ sirtiyl zichlik bilan bir tekis zaryadlangan R radiusli disk (4-rasm) | Disk o'qi | $\vec{p} = \frac{\pi\sigma R^4}{4} \vec{\omega}$ |
| σ sirtiyl zichlik bilan bir tekis zaryadlangan R radiusli sfera | Sfera markazidan o'tuvchi o'q | $\vec{p} = \frac{4\pi\sigma R^4}{3} \vec{\omega}$ |
| ρ hajmiyl zichlik bilan bir tekis zaryadlangan R radiusli shar (4-rasm) | Shar markazidan o'tuvchi o'q | $\vec{p} = \frac{4\pi}{15} \rho R^5 \vec{\omega}$ |

Yuqorida keltirilgan shakldagi jismlardan tashqari turli xil shaklga ega bo'lgan zaryadlangan jismlarning ma'lum

$$\vec{p} = \frac{q}{2m} \vec{L} = \frac{q}{2m} I \vec{\omega} = \frac{q}{2m} \frac{mR^2}{2} \vec{\omega} = \frac{qR^2}{4} \vec{\omega} = \frac{\pi\sigma R^4}{4} \vec{\omega}$$

ga tengligini topish mumkin. Bu yerda $q = \sigma S = \sigma \cdot \pi R^2$ ga teng. Olingan natija 1-usulda olingan (23) ifoda bilan bir xil.

5-masala. ρ hajmiyl zichlik bilan bir tekis zaryadlangan massasi m ga radiusi R ga teng bo'lgan shar markazidan o'tuvchi o'q atrofida ω burchak tezlik bilan aylanayotgan bo'lsa sistemaning magnit momentini toping [8].

1-usul. Koordinata boshi O ni shar markaziga joylashtiramiz. Shar z o'qi atrofida aylanayotgan bo'lsin. Sharning markazidan $r = AB$ masofadagi B nuqtada sharning bir bo'lagingin aylanma harakati natijada hosil bo'lgan magnit momentini hisoblaylik. Ajratib olingan bo'lakni moddiy nuqta deb qarash mumkin bo'lsin. Bu nuqta r radiusli aylana bo'ylab aylanishi natijasida hosil bo'lgan magnit momenti (9) formulaga asosan $dp = dq\omega r^2/2$ (24) deb yozish mumkin. Bunda bu ajratib olingan bo'lakning hajmi sferik koordinatalr sistemasida $dV = l^2 \sin\theta dld\theta d\varphi$ ga teng. Bu yerda θ, l va z o'qi orasidagi burchak, φ, r va x o'qi orasidagi burchak. Bu ifodalardan foydalanib biz ajratib olgan bo'lakning zaryadi $dq = \rho \cdot dV = \rho l^2 \sin\theta dld\theta d\varphi$ (25) ga teng bo'lishi kelib chiqadi. Agar $r = l \sin\theta$ ekanligini va (25) ifodani inobatga olib (24) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$dp = \frac{\rho l^2 \sin\theta dld\theta d\varphi \cdot \omega \cdot (l \sin\theta)^2}{2} = \frac{\rho \omega l^4 \sin^3\theta dld\theta d\varphi}{2}$$

Butun sharning magnit momenti

$$p = \int dp = \frac{\rho\omega}{2} \int_0^R l^4 dl \int_0^\pi \sin^3\theta d\theta \int_0^{2\pi} d\varphi$$

$$= \frac{1}{2} \rho \omega \left[\frac{l^5}{5} \right]_0^R \left[\frac{1}{3} (\cos^3\theta - 3\cos\theta) \right]_0^\pi [2\pi]$$

$$p = \frac{4\pi}{15} \rho \omega R^5 \quad (26)$$

ga teng bo'ladi.

2-usul. Mexanika kursidan ma'lumki R radiusli sharning markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inertsiya momenti $I = 2mR^2/5$ (27) ga teng [5]. (12), (13) va (27) ifodalarni inobatga olgan holda sharning magnit momenti uchun

$$\vec{p} = \frac{q}{2m} \vec{L} = \frac{q}{2m} I \vec{\omega} = \frac{q}{2m} \frac{2mR^2}{5} \vec{\omega} = \frac{\rho \cdot V}{5} R^2 \vec{\omega}$$

$$= \frac{\rho \frac{4}{3} \pi R^3}{5} R^2 \vec{\omega} = \frac{4\pi}{15} \rho \omega R^5$$

ifodani olamiz. Olingan natija 1-usulda olingan (26) ifoda bilan bir xil.

chiqish mumkin (1-jadval). Bu usul orqali hisoblash magnit momenti tushunchasini o'zlashtirishni, yanada osonlashtiradi. Shu bilan birga 1-masalada va 5-masalada ko'rsatilgan kabi masalalarni yechish yadro atrofida harakatlanuvchi elektronning orbital magnit momenti va elektronning xususiy magnit

momenti, spin tushunchalarni [1] o'zlashtirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida dia-, para- va ferromagnetiklar haqidagi tushunchalarni [1] o'zlashtirishga hamda "Atom va Yadro fizikasi" kursini o'zlashtirishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 60530900 – Fizika ta'lim yo'nalishi "Elektr va magnetizm" fanining ischi o'quv rejasi, 2023. Toshkent.
2. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 60530900 – Fizika ta'lim yo'nalishi "Mexanika" fani bo'yicha sillabus, 2023. Toshkent.
3. Purcell, Edward M., David J. Morin, Electricity and magnetism, Harvard University, Massachusetts. – Third edition. 2012, 868 p
4. Paul A. Tipler and Gene Mosca, Physics for Scientists and Engineers. - 5th ed., 2004. 1514 p.
5. Douglas C. Giancoli, Physics principles with applications, 7th ed., 2004. 1079 p.
6. Serway Jewett, Physics for Scientists and Engineers with modern physics, 7th ed., 2004. 1079 p.
7. Чертов А. Г., Воробьев А. А., Задачник по физике: Учеб. Пособие для студентов вузов. –М.: Высш. шк., 1988. - 527 с
8. Детлаф А. А., Яворский Б. М., Милковская Л. Б., Курс физики Учеб. Пособие для студентов вузов. –М.: Высш. шк., 1988. -375 с
9. Колмаков Ю. Н., Пекар Ю. А., И. М. Лагун. Тул. Гос. Ун-т, Тула, 1999. 140 с
10. Зисман Г. А., Тодес О. М., Курс общей физики Учеб. Пособие для студентов вузов. –М.: Наука, 1972. -368 с



Рухсора КУДРАТУЛЛАЕВА,
Доцент Национального университета Узбекистана
E-mail: kudratullaevaruhsora@gmail.com

Доцент кафедры психологии ТАШХИА, кандидат психологических наук. По рецензии М. Акрамова

REFLECTIVE CULTURE AS THE MAIN FACTOR IN THE PROFESSIONALIZATION OF PSYCHOLOGIST CONSULTANTS

Annotation

This article presents a theoretical and methodological analysis of the literature on the problem of reflective culture of consultant psychologists.

Key words: Reflective culture, reflection, consultant psychologist, professional activity.

REFLEKTIV MADANIYAT PSIXOLOG-KONSULTANTLARNI PROFESSIONALLASHTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada konsultant psixologlarning refleksiv madaniyati muammosi bo'yicha adabiyotlarning nazariy va uslubiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Refleksiv madaniyat, refleksiya, konsultant psixolog, kasbiy faoliyat.

РЕФЛЕКСИВНАЯ КУЛЬТУРА КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛИЗАЦИИ КОНСУЛЬТАНТОВ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация

В данной статье представлен теоретико-методологический анализ литературы по проблеме рефлексивной культуры консультанта психологов.

Ключевые слова: Рефлексивная культура, рефлексия, консультант психолог, профессиональная деятельность.

Проблема рефлексивной культуры в современных условиях становится важнейшим направлением научных исследований (О.С. Анисимов, А.Л. Емельянов, Ф. Е. Иванов, Е.В. Корецкая, С.Н. Маслов, И.Н.Семенов, В.В. Смолянинов, С.Ю. Степанов, Е.М. Филиппова и др.).

Теоретико-методологический анализ специальной литературы показывает, что большинство исследований по проблеме рефлексивной культуры консультанта психолога касаются в основном психологических условий ее развития и формирования в процессе профессиональной подготовки. Реже и недостаточно рассматриваются вопросы процессуальной логики и конструктивности протекания профессионально-психологической рефлексии на разных этапах профессионализации, не в полной мере выявлены психологические условия и механизмы развития консультанта психолога как субъекта рефлексивной культуры.

Проблема исследования профессиональной рефлексивной культуры практического психолога возникает не только в связи с недостаточной теоретической разработанностью. Изучение опыта профессиональной деятельности консультанта психолога показывает, что реальная практика скорее лишена культурно-рефлексивного слоя. Психологи слабо владеют навыками рефлексивного анализа профессиональной деятельности, испытывают дефицит рефлексивного сопровождения в процессе профессионального самосовершенствования, зависимы либо от внешних требований, либо от освоенной ими психотехнологии. Последнее свидетельствует о том, что практикующие психологи зачастую не выбирают гуманистическую парадигму психологии.

Связано это с тем, что, во-первых, профессиональное образование, как и все образование сегодня, направлено на применение знаний вне соотнесения с рефлексивной функцией (О.С. Анисимов). Во-вторых, в сфере образования пока еще сохраняется ситуация, при которой квалифицированных психологов, обладающих «культурным психологическим кодом», значительно меньше тех, кто им не обладает (В.П. Зинченко).

Механизмом развития рефлексивной культуры психолога, как процесса «культурного восхождения и расширения личности» (Л.С.Выготский) выступают внутриличностные противоречия между модальностями «хочу», «могу» и «надо».

Изучение проблемы указывает на ее междисциплинарный характер: в психологии больше внимания уделяется психологическим механизмам формирования рефлексивной культуры и их функциям в обеспечении профессиональной эффективности специалиста; в педагогике в большей мере рассматриваются рефлексивная культура как цель и как общекультурный и вместе с тем профессионально значимый компонент содержания профессионально образования, выявляется их роль в профессиональном становлении личности специалиста, его компетентности и готовности к профессионально-трудовой деятельности.

Отметим, что большая часть публикаций посвящена вопросам обоснования роли рефлексивной культуры в профессиональной подготовке будущих специалистов, связи мотивации, самосознания, творчества и самостоятельности. В меньшей мере исследованы вопросы методического обеспечения процесса формирования рефлексивной культуры и диагностики уровней их сформированности.

Вместе с тем в педагогической науке имеются теоретические предпосылки для нахождения путей решения изучаемой проблемы: в частности, имеются обоснования роли рефлексивных умений в структуре профессиональной готовности будущих специалистов, о чем свидетельствуют результаты исследований, в которых раскрыты различные функции этих умений-обеспечение коммуникативного, личностно-развивающего, самообразовательного аспектов становления специалиста.

Так, значительная часть психологических и педагогических исследований посвящена раскрытию условий становления профессионально значимых качеств специалистов, в процессе которого отмечена роль указанной культуры (В.А. Болотов, Н.М. Борытко, Э.Ф. Зеер, И.А. Зимняя, Н.В. Кузьмина, А.К. Маркова, К.К. Платонов). Рефлексивные культура рассматриваются также в контексте компетентностного подхода к подготовке будущего специалиста в системе высшего профессионального образования (Н.М. Борытко, И.А. Зимняя, Н.К. Сергеев, Н.В. Тельтевская, В.А. Хуторской), в работах по теории и методике профессионального образования как один из аспектов совершенствования профессиональной подготовки студентов в вузе (Н.М. Борытко, Р.М. Петрунева, О.Ф. Пиралова, Н.К. Сергеев, Л.В. Сухова, Н.В. Тельтевская). Рефлексивный компонент отмечен в работах о моделировании образовательного процесса в системе высшего профессионального образования С.И. Архангельского, А.Н. Дахина, Т.В. Калининой, Л.И. Новиковой, А.И. Уёмова, В.А. Штоффа.

Рефлексия привлекается в качестве объяснительного принципа для раскрытия психологического содержания различных феноменов и фактов, получаемых в экспериментальных исследованиях конкретных предметов психологического изучения: памяти (А.Н. Лакионов, М.М. Муканов), личности (К.А. Абульханова-Славская, Б.Г. Ананьев, Н.И. Гуткина, В.К. Зарецкий, Г.И. Кат-рич, В.М. Розин, И.Н. Семёнов, С.Ю. Степанов), понимания (Л.Н. Алексеева, Е.В. Бодрова, Е.В. Смирнова, А.П. Сопиков, Е.Г. Юдина). П. Дорнер трактует феномен рефлексии как "способность думать о своём собственном мышлении с целью его совершенствования" [13]. Б.Г. Ананьев рассматривает рефлексии как высший уровень личностных проявлений человека в виде, например, рефлексивных черт характера, которые "...завершают становление структуры характера и обеспечивают его успешность. Они наиболее интимно связаны с целями жизни и деятельностью, ... способствуя образованию и стабилизации единства личности ..." [2].

Профессиональная деятельность человека в отличие от других видов деятельности (игровой, учебной, трудовой) состоит в том, что она предполагает обязательную рефлексии на содержание предмета профессиональной деятельности [7]. Для психолога в качестве такового выступает психическая реальность человека [4]. По мнению Г.С. Абрамовой, психическую реальность можно представить следующим образом: каждый последующий период жизни человека отличается от предыдущего тем, что появляются качественно новые отношения человека с собой и с другими людьми [1].

Удержать психическую реальность как предмет профессиональной деятельности практического психолога можно тогда, когда его действия направлены на свойства этой реальности и отвечают законам ее существования. Практический психолог несет человеку знание именно о нем, используя обобщенное представление о людях вообще. Он выступает как исследователь индивидуальной жизни человека. Воздействуя на нее, получая необходимую для этого психологическую информацию,

практический психолог становится (пусть на время) частью жизни другого человека.

Практика воздействия на другого человека с применением психологической информации о нем делится на несколько видов профессиональной деятельности психолога, которые отличаются мерой воздействия и степенью ответственности последнего за течение индивидуальной жизни человека. Психологическая диагностика, психологическая коррекция, психологическое консультирование, психо-терапия отличаются как виды профессиональной деятельности психолога не только разными задачами, но и средствами воздействия на другого человека. Во всех видах профессиональной деятельности психолог несет личную ответственность за точность полученной психологической информации и оказание профессионального воздействия. Степень ответственности и осознания ее является необходимыми для его профессиональной рефлексии. "Практик становится настоящим профессионалом, если он рефлексиирует собственную практику, по крайней мере, прилагает ее к осмыслению специальные усилия. Иначе мы имеем дело с психологической практикой, подобно "всаднику без головы" [5]. Кроме того, рефлексивная деятельность стимулирует, обогащает, усиливает развитие профессиональных качеств.

Рефлексия не сводится к имеющимся у человека мышлению, сознанию, самосознанию, воле и другим психическим феноменам. Она интегрирует все психические функции и механизмы.

В рефлексии выделяется следующая последовательность осуществления процессов: фиксация затруднения в деятельности, выход из деятельности в пространство рефлексии, реконструкция ситуации, определение причин затруднения, перепроектирование действия, выход из пространства рефлексии в пространство деятельности, осуществление деятельности. Рефлексия считается ставшей тогда, когда налажен непрерывный замкнутый цикл этой последовательности процессов.

Рефлексия может быть направлена как на деятельность целиком, так и на какие-то ее отдельные стороны.

Рефлексивные процессы, в зависимости от типа организации деятельности, могут обеспечивать либо сохранение прежнего способа действия, либо его изменение.

Профессиональная деятельность и рефлексия находятся друг с другом в неразрывном единстве: изменения в деятельности рано или поздно приводит к изменению в рефлексии, изменения в рефлексии ведут к изменениям в деятельности. Изменения в профессиональной деятельности происходят быстрее, Q если рефлексии придается культурная форма.

Развитие рефлексии невозможно без влияния на этот процесс культуры. Критериальная форма бытия культуры состоит в фиксации существенности как будущего фактора организации деятельности, оценивания, чувствования, переживания и т.д. Вместе с внесением культурного основания в рефлексии у человека возникает противоречие между прежней логикой преследования своих интересов и логикой подчинения содержанию культурных единиц, критериальной базы. Противоречие снимается трансформацией самой субъективности.

Сначала человек не понимает и не принимает содержание культурного предмета и происходящей на его базе нормы только потому, что оно расходится с готовностью к реализации своих интересов и прежних норм, а также отсутствием способности к реализации

новой нормы. Зависимость удовлетворения прежних потребностей от реализуемости новых норм вынуждает перестраивать мотивацию, внутреннюю для деятельности. Человек открывается к новому содержанию мотивов, к ценностям, а затем и иптериоризирует их, превращая в "свои" [3].

Для оптимизации развития рефлексивной культуры Г.И. Якушевой и Н.М. Пинегиной был специально разработан и апробирован инновационно-гуманистический метод - "Тренинг профессионального роста". Мы квалифицируем его таким образом, исходя из понимания того, что инновация -это внедрение, а творчество - один из видов деятельности, которому можно обучить, подчёркивая тем самым, что все созданные в тренинге психолого-педагогические технологии являются "личностно-творческими". Кроме того, основной акцент в этой групповой работе направляется прежде всего на эмоциональные переживания участников [6]. Данный подход получил название гуманистического, основоположником которого является К. Роджерс [9, 10, 11, 12]. Этот подход направлен прежде всего на личностный рост и развитие человека, который предполагается изначально позитивным и активным, т.е. "...по своей природе человек таков, что ищет большего, чем безопасное статическое существование" [9].

К. Роджерс впервые применил так называемый "недирективный" метод ведения групповой работы. Он состоит в том, что ведущий группы не руководит напрямую групповым процессом, а создает атмосферу безопасности и доверия, поощряя членов группы к

искреннем} и открытому выражению своих интимных мыслей и чувств. Цель и принципы такой групповой работы - наи более полное самораскрытие и самопознание индивида, его саморазвитие, поиск аутентичности и открытости во взаимоотношениях с другими. Эмоциональное самовыражение при этом является важнейшим фактором включенности индивида в групповую работу.

Согласно А.В. Волковой, "...тенденция к оптимизации присуща социальным системам, человеческой деятельности и подразумевает сознательное целеполагание и целеустремление..." [8]. Тем самым, оптимизация любой деятельности представляет собой процесс приведения её к наилучшему состоянию, которое достигается через целенаправленное, целесообразное, сознательное воздействие на параметры её системы.

Исходя из этого, под оптимизацией развития рефлексивной культуры практического психолога мы имеем ввиду, во-первых, выявление условий и факторов, способствующих повышению эффективности этого развития, а во-вторых, активизацию посредством инновационно-гуманистического метода процессов её реализации в конкретных видах его профессиональной деятельности с целью обеспечения высоких акмеологических результатов (повышение уровня владения профессиональными умениями и навыками; совершенствование стиля профессиональной деятельности; совершенствование смысловой сферы личности профессионала).

ЛИТЕРАТУРА

1. Абрамова Г.С. Введение в практическую психологию. М.: Издательский центр Академия, 1996. - 224 с.
2. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: В 2 т. / Под ред. А.А. Бодалёва и др. М.: Педагогика, 1980. - Т. 2. - 288 с..
3. Анисимов О.С. Методология: функция, сущность, становление. -М.: ЛМ А, 1996.- 380 с.
4. Асмолов А.Г. Психология личност и. М.: МГУ, 1990. - 367 с.
5. Введение в практическую социальную психологию / Под ред. Ю.М. Жукова, Л.А. Петровской, О.В. Соловьёвой. М.: Смысл, 1996. - 373 с.
6. Исурина Г.Я. Личностный тренинг и его значение в подготовке психологов-практиков // Журн. практического психолога. 1998. - № 2. - С. 26-31.
7. Климов Е.А. Развивающийся человек в мире профессий. Обнинск: Изд-во "Принтер", 1993. - 56 с.
8. Лаптев Л.Г. Акмеологические основы оптимальной управленческой деятельности командира полка. М.: Изд-во РАГС, 1994. - 242 с.
9. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. М.: Изд-ая группа Прогресс, Универс, 1994. - 480 с.
10. Роджерс К. Могу ли я быть фасилитатором в группе // Хрестоматия по гуманистической психотерапии. М.: Институт общегуманитарных исследований, 1995. - 312 с.
11. Роджерс К. Клиентно-центрированная терапия. М.: REFL-book, 1997. -200 с.
12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: В 2 т. М.: Педагогика, 1989. - Т. 2.- 322 с.
13. Durcan J.W. Kirkbride P.S. Interactive Team Teaching on Management Courses : some personal experiences // J. Eur. Ind. Train., 1987.Vol.11. № 8. - P. 17-20.



Arofathon KUCHKAROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: ssshahriyor@gmail.com

V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti bosh ilmiy xodimi, fiz.-mat.f.d, professor G'.Ibragimov taqrizi asosida

MATEMATIKA DARSLARIDA GEOGEBRA DASTURIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Аннотация

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida axborotlashgan ta'lim muhitini yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish, ta'lim resurslari bazasini takomillashtirish, o'quvchilarning umumta'lim o'quv fanlarini chuqur va puxta o'zlashtirishiga erishishda samarali ishlar olib borilmoqda. Aniq fanlar, jumladan, matematika fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslari, interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanish asosida o'quvchilarning kreativ-ijodiy qobiliyatini, mantiqiy fikrlash, matematik tasavvurini rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot resurslari muhim ahamiyatga ega. Shunday dasturiy ta'minotlardan biri GeoGebra bo'lib, ushbu maqolada bu dasturning matematika fanini o'zlashtirishdagi samaradorligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, elektron ta'lim, GeoGebra, matematika.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММЫ GEOGEBRA НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Аннотация

Создание информационно насыщенной учебной среды в современной системе образования, широкое применение современных информационных технологий, совершенствование базы учебных ресурсов и эффективная работа по углубленному и всестороннему освоению общеобразовательных предметов становятся в настоящее время приоритетными задачами. Конкретно в обучении математике важную роль играет эффективное использование электронных образовательных ресурсов и интерактивных программных средств для развития у учащихся творческих способностей, логического мышления и формирования математического воображения. Одним из таких программных обеспечений является GeoGebra, который в данной статье предоставляет информацию о преимуществах этой программы в улучшении усвоения математики.

Ключевые слова: Информационные технологии, электронное обучение, GeoGebra, математика

THE IMPORTANCE OF USING THE GEOGEBRA PROGRAM IN MATHEMATICS CLASSES

Annotation

Creating an information-rich learning environment within the continuous education system, broad application of modern information technologies, enhancement of the educational resource base, and facilitating profound and comprehensive mastery of general education subjects by students are currently prioritized. In teaching specific subjects such as mathematics, the effective use of electronic learning resources and interactive software tools play a significant role in enhancing students' creative-thinking abilities, logical reasoning, and developing mathematical imagination. One of such software resources is GeoGebra, which in this article provides information about the benefits of this program in enhancing improvement of mathematics.

Key words: Information technology, e-learning, GeoGebra software, mathematics.

Kirish. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda ta'lim tizimida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, matematika fanini o'qitishni amaliy mazmun bilan boyitishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Rivojlantiruvchi ta'lim sohasida matematika ta'limini tashkillashtirish, uning metodik-didaktik mexanizmlari, pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish, matematik tafakkurini rivojlanti-rishga alohida e'tibor berilmoqda.

Yurtimizda ham ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ichida umumta'lim maktablarini zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlash, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni xalqaro standartlarga mos holda yangilash, o'quv jarayonlariga esa ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Matematika faniga o'quvchilarni turli xil interaktiv metodlar orqali qiziqtirish jumladan, GeoGebra dasturi yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur va kompetensiyalarni rivojlantirishga

yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida matematika fanini o'qitish metodik tizimini, ya'ni uning maqsadi, shakli, vositalari hamda yo'llarini takomillashtirishning pedagogik hamda didaktik imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

Matematika fanini o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va undan foydalanishga doir ilmiy tadqiqot ishlari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Xorijiy davlatlarda matematikani ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarning o'zlashtirish koeffitsientini oshirish bo'yicha G.Bozkurt & K.Ruthven [1], T.Chexlarova & K.Chexlarova [2], L.Hutkemri & S.Akmar [3] va boshqalar o'rgangan bo'lsa, Y.Zengin & E.Tatar [4], M.J.Jacks [5], E.Dubinskiy [6], D.Herceg [7] va boshqalar bevosita matematik dasturlar (MATLAB, MathCAD, Mathematica, Maple, Derive, GeoGebra) dan foydalanib, maxsus dasturiy tizimlarni loyihalash masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumta'lim maktablarida kompyuter dasturi yordamida o'quvchilarga matematika fanini integrallab o'rgatish muhokama qilinadi. Xususan, shunday turdagi dasturlardan biri bo'lgan GeoGebra

dasturining metodik xususiyatlari tavsiflanadi. Shu dastur yordamida fanni o'zlashtirish va grafik chizmalarni tasavvurda shakllantira olish ko'nikmalari tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar. GeoGebra dasturi 2001-yilda avstriyalik matematik Markus Hohenwarter va Markus Hummel tomonidan yaratilgan bo'lib, bu dastur matem fanini o'rganish va o'rgatishni osonlashtirish, o'quvchilarga amaliyot orqali matematik tushunchalarni tushuntirish hamda o'qituvchi uchun darsni interaktiv usulda olib borishga xizmat qiladi. GeoGebra dasturi avvalgi paytda faqat grafiklar uchun ishlatilgan edi, lekin keyinroq funksiyalar, koordinatalar va ayniqsa geometriya o'rganuvchilar tomonidan ham foydalanila boshlandi. Bugungi kunda esa GeoGebra bir nechta platformalarda masalan, veb-saytlar, mobil ilovalar, kompyuter dasturlarida qo'llanilmoqda va matematika fanini o'rganishdagi dasturiy qo'llanmalarining o'zgarmas bir qismini tashkil etadi. Ushbu dastur bir nechta afzalliklar tufayli o'quvchilarga matematika fanini o'rganishda va o'zlashtirishda yutuq hisoblanadi. Bu dastur o'quvchilarga matematikani o'rgatishda osonroq, qiziqarliroq va tushunarliroqdir. Quyida ushbu dasturning maktab o'quvchilari uchun matematika fanini o'rgatishga bir nechta afzalliklari keltirilgan:

Vizualizatsiya bo'yicha: GeoGebra dasturi matematik tushunchalarni grafiklar, diagrammalar, funksiyalar, geometrik jismlar va boshqa vizual elementlar orqali chuqur tushunib chiqish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilar uchun matematik tushunchalarni o'rganishda, ularning asl ma'nosini anglab yetishda muhim rol o'ynaydi.

Interaktivlik: Bu dastur foydalanuvchilarga matematika darslarini guruhlarda oson ishlash imkonini beradi hamda sinfda ularni muhokama qila olishadi. Sinfda o'zaro do'stona muhit yaratishga ham ko'mak bera oladi.

Amaliyotlar: GeoGebra dasturi yordamida har bir o'rganuvchi bir masalani hal qilishda amaliyotga qo'llab, kompyuterda o'zi ijod qila oladi. Bu esa muammoni qanday qilib oson hal qilish va "ko'ra olish" qobiliyatini rivojlantiradi. Chunki o'quvchilar xotirasida harakatlar yaxshi eslab qolinadi. Bu esa GeoGebra asosiy yutug'i hisoblanib, animatsiyalar yordamida o'quvchi geometrik jismlarni tasavvur qiladi va funksiyalarning grafiklarini chizib, tushunishga imkon beradi.

Ko'nikma yetkazish: GeoGebra dasturi yordamida o'quvchilar matematik ko'nikmalarini rivojlantirishadi. Oddiy doska orqali masalalarni yechish, funksiyalar va ularning grafiklari, geometriya, trigonometriya, statistika bo'limlarini o'rganish ko'pincha o'quvchilarda zerikish hamda fanga qiziqishini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Lekin bu dastur o'quvchilarning analitik usulda muammolarni hal qilishga yaxshi tayyorgarlik ko'ra olishini ta'minlaydi.

Kompyuter savodxonligini oshiradi: GeoGebra internet orqali ham foydalanilishi mumkin bo'lib, bu dastur o'quvchidan kompyuterdan foydalana olish qobiliyatini talab qilib, o'quvchilarga internet orqali dars olish imkonini beradi. Bu esa onlayn darslar uchun ham juda foydali bo'lib, o'quvchilar uchun matematik bilimlarini istiqbolga tayyorlashda yordam bera oladi.

GeoGebra dasturiy ta'minoti matematik va ilmiy sohalar uchun dastlabki, o'quvchi va mutaxassislar uchun esa mashhur, bepul, offlayn dasturlardan biridir. Bu dastur ko'magi bilan matematik muammolarni yechish mumkin. Ularning bir nechta modullari bo'lib quyida ularning tavsifini ko'rib chiqamiz:

Geometriya moduli: Chizmalarni va geometrik tushunchalarni o'rganish uchun mo'ljallangan.

Algebra moduli: Arifmetik va algebraik amallarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Kalkulyator moduli: Matematik amallarni bajaradigan funksiyalar va ularning grafiklarini ko'rish uchun mo'ljallangan.

Statistika moduli: Ma'lumotlar analizi va statistik qarashlarni o'rganish uchun mo'ljallangan.

3D Geometriya moduli: Uch o'lchovli geometriya va 3D chizmalar uchun mo'ljallangan bo'lib, animatsiyalarni ham ko'rish mumkin.

Bu dastur dunyoning ko'plab mamlakatlari maktablarida va institutlarida o'quv jarayonini osonlashtirish, matematika faniga o'quvchilarni qiziqtirish, matematika fanini o'rganishni hamda mavzularni tushuntirishni samarali usullaridan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Bu dasturni foydalanuvchilar bepul ravishda onlayn yoki o'zi o'ratgan dastur ko'rinishida yuklab olishlari mumkin.



GeoGebra

GeoGebra dasturining maqsadlaridan biri – o'quvchilar qiynaladigan fazoviy tasavvurni rivojlantirish, fazoviy shakllar va munosabatlarni ularning geometrik modellari va grafik tasvirlari asosida tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatlari, konstruktorlik qila olish uchun bilim va ko'nikmalarni yaratishdan iborat[8].

Matematik bilimlarni puxta egallash uchun, chizmalarni chiza olish qobiliyati, ularni qanday taxt qilish qoidalarini bilish kerak. GeoGebra dasturiy ta'minoti aynan shu muammolarni oson hal qila oladigan, o'quvchilarning matematik tasavvuri va grafik tafakkuri, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi[9].


O'quvchilarning matematik tasavvurini grafik topshiriqlar, loyihalash chizmalari bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishning kompyuter dasturlaridan foydalanib, multimediali ta'lim bilan bog'liq imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda[10].

3D GeoGebra

GeoGebra dasturi bilan uch o'lchovli geometriyada hamda grafiklar ko'rinishida 3D rasmlar, animatsiyalarini osonlik bilan yaratish mumkin (1- va 2- rasmlar). Ushbu grafiklarda nuqtalar, chiziqlar, ko'pburchaklar, sharlar kabi 3D jismlarini, shuningdek $f(x,y)$ ko'rinishidagi funksiya chizmalarini yaratish interaktiv manipulyatsiya qilish imkonini

beradi. Bunday 3D ko'rinishidagi animatsiyalar yaratish GeoGebra dasturida mustaqil ilova hisoblanib, ularni

interaktiv veb-sahifalarga joylashtirish imkonini ham beradi[11].



1-rasm. Chapda $y=\cos x+1.5$ funksiya grafigi, o'ngda esa bu grafik Ox o'qi atrofida aylantirilyapti.

2-rasm. O'qlari o'zaro perpendikulyar asos radiuslari teng bo'lgan ikki silindr kesishishidan hosil bo'lgan jism tasvirlangan.

Xulosa va tavsiyalar. Psixologik va pedagogik tadqiqot ishlarida shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot texnologiyalari o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga kuchli ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalaniishi o'quv

materiallarini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ko'plab ilmiy izlanishlar elektron ta'lim resursi, internet texnologiyalari, multimedia va axborot texnologiyalari, ularni ta'lim jarayoniga olib kirishning ijobiy xususiyatlarini to'laqonli ochib bermoqda.

ADABIYOTLAR

1. Bozkurt, G., & Ruthven, K. (2017). Classroom-based professional expertise: a mathematics teacher's practice with technology. *Educational Studies in Mathematics: An International Journal*, 94(3), 309-328.
2. Chehlarova, T., & Chehlarova, K. (2014). Photo-pictures and dynamic software or about the motivation of the art-oriented students. *The International Journal for Technology in Mathematics Education*, 21(1), 27-31.
3. Hutkemri, L., & Akmar, S. (2016). Effectiveness of GeoGebra on academic and procedural knowledge as a mediator. *New Educational Review*, 44(2), 153-164.
4. Zengin, Y., & Tatar, E. (2017). Integrating dynamic mathematics software into cooperative learning environments in mathematics. *Journal of Educational Technology & Society*, 20(2), 74-88.
5. Jacks, M. J. (1996). An Evaluation of a model technology program intended to develop critical thinking abilities of junior high school students. Unpublished doctoral dissertation, University of Southern California.
6. Dubinsky E. The cognitive effect of computer experiences on learning abstract mathematical concepts. *Korkeakoulujen Atk-Uutiset*. 1984; 2:41-47
7. Herceg, D., & Herceg, D. (2010). Numerical integration with GeoGebra in high school. *The International Journal for Technology in Mathematics*, 17(4), 205- 210.
8. Sh.D.Dilshodbekov (2020). Kompyuter grafikasi asosida muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishning innovatsion usuli. Toshkent.
9. M.J.Saidova (2020). Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Toshkent.
10. A.A.Qahhorov (2020). Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini multimediali kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish. Namangan.
11. Roberts, G. R. (2012). Technology and learning expectations of the net generation. University of Pittsburgh, Johnstown.



Ilhom QILICHEV,
Toshkent Farmasevtika instituti Akademik litseyi direktori
E-mail: ilkhomqilichev@gmail.com

TDPU dotsenti, PhD F.Mirzayeva taqrizi asosida

EDUCATIONAL PROCESSES BASED ON THE CREDIT SYSTEM ORGANIZATION

Annotation

In this article, the development stages of the education system in Uzbekistan from 2016 onwards are analyzed in the study of internationally recognized education systems. Along with this, normative documents and generally recognized credit systems in our country were studied. The structures in them are studied and the aspects relevant to our educational system are highlighted. Extensive work is being carried out on the implementation of the large-scale reforms of education in our country in recent years in accordance with the system of education at the level of world requirements.

Key words: Credit module, ECTS, USCS, SATS, UMAP, UCTS, Credit hour, bachelor, master, GPA, ERASMUS, tutor and student, syllabus, lecturer, advisor, moderator.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ ОРГАНИЗАЦИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются этапы развития системы образования в Узбекистане с 2016 года на примере международно признанных систем образования. Наряду с этим были изучены нормативные документы и общепризнанные кредитные системы в нашей стране. Изучены структуры в них и выделены аспекты, актуальные для нашей образовательной системы.

Ключевые слова: Кредитный модуль, ECTS, USCS, SATS, UMAP, UCTS, кредитный час, бакалавр, магистр, средний балл, ERASMUS, репетитор и студент, учебная программа, лектор, советник, модератор

KREDIT TIZIMI ASOSIDA TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

Annatsiysi

Ushbu maqolada O'zbekistondagi ta'lim tizimini 2016 yildan keyingi rivojlanish bosqichlari xalqaro tan olingan ta'lim tizimlarini o'rganish asnosida tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda mamlakatimizdagi normativ hujjatlar va umume'tirof etilgan kredit tizimlari o'rganilgan. Ulardagi tuzilmalar o'rganilib bizni ta'lim tizimimizga mos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul, ECTS, USCS, SATS, UMAP, UCTS, Kredit soat, bakalavr, magistr, GPA, ERASMUS, tyutor va talaba, syllabus, lektor, edvayzer, moderator.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"[1]da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan[2].

Ushbu strategiya va ta'limga qaratilayotgan keng ko'lamlı e'tibordan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da[3] oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda xalqaro tajribada ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda kredit

birliklaridan keng foydalanilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tajribasida AQSh kredit tizimi (USCS), Britaniya kreditlarni yig'ish va o'tkazish tizimi (CATS), Yevropa kreditlarni o'tkazish tizimi (ECTS) hamda Osiyo-tinch okeani universitet kreditlarini o'tkazish tizimidan (UCTS) foydalanib kelinmoqda. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etilganiga ko'p vaqt bo'lmaganligini inobatga olinsa, bu borada tizimni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirishni taqozo qiladi.

Respublikada kredit modul tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p bo'lmasada, ilmiy maqolalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan va bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2020 yilda B.Sh.Usmonov, R.A.Xabibullayevlar tomonidan "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan bo'lib, unda kredit-modul tizimi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanmaning 2-bobida kredit-modul tizimida o'qish jarayonini tashkil etishga oid jarayonlar yoritib berilgan. Maxsus ta'lim xizmatlari va o'quv jarayonining uslubiy ta'minotiga oid hujjatlar va bajariladigan jarayonlar ham batafsil yoritib berilgan[4]. Toshkent moliya instituti rektori, professor Ulug'bek Azizov o'zining "Kredit-modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari" [5]. nomli maqolasida, TDIU «Universitet 3.0» xalqaro o'quv, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi direktori, i.f.d., dotsent Sh.Mustafaqulov va TDIU Ta'limning kredit tizimini

boshqarish bo'limi boshlig'i, PHD.M.Sultonovlar "Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik"[6] nomli maqolasida kredit-modul tizimini joriy etishning ahamiyati va afzalliklari haqida o'z fikrlarini bayon etib, xulosa va takliflarini berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi ustuvor masalalar yuzasidan Respublikamizda ham ko'plab davlatlar tomonidan tan olingan modul tizimi asosida o'qitish jarayoniga o'tildi. Xo'sh, u tizimni mohiyati nimalardan iborat. Bolonya deklaratsiyasini imzolagan barcha davlatlar oliy ta'limning ikki bosqichli (bakalavriat–3–4 yil, magistratura–1–2 yil) tizimiga o'tishgan. Oliy ta'limdan keyin doktor (3–4 yil) darajasini olishga imkon yaratiladi.

Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi.

Xo'sh, kredit-modul tizimi nimani nazarda tutadi? Bugungi kunda ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun dunyo tajribasida kredit tizimi deb nomlangan amaliyotdan keng foydalaniladi. Kredit tizimi o'z ichiga ta'lim va uning uchun sarflanadigan umumiy mehnat xarajatlari miqdorini qamrab oladi. Jahon amaliyotida Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS) eng keng tarqalgan tizimlar hisoblanadi.

"Kredit soat" tizimi dastlab AQShda paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limining atoqli namoyandasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870–1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi [7]. 1892 yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSH milliy ta'lim qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'inini yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o'rta maktablar uchun ham "kredit" tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'lim bosqichlarigacha kengaytirdi.

Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts-BA yoki Bachelor of Science-BSc) olish 4 yil o'qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o'rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o'zlashtirishi zarur bo'ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (taxminan, 60–68 kredit) va u oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to'rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini jadal o'rganishga bag'ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o'rta hisobda ikki yillik o'qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts-MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo'ljallangan magistrlik dasturlaridir.

Oliy ta'lim tizimida kredit-soat tushunchasi dars jadvalini tuzish, GPA o'rtacha balini hisoblash, kafedralar, o'qituvchilar va talabalarining yuklamasini aniqlash uchun asos hisoblanadi.

Keling faqat AQSh tizimi bilan cheklanib qolmasdan bir qancha Yevropada tan olingan davlatlar kredit tizimlari bilan ham tanishib chiqsak.

Ispaniyada universitet ta'limi ko'p pog'onali bo'lib quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

- birinchi ta'lim davri: u kamida 3 yil davom etadi va 180–270 ispan kreditlariga teng bo'ladi;

- birlashtirilgan birinchi va ikkinchi davrlar: 4–5 yilga mo'ljallangan bo'lib (tibbiyot mutaxassisliklari uchun 6 yil), birinchi davr - 2–3 yil, ikkinchisi - 2 yil davom etadi. Ko'rsatilgan 4,5 va 6 yilda talabalar 300–500 kredit to'plashadi.

- ikkinchi davr – yakka tartibda;

- uchinchi davr – doktorantura.

Birinchi davr yakunida talabalarga Diplomado, Arquitecto Tecnico va Ingeniero Tecnico kabi akademik darajalar berilishi mumkin. Ikkinchi davr yakunida esa - Licenciado, Arquitecto yoki Ingeniero Superior darajalari berilishi mumkin. Doktorlik darajasi uchinchi davrda o'qishni yakunlagan va dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan talabalarga beriladi.

Ispaniyada "kredit"ni aniqlashga o'zgacha yondashiladi – har bir kredit 10 soat auditoriya mashg'ulotlariga mos keladi, to'plangan kreditlar yig'indisiga qarab talabani o'zlashtirishi baholanadi. Talabalar tomonidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha alohida kreditlar to'planadi, ularni hatto auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari boshqa o'quv ishlarini bajarib ham olish mumkin.

Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi Birlashgan Qirollikning CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Kreditlarni to'plash va ko'chirish sxemasi/tizimi) tizimiga asoslangan bo'lib, uning maqsadi ko'p sonli malaka hujjatlari tizimini har bir tur uchun alohida kreditlar belgilash orqali tartibga solish va yagonalashtirishdir. CATS tizimi Birlashgan Qirollikda, Janubiy Afrikada va Yangi Zelandiyada keng tarqalgan.

CATS bo'yicha akademik yil 1200 shartli o'quv soatlari yoki 120 kreditni o'z ichiga oladi, 1 Britaniya krediti 10 shartli o'quv soatlariga teng. Shartli o'quv vaqti deyilganda, talaba fanni o'zlashtirishi uchun sarflaydigan soatlar miqdori tushuniladi. Shartli vaqt auditoriya mashg'ulotlari, asosiy amaliy ishlar, loyiha ustida ishlash, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini, imtihonlarga tayyorgarlik va ularni topshirish o'quv faoliyatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Britaniya universitetlarida bakalavr darajasini olish uchun 3 yil davomida 360 Britaniya kreditlarini qo'lga kiritish kerak.

To'rtinchi yil talabalarga "imtiyozli bakalavr" (Bachelor with Honours) darajasini olishga imkon beriladi.

XX-asrning so'nggi o'n yilliklarida Yevropada oliy o'quv yurtlarining halqaro ta'lim dasturlaridagi ishtiroki muhim masalaga aylandi, oliy ta'lim o'quv dasturlarini internatsionallashtirish taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. 1987 yilda Yevropa Ittifoqi asos solgan talabalar almashishning ERASMUS (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) ta'lim dasturi eng namunali deb topilib asos sifatida qabul qilindi va Yevropaning 12 ta davlatida joriy etildi.

Bu dastur 2006 yilgacha rejalashtirildi va 31 davlatda amal qildi. Bulardan tashqari, Yevropada talabalar almashish dasturi bo'yicha Yevropaning ilm-fan va universitetlar beshigi sifatidagi mavqeyini mustahkamlashga yo'naltirilgan Leonardo Da Vinchi va Tempus-Tasis ta'lim dasturlari amalga oshirildi [8].

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan ko'rish mumkinki, nafaqat davlatlarning ta'lim tizimlarida, balki "kredit" atamasini tushunish va uni talqin qilishda ham sezilarli farqlar mavjud. Agar Yevropa krediti o'z hajmi bo'yicha barcha auditoriyadagi kontakt soatlarni va undan tashqaridagi soatlarni aks ettirsa, Amerika kredit soati qat'iy ravishda faqat auditoriyadagi kontakt soatlarni o'zida ifodalaydi va talaba ikki barobar ko'proq mustaqil shug'ullanishini, shu jumladan o'qituvchi rahbarligi ostida ham mustaqil shug'ullanishini nazarda tutadi.

Kredit tizimlarining yuzaga kelgan keng qamrovli diversifikatsiyasi sharoitida ECTS tizimi ko'p millatli Yevropa an'analarini inobatga olgan holda turli ta'lim tizimlarini yaqinlashtiradi. O'zbekistonda kredit ta'lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'lim sifatini va dunyo ta'lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir[9].

O'quv rejasida har bir fanga harfli va raqamli yagona kodlash tizimini qo'llash lozim. Bunda fanning kodi uning nomiga mos bir nechta lotin harfi va tartibini ifodalovchi raqamlaridan iborat bo'lishi va harfli kodini belgilashda xalqaro nomlanishdan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Aksariyat hollarda bu kod fanning bosh harflari kursi va krediti belgilangan bo'ladi.

Umumiy haftalik yuklama bakalavriatda 60 soatni tashkil etadi, undan 30 soati auditoriyada va 30 soati talabaniq mustaqil ta'limiga ajratiladi, shu jumladan 8-14 soati o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ishiga ajratilishi maqsadga muvofiq. 1-jadvalga muvofiq talabaniq vaqt budjeti quyidagicha bo'ladi: nazariy ta'lim – 240x30=7200 soat, shu jumladan auditoriyada – 15x240=3600 soat va mustaqil ta'lim shaklida shug'ullanish uchun – 15x240=3600 soat ko'zda tutiladi.

Bundan ko'rish mumkinki, talabaniq semestrdaqi o'quv yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalarining 1:1 nisbatdaqi yig'indisi sifatida 30 kreditni tashkil qiladi (240 kredit : 8 semestr = 30 kredit) [10].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Hozirgi globallashtuv va oliy ta'limdaqi islohotlar muhitida oliy o'quv yurtlarining reytingini belgilovchi qator omillar kun tartibiga qo'yilmoqda. Shunday ekan, har bir oliy o'quv yurti ularni inobatga olgan holda o'z reytingini oshirish hamda o'quv jarayonini zamonaviy shaklda tashkil etish nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda o'z oldiga jahon darajasidagi maqsadlar qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Kredit ta'lim tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lim tizimining samarasi va maqsadga muvofiqliqi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'lim tizimlarida ko'proq tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta'lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollikni va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarining hammasi professor-o'qituvchilar tomonidan bajariladi. O'qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
4. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Т.: “Tafakkur” нашриёти, 2020 й. 120 бет.
5. Азизов У. Кредит-модуль тизими ва унинг ўзига хос хусусиятлари. <http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/> i (Манбага 15.09.2020 да мурожаат этилган).
6. Мустафақулов Ш., Султонов М. Кредит-модуль тизимига ўтиш нима учун керак? Мақсад, моҳият ва афзаллик <http://xs.uz/uzkr/post/kredit-modul-tizimiga-otish-nima-uchun-kerak-maqsad-mohiyat-va-afzallik> Интернет манба. (Манбага 15.09.2020 да мурожаат этилган).
7. Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модуль тизими: асосий тушунчалар ва коидалар. Ўқув қўлланма. Нью Брансвик Университети, 2020 й.
8. Ганчеренок И.И., Грибовская Э.Л. Модели магистерской подготовки: Шветсия, Великобритания, Испания. Минск, 2002, 96 с.
9. Распространение Болонского процесса: о декларации к внедрению на практике. В 3-х частях. Часть 2. Тенденции развития Болонского процесса, его инструменты и опыт внедрения / Р.Р. Агишев, И.В. Анисимова, Ш.М. Валитов, Д.А. Гопкало, В.Г. Крюков, А.Е. Пушкина, Л.А. Симонова, А.П. Снегуренко. Под ред. проф. Р.Р. Агишева. - Казань, КГТУ им. А.Н. Туполева, 2008. - 118 с.
10. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.



Maqsudali QURBONOV,

Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

E-mail: maqsudaliqurbonov1992@gmail.com

NamDU, P.f.d., Professor B.Abdulazizov taqrizi asosida

THE ADVANTAGES OF TEACHING LABORATORY CLASSES IN THE DEPARTMENT OF OPTICS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON COMPUTER MODELED DEVELOPMENTS

Annotation

In this article, in the modern methods of teaching the department of optics in higher educational institutions, the physical experiment is a component of the holistic educational process, in which theoretical and experimental methods of studying and researching physical phenomena are combined. They are combined. The advantages of teaching theoretical and experimental laboratory training on the basis of computer modeled developments, problems and shortcomings are suggested.

Key words: Physical experiment, physical phenomena, optics, laboratory. visual physical experiments, modeling, developments, personal computer.

ПРЕИМУЩЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ НА КАФЕДРЕ ОПТИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ РАЗРАБОТОК КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ.

Аннотация

В данной статье в современной методике преподавания кафедры оптики в высших учебных заведениях физический эксперимент является компонентом целостного учебного процесса, в котором сочетаются теоретические и экспериментальные методы изучения и исследования физических явлений. Предложены преимущества преподавания теоретической и экспериментальной лабораторной подготовки на основе компьютерного моделирования разработок, проблемы и недостатки.

Ключевые слова: Физический эксперимент, физические явления, оптика, лаборатория. наглядные физические эксперименты, моделирование, разработки, персональный компьютер.

OLIY O‘QUV YURLARIDA OPTIKA BO‘LIMI BO‘YICHA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINING KOMPYUTERDA MODELLASHTIRILGAN ISHLANMALAR ASOSIDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, Oliy o‘quv yurtlarida optika bo‘limini o‘qitishning zamonaviy metodlarida fizik eksperiment yaxlit ta‘lim jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bunda fizik hodisalarni o‘rganish va tadqiq qilishning nazariy va eksperimental usullari o‘zaro uyg‘unlashadi. Nazariy va eksperimental usuldagi laboratoriya mashg‘ulotlarini kompyuterda modellashtirilgan ishlanmalar asosida o‘qitishning afzalliklari haqida muammo, kamchiliklar bo‘yicha takliflar berilgan

Kalit so‘zlar: Fizik eksperiment, fizik hodisalar, optika, laboratoriya. ko‘rgazmali fizik eksperimentlar, modellashtirish, ishlanmalar, shaxsiy kompyuter.

Kirish. Fizika kursida har doim juda murakkab va - tushunish oson bo‘lmagan ko‘plab tushunchalar mavjud edi. Ilm-fanning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi bunday tushunchalar, faktlar, g‘oyalari va naqshlarning ko‘payishiga olib keladi. Talabalarning ilmiy bilimlariga yangi tushunchalarning uzviy kirib borishi, ulardan keyingi amaliy faoliyatida ijodiy foydalanishi va rivojlanishi uchun fizika kursini o‘qitish metodikasini doimiy ravishda takomillashtirish, katta sa‘y-harakatlarni amalga oshirish talab etiladi.

Fizika o‘qitishning zamonaviy metodlarida fizik eksperiment yaxlit ta‘lim jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bunda fizik hodisalarni o‘rganish va tadqiq qilishning nazariy va eksperimental usullari o‘zaro uyg‘unlashadi.

Professor N.Ya.Molotkovning ta‘kidlashicha, "ko‘rgazmali fizik eksperiment talabalarning kontseptual asoslarini - fizika fanlari va texnikasining empirik asoslari bilan o‘zaro bog‘lashda, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunishga yordam berishda hal qiluvchi uslubiy rol o‘ynaydi" [1]. Ushbu ulanish uch yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, eksperiment "talabalar uchun sub'ektiv yangi empirik faktlar manbai bo‘lib xizmat qiladi, ular - kontseptual mazmunga asoslangan ularni talqin qilishda boshlang‘ich element bo‘lib xizmat qiladi, bu esa pirovardida

talabalarning nazariy bilimlarini rivojlantirish va o‘rnatishga yordam beradi". Ikkinchidan, eksperiment "talabalarning kontseptual apparatini va nazariy bilimlarning ideallashtirilgan ob'ektlarini shakllantirishning zaruriy omili bo‘lib, uning asosida sub'ektiv yangi bilimlarni yaratish va takrorlash amalga oshiriladi". Uchinchidan, eksperiment "nazariy konstruksiyalar va xulosalarni aniq tasvirlash imkonini beradi, mavhum kontseptual qoidalar va ob'ektiv haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlaydi, talabalarning "nazariy dunyosi" - amaliy faoliyat sohasiga kirishini ta‘minlaydi va nazariyani amaliyotda qo‘llaydi." [2].

Shu munosabat bilan bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlashda laboratoriya amaliy ishlarining o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, zamonaviy laboratoriya ishlarini yaratish va ularni amalga oshirishning yangi usullarini ishlab chiqish juda dolzarbdir.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsad va vazifalari - o‘quvchilarda samarali va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu o‘quv jarayonining muhim umumiy ta‘lim yo‘nalishi hisoblanadi. Bundan tashqari, laboratoriya amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishning asosiy bosqichlaridan biri o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlash, shuningdek, - o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar va

muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shunday qilib, laboratoriya laboratoriyasi nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

A.A.Laktionov uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida – laboratoriya laboratoriyasi bir vaqtning o'zida bilim manbai, o'qitish usuli va o'rganilayotgan jarayon yoki hodisaning qonuniyatlarini vizual tasvirlash turi ekanligini aniqladi. Laboratoriya amaliyotining asosiy maqsadlari:

o'rganilayotgan fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va nazariy tamoyillarini talabalardan to'liqroq va sifatli o'zlashtirishga erishish;

o'quvchilarda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash, uni bir fan sohasidan boshqasiga o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarni olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va qayta ishlashga o'rgatish, hisobotni qulay shaklda (jadvallar, grafiklar, diagrammalar va boshqalar ko'rinishida) taqdim eta olish;

o'rganilayotgan fanga qiziqish va zamonaviy texnik va kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'qitishning yangi shakl va usullarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish;

mustaqil bilim faoliyatini faollashtirish, bajarilgan ishga ijodiy munosabat, nafaqat berilgan savollarga javob berish, balki ko'proq darajada o'z oldiga vazifalar qo'yish, faraz va takliflarni ilgari surish.

O'quv jarayonida tajriba o'tkazish nafaqat sof amaliy, balki intellektual xususiyatga ega bo'lgan bir qator ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, eksperimental usulni o'zlashtirish aqliy faoliyatning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

E.M.Gershenzon va N.N.Malovlar tomonidan tahrir qilingan umumiy fizika bo'yicha laboratoriya laboratoriyasida pedagogika institutlari uchun ish tavsifi berilgan bo'lib, shundan kelib chiqadiki, u bevosita bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Bu, birinchi navbatda, eng umumiy, fundamental muammolarni o'rganish istagida namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, ba'zi topshiriqlar ma'lum bir illyustrativ xususiyatga ega; ulareksperimentning maksimal illyustrativligi muhimligini ta'kidlaydi; ba'zi vazifalar sifat vazifalari xususiyatiga ega.

Talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini rag'batlantiradigan tavsiflarni tuzishda ham ifodalangan.

Optika laboratoriyasi 24 ta laboratoriya ishlarini o'z ichiga oladi, ular keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi:

Elektromagnit to'lqinlarni o'rganish.

Elektromagnit to'lqinlarning interferentsiyasi va diffraksiyasi.

Nyuton halqalari.

Radiatsiyaning vaqtinchalik kogerentligini o'rganish.

Yung tajribasi.

Yorug'lik to'lqin uzunligini aniqlash.

Fresnel va Fraunhofer diffraksiyasi.

Lazer nurlanishining diffraksiyasi.

Yorug'likning diffraksiyasi.

Difraksiyon panjara.

Teleskop, mikroskop, ko'z optik tizim sifatida.

Yupqa linzalarning fokus uzunligini aniqlash.

Chiziqli va elliptik polarizatsiyalangan yorug'lik.

Nurning tarqalishi.

Ikki vosita orasidagi interfeysdagi yorug'lik.

Yuqoridagi ishlarni bajarish uchun, oldingi amaliy ishlarga o'xshash, ba'zida universitetlarda bir qator sabablarga ko'ra mavjud bo'lmagan uskunalar talab qilinadi - simob chiroq, shaffof bo'lmagan yoritgichli mikroskop, gaz chiqarish trubkasi, kollimator, lazer, goniometr va boshqalar. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu seminar ikki simli chiziqdagi elektromagnit to'lqinlarni o'rganish va elektromagnit

to'lqinlarning dekimetr va santimetr diapazonidagi interferentsiya va diffraksiyani o'rganish bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarishni o'z ichiga oladi va, masalan, ikkinchi ish, santimetr to'lqin generatori va metall ekran etarli, indikator va mikroamp perimetri - har qanday universitet uchun juda qulay bo'lgan uskuna.

Ko'p yillar davomida ikkita to'lqin diapazonida to'lqin optikasi: optik va radiofizika bo'yicha keng qamrovli umumiy fizik laboratoriya seminari ishlab chiqilgan.

N.Ya.Molotkov ta'kidlaydiki, fizik hodisalarni "optik diapazonida o'rganish hodisaning yakuniy natijasini, uning rasmini, tasvirini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi. Masalan, interferentsiya yoki diffraksiya bo'yicha rangli tajribalarni eslaylik. Biroq, to'lqin uzunligi bilan taqqoslanadigan masofalarda to'lqin jarayonlarining "mexanizmlarini" kuzatish mumkin emas. Radioto'lqinlardan santimetrli nurlanishdan foydalanish to'lqin uzunligi bilan taqqoslanadigan va undan qisqaroq segmentlardagi hodisalarni vizual ravishda o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, eksperimentlarda osiloskop yoki kompyuterdan foydalanish - "to'lqin jabhalarini skanerlashda turli xil to'lqin jarayonlarining ko'plab funksional naqshlarini kuzatish imkonini beradi, bu esa bu tajribalarni ayniqsa vizual va qimmatli qiladi" [3].

Elektromagnit to'lqinlarning keng spektridan santimetr diapazonidagi elektromagnit to'lqinlar bir necha sabablarga ko'ra tarqalgan. Birinchidan, elektromagnit kuchlar tabiatda eng keng tarqalgan bo'lib, elektromagnit o'zaro ta'sirlar tirik va jonsiz tabiatdagi turli xil jarayonlarda kuzatiladi. Ikkinchidan, yorug'lik va radio to'lqinlari bir xil Fizik tabiatga ega. Uchinchidan, uch santimetr diapazonidagi to'lqinlar o'lchovlar uchun qulaydir, chunki ularning uzunligi juda ko'rinadigan laboratoriya shkalalariga to'g'ri keladi, lekin ayni paytda unchalik kichik emas. Yilni ko'rsatkichlar mavjudligida 3-4 sm to'lqin uzunligi taqqoslanadigan va qisqaroq to'lqin uzunliklari segmentlarida hodisalarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

Ko'pgina metodik fiziklarning ishlari shuni ko'rsatadiki, to'lqin optikasi bo'yicha fizik tajribada santimetrli elektromagnit to'lqinlardan foydalanish eksperimental ravishda o'rganilgan hodisalar doirasini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Oddiyroq va qulayroq vositalar yordamida bir qator nozik optik to'lqin hodisalarini vizual ravishda o'rganish mumkin bo'ldi:

barcha mumkin bo'lgan qutblanish naqshlari bilan

ikkita kogerent to'lqinning superpozitsiyasi;

diffraksiya naqshini boshqarish;

fazali ikki sindiruvchi plitalarning xususiyatlarini o'rganish;

rentgen nurlari diffraksiyasini modellashtirish;

tunnel effektining optik analogini o'rganish va boshqalar.

Shunday qilib, hozirda optika bo'yicha mavjud bo'lgan amaliyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular talabalarning eksperimental kompetensiyasini, jumladan, tajriba moslamalarini yaratish ko'nikmalarini va tayyor eksperimental moslamalar bo'yicha tadqiqotlar majmuasini bajarish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Darhaqiqat, fizika ta'limida eksperimental kompetensiyani rivojlantirish metodo-logiyasi yaxshi ishlab chiqilgan, o'rganishning faol shakli sifatida o'zini namoyon qildi va fanga ko'plab iste'dodli eksperimentchilarni berdi. Biroq, ushbu seminarlarda nazariy modellarni faol moddiylashtirilgan o'rganish amalga oshiril-maydi, bu esa talabalarning nazariy modellarning Fizik mohiyatini tushunishlariga va tegishli nazariy materialni o'zlashtirish-lariga to'sqinlik qiladi.

O'quv Fizik tajribalarining rivojlanish tendentsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv eksperimentlari ilmiy tajribaga yaqinlashmoqda. Bu eksperimental ilmiy texnologiya yutuqlaridan bevosita o'quv jarayonida foydalanish orqali amalga oshiriladi. So'nggi yillarda osiloskoplarni, videomagnitafonlar, past, yuqori va ultra yuqori chastotali generatorlar, televizor qurilmalari, optik kvant generatorlari (lazerlar), shaxsiy kompyuterlar kabi qurilmalar o'quv eksperimentlarida keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi vaqtda modellar va modellashtirishga bo'lgan qiziqish universal bo'lib qoldi va endi, ehtimol, modellar haqida gapirishga va modellashtirish bilan shug'ullanishga urinmaydigan biron bir fan, bilim sohasi yo'q. Tabiiyki, modellashtirish va modellashtirish kompyuter tajribasi ta'lim jarayonini e'tiborsiz qoldirmadi.

Bugungi kunda shaxsiy kompyuter talabalarni tayyorlash jarayonining zarur va ajralmas elementi hisoblanadi. Shaxsiy kompyuter jiddiy va uzoq vaqt davomida talabalarni o'qitish jarayonida, ayniqsa o'quv eksperimentlarini bajarishda vosita sifatida foydalanishni topdi. Biroq, kompyuterda o'qitish klassik o'qitish usullari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak va bo'lishi mumkin.

Kompyuter va mikroprotessor texnologiyalarini o'quv amaliyotiga joriy etish zarurati va maqsadga muvofiqligini asoslash ikkita asosiy, bir-biri bilan chambarchas bog'liq komponentlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, kompyuterning ulkan texnik va ekspluatatsion imkoniyatlari o'quv jarayonida ilgari qo'llanilgan o'qitishning texnik vositalari bilan taqqoslanmay-digan didaktik materialni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning haqiqiy samaradorligi (va kompyuterlarning keng qo'llanilishi uning eng yorqin ko'rinishlaridan biridir) hal qiluvchi darajada zamonaviy talablar darajasida kadrlar tayyorlashga bog'liq. Kompyuter texnologiyalarini o'rganish va o'quv jarayonida foydalanish talabalarni kelajakdagi mehnat hayotiga tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining ko'pchiligining kelajakdagi kasbi u yoki bu jihatdan kompyuter bilan bog'liq bo'lishini hisobga olmaslik mumkin emas.

Quyidagilarga e'tibor berish muhimdir. Jismoniy nazariya to'lqin optikasi kursi mazmunining eng qiyin elementlaridan biri bo'lib qolmoqda, chunki unda ko'p miqdordagi mavhum materiallar mavjud. An'anaviy fizika o'qitishda amaliyotda qo'llaniladigan kompyuter amaliyotidan foydalanmasdan nazariy modellarni o'rganish modellarning mavhumligi bilan bog'liq bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Har bir talaba jismoniy modelni tasvirlaydigan matematik apparat yordamida fizik hodisani ko'ra olmaydi. Matematik apparat talabalar tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan bo'lsa ham, tadqiqot natijalarini jismoniy (hatto ideallashtirilgan) ob'ektlarga o'tkazishda ko'pincha qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Modelning (kompyuter modeli) dasturiy ta'minoti, uning vizualizatsiyasi bilan birga, haqiqiy ob'ekt, agar u haqiqatan ham nazariyada tasvirlangan qonunlarga bo'ysunsa, o'zini qanday tutishini tasavvur qilish imkonini beradi. Kompyuter modeli modelning xatti-harakatlarini fizik nazariyaga xos bo'lgan ideallashtirish va abstraksiya darajasida takrorlash va uni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Biroq, talabalarga o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish masalalari.

Hozirgi bosqichda kompyuterni qo'llab-quvvatlash dasturi yordamida mikroto'lqinli diapazondagi to'lqin optikasi hali pedagogika fanida va amaliyotda to'g'ri aks ettirilgan va qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Ilmiy, uslubiy adabiyotlar va tadqiqotlari tahlili, shuningdek, eksperimentning aniqlash bosqichi natijalari asosida quyidagilar o'rtasida qarama-qarshiliklar aniqlandi:

to'lqin jarayonlarini har tomonlama o'rganish zarurati va kompleks eksperiment o'tkazish uchun o'quv vaqtining yetishmasligi;

kompyuterni qo'llab-quvvatlash vositalarining yetishmasligi.

Agar biz tabiiy eksperimentni to'ldiruvchi elektromagnit to'lqinlarning mikroto'lqinli diapazonida to'lqin optikasi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini qo'llab-quvvatlash uchun kompyuter dasturini ishlab chiqsak va o'quv jarayoniga kiritsak, bu nafaqat o'quv jarayonining kuchayishiga olib keladi. Talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida kompyuterni qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, balki ularning bilim darajasini oshirishga imkon beradi.

Kompyuter namoyishlari an'anaviy namoyishlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ular hodisa yoki ob'ektni dizayn xususiyatlarini chalg'itmasdan yoki namoyish o'rnatishning texnik hiyla-nayranglarisiz ideallashtirilgan shaklda ko'rsatishga imkon beradi. Kompyuter texnologiyalaridan mohirona foydalanilganda o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, murakkab nazariy masalalarga qiziqishni oshirish mumkin. Kompyuter modeli modelning xatti-harakatlarini fizik nazariyaga xos bo'lgan ideallashtirish va abstraksiya darajasi bilan takrorlash imkonini beradi va uni yaxshiroq tushunishga imkon beradi[5].

Shu bilan birga, Fizik namoyishlar va undan ham ko'proq zamonaviy o'quv sharoitlariga moslashtirilgan uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan interaktiv kompyuter dasturlari juda sekin kengayib bormoqda. Natijada, ko'plab hodisalarning Fizik tomoni "bo'r" shaklida taqdim etiladi.

Universitet ta'limi sharoitida bo'lajak mutaxassislarni eksperimental tayyorlashni takomillashtirishning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi:

Universitetdagi ta'lim faoliyati reproduktiv, ko'payish sifatida emas, balki samarali, ijodiy sifatida ko'rib chiqilishi kerak, bunda talabaning o'zi yangi kasbiy bilim va ularni olish usullarini yaratadi va o'zlashtiradi.

Fizika mashg'ulotlarining mazmuni va darslarni o'tkazish usullarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati - (seminar kontsepsiyasi; laboratoriya ishlarining mavzulari va mazmunini tanlash; ishlab chiqish). o'quv qurollari va jihozlari; laboratoriya ishlarini o'tkazish va eksperimental ishlarni tashkil etish metodologiyasini asoslash).

Laboratoriya seminari bilimlarni egallash jarayonining nazariy va amaliy jihatlaridan birgalikda foydalanishni nazarda tutadi.

O'quv jarayonida tajriba o'tkazish nafaqat sof amaliy, balki intellektual xususiyatga ega bo'lgan bir qator ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Aqliy faoliyatning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalar o'rtasida laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish borasida ko'nikma va malakalarni shakllantirishda jiddiy kamchiliklar mavjud.

Xulosa. Oliy o'quv yurtlarida Optika bo'limining zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlarini quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Zamonaviy laboratoriya laboratoriyasi, eng avvalo, fizik tajriba o'tkazishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy asbob-uskunalar qo'llaniladigan laboratoriyadir.

Zamonaviy laboratoriya laboratoriyasi yuqori ilmiy va uslubiy darajaga mos kelishi kerak.

Fizika laboratoriyasining har bir laboratoriya ishining natijasi dunyoning yagona fizik rasmida o'rganilayotgan hodisaning o'rnini tushunish bo'lishi kerak va o'quv fizik eksperimentlarni rivojlantirish tendentsiyalarini hisobga olgan

holda, dissertatsiya mikroto'lqinli diapazonda to'lqin optikasi bo'yicha mavjud to'liq miqyosli laboratoriya laboratoriyasini kompyuter yordami bilan to'ldirish zarur degan xulosaga keldi.

Tabiiy va kompyuter tajribalarini uyg'unlashtirgan holda, to'lqin jarayonlarini yanada ko'p qirrali, chuqur va tizimli ravishda o'rganishga imkon beradigan dastur.

ADABIYOTLAR

1. Ta'limda axborot texnologiyalari R.Xamdamov, U.Begimqulov, N.Taylaqov Smirnov A.V. Noviy kurs «Informatsionie i kommunikatsionie texnologii v fizicheskom obrazovanii» v sisteme podgotovki A.V. Smirnov, N.V.Kalachev, S.A.Smirnov // Fizicheskoe obrazovanie v vuzax. – 2014
2. Ibragimov Raximjon Xasanboy o'g'li: Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining fizikadan bilimini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari omili. “Birinchii Renessans: Abu Rayhon Beruniy va tabiiy fanlar evolyutsiyasi” nomli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 25-may, 2023-yil. Navoiy shahri (113-116s)
3. Ibragimov Raximjon: Methodology of teaching physics in vocational schools. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8364499>
4. Raximjon Ibragimov: Kasb-hunar maktablari o'quvchilarini kasbiy tayyorlashda fizikani kompyuter vositalaridan foydalanib o'qitishning ahamiyati O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2023,[1/10/1] ISSN 2181-7324 (76-78s) <http://journals.nuu.uz> Social sciences



UDK:112:316.346. 13-053.81 (575.1)

Shuhrat MAMATQULOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b
E-mail: shuxrat.mamatqulov@inbox.ru

Siyosiy fanlar doktori, dotsenti D. Ernazarov taqrizi asosida

PROSPECTS OF INCREASING THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF YOUNG PEOPLE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Аннотация

This article presents the results of improving the intellectual quality of our youth for our future, and what should be done for this, and which way will be important for us. The implementation of the state policy on youth in our country shows how important the changes will be for the youth in the years to come. Highly intellectual and spiritual youth are the backbone of the country.

Key words: Globalization, internet journalists, spirituality, intellect, value, youth policy.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В этой статье представлены результаты повышения интеллектуального качества нашей молодежи для нашего будущего, а также то, что необходимо для этого сделать и какой путь будет важен для нас. Реализация государственной молодежной политики в нашей стране показывает, насколько важными будут изменения для молодежи в ближайшие годы. Высокоинтеллектуальная и духовная молодежь является основой страны.

Ключевые слова: Глобализация, интернет-журналисты, духовность, интеллект, ценности, молодежная политика.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR INTELEKTUAL SALOHİYATINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLARI

Аннотация

Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarimizning intellektual alohιyatini oshirishning kelajagimiz uchun natijasi va bu uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak, qaysi yo‘ldan borilsa biz uchun salmoqli bo‘lishi haqida fikrlar berilgan. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi keying yillarda yoshlarga berilayotgan o‘zgarishlarning qanchalik salmoqli ekanligi, yuksak intellektual, ma‘naviyatli yoshlar mamlakat tayanchi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, internet jurnalistlari, ma‘naviyat, intellekt, qadriyat, yoshlar siyosati.

Kirish. Globallashuv asosida mamlakat yoxud millatning istiqboli bunyodkorlikka asoslangan g‘oyalar negizida shakllanadigan ma‘naviy madaniyatdan bahramand bo‘lmas ekan, bunday manzara jamiyatda yoshlar ongi va qalbidan joy olmaganicha o‘zining ijtimoiy-tarixiy mohiyati va ahamiyati bilan yer qa‘ridagi oltin zahiralarda tarzida yotaveradi. Jamiyat sog‘lom turmush tarzi, ideal, nazariya va tamoyillar negizida yoshlarning muayyan maqsadlarini amalga oshirar ekan, jamiyatdagi dialektik aloqadorlikning hayotiyligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shuning uchun har bir yosh avlodni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi sog‘lom muhit bilan qurollantirish, bunyodkorlik ishlariga jalb qilish lozim.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng barcha sohada bo‘lgani kabi ma‘naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni, an‘anaviy, qadimiy urf-odatlarimizni tiklashga katta e‘tibor berilmoqda. Mamlakatimiz yoshlari rivojlangan davlatlar yoshlari kabi zamonaviy bilim olishlariga, dunyo madaniyati va ma‘naviyatining sarchashmalaridan bahramand bo‘lishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, bugungi axborot xurujlari avj olgan davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir etuvchi, ming yillar davomida yuksak qadriyatga aylangan, mehr-oqibat, ibo-hayo, kattaga hurmat kichikka izzat kabi an‘analimizdan yoshlarni og‘diruvchi ayrim noxush holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. “Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘chayib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda”[1]. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda o‘zida

matbuot, radio va televidenie xususiyatlari hamda imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, axborot yetkazib berish darajasi bo‘yicha tezkorlik va ko‘lamdorlikda mukammal bo‘lgan internet ayniqsa, ommalashib bormoqda.

Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, “Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ko‘plab muammolar – tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, iqlim o‘zgarishlari, shuningdek, COVID-19 pandemiyasi – o‘zaro kelishilgan global hamkorlikni va mavjud muammolarni hal etish jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilishni talab etmoqda. Shu munosabat bilan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning qabul qilinishi jahondagi ikki milliarddan ortiq yigit va qizlarning haq-huquqlarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga egadir. U yosh avlodni ma‘rifiy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Ushbu tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda”[2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bugun dunyo turli qarashlar, g‘oyalar, nuqtai nazarlarning tamomila yangicha rivojlanish pallasiga kirib, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g‘oya va mafkuralariga ham katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aslida, turli jamiyat a‘zolari munosabatlarining o‘zaro integratsiyasi sifatida tanilgan globallashuv jarayoni vaqt o‘tishi bilan uning faoliyat yo‘nalishi “traektoriya”si ham o‘zgarib bormoqda. Atoqli siyosatchi Karl Yaspersning “xar

bir davr o'zicha bir tahdiddir" degan so'zlari bugun yana bir bor isbotini topayotgandek go'yo. Inson oliy mavjudot, ammo bu uni xatolardan xoli ekanligini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning xatti harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o'zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish insonlarning o'zlari tomonidan turli institutlar, ya'ni tom ma'nodagi "tartibga solish qurilmalari" tashkil etilgan.

Hozirgi vaqtda global tarmoqda uz domentli veb-saytlar, axborot partallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda ham faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir"[3]. Ammo har bir yangilik va kashfiyotlarning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganidek, Internetning ham yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nomaqbul tomonlari ham yo'q emas. Bugungi yoshlarimizning barchasi Internet tarmog'idan faqat ilm yo'lida va dunyo axborot yangiliklaridan foydalanishmoqda, desak, biroq yangilishamiz. Ushbu soha bilan shug'ullanadigan ko'plab klublarga kirganda, yoshlar bilan gavjum ekanini ko'rib xursand bo'lasan kishi, ammo ular yoniga borib nima bilan shug'ullanayotganligini zimdan kuzatsangiz, aksariyat qismi oila davrasida ko'rolmayotgan pornografik va vahshiyona filmlarni ko'rish, turli mintaqalardagi qizlar va bolalar bilan sevgi nomalarini almashish, suratlarini kiritib reklama qilish bilan bandligiga guvoh bo'lasiz. Bu kabi noxush holatlardan so'ng yoshlar kelajakda qahri qattiq, mehrsiz, hayosiz bo'lib yetishmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning tabrigida ta'kidlanganidek, "Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqimiz hayotiga, uning quvonch va tashvishlariga tobora yaqin bo'lib, O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasini shakllantirishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining soni qariyb 4 baravar ko'payib, 1500 taga yetgani ushbu tarmoqda o'sish, o'zgarish jarayonlari izchil davom etayotganidan dalolat beradi... Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu -zamon talabi, islohotlarimiz talabi"[4].

Umuman olganda, ertangi kunimiz taqdiri hal bo'layotgan hozirgi davrda loqaydlik va beparvolikdan butunlay xalos bo'lib, jasorat va shijoatni qalbg'a jo etib, shu Vatan, shu el uchun, yuksak ma'naviyatli kelajak avlod uchun yonib yashashni, fidoyilik bilan ishlashni hozirgi davr qat'iy talab qilmoqda. Shu o'rinda, Abdulla Avloniyning quyidagi hikmatli so'zlarini keltirib o'tishni joiz deb bildik: "Bolalarni pisand qilmagan millatlar inqirozi ularni yot qo'llarga va yot madaniyatlar ixtiyoriga berib qo'yg'anlari sababliki, ulardan ayrilishga mahkumdirlar"[5].

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish mamlakatimizni demokratlashtirish, modernizatsiya va islohotlarni amalga oshirishda ijtimoiy totuvlik, hamjihatlik, hamkorlikning mustahkam hamda barqaror bo'lishini ta'minlashda, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz va madaniy merosimiz targ'iboti va tashviqotida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati poydevori mustahkamlanayotgan bugungi sharoitda yoshlarda ma'naviy yuksalishni ta'minlashdagi ustuvor vazifalardan biri yoshlarni milliy g'oya atrofida birlashtiruvchi, ma'naviy tarbiyasida milliy qadriyatlarga tayanish muhim ahamiyatga ega.

Shu boisdan ham "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (Agentlik) hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar

boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilandi. Agentlik, jumladan, yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Shuningdek, Agentlik yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Farmon bilan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda, jumladan, O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indeksleri hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish belgilangan. Dasturda nazarda tutilgan tadbirlar Agentlik tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalar taqsimlash orqali moliyalashtiriladi".

Milliy qadriyatlarini turmush tarzimizga singdirishda davlatchilik an'analarimizni tiklash xalqimizning istiqbol to'g'risidagi asriy orzularini ro'yobga chiqarishda yordam beradi bu borada xalqni-xalq, millatni-millat sifatida birlashtiradi. O'z qadriyatlari va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi, buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, mustaqillikni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatning yangilanishiga xizmat qiluvchi ma'naviy omil hisoblanadi.

Jamiyatimizni milliy qadriyatlar asosida, jumladan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada kuchaytirishda oliy o'quv yurtlari oldiga juda katta va mas'uliyatli vazifalar qo'yilmoqda. "Hozirgi vaqtda yurtimizda "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" degan shior keng tarqalib, hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda". Mamlakatimizda demokratiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini mustahkamlash, yangi insonni kamol topshirishning muhim muammolari hal qilinayotgan hozirgi bosqichda yoshlarning roli tobora ortib bormoqda. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[6].

Muhokama va natijalar. Bugun yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish va milliy ruhda tarbiyalashda quyidagi falsafiy omillarga e'tibor qaratish joizdir:

1. Fuqarolik jamiyati g'oyalarini ijtimoiy faollik bilan uzviylikni ta'minlagan holda yoshlar dunyoqarashini ijtimoiy hayotga yo'naltirish, ularda ertangi kunga ishonch hissini milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, elga hurmat tuyg'ulari bilan bog'lash;

2. Barcha davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan yoshlarning unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib, ijtimoiy faolligini ezgulik va nafosat tuyg'usi asosida qaror toptirish;

3. Yoshlarda barcha yer yuzidagi insonlarni millati, irqi, dini, tili, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, egallagan mavqeidan qat'iy nazar hurmat qilish, bahamjihat ijtimoiy faoliyat olib borishga qaratilgan dunyoqarashini shakllantirish;

4. Har bir ota-ona endigina dunyoga kelgan go'dakning qalbidagi sof hissiyotni ijtimoiy tafakkur va madaniyat ideallari bilan boyitib, unda musaffo tabiat havosidan boshlab, farovon turmush va go'zal hayot barpo etish hissiyotini milliy ruhda tarbiyalashi lozim [7].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratlashuv jarayoni insonlar, turli ijtimoiy qatlamlar,

siyosiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyat va o'zaro munosabati bilan bog'liq. Qolaversa, aholining asosiy qatlamini tashkil etadigan yoshlar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, yoshlarga e'tibor, ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik har qachongidan ham ulug'vorlik kasb etmoqda. Chunki, bugun bag'rimizda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarimiz ertangi kunimiz vorislaridir. Bugun agar yoshlar to'g'risida, statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, respublika bo'yicha 7 yoshgacha bo'lganlar 4 milliondan ortiq, 7-13 yoshlar 4,6 millionga yaqin, 14-28 yoshdagilar qariyb 8 millionni tashkil etadi. Mamlakatimiz umumiy aholisining qariyb 17 millionini yoshlar tashkil etadi. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini ta'kidlash lozim". Shu bois mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda yoshlarning har jihatdan faol bo'lishlari uchun ularni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalash dolzarb vazifalardan bo'lib qolaveradi.

Bugungi globalashuv zamonida komillik borasidagi qarashlar birmuncha moddiylandi. Endilikda real dunyo haqidagi bilim faollik, vatanparvarlik asosiy mezonga aylandi. Albatta, ezgu xulq va ezgu maqsad bilan bajarilgan ishlar, beminnat hojatbarorlik, saxovatpeshalik hozir ham zarur zero, bular yuksak ma'naviyatli insonning muhim fazilatidir. Ana shunday insonlarni tarbiyalash umumdavlat ishi deb qaralmoqda. Zotan, komil inson qancha ko'p bo'lsa, mamlakat shuncha qudratli va obod bo'ladi. Jamiyatda elni ulug' bunyodkorlik ishlariga safarbar etuvchi insonlarning ijodkorligi, ibratli ishlari, fidoyiligi taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytiradi, natijada ham iqtisodiy, ham ma'naviy yuksalish yuz beradi.

Buning uchun esa yoshlarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni hayotiy faktlar orqali sodda va lo'nda qilib tushuntirish, istibdod asoratlarini tarixiy dalillar asosida fosh etish g'oya va mafkuramizni yoshlar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, birinchi navbatda, rahbar kadrlar, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining muhim vazifasi, fuqarolik burchidir. Milliy g'oya va mafkuramizga sadoqat, kasbiy mahorat, keng ommani ishontirish va safarbar etish qobiliyati - kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yishda asosiy mezon bo'lmog'i lozim. Milliy mafkura masalalariga loqaydlik ayrim rahbar kadrlar o'rtasida umummilliy manfaatlarimizga butunlay yot g'oyalarning, korrupsiya, qarindosh-urug'chilik singari illatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Milliy mafkura g'oyasi xususidagi bilimlarni barcha turdagi ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga singdirishga ijtimoiy ehtiyoj sifatida qaralayotgan bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba yoshlarni, mafkuraviy va g'oyaviy jihatdan qurollantirish muhim pedagogik jarayon sanaladi. Bunda nafaqat ijtimoiy-siyosiy, maxsus fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar pedagogika turkumidagi fanlarning ham imkoniyatlari katta. Mazkur fanlararo bog'liqlik va talabalarni ma'naviy shakllantirishga qaratilgan ta'lim - tarbiya o'rtasidagi uzviy aloqaning o'rnatilishiga erishish hamda ma'naviy-mafkuraviy tarbiya samaradorligini ta'minlashga yaqindan yordam beradi. Axloqiy tarbiya turi asosida yoshlarni asrlar davomida yaratilgan ma'naviy qadriyatlarimizni o'rgatish yotadi. Ma'naviy qadriyatlardan vatanparvarlik oliy qadriyat sifatida qaraladi. Milliy mafkuraning bosh g'oyasi xam ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Biz bo'lg'usi kadrlarni tarbiyalash ekanmiz, ular axloqan yetuk bo'lishlarida bu hislatlarni

o'zlarida mujassamlashtirishlari, bu qadriyatlarni kelgusi faoliyatlarida dasturilamal qilib olishlari lozim bo'ladi.

Yoshlar jamiyatning kelajagi, Vatan taraqqiyoti uchun mehnat qiluvchi juda katta qatlam. Ularning faol mehnati, ishbilarmonligi va tadbirkorligi tufayli jamiyatimiz yanada taraqqiy etmoqda. Prezidentimiz boshchiligidagi yoshlar ko'plab dolzarb masalalarni ko'tarib chiqmoqdalarki, bularni hal etishda jamiyat yangilik va evralishlarga yuz tutmoqda. "Haqiqatan ham, bugungi kunda yangi O'zbekiston yoshlari - mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko'lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo'lib maydonga chiqmoqda. Bugun mamlakatimiz yoshlar huquq va manfaatlarini ifoda etuvchi davlat siyosatini amalga oshirishda mintaqada lokomotivlik vazifasini bajarmoqda. Yoshlar o'z bilim va salohiyatini namoyon etishlari uchun barcha jabhada keng ko'lamli sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan".

Ta'kidlaganimizdek O'zbekiston aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Ularning manfaatlari, ehtiyojlari aynan jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashgan va dolzarb masalalarni o'zida qamrab olgan. Yoshlar jamiyatning kelajagi. Ular ma'naviy bilimlarining kengligi jamiyat hayotini ko'rsatib beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki aholi tizimining katta qismini tashkil etuvchi yoshlar o'zi bilan jamiyatga xos bo'lgan qadriyatlar va o'ziga xos bo'lgan yangiliklarni ham olib kirmoqda.

Yoshlar masalasi o'tgan asrning 20-yillaridayoq ko'pgina davlatlarning asosiy masalalaridan biri bu K. Mangeymning "Avlod muammosi" asaridan boshlab bu muammo kun tartibidagi masalalari qatoridan o'rin olgan.

Xulosa va takliflar. Demak, global masalalardan biri bo'lgan yoshlar masalasini o'rganishda asosiy tamoyillar quyidagilarda o'z aksini topgan:

Yoshlar muammosini o'rganishga tarixiy yondashish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlari, xulqi, qiziqishi, dunyoqarashi va boshqa jihatlarini o'rganishda muayyan davr, shart-sharoitlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib baho berish talab qilinadi.

Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.

Yoshlarning har tamonlama rivojlanib borishini o'rganish va taxlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, muhitning o'zgarishi natijasiida avlodlar o'rtasidagi doimiy bog'liqlikni o'rganish.

Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi xisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim o'rganib borish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Xulosa. Hozirgi sharoitda yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, milliy mafkura g'oyalari xususida bilimlar berish orqali ularda turli xil ko'rinishdagi g'oyaviy taxdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim pedagogik muammolardan biridir. Bu esa insonni erkin ijodkor sifatida rivojlantirishni talab etadi shaxs ma'naviyatining asosiy omili hisoblangan tarbiya jarayoniga alohida mas'uliyat yuklaydi. Chunki tarbiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajaribgina qolmay, balki jamiyatning ertangi kunini rivojlantiruvchi, moslashuvchan kadr qilib tarbiyalash bilan birga yosh avlodni milliy mafkura g'oyalari asosida axloqiy yetuk inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning bir-biriga mos tushishi va u yoshlar manfaatlari bilan uyg'unlashishi asosiy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги Қарори // “Халқ сўзи”, 2017 йил 29 июль.
2. Мирзиёев Ш.М. “Ёшлар 2020: глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор тараққиёт ва инсон ҳуқуқлари” мавзусида ўтказилаётган инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми иштирокчиларига нутқи. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. 12.08.2020 й.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз 1-жилд Т.: Ўзбекистон, 2017 498- бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига табриги // “Халқ сўзи”, 2017. 9-сентябрь.
5. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.-Т.: Ўқитувчи, 1992. 5-6 бетлар.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз 1-жилд Т.: Ўзбекистон, 2017. -537-бет.
7. Ғайбуллаев О., Ҳақимова Д. Фуқаролик жамиятида ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг фалсафий омиллари. “Фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш омиллари”. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2018. –288 бет. Б 270.
8. <http://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/31727/>
9. Маматқулов Ш (2018). Some issues increasing of social activity of youth of uzbekistan. European science review, 1(11-12), 128-129.



UDK: 1825(843)

Gulshoda MA'MIROVA,
University of science and technologies talabasi
E-mail: aslzoda2005@gmail.com

O'zRes JXU professori, p.f.d D.M.Mamatkulov taqrizi ostida

THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Annotation

Innovative technologies in education allow to regulate education, to direct it in the right direction. People are always afraid of the unknown and new things, they react negatively to any change. Stereotypes that exist in the public mind and affect normal lifestyles lead to painful events, preventing the renewal of all forms of education. The reason why people are reluctant to accept innovations in modern education is because they are blocking vital needs for convenience, security and self-affirmation. Not everyone is ready to re-learn theory, take an exam, change their mind, spend personal time and money. Once the update process has started, it can only be stopped using special techniques.

Key words: Innovation, resources, complex activities, information and communication technologies, didactic technologies.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Инновационные технологии в образовании позволяют регулировать образование, направлять его в нужное русло. Люди всегда боятся неизвестного и нового, негативно реагируют на любые перемены. Стереотипы, существующие в общественном сознании и влияющие на нормальный образ жизни, приводят к болезненным явлениям, препятствуя обновлению всех форм образования. Причина, по которой люди неохотно принимают инновации в современном образовании, заключается в том, что они блокируют жизненные потребности в удобстве, безопасности и самоуверждении. Не все готовы заново учить теорию, сдавать экзамен, передумать, тратить личное время и деньги. После запуска процесса обновления его можно остановить только с помощью специальных методов.

Ключевые слова: Инновации, ресурсы, комплексная деятельность, информационно-коммуникационные технологии, дидактические технологии.

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Hayotimizning barcha sohalariga singib borayotgan axborot inqilobi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada, shunday yaxlit axborot makoni shakllanmoqdaki, bu makonda axborot milliy boylikning qimmatbaho qismiga, uning strategik resursiga aylanmoqda. Muloqotimizga yangi tushunchalar jadal kirib kelayotganligi ham buning isbotidir. “Axborot makoni”, “axborot iste‘molchilari”, “axborot shovqini”, “axborot taqchilligi”, “axborot ehtiyojlari”, “axborot siyosati” kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ommaviy axborot vositalari haqli ravishda zamonaviy jamiyatda axborot tarqatishning asosiy vositasi hisoblanadi. O‘z paytida Napoleon shunday degan: “To‘rtta gazeta dushmaniga yuz minglik armiyadan ko‘ra ko‘proq zarar yetkazishi mumkin”. Bu fikr aytilganidan buyon dunyoda ulkan o‘zgarishlar yuz berdi: gazetalar muntazam ravishda va ko‘p nusxada nashr qilina boshladi, radio va televideniye paydo bo‘ldi, ommaviy axborot vositalarining ta‘sir darajasi bir necha karra o‘zini oshirdi.

Bu borada E.Giddens, E.Toﬀler, S.Xantington, F.Fukuyama, D Bell, M.Kastels, J. Neysbit kabi olimlarning asarlari diqqatga sazovor. Ular o‘z asarlarida jamiyatning axborotlashuvi, uning ijobiy va salbiy jihatlari, inson hayotiga axborot omilining aralashuvi natijasida ong va tafakkur o‘zgarishidagi eng muhim jihatlarni ko‘rsatib berishgan[1].

Televideniye kishilarga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlari juda yuqori baholanadi. Birinchidan, inson tasavvurida u go‘yoki televizorda ko‘rayotgan jarayonlarining “ishtirokchisi”ga aylanadi. Teleekran orqali tomoshabin ko‘rgan barcha narsalarni u voqelikda ko‘rganidek idrok qiladi, sodir bo‘layotgan narsalarga o‘zi guvoh bo‘layotgandek his qiladi.

Ikkinchidan, televideniye siyosiy hayotni yanada tushunarliroq qiladi, chunki siyosat tomoshabin ko‘z o‘ngida mavhum tushunchalar shaklida emas, balki aniq shaxslar qiyofasida namoyon bo‘ladi. Teleekranda partiyalar va institutlar emas, balki konkret shaxslar, ularning xatti-harakatlari ko‘rinadi va ular tomoshabinlar tomonidan baholanadi.

Uchinchidan, televideniye bir xil vaqt davomida boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan ko‘proq axborot uzatish imkonini beradi. Chunki tomoshabin ekrandan katta miqdorda vizual axborot o‘qiydi, u kishilarning yuzidagi o‘zgarishlarni kuzatadi, ularning qo‘l harakatlarini ko‘radi va bu holat tomoshabinga kuchliroq ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ommaviy axborot vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- davriylik va takrorlanuvchanlik, ya‘ni axborot tarqatishning muntazamligi;
- ommaviylik, ya‘ni axborot iste‘molchilarining deyarli cheklanmagan, keng doirasi;
- axborot uzatish uchun maxsus texnik vositalar, quurilmalarning mavjudligi;

axborotni tayyorlovchi va uzatuvchi mutaxassislarining mavjudligi (jurnalistlar, tahrirchilar, noshirlar va hokazo);

kommunikatsion sheriklarning zamon va makondagi o'zaro ta'siri;

axborot ta'sirining bir tomonga yo'naltirilganligi, kommunikator va retsiyent rollarini almashtirishning iloji yo'qligi.

Ommaviy axborot vositalari demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lgan taqdirdagina ijtimoiy-siyosiy jarayonlar to'g'risidagi haqiqat ifoda etilishi mumkin. Binobarin, ommaviy axborot vositalari erkinligini kafolatlash va shu orqali muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish, odamlarning erkin fikr bildirishlari uchun keng yo'l ochib berish jamiyatni erkinlashtirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Ommaviy axborot vositalari tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilmas ekan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari kabi ta'sirchan kuchga aylanmas ekan, demokratik islohotlarning kechishi qiyinlashadi.

Tahlil va natijalar. Sovet ittifoqi davrida ommaviy axborot vositalari yakka mafkurani singdirish quroli bo'lib xizmat qilgan. Ommaviy axborot vositalari yakkayu-yagona partiya, yagona mafkura va g'oyaviy siyosatining targ'ibotchisi xizmatini o'tar edi. Zero, "qizil imperiya" har qanday plyuralizmi, fikrlar xilma-xilligini va, ayniqsa, g'oyalar xilma-xilligini mutlaqo inkor qilar edi. Barcha jurnalistlar "mutassaddi rahbarlar"ning og'zini poylab, buyrug'ini kutib, ularning ko'rsatmasiga qat'iy amal qilgan holda faoliyat yuritir edi.

Ta'kidlash joizki, so'z erkinligini bo'g'ayotgan davlat o'z ildiziga bolta urayotgan, xavf-xatardan ogoh etadigan jarchining ovozi bo'g'ayotgan, o'zini fikrsizlik, turg'unlik o'p'qoniga – tanazzulga sudrayotgan bo'ladi. Demokratik tuzum esa xalqning fikriga tayanadi, xalqdan himoya topadi. Demokratik davlatlarda ommaviy axborot vositalariga qo'pol bo'lsa ham jamiyat manfaatlarini "qo'riqlovchi ko'ppak", deb nisbat beradilar. Yetakchi demokratik davlatlarda ular jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Bu tuzumda ommaviy axborot vositalari bir tomondan munozaralar yuritiladigan minbar bo'lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolar uchun xolis axborot olish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida qator ishlar qilindi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida", "Jurnalistlarning kasbiga doir faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Milliy matbuot markazi, Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzildi. Boshqacha aytganda, respublikamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatning zarur huquqiy bazasi va ularni erkinlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarini "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish muammosi yana yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Yaxlit ogohlantiruvchi tizim sifatida ommaviy axborot vositalarini jamiyatdagi illatlardan xabar

beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylantirish talab etiladi. Mutaxassislar fikricha, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligi uch omilga bog'liqdir. Bular: birinchidan, maxsus qonunlar va qoidalarning mavjudligi; ikkinchidan, axborot sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitining amal qilishi; uchinchidan, jurnalistlarning kasb mahorati va o'z so'zi uchun mas'uliyat darajasi.

Demak, avvalo, ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lishi kerak. Bu - ular davlatdan mutlaqo mustaqil bo'lib, alohida shaxslar qo'liga o'tib ketishi kerak, degani emas. Gap mustaqillikning eng yuksak darajasi – ichki mustaqillik haqida bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining bunday mustaqilligi jurnalistlar ijodining erkinligi, mavzu tanlash va fikr berishdagi mustaqillikda namoyon bo'ladi. Bunda jurnalistning ma'muriy immunitetga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Ya'ni, jurnalistning material tayyorlashda o'z rahbariyatidan mustaqil bo'lishi hamda o'z ijodi namunalari uchun faqatgina uning o'zi mas'uliyatli va javobgar bo'lishi talab etiladi. Shundaygina jurnalistning ijodiy faoliyatini faqatgina ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor qonunlariga cheklaydi, xolos.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlardan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, chiqishlarda muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundaygina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va ra'batlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining islohoti "g'oyalar bozori"da xali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Lekin o'rinli bir savol tug'iladi: bu "bozor" har qanday g'oyalar uchun ham ochiq bo'lishi kerakmi? Yo'q, albatta. Ekstremistik nuqtai nazarlar, g'ayriinsoniy tabiatga ega fikrlar va qo'poruvchilikka chaqiruvchi g'oyalarga bu "bozor"da o'rin yo'q.

Bugungi voqelik har qanday davlat oldida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini ko'ndalang qo'yimoqda. O'z taraqqiyotining murakkab, o'tish bosqichini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun bu muammo alohida dolzarb kasb etadi. Hozirgi kunda axborot hokimiyat uchun kurashda ham, ta'sir uchun kurashda ham asosiy va qudratli qurolga aylanib bormoqda. Modomiki, axborot kuchli resursga aylangan ekan, basharti axborot eng qimmat resurslardan biriga aylanayotgan ekan, uni himoya qilish, uning xavfsizligini ta'minlash ehtiyojining vujudga kelishi tabiiy. Xo'sh, axborot xavfsizligi deganda nima tushuniladi? Ko'pincha axborot xavfsizligi davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot sohasidagi himoyalanganlik holati sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sanaladi. Boz ustiga, axborot xavfsizligi mamlakatning mustaqilligiga, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, xalqlarning ma'naviyatiga dahl qiluvchi va ularga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi nafaqat dolzarb va muhim masala hisoblanadi, balki murakkab va ko'p chiqimli vazifa hamdir. Zero, axborot xavfsizligini ta'minlash qator tashkiliy va huquqiy masalalarni hal qilishni, shuningdek, tarbiyaviy-psixologik choralar ko'rishni talab etadi. Axborot xavfsizligi fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish yo'li bilan ta'minlanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning yana bir usuli – fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya'ni ularda axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq. Muhimi, insonlarni axborotdan mahrum qilmasdan, ularni axborotni to'g'ri idrok etishga tayyorlash lozim. Ya'ni, har bir

shaxs ma'lum axborotning foydali yoki zararliligini ajratuvchi ichki mezonlarni ishlab chiqishi, ma'lum axborotning o'z professional faoliyati va shaxsiy hayoti uchun qadr-qimmatini baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Boshqacha aytganda, insonlarning ongida axborotlarning sarasini saraga, puchagini puchakka ajratuvchi "filtr"larning bo'lishi axborot xavfsizligini kafolatlovchi muhim omil sanaladi.

Masalaning muhim jihati shundan iboratki, bugungi kunda ilmiy hamda siyosiy doiralarda "axborot siyosati" atamasi keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati xususida juda keng va ko'plab ta'riflar berilgan. Ayrim olimlar axborot siyosatiga "axborotni uzatish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanishning sifati va sur'atini belgilab beruvchi tadbirlar tizimi"[2] sifatida baho bergan bo'lsalar, boshqalar uni "axborot sohasidagi milliy manfaatlarini himoyalash, davlatning boshqaruv vazifalarini amalga oshirishdagi vazifalarni ishlab chiqish, davlatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga axborot orqali ta'sir ko'rsatishi xizmat qiluvchi maqsadlar yig'indisi"[3], deb ta'riflaydilar.

Masalaga aniqlik kiritish maqsadida "axborot siyosati" tushunchasining tarkibidagi "axborot" va "siyosat" atamalarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Agar "axborot" tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning falsafiy kategoriya ekanligini inobatga olish lozim. Bu esa axborot tushunchasiga serqirrali hodisa sifatida yondoshishga undaydi. Axborot tushunchasini o'rganishda mavjud yondoshuvlardan kelib chiqib, ularning uchtagiga – gnoseologik, funksional hamda faoliyatijihatlariga alohida to'xtalib o'tish joiz: gnoseologik jihatdan, axborot materiyani ayrim jihatlarining aks etishidir. Ya'ni, D.Ursulning fikricha, "axborot bu materiyani atrofga ko'rinib turgan tarafi yoki u haqdagi ma'lumotdir"[4]. Funksional jihatdan, axborot "tashqi dunyoga moslashish jarayonida insonga yetib keladigan ma'lumotdir". Axborotni qabul qilish jarayoni insonning tashqi dunyoga moslashishi jarayonidir"[5]. Faoliyati jihatdan, axborotni "insonlar, shaxslar va mashinalar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi"[6] sifatida tushunish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations). Umuman, "axborot siyosati"ga mamlakatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda, axborot oqimlari va axborot resurslarini tartibga solish, ularning harakati uchun shart-sharoit yaratish, axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, axborot-kommunikativ texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlar, usullar va uslublar yig'indisi sifatida ta'rif berish mumkin. Biroq axborot siyosatining vazifalariga to'xtalmay turib, uning mohiyatini to'la ochib berish mumkin emas. Bu vazifalarga nimalar kiradi?

Avvalo, axborot sohasidagi raqobatni qo'llab-quvvatlash, axborot monopoliyasining o'rnatilishiga qarshi

kurashish axborot siyosatining muhim vazifasi hisoblanib, bu vazifa demokratiyaning muhim qadriyatlaridan biri - fikrlar xilma-xilligining qaror topishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, aholining erkin axborot olishi uchun zaruriy texnik vositalar va qonun hujjatlarini yaratish vazifasi ham axborot siyosatida muhim o'rin egallab, fuqarolarga jamiyat hayotiga, davlat siyosatiga, huquq va erkinliklar, majburiyatlar haqida to'la axborot olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, axborot siyosatining muhim vazifalaridan biri horijiy madaniy ekspansiyaga qarshi turish, millatning tili, qadriyatlari va urf-odatlarini saqlab qolishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'rishidir. Axborot makonining globallashib borishi sharoitida bu vazifa ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, intellektual mulkni muhofaza qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash ham axborot siyosatining ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Beshinchidan, axborot sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash axborot siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, davlatning axborot siyosati davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga va boshqa omillarga bog'liqdir. Birinchidan, davlatning axborot siyosati mamlakatni demokratlashtirishga xizmat qilmog'i hamda hamda yagona tizim asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bu tizimiylik davlat boshqaruvi organlarining ommaviy axborot vositalari va boshqa siyosiy institutlarning o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritishini shartlab qo'yadi. Bunda axborot sohasida amalga oshiriladigan tadbirlarni aniq rejalashtirish, tartibga solish va moliyaviy jihatdan ta'minlash hamda nazorat qilish tizimini yaratish muhimdir. Shuningdek, axborot siyosati, davlatning boshqa sohalarida yuritayotgan siyosatiga uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

Ikkinchidan, axborot siyosati aniq strategik maqsadlarga yo'naltirilgan holda amalga oshirilishi muhimdir. Axborot siyosatining aniq maqsadlarga bo'yundirilgan holda amalga oshirilishi uning samaradorligini aniqlovchi mezonlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Uchinchidan, axborot siyosatini amalga oshirishda qo'llanilayotgan vositalar, usullar, uslublar zamonaviy tenlensiyalar asosida muntazam takomillashtirib borilishi zarur.

To'rtinchidan, axborot siyosatining yo'nalishlari mamlakatning geografik joylashuviga, aholining demografik ko'rsatkichlariga, jamiyatdagi mavjud qonunlar va qadriyatlariga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim.

Boshqacha aytganda, davlatning axborot siyosati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy holatiga mos ravishda olib borilmog'i talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Гидденс Э. Устроение общества. Очерк теории структуризации. М. Академический проект 2018г. 528 с. Тоффлер Э. Третья волна. – М.: АСТ – 2010. 795 с.; Тоффлер Э. Революционное богатство. Серия: Philosophy. – Москва. АСТ. – 2008. 570 с.; Huntington's. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Luttwak E. Turbo-Capitalism: Winners and Losers in the Global Economy. London, 1998.; Fukuyama F. The Great Disruption: Human Nature and the Reconstitution of Social Order. – New York, 1999; Bell D. The Coming of Post – Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. New York: Harper / Collins, 1996; Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Maiden (Mac); Oxford (UK): Blackwell Publ. Vol. 1: The Rise of the Network Society, 1996; Naisbitt J. Global Paradox. – New York, 1995.
2. Государственное управление и информационная политика: программа учебных курсов. М., 1997. С6.
3. Нисневич Ю.А. Информация и власть. М., 2000. С 9.
4. Абдеев Р.Ф., Философия информационной цивилизации. М. 1994 С. 161.
5. Винер Н. Кибернетика и общество. М., 1958. С 15.
6. Халипов Ф. Кратология как наука о власти. М., 2002. С. 156-157.



UDK:372.8

Muattarxon NO'MONXONOVA,
Namangan davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi
E-mail:muattar@bk.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b M.Boltayeva taqrizi asosida

BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunos talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini o'rganadi. Zamonaviy texnologik innovatsiyalar kelajakdagi tilshunoslarning muloqot qobiliyatlari va til tayyorgarligini yaxshilash uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, kommunikativ kompetensiyalar, tilshunoslik, ta'lim, texnologik vositalar, tilni o'rganish, madaniy idrok, o'quv jarayoni, tilshunos talabalar, samarali o'rganish.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ЛИНГВИСТОВ

Аннотация

Данная статья исследует методику использования информационных технологий в процессе развития коммуникативных компетенций у студентов-лингвистов. Современные технологические инновации предоставляют уникальные возможности для усовершенствования навыков общения и языковой подготовки будущих лингвистов.

Ключевые слова: Информационные технологии, коммуникативные компетенции, лингвистика, образование, технологические инструменты, языковое обучение, культурное восприятие, учебный процесс, студенты-лингвисты, эффективное обучение.

METHODS OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF FUTURE LINGUISTS

Annotation

This article explores the methodology of using information technologies in the process of developing communicative competencies among linguist students. Modern technological innovations provide unique opportunities for improving communication skills and language training of future linguists.

Key words: Information technologies, communicative competencies, linguistics, education, technological tools, language learning, cultural perception, educational process, linguistics students, effective learning.

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga, shu jumladan ta'limga kirib bormoqda. Ular ta'lim usullarini takomillashtirish va o'quv jarayonini boyitish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi.

Ushbu maqolada biz talabalar, bo'lajak tilshunoslar o'rtasida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini ko'rib chiqamiz.

Ushbu yondashuv zamonaviy texnologiyalar o'quv jarayoniga qanday qilib samarali integratsiyalashishi va talabalarga tilshunoslik sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga yordam berishini namoyish etadi. Zamonaviy ta'lim axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi va tilshunoslik bundan mustasno emas[1]. Turli tillar va madaniyatlarni o'rganadigan kelajakdagi tilshunoslar global jamiyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun o'zlarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish-lari kerak. Ushbu maqolada biz tilshunoslarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini ko'rib chiqamiz va zamonaviy vositalar va manbalar aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligini o'rganamiz.

Tilshunoslikni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy vositalaridan biri bu virtual sinflar va veb-konferentsiyalardir. Ushbu vositalar talabalarga ona tilida

so'zlashuvchilar va boshqa talabalar bilan Real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi, bu esa ularning suhbat qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi[2]. Virtual sinflar, shuningdek, audio va video materiallarni o'z ichiga olgan turli xil manbalarga kirishni ta'minlaydi, bu esa o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi.

Internet tilshunoslik talabalari uchun juda ko'p miqdordagi til resurslariga ega. Onlayn lug'atlar, grammatik materiallar, matnlar, audio va video darslar talabalarga tilni chuqurroq va amaliy kontekstda o'rganish imkoniyatini beradi. Ushbu manbalar, shuningdek, o'z-o'zini o'rganish va so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Mobil texnologiyalarning rivojlanishi bilan talabalarga darsdan tashqari yo'lda o'rganishga yordam beradigan ko'plab til ilovalari paydo bo'ldi. Ushbu ilovalar turli xil o'quv materiallarini, shu jumladan o'yinlar, viktorinalar va interaktiv darslarni taqdim etadi, bu esa bilimlarni chuqurlashtirish va aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanish mumkin. Talabalar virtual muhitda guruhlar tuzishlari va til masalalarini muhokama qilishlari, materiallar almashishlari va muloqot qobiliyatlarini mashq qilishlari mumkin.

virtual sinflar va til ko'nikmalarini almashish platformalari chet tillarini o'rganish va takomillashtirishda muhim rol

o'ynaydi. Bu erda ular foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi usullar mavjud:

1. Ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati: virtual darslar va til ko'nikmalarini almashish platformalari odatda talabalarga ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu talaffuzni yaxshilashga yordam beradi, urg'u, va og'zaki nutqni tushunish. Virtual darslar va til almashish platformalari talabalar uchun til ko'nikmalarini, jumladan talaffuz, urg'u va nutqni tushunishni yaxshilash uchun ajoyib imkoniyat yaratishi mumkin[3]. Ushbu platformalar odatda quyidagi afzalliklarni beradi: virtual sinflar va almashish platformalari talabalarga ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi, bu ularning talaffuzini va talaffuzni tushunishni yaxshilashning eng yaxshi usullaridan biridir.

Platformalar turli lahjalar va urg'u so'zlovchilariga kirish imkonini beradi, bu esa talabalarga tilni to'liqroq o'zlashtirishga va til variantlarining xilma-xilligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Talabalar nafaqat rasmiy grammatikani, balki og'zaki nutqni ham o'rganishlari mumkin. Bu ularga o'z bilimlarini amalda qo'llash va Real vaziyatlarda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Virtual sinflar va almashinuv platformalari odatda moslashuvchan jadvalar va dunyoning istalgan nuqtasidan o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa sinfda jismonan qatnasha olmaydigan talabalar uchun qulaydir. Ko'pgina platformalar o'quv materiallarini, shuningdek, matnli xabarlar, audio va video orqali muloqot qilish imkoniyatini beradi, bu esa talabalarga turli xil o'rganish usullarini beradi.

Shunday qilib, virtual sinflar va til almashish platformalari, ayniqsa, og'zaki nutq, talaffuz va urg'u bilan bog'liq jihatlarida chet tili ko'nikmalarini oshirishning samarali va qulay usuli bo'lishi mumkin. Bunday platformalar yordamida siz turli xil lahjalarda va turli xil til xususiyatlariga ega bo'lgan turli mamlakatlardan sheriklarni topishingiz mumkin[4]. Bu sizga tilni o'rganishda keng tajriba beradi. Ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish, shuningdek, til bilan bog'liq madaniy xususiyatlar va urf-odatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu tilni to'liqroq tushunish va ona tilida so'zlashuvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun muhimdir[5]. Virtual sinflar va til almashish platformalari ko'pincha moslashuvchan jadvalarni taqdim etadi, bu esa talabalarga o'zlari uchun qulay vaqtda o'rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, band odamlar uchun foydalidir.

Onlayn platformalar va virtual darslar an'anaviy kurslar va repetitorlik mashg'ulotlariga qaraganda ancha tejamkor bo'lishi mumkin. Ko'pgina platformalar yozma xabar almashish imkoniyatini ham taqdim etadi, bu esa tilda yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. onlayn platformalar va virtual sinflar, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va Internet mavjudligini hisobga olgan holda, o'qitishning biroz tejamkor va qulay usullarini taqdim etishi mumkin. Ular taqdim etadigan ba'zi afzalliklar: onlayn kurslar va virtual darslar ko'pincha an'anaviy kurslar va repetitorlar darslariga qaraganda arzonroq. Ular kengroq auditoriya uchun mavjud bo'lishi mumkin, chunki ular transport, o'quv materiallari va turar joy uchun qo'shimcha xarajatlarni talab qilmaydi.

Onlayn platformalar talabalarga materiallarni o'zlari uchun qulay vaqtda o'rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, band bo'lgan, ishlaydigan yoki chekka hududlarda yashovchilar uchun foydalidir. Ko'plab onlayn platformalar o'quv materiallari, video darsliklar, o'quv vazifalari va boshqalarning keng kutubxonalarini taklif etadi[6]. Bu talabalarga o'z ehtiyojlariga mos materiallarni topish va tanlash imkonini beradi. Siz aytib o'tganingizdek, ko'plab onlayn platformalar o'qituvchilar va boshqa talabalar bilan suhbatlar va forumlar orqali muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu

yozish ko'nikmalarini yaxshilashga va boshqalar bilan bilim almashishga yordam beradi.

Ba'zi onlayn platformalar o'quv materiallari va topshiriqlarni har bir talabaning darajasi va ehtiyojlariga moslashtirish orqali o'rganishni shaxsiylashtirish uchun algoritmlardan foydalanadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, onlayn ta'limning samaradorligi talabalarining motivatsiyasi va o'z-o'zini tarbiyalashiga bog'liq, chunki ular o'qish vaqtini tashkil qilishlari va o'z-o'zini o'rganishga e'tibor berishlari kerak. Shuningdek, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar kabi ba'zi o'quv turlari uchun an'anaviy kurslar samaraliroq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, onlayn platformalar va an'anaviy kurslar o'tirasidagi tanlov sizning maqsadlaringiz, afzalliklaringiz va resurslarning mavjudligiga bog'liq[7]. Til ko'nikmalarini almashish uchun virtual platformalarda va virtual sinflarda muloqot qilish haqiqatan ham talabalarining til qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va xilma-xil qiladi.

Lingvistik mavzular va aloqa amaliyotini o'rgatish va muhokama qilish uchun virtual sinflar va videokonferentsiyalardan foydalanish til va aloqa ko'nikmalarini samarali o'rganish va rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Buni amalga oshirishning ba'zi usullari:

1. Virtual darslar va ma'ruzalar:

* O'qituvchi tilshunoslik mavzularini taqdim etish, grammatika, talaffuz va lug'at qoidalarini tushuntirish orqali virtual darslar va ma'ruzalar o'tkazishi mumkin.

* Talabalar Real vaqtda savollar berishlari va munozaralarda ishtirok etishlari mumkin.

2. Guruh videokonferentsiyalari:

* Talabalar guruhlariga bo'linib, guruh muhokamalari va loyihalarida ishtirok etishlari mumkin.

• Shuningdek, bu talabalarga nutq amaliyoti ko'nikmalarini oshirish orqali o'rganayotgan tillarida muloqot qilish imkonini beradi.

3. Onlayn manbalar va materiallar:

* O'qituvchi talabalarga tilning lingvistik jihatlarini o'rganishga yordam beradigan onlayn o'quv materiallari, darsliklar, audio va video darsliklardan foydalanish imkoniyatini berishi mumkin.

* Bu interaktiv mashqlar, testlar va topshiriqlarni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Rolli o'yinlar va improvizatsiya:

* Videokonferentsiyalar orqali rolli o'yinlar o'tkazilishi mumkin, unda talabalar biznes uchrashuvlari, intervyular yoki kundalik suhbatlar kabi haqiqiy aloqa holatlariga taqlid qilishlari mumkin.

• Bu muloqot ko'nikmalarini oshirishga va tilni amalda qo'llashga yordam beradi.

5. Virtual ekskursiyalar va madaniyat almashinuvi:

* Virtual darslar ma'lum bir mamlakat yoki madaniyatning lingvistik jihatlariga bag'ishlangan ekskursiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

* Talabalar bir vaqtning o'zida til va madaniyatni o'rganish orqali ma'lumot va tajriba almashishlari mumkin.

6. Baholash va fikr-mulohazalar:

* O'qituvchilar talabalarining tilshunoslik va aloqa sohasidagi ko'nikmalarini tahlil qilish va baholash uchun dars videotasvirlaridan foydalanishlari mumkin.

* Talabalarga fikr-mulohazalar va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Talabalarga barqaror Internet aloqasi va tegishli videokonferentsialoqa dasturidan foydalanish imkoniyatini berish muhimdir. Virtual o'rganish imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun interaktiv va tuzilgan darslarni yaratish ham zarur.

Xulosa. Kelajakdagi tilshunoslarda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ushbu sohadagi ta'lim sifatini yaxshilash uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Zamonaviy texnologiyalar o'rganishni yanada qulay, interaktiv va samarali qiladi. O'qituvchilar va talabalar kelajakdagi lingvistik hamjamiyatga muvaffaqiyatli martaba va shaxsiy rivojlanish uchun eng yaxshi imkoniyatni kafolatlash uchun ushbu yangiliklarni o'quv jarayoniga faol ravishda o'rganishlari va kiritishlari kerak. Axborot texnologiyalari kelajakdagi tilshunoslarda

kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Onlayn resurslar, virtual sinflar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va virtual va kengaytirilgan reallik vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli, qulay va samarali qiladi. Ushbu vositalar talabalarga tilshunoslik va madaniyatlararo aloqa sohasidagi muvaffaqiyatli martabaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan chet tilidagi muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 80-97.
2. Warschauer, M., & Meskill, C. (2000). Technology and second language learning. *Handbook of research on teaching English language arts*, 777-792.
3. Stockwell, G. (2010). Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform. *Language Learning & Technology*, 14(2), 95-110.
4. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. *ReCALL*, 20(3), 271-289.
5. Warschauer, M., & Ware, P. (2006). Automated writing evaluation: Defining the classroom research agenda. *Language Teaching Research*, 10(2), 157-180.
6. Hubbard, P., & Levy, M. (2006). The scope of CALL education. In *Computer-assisted language learning: Diversity in research and practice* (pp. 21-47). Cambridge Scholars Publishing.
7. Arnold, N., & Ducate, L. (2011). Collaborative writing in wikis: Insights from culture projects in German for beginners. *Language Learning & Technology*, 15(1), 82-102.



Xolniso NURBAYEVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nurbayevaxolniso@tersu.uz

TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L. Muxtarova taqrizi asosida

TALABALARDA GENDER MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslari hamda talabalarda gender tenglik, gender farqlar va ijtimoiy zaruriyat ularning imkoniyatlarni ta'minlash rivojlantirish dolzarb aloqador bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Gender, xotin-qizlar, gender tenglik, globalashuv sharoit, gender farqlar, ijtimoiy zarurat.

ETHNOPEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF GENDER CULTURE IN STUDENTS

Annatation

In this article, the ethno-pedagogical foundations of the development of gender culture in students and opinions aimed at regular improvement of knowledge and skills related to the development of gender equality, gender differences and social necessity of students are described.

Key words: Gender, women, gender equality, globalization conditions, gender differences, social necessity.

ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ГЕНДЕРНОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье описаны этнопедагогические основы развития гендерной культуры у студентов и взгляды, направленные на регулярное совершенствование знаний и умений, связанных с развитием гендерного равенства, гендерных различий и социальной необходимости студентов.

Ключевые слова: Гендер, женщины, гендерное равенство, условия глобализации, гендерные различия, социальная необходимость.

Kirish. Bugungi kunda o'quv-biluv jarayonida gender farqlar va o'ziga xosliklarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq didaktikada ushbu hodisani ilmiy talqini mavjud emas. O'quv-biluv jarayonida gender farqlarga oid o'ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta'lim natijasining samaradorligini ta'minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislariga ayon bo'lmoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g'oyalarni, ixtirochilik, rasionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash ta'lim sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'likni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. «Gender tenglikka erishish strategiyasi asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, qator ustuvor yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash shular jumlasidan. Gender strategiyasini amalga oshirish orqali quyidagilarga erishiladi:

• Yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi.

• Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi.

• Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalar xotinqizlarini ish bilan ta'minlash, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy qo'llabquvvatlash, shuningdek, o'zini o'zi band qilishga erishiladi.

• Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda ularga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi.

Tahlil va natijalar. Gender tenglik (lotinchadan paritas – tenglik) — muvozanatli, ya'ni, hayotning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy) hokimiyat va qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollarning bir xil, teng ishtiroki, jinslar o'rtasidagi tengligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda siyosiy va iqtisodiy institutlarning tenglik darajasi mamlakatlar demokratiyasining ko'rsatkichi hisoblanadi va bu ma'lumotlar ko'plab xalqaro indekslariga kiritilgan.

Global miqyosda erkaklar siyosatda ayollarga qaraganda ko'proq qatnashadi va lavozimlarni egallaydi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, boshqa barcha kasblar orasida ayniqsa siyosat sohasida gender tengligiga erishish juda mushkul. Shunday qilib, jinsiy tafovuf bo'yicha Global hisobotga ko'ra, agar siyosiy vakillikdagi gender tengligining o'zgarish darajasi hozirgi darajada saqlanib qolsa, dunyoda gender tengligiga erishish uchun o'rtacha 95 yil, ta'lim sohasida gender tenglikka erishish uchun esa 12 yil kerak bo'ladi.

Gender tenglik bu – huquqlarning tengligi demakdir. Hayotning har jabhalarida, jumladan ta'lim tizimida ayol va

erkaklarga bo'lgan munosabat hamda imkoniyatlarning tengligini anglatadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi. Jamiyatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Bolonya jarayonining Ijtimoiy o'lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta'limining (European Higher Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta'limga mazkur sifat tavsifi berilgan.

Gender, avvalo erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Bu tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liq rivojlanib boradi. Tarixdagi patriarxat yoki patriarxat tushunchalari ham bunga yaqqol misoldir. Ta'lim-tarbiya yo'nalishida gender tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab ta'riflaydi, ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linganligi, xatti-harakat va individlarning psixologik xarakteristikalarida o'ziga xosliklar mavjudligini o'rganadi. Ko'rinib turibdiki, olimlarning gender so'zini termin sifatida o'rganishni taklif qilishlari nafaqat psixanalitika yoki jamiyatshunoslik, balki turli sohalar, jumladan pedagogika va tilshunoslikda ham keng qo'llanishiga yo'l ochib berdi. Bugungi kunda bu yo'nalishlar tarkibida gender pedagogikasi va tilshunosligi shakllanib, gender munosabatlari, gendercha tahlil, gendercha tenglik kabi mavzularda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari gender omillarga madaniy xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Muayyan madaniyat insoniyat tomonidan dunyohaqidagi bilimlarni anglash va tartibga solish davomida vujudga kelgan narsapredmet, voqeliklar bo'lib, u milliy gender qarashlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Genderchilikda gender farqlarning tashkil topish jarayoni odatda ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'lanadi. Ijtimoiylashtirish – bu, individ tomonidan jamiyatning to'laqon-li a'zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi bilim, me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiylashtirish o'z ichiga ta'sir etishning ijtimoiy nazorat qilish jarayonlarini qamrab oladi. Masalan, ta'lim-tarbiya, yoki uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy jarayonlar. Bugun ijtimoiylashtirishning muhim qismi bo'lgan gender munosabatlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan jadal o'rganilayotganligi bu yo'nalishda qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'pligidan darak beradi.

Genderning sotsiumdagi rollaridan kelib chiqadigan ijtimoiy tabaqalanish, va ayni paytda nutq, uslub, kiyim va xatti-harakatlarda namoyon bo'luvchi jihatlardan ham bu yo'nalishning muhim sifatlarini tashkil etadi. Gender rollar erkaklar va ayollarning mehnati, vazifalariga doir qarashlarning bo'linishida ham namoyon bo'ladi. Psixologik rivojlanish va pedagogik qarashlarda sohalar mutaxassislari "differensial ijtimoiylashuv" atamasidan gender rollarini o'rganish maqsadida foydalanmoqdalar. Bunda differensial ijtimoiylashuv jarayoni ko'pincha bola tug'ilishidan avval vujudga keladi. Har bir jamiyatda bola tarbiyasi bosqichlarida, keyinchalik butun umri davomida "erkaklarga xoslik" va "ayollarga xoslik" deb nomlangan tushunchalarga xos me'yor va stereotiplar mustahkamlanib boradi. V.fon Humbold

jinslararo farq to'g'risida to'xtalib, jumladan quyidagi fikrlarni aytgan:

“Erkaklik qiyofasida chiroy va jozibaga qaraganda qat'iylik ko'proq farqlanadi;

erkaklik tushunchasi juda aniq va puxta, ular orasidagi munosabat esa o'ta oddiy;

erkak xarakteri kuchli va barqaror, ammoba'zan bir yoqlamalik va dag'allikni ifodalaydi.

Barcha erkaklikka xosliklar oydinlashtiruvchi, barcha ayolga xosliklar ko'ngilni iydiruvchidir. Biri hayotga nur (ro'shnolik) olib kirsas, ikkinchisi muhabbat keltiradi.

Ayolning tabiati ayolni mashaqqatlarga bardosh beruvchi qiladi, (jamiyat qonun-qoidalariga binoan) erkaklik kuch-quvvati bilan hamnafas ayol shiddatkorlikdan ozod bo'ladi, shunga ko'ra ayol o'z vafodorligi bilan ko'zlagan maqsadiga erishadi”.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish, ishsiz xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish, ish bilan ta'minlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagani, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, ularni ehtiyoj-mandlik holatidan chiqarishga qaratilgan ishlar samarali tashkil etilmagani, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga hamda huquqiy oqibatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lami yetarli emasligi, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda voyaga yetayotgan qizlarning iqtidorlarini o'z vaqtida aniqlash, ularni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish tizimi joriy etilmagani kabilar shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni hal etish bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish yo'lidagi asosiy vazifalar hisoblanadi.

Xulosa. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli endashyvlar haqidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashyvi va shaxsga qadriyatli yondashyvi asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichi-dan, to'uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashyvi tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ahvoli to‘g‘risidagi ma‘ruza. Mualliflar guruhi: G‘ulomova D., Saidova G., Qobulova D., Norboeva T va boshqalr. UNOPS loyihasi asosida nashr qilingan. - T.: 1999. - 96 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
4. Akchurin B.G. Duxovnaya i telesnaya organizatsiya cheloveka. – Ufa: Izdvo “Bashkir”, un-ta, 2001. -257 s
5. Gender i kultura. – Dushanbe: Aziya-plyus, 1999. – 96 s.
6. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. – Moskva, 1985. – S. 142-159.
7. Money, John. (1952). Hermaphroditism: An Inquiry into the Nature of a Human Paradox. Thesis (Ph.D.), Harvard University press.
8. Stoller R. J. Sex and Gender: The Development of Masculinity and Femininity. – United Kingdom: Routledge, 1994. – 400 p.
9. Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovaniye gendera. Sb. “Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax”. – Moskva, 2001. – S. 49.



UDK:378.3(075)

Sherzod RAXIMOV,

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirigi

Professional ta'limni rivojlantirish instituti boshqarma boshlig'i, s.f.f.d (PhD), dotsent

E-mail: sherikshox@bk.ru

T.f.n. B.Shoyqulov taqrizi ostida

ELEKTRON DEMOKRATIYANING MEZON VA KO'RSATKICHLARI

Annotsatsiya

Maqolada fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, elektron demokratiyani rivojlantirish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining roli, elektron demokratiyaning mazmun mohiyati, ijtimoiy masalar muhokamasi va qarorlar qabul qilish, elektron demokratiyaning mezonlari va ko'rsatkichlari, siyosiy faollikni oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalar va onlayn platformalarning o'rnini kabi masalalar to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Elektron demokratiya, ijtimoiy tarmoqlar, siyosiy faollik, axborot texnologiyalari, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, OAV, elektron demokratiya mezonlari.

CRITERIA AND INDICATORS OF ELECTRONIC DEMOCRACY

Annotation

The article contains information on issues such as the participation of citizens in social and political processes, the role of civil society institutions in the development of e-democracy, the content of e-democracy, the discussion of social issues and decision-making, the criteria and indicators of e-democracy, the role of information and communication technologies and online platforms in increasing political activity. given

Key words: E-democracy, social networks, political activity, information technologies, political-social processes, mass media, e-democracy criteria.

КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ЭЛЕКТРОННОЙ ДЕМОКРАТИИ

Annotsatsiya

В статье содержится информация по таким вопросам, как участие граждан в социальных и политических процессах, роль институтов гражданского общества в развитии электронной демократии, содержание электронной демократии, обсуждение социальных проблем и принятие решений, критерии и индикаторы электронной демократии, роль информационно-коммуникационных технологий и онлайн-платформ в повышении политической активности.

Ключевые слова: Электронная демократия, социальные сети, политическая деятельность, информационные технологии, политико-социальные процессы, средства массовой информации, критерии электронной демократии.

Kirish. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va islohotlar fuqarolarning faol bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Shuningdek, Qonun ijodkorligi va parlament nazoratini amalga oshirishning amaldagi mexanizmlarini samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, mazkur jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilikning davlat boshqaruvidagi tashabbuskorligini oshirish, "Elektron parlament" doirasida deputatlarni o'z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog'lash, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiyalayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish kabi masalalar keyingi besh yillikda ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [8].

Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtiroki odatda demokratiyaning hayotiy yo'nalishi sifatida ko'rsatiladi. Keyingi yillarda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish masalasi ham davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib [8], bu jarayonlarni bugungi kundagi elektron demokratiyani rivojlantirish orqali o'tish maqsadga muvofiqdir.

Elektron demokratiya natijasida fuqarolar o'z jamiyatida, hududida, mamlakatida yoki global miqyosda fikrlarini bildirish va qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Elektron demokratiyaga televideniya va radio kabi eski texnologiyalar orqaligina emas internet, mobil telefonlar va elektron ovoiz berish tizimlari kabi yangi texnologiyalar orqali erishish mumkin. Ushbu yangi texnologiyalar keng tarqalgan ishtirokchi vositalardir. Ko'p sonli manfaatdor tomonlar ma'lumotlarga kirishlari va internet orqali to'g'ridan-to'g'ri kiritishlari mumkin. Katta guruhlar, shuningdek, elektron so'rov asbob(tarmoq va platforma)lari orqali ommaviy yig'ilishlarda real vaqt rejimida ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin bo'ladi.

Elektron demokratiyaning afzalliklari

-rejalashtirish va qaror qabul qilishga ta'sir qilish uchun veb-saytda, elektron pochta orqali yoki boshqa elektron aloqa vositalari orqali o'z fikrlarini bildirishga ko'proq jamoatchilik a'zolarini jalb qilish mumkin;

-turli taklif va masalalar yuzasidan qaror qabul qiluvchi organlarga yuboriladigan fikr-mulohazalar orqali o'z demokratik huquqlaridan foydalanadigan shaxslar soni va turlarini ko'paytiradi;

-fuqarolar o'zaro muloqot qilishlari, muammolarni muhokama qilishlari va fikr almashishlari mumkin bo'lgan virtual jamoat maydonini yaratadi;

- fuqarolar uchun o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda muxokama jarayonlarida qatnashish imkonini beradi;
- qulaylik va kam xarajat bilan juda katta auditoriyaga kirishi mumkin bo'ladi;
- interaktiv muloqotni osonlashtiradi;
- katta hajmdagi ma'lumotlarni tez, samarali va buzmasdan tarqatadi.

Mavjud muammolar:

- onlayn bo'lmaganlar ishtirokini istisno qilishi mumkin;
- natijalarni manipulyatsiya qilish mumkin, shuning uchun onlayn so'rovlar natijalarini diqqat bilan ko'rib chiqish kerak;
- ma'lumot kiritishning katta miqdorini sintez qilish va tushunish uchun katta vaqt va kuch talab qiladi;
- avtomatik javob beradigan serverlar ro'yxatidan saqlanish lozim, ko'plab faol obunachilarga ega elektron pochta ro'yxatlari shunchalik ko'p ma'lumot yaratadiki, ular insonlarni chalg'itishi mumkin.

Muvaffaqiyatli rejalashtirish tamoyillari:

- muhokama uchun quyiladigan loyiha haqida ma'lumot beruvchi batafsil veb-sayt yaratish va kiritilgan ma'lumotlardan xabardor bo'lishni ta'minlash;

- saytni yaxshi tashkil etilgan va yangilangan holda saqlash;
- saytni iloji boricha inklyuziv qilish uchun standart HTML formatidan foydalanish;
- obuna bo'lish/obunani bekor qilish tartib-qoidalari tafsilotlarini taqdim etish;
- veb-sayt orqali o'z onlayn muloqotingizni o'rnatish;
- saytga tashrif buyurgan insonlar sonini hisoblash, qancha odamni tashvishlantirayotganini va jamiyatni qanday muammolarga qiziqtirayotganini bilishi kerak bo'lgan foydali ma'lumotlarni taqdim etadi.

Shvesiyaning Gyoteborg universiteti huzuridagi "V-Dem instituti[10]" tomonidan 2023 yilda o'tkazilgan tadqiqotga muvofiq[3] "elektoral demokratiya indeksi" ko'rsatkichida Daniya, Shvesiya, Norvegiya, Shvesariya, Estoniya, Yangi Zelandiya, Belgiya, Islandiya, Kosta rika, Finlandiya, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Ispaniya, Chexiya, Slovakiya, Italiya kabi davlatlardan so'ng 20-o'rinda Buyuk Britaniya (0.84) o'rin olgan bo'lsa, O'zbekiston(0.22) ushbu ko'rsatkichda 142-o'rindan joy egallan. Ushbu ro'yxatda qatnashgan mamlakatlar soni 179 tadan iborat.

TABLE 3. COUNTRY SCORES FOR THE LIBERAL DEMOCRACY INDEX (LDI) AND ALL COMPONENTS INDICES, 2022

+ Indicates that the country's score has improved over the past 10 years, substantively and at a statistically significant level
- Indicates that the country's score has decreased over the past 10 years, substantively and at a statistically significant level
SD+/- reports the standard deviation to indicate the level of uncertainty

| COUNTRY | LIBERAL DEMOCRACY INDEX (LDI) | | | ELECTORAL DEMOCRACY INDEX (EDI) | | | LIBERAL COMPONENT INDEX (LCI) | | | EGALITARIAN COMPONENT INDEX (ECI) | | | PARTICIPATORY COMPONENT INDEX (PCI) | | | DELIBERATIVE COMPONENT INDEX (DCI) | | |
|-------------------|-------------------------------|-------|-------|---------------------------------|-------|-------|-------------------------------|-------|-------|-----------------------------------|-------|-------|-------------------------------------|-------|-------|------------------------------------|-------|-------|
| | RANK | SCORE | SD+/- | RANK | SCORE | SD+/- | RANK | SCORE | SD+/- | RANK | SCORE | SD+/- | RANK | SCORE | SD+/- | RANK | SCORE | SD+/- |
| Denmark | 1 | 0.89 | 0.04 | 1 | 0.92 | 0.036 | 2 | 0.98 | 0.012 | 2 | 0.97 | 0.024 | 5 | 0.71 | 0.018 | 5 | 0.97 | 0.637 |
| Sweden | 2 | 0.87 | 0.042 | 3 | 0.9 | 0.038 | 1 | 0.98 | 0.011 | 13 | 0.9 | 0.044 | 27 | 0.65 | 0.026 | 23 | 0.9 | 0.626 |
| Norway | 3 | 0.86 | 0.045 | 4 | 0.9 | 0.041 | 4 | 0.97 | 0.018 | 1 | 0.97 | 0.024 | 28 | 0.65 | 0.018 | 1 | 0.99 | 0.64 |
| Switzerland | 4 | 0.85 | 0.044 | 2 | 0.9 | 0.038 | 8 | 0.96 | 0.025 | 6 | 0.93 | 0.04 | 1 | 0.88 | 0.02 | 2 | 0.98 | 0.645 |
| Estonia | 5 | 0.85 | 0.045 | 5 | 0.89 | 0.04 | 6 | 0.96 | 0.021 | 17 | 0.89 | 0.053 | 38 | 0.63 | 0.037 | 48 | 0.83 | 0.634 |
| New Zealand | 6 | 0.83 | 0.046 | 8 | 0.89 | 0.039 | 11 | 0.95 | 0.025 | 19 | 0.88 | 0.056 | 6 | 0.71 | 0.04 | 33 | 0.88 | 0.63 |
| Belgium | 7 | 0.83 | 0.046 | 6 | 0.89 | 0.041 | 14 | 0.94 | 0.031 | 5 | 0.93 | 0.038 | 30 | 0.65 | 0.025 | 17 | 0.92 | 0.636 |
| Ireland | 8 | 0.82 | 0.048 | 7 | 0.89 | 0.04 | 15 | 0.93 | 0.033 | 18 | 0.89 | 0.052 | 26 | 0.65 | 0.039 | 18 | 0.92 | 0.637 |
| Costa Rica | 9 | 0.82 | 0.047 | 12 | 0.87 | 0.042 | 9 | 0.96 | 0.023 | 20 | 0.88 | 0.054 | 14 | 0.67 | 0.033 | 7 | 0.96 | 0.634 |
| Finland | 10 | 0.82 | 0.05 | 13 | 0.86 | 0.046 | 5 | 0.96 | 0.023 | 11 | 0.91 | 0.043 | 25 | 0.65 | 0.02 | 10 | 0.93 | 0.634 |
| Australia | 11 | 0.81 | 0.048 | 14 | 0.86 | 0.045 | 3 | 0.97 | 0.019 | 31 | 0.84 | 0.061 | 18 | 0.66 | 0.044 | 13 | 0.93 | 0.635 |
| Germany | 12 | 0.81 | 0.047 | 15 | 0.86 | 0.043 | 7 | 0.96 | 0.021 | 4 | 0.94 | 0.038 | 15 | 0.66 | 0.012 | 3 | 0.98 | 0.629 |
| France | 13 | 0.8 | 0.05 | 10 | 0.88 | 0.043 | 18 | 0.92 | 0.033 | 26 | 0.85 | 0.061 | 40 | 0.63 | 0.038 | 11 | 0.93 | 0.637 |
| Netherlands | 14 | 0.8 | 0.049 | 17 | 0.85 | 0.045 | 10 | 0.96 | 0.023 | 14 | 0.9 | 0.046 | 48 | 0.61 | 0.04 | 6 | 0.96 | 0.639 |
| Luxembourg | 15 | 0.79 | 0.05 | 9 | 0.88 | 0.042 | 26 | 0.91 | 0.04 | 3 | 0.95 | 0.039 | 58 | 0.59 | 0.066 | 4 | 0.97 | 0.637 |
| Spain | 16 | 0.79 | 0.048 | 11 | 0.87 | 0.039 | 24 | 0.91 | 0.041 | 40 | 0.8 | 0.069 | 29 | 0.65 | 0.032 | 30 | 0.88 | 0.629 |
| Czech Republic | 17 | 0.79 | 0.049 | 16 | 0.86 | 0.043 | 16 | 0.93 | 0.031 | 12 | 0.91 | 0.05 | 57 | 0.59 | 0.047 | 35 | 0.87 | 0.63 |
| Slovakia | 18 | 0.78 | 0.051 | 20 | 0.85 | 0.048 | 17 | 0.93 | 0.03 | 39 | 0.81 | 0.066 | 17 | 0.66 | 0.046 | 92 | 0.66 | 0.626 |
| Italy | 19 | 0.77 | 0.05 | 21 | 0.85 | 0.045 | 19 | 0.92 | 0.033 | 7 | 0.93 | 0.041 | 4 | 0.76 | 0.033 | 15 | 0.92 | 0.64 |
| United Kingdom | 20 | 0.77 | 0.051 | 22 | 0.84 | 0.047 | 21 | 0.92 | 0.032 | 34 | 0.83 | 0.069 | 20 | 0.66 | 0.028 | 39 | 0.87 | 0.631 |
| Chile | 21 | 0.76 | 0.051 | 30 | 0.81 | 0.049 | 12 | 0.95 | 0.022 | 60 | 0.72 | 0.076 | 24 | 0.65 | 0.04 | 8 | 0.96 | 0.638 |
| Portugal | 22 | 0.76 | 0.051 | 18 | 0.85 | 0.045 | 31 | 0.89 | 0.04 | 27 | 0.85 | 0.06 | 42 | 0.62 | 0.04 | 31 | 0.88 | 0.63 |
| USA | 23 | 0.74 | 0.055 | 27 | 0.82 | 0.051 | 22 | 0.92 | 0.035 | 74 | 0.66 | 0.086 | 19 | 0.66 | 0.015 | 36 | 0.87 | 0.634 |
| Canada | 24 | 0.74 | 0.056 | 19 | 0.85 | 0.047 | 38 | 0.87 | 0.048 | 51 | 0.76 | 0.075 | 22 | 0.65 | 0.024 | 50 | 0.83 | 0.63 |
| Latvia | 25 | 0.74 | 0.057 | 26 | 0.82 | 0.052 | 28 | 0.9 | 0.043 | 30 | 0.84 | 0.062 | 16 | 0.66 | 0.043 | 46 | 0.84 | 0.629 |
| Lithuania | 26 | 0.73 | 0.057 | 35 | 0.79 | 0.055 | 13 | 0.95 | 0.025 | 22 | 0.86 | 0.055 | 7 | 0.7 | 0.043 | 55 | 0.8 | 0.624 |
| Japan | 27 | 0.73 | 0.052 | 23 | 0.83 | 0.046 | 35 | 0.88 | 0.044 | 8 | 0.93 | 0.044 | 75 | 0.56 | 0.052 | 22 | 0.9 | 0.624 |
| Guinea | 151 | 0.1 | 0.021 | 148 | 0.19 | 0.019 | 150 | 0.27 | 0.071 | 142 | 0.39 | 0.084 | 94 | 0.34 | 0.084 | 155 | 0.22 | 0.654 |
| Eswatini | 152 | 0.1 | 0.02 | 171 | 0.12 | 0.015 | 137 | 0.32 | 0.073 | 174 | 0.19 | 0.074 | 152 | 0.26 | 0.097 | 168 | 0.11 | 0.646 |
| UAE | 153 | 0.09 | 0.016 | 172 | 0.1 | 0.018 | 147 | 0.3 | 0.059 | 117 | 0.5 | 0.083 | 175 | 0.09 | 0.058 | 144 | 0.29 | 0.634 |
| Qatar | 154 | 0.08 | 0.017 | 174 | 0.09 | 0.016 | 146 | 0.3 | 0.063 | 146 | 0.36 | 0.051 | 177 | 0.07 | 0.043 | 137 | 0.39 | 0.625 |
| Uzbekistan | 155 | 0.08 | 0.015 | 142 | 0.22 | 0.023 | 158 | 0.2 | 0.046 | 131 | 0.45 | 0.089 | 170 | 0.13 | 0.057 | 129 | 0.47 | 0.621 |
| Palestine/Gaza | 156 | 0.08 | 0.017 | 166 | 0.14 | 0.017 | 153 | 0.26 | 0.062 | 103 | 0.57 | 0.096 | 131 | 0.41 | 0.087 | 154 | 0.22 | 0.645 |
| Burundi | 157 | 0.08 | 0.017 | 149 | 0.19 | 0.018 | 156 | 0.21 | 0.058 | 155 | 0.31 | 0.09 | 156 | 0.24 | 0.097 | 157 | 0.21 | 0.641 |
| Sudan | 158 | 0.07 | 0.016 | 158 | 0.17 | 0.018 | 157 | 0.21 | 0.056 | 156 | 0.31 | 0.092 | 153 | 0.26 | 0.076 | 162 | 0.17 | 0.654 |
| Russia | 159 | 0.07 | 0.014 | 145 | 0.21 | 0.022 | 160 | 0.17 | 0.043 | 133 | 0.44 | 0.092 | 130 | 0.41 | 0.06 | 158 | 0.18 | 0.636 |
| Cambodia | 160 | 0.06 | 0.014 | 146 | 0.21 | 0.02 | 165 | 0.15 | 0.045 | 167 | 0.25 | 0.08 | 140 | 0.33 | 0.06 | 164 | 0.16 | 0.625 |
| Venezuela | 161 | 0.06 | 0.013 | 143 | 0.21 | 0.02 | 167 | 0.14 | 0.042 | 158 | 0.28 | 0.082 | 117 | 0.46 | 0.065 | 176 | 0.06 | 0.639 |
| Azerbaijan | 162 | 0.06 | 0.012 | 150 | 0.19 | 0.017 | 163 | 0.16 | 0.039 | 160 | 0.28 | 0.074 | 168 | 0.14 | 0.049 | 169 | 0.1 | 0.639 |
| South Sudan | 163 | 0.06 | 0.016 | 168 | 0.13 | 0.012 | 159 | 0.18 | 0.058 | 177 | 0.1 | 0.051 | 164 | 0.15 | 0.057 | 171 | 0.1 | 0.636 |
| Cuba | 164 | 0.06 | 0.013 | 152 | 0.18 | 0.016 | 166 | 0.14 | 0.045 | 55 | 0.75 | 0.075 | 154 | 0.26 | 0.078 | 147 | 0.28 | 0.629 |
| Bahrain | 165 | 0.06 | 0.013 | 170 | 0.12 | 0.017 | 162 | 0.17 | 0.049 | 143 | 0.39 | 0.068 | 173 | 0.1 | 0.052 | 156 | 0.21 | 0.631 |
| Equatorial Guinea | 166 | 0.05 | 0.012 | 157 | 0.17 | 0.013 | 170 | 0.13 | 0.043 | 150 | 0.34 | 0.083 | 171 | 0.12 | 0.051 | 170 | 0.1 | 0.639 |
| Tajikistan | 167 | 0.05 | 0.011 | 155 | 0.18 | 0.014 | 171 | 0.12 | 0.04 | 173 | 0.19 | 0.066 | 169 | 0.13 | 0.046 | 165 | 0.14 | 0.625 |
| Myanmar | 168 | 0.05 | 0.014 | 173 | 0.09 | 0.011 | 164 | 0.16 | 0.054 | 169 | 0.24 | 0.079 | 139 | 0.33 | 0.062 | 153 | 0.22 | 0.641 |
| Yemen | 169 | 0.04 | 0.013 | 169 | 0.12 | 0.015 | 169 | 0.13 | 0.047 | 178 | 0.06 | 0.039 | 158 | 0.22 | 0.056 | 175 | 0.07 | 0.637 |
| Saudi Arabia | 170 | 0.04 | 0.012 | 179 | 0.02 | 0.007 | 161 | 0.17 | 0.049 | 137 | 0.43 | 0.069 | 174 | 0.1 | 0.057 | 152 | 0.25 | 0.638 |
| Belarus | 171 | 0.04 | 0.01 | 156 | 0.18 | 0.016 | 173 | 0.09 | 0.033 | 57 | 0.74 | 0.083 | 162 | 0.15 | 0.054 | 173 | 0.08 | 0.637 |
| China | 172 | 0.04 | 0.01 | 177 | 0.08 | 0.005 | 168 | 0.14 | 0.04 | 152 | 0.33 | 0.083 | 163 | 0.15 | 0.055 | 146 | 0.28 | 0.632 |
| Turkmenistan | 173 | 0.04 | 0.01 | 163 | 0.15 | 0.009 | 175 | 0.08 | 0.035 | 164 | 0.27 | 0.073 | 176 | 0.07 | 0.034 | 177 | 0.04 | 0.649 |
| Nicaragua | 174 | 0.03 | 0.008 | 153 | 0.18 | 0.015 | 177 | 0.06 | 0.028 | 170 | 0.23 | 0.082 | 137 | 0.35 | 0.059 | 178 | 0.04 | 0.643 |
| Syria | 175 | 0.03 | 0.01 | 165 | 0.14 | 0.006 | 174 | 0.08 | 0.037 | 175 | 0.16 | 0.059 | 165 | 0.15 | 0.056 | 172 | 0.09 | 0.637 |
| Chad | 176 | 0.03 | 0.008 | 164 | 0.14 | 0.017 | 176 | 0.07 | 0.029 | 172 | 0.21 | 0.071 | 146 | 0.28 | 0.067 | 143 | 0.33 | 0.621 |
| Afghanistan | 177 | 0.03 | 0.012 | 176 | 0.08 | 0.008 | 172 | 0.09 | 0.045 | 179 | 0.05 | 0.036 | 178 | 0.05 | 0.04 | 174 | 0.08 | 0.649 |
| Eritrea | 178 | 0.01 | 0.005 | 178 | 0.07 | 0.005 | 178 | 0.03 | 0.018 | 127 | 0.47 | 0.1 | 179 | 0.03 | 0.027 | 167 | 0.11 | 0.663 |
| North Korea | 179 | 0.01 | 0.005 | 175 | 0.09 | 0.01 | 179 | 0.02 | 0.019 | 154 | 0.31 | 0.078 | 166 | 0.15 | 0.033 | 179 | 0.02 | 0.643 |

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni aniqlashda "keng fikrlar erkinligi" – ya'ni media va ommaviy axborot vositalariga berilgan erkinlik, erkak va ayolning erkinligi, "saylov huquqiga ega aholi ulushi", "tashkilotlarning erkinligi" –

partiyalar, oppozitsion partiyalar, "aniq elektron ko'rsatkich" – saylov erkinligi, saylov ro'yxatidan o'tkazilishi, elektron ovozlarni sotib olish imkoniyati kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlangan.

FIGURE A2.2. THE V-DEM ELECTORAL DEMOCRACY INDEX (EDI)



Elektoral demokratiyani aniqlash bo'yicha mezonlar

Fuqarolarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi do'stlik yoki qo'llab-quvvatlashdan tortib, kelishmovchilik va tajovuzgacha bo'lgan turli xil his-tuyg'ularni uyg'otadi. Ularning xulq-atvori va ijtimoiy tarmoqlarning ta'sir turini ma'lum darajada ijtimoiy tarmoqlar turiga, shuningdek foydalanuvchilar tashkil etuvchi segmentga qarab taxmin qilish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar turli populyatsiyalarga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ular quyidagi sohalarda ta'sir mavjudligini ko'rsatadi:

-marketing, turizm, atrof-muhit, salomatlik, ruhiy salomatlik va hissiyotlar, emlash bilan bog'liq masalalar, siyosat va hukumat, IT, inqiroz va ofatlarni boshqarish, tashkilotlar va korxonalar.

Axborot texnologiyalari va ijtimoiy media biznesni umuman o'zgartirdi va onlayn jalb qilishning yangi modeli bosh direktorlar va menejrlarning qaror qabul qilish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Jamiyat hayotining barcha jabhalariga Ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ular rivojlanishi bilan kuchayib, chuqurlashib bormoqda. Ijtimoiy media bolalar va yoshlar o'yin o'ynaydigan platformalardan professional ish qidirish tarmoqlarigacha uzoq yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lda ularning ta'siri, ayniqsa, tadbirkorlik sohasida o'sib, chuqurlashib bordi. Odamlarning fikrlash tarziga ta'sir qilish ham qaror qabul qilish jarayonini buzishi mumkin. Xavotirga soladigan narsa shundaki, bu ta'sir kuchayishda davom etmoqda va bu xodimlar yoki korxonalar uchun ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda korxonalar o'z iste'molchilariga ijobiy ta'sir ko'rsatish va ular bilan muloqotni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning yuqori boshqaruvga ta'siri to'g'ri boshqarilishi kerak. Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etayotgan mutaxassislar bu ta'sirni bilishlari, fikr va munosabatlarni shakllantirishda ham, kasbiy faoliyatida ham uni to'g'ri boshqarishlari kerak. Ijtimoiy tarmoqlar qaror qabul qiluvchilarga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarur, chunki bunday tadqiqotlar yetishmayapti[4].

Bugungi kunda elektron demokratiyaning yana bir asosiy ko'rsatkichi bu elektron hukumatdir. "Elektron hukumat" deganda davlat organlari oldida turgan vazifalarni hal etish usullarini o'zgartirish uchun yaratilayotgan axborot tuzilmasi tushuniladi. Dastlab davlat sektorlari axborot texnologiyalarini alohida departament va tashkilotlarda ichki foydalanish uchun qo'llagan bo'lsa, endilikda axborot texnologiyalari katta qiymatga ega bo'lib, "tezkor, yaxshi, arzon, murojaat etish mumkin bo'lgan" tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritmoqda.

Davlat organlari faoliyatida aholi uchun AKTni joriy etish orqali davlat boshqaruvining yangi imkoniyatlari yaratiladi. Elektron hukumatning ikki muhim vazifasidan birinchisi hukumat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar; ikkinchisi turli darajadagi davlat tashkilotlari (markaziy,

hududiy, mahalliy) va turli sohalardagi (qonunchilik, ijro, sud hokimiyati) idoralar o'rtasidagi ichki munosabatlarni mustahkamlaydi.

Elektron hukumat - shakllangan davlat xizmatlari haqidagi ma'lumot va xizmatlarni aholiga, bank, biznes va davlat organlari shaxobchalariga, idora va tashkilot rahbarlariga yetkazadi; axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanib, buyurtmachi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masofasini mumkin qadar qisqartiradi.

Tizimni yo'lga qo'yishdan maqsad: aholi va tijoratga hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni optimallashtirish; barcha saylovchilarning davlatni boshqarish va rahbarlik jarayonidagi ishtiroki darajasini oshirish; fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish; fuqarolarning texnologik ta'minlanganligini ko'tarish; davlat boshqaruvida sarf-xarajatlarni kamaytirish, siyosiy tizimning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat. Ushbu masalalarning yechilishi esa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari samaradorligini oshirib, ularga bog'liq sarf-xarajatlarni kamaytiribgina qolmasdan, jamiyat bilan hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan yaxshilaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatni modernizatsiyalashuvi va davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini yuqori pog'onaga ko'tarish demakdir[5].

Elektron hukumat tizimi natijasida davlat va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirish, o'zaro elektron muloqot va kelishuvlar tufayli siyosiy qarama-qarshiliklarni barham toptirish, hukumatga bo'lgan xalq noroziligini kamaytirish imkoniyati vujudga keladi. O'zbekistonda davlat va jamiyat tashkilotlari faoliyatida elektron hukumatning joriy etilishi jarayoni uch bosqichda sodir bo'ladi. Birinchi bosqichda AKT vositasi davlat organlari axborotlariga tashkilot, korxonalar va fuqarolarning murojaatini ko'rishni tezlashtiradi va aniq manzilini belgilaydi. Uni amalga oshirish uchun davlat organlari o'z veb-saytlarini yaratadi, ularga qonunchilik va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning kerakli shakllari, statistik va iqtisodiy ma'lumotlar kiritib boriladi. Bu bosqichning asosiy elementi ma'lumotlarning tez yangilanishi hamda barcha davlat axborot resurslarini jamlab, "Yagona darcha" orqali murojaatni ta'minlovchi davlat veb-portlining mavjudligidir.

Ikkinchi bosqichda davlat xizmatlari (ko'chmas mulk va yer maydonlarini ro'yxatga olish, soliq deklaratsiyalarini to'ldirish, ruxsatnoma olish uchun arizalar berish va boshqalar) onlayn rejimida taqdim etiladi. Mazkur bosqichga o'tish byurokratik to'siqlarga barham beradi, murakkab jarayonlar soddalashadi, tashkilot rahbarlari bilan bevosita muloqotlar paydo bo'ladi. Bu bosqichda hukumat organlariga elektron shaklda (e-services) "Yagona oyna" orqali haftaning 7 kuni va kunning 24 soati mobaynida xizmat ko'rsatiladi.

Uchinchi bosqichda davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida, davlat siyosatini ishlab chiqishning jamiki jarayonlarida oddiy fuqarolar va firmalar rahbarlarining

siyosatchilar va rahbarlar bilan interaktiv munosabatlari ta'minlanadi. Bu ishlar asosan veb-forumlar orqali amalga oshirilib, qonunchilik dalolatnomalari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari, taklif va tavsiyalar jamlanib, qizg'in muhokama etiladi. Olimlar va soha mutaxassislari elektron hukumatni ikki ma'noda talqin qilishadi: birinchisi, yangi axborot texnologiyalari asosida davlat boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va aholiga samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlash; ikkinchisi, idoralar, tashkilotlararo munosabatlar usulini modernizatsiyalash (zamonaviylashtirish), davlat boshqaruvining jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini to'liq yo'lga qo'yish.

Elektron hukumat tizimini rivojlantirishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali muhim o'rin tutadi (my.gov.uz). Jumladan, 2023 yil oktyabr holatida portal orqali 82,9 millionta ariza kelib tushgan. Yagona portalning ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari soni 5.1 millionga yetgan. Bugungi kunda Yagona portal orqali 505 ta davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda[6].

Jamiyatni modernizatsiyalash, demokratlashtirishni rivojlantirishda elektron hukumat tizimining xizmati quyidagicha bo'lmoqda: ma'muriy boshqaruv sarf-xarajati kamaydi va ijro hokimiyati samaradorligi ko'zga tashlandi; jamiyat va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mohiyati va shakli ijobiy tomonga o'zgardi; demokratiyani takomillashtirishga imkoniyatlar yaratildi va xalq oldida davlatning mas'uliyati, javobgarligi oshdi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni
3. https://v-dem.net/documents/30/V-dem_democracyreport2023_highres.pdf
4. The role of social media in the decision-making process /- Srdana Taboroši, Aleksandra Kovačević, Biljana Maljugić University of Novi Sad, Technical faculty "Mihajlo Pupin", Zrenjanin, Serbia (06.2022)
5. Омонов Бахтиёр Ахтамович Сиё. фан. док., проф. Янгиланган Ўзбекистонда модернизация жараёнида электрон ҳукуматнинг ўрни / Konsensus xalqaro jurnali /The international journal of consensus 2021 №3
6. [https://my.gov.uz/uz/site/statistic-page\(08.10.2023 y holatida\)](https://my.gov.uz/uz/site/statistic-page(08.10.2023%20y%20holatida))
7. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center>
8. <https://lex.uz/docs/> (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони)
9. <https://lex.uz/docs/> (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сон Фармони)
10. Varieties of Democracy (демократия турлари) (V-Dem) 1789 yildan 2022 yilgacha бўлган давр мобайнида 202 ta mamlakat uchun 31 milliondan ortiq demokratiya bo'yicha eng yirik global ma'lumotlar to'plamini ishlab chiqaradi. Deyarli 4000 ga yaqin olimlar va boshqa mamlakat mutaxassislari, V-Dem ning yuzlab turli atributlarini o'lchaydi. V-Dem tabiati, sabablari va oqibatlarini o'rganishning yangi usullarini beradi.

Xulosa. "Aholining elektron hukumat tizimi yordamida mahalliy boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi hukumatni bir guruh kishilar qo'lida bo'lib qolish va korrupsiyalashish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi va boshqaruv xodimlarini yuklangan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishga undaydi. Fuqarolar o'z g'oya, fikrlarini boshqa fuqarolarga zarar yetkazmagan, milliy xavfsizlikka yoki jamoat tartibiga xavf tug'dirmagan holda, ommaviy tarzda ifoda qilish huquqlariga ega bo'ladi[5]."

Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 2022 yilda 193 ta davlat ishtirokida o'tkazilgan "E-hukumatning rivojlantirish indeksi" so'rovinomasi Daniya (0.9717), Finlandiya, Koreya Respublikasi, Yangi Zelandiya, Islandiya, Shvesiya, Avstraliya, Estoniya, Niderlandiya, AQSh kabi davlatlardan keyin 11-o'rinda (2020 yilda 7-o'rinda bo'lgan) Buyuk Britaniya (juda tez rivojlanish ko'rsatkichi 0.9138) joylashgan bo'lsa, O'zbekiston (2020 yilda 87-o'rinda bo'lgan) (tez rivojlanish 0.7265) 69-o'rindan joy olgan[7].

Xulosa. Jamiyatda elektron demokratiyaning keng joriy etilishi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa hayotiy muhim masalalardagi faoliyatini amalga oshirishda yengillik yaratadi, jamoat fikri asosida jamiyatdagi islohotlar amalga oshiriladi, turli korrupsiyaviy holatlar cheklanadi. Shuningdek, davlat, jamiyat va fuqarolar munosabatlarida vaqt va mablag' sarf-xarajatlari tejalandi.



Ilxomiddin RUSTAMOV,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti
E-mail: irustamov @ mail.ru

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali dotsenti I.Tishbaeva taqrizi asosida

IBN SINO FALSAFIY QARASHLARINI O‘RGANILISH TARIXIDAN

Annotatsiya

Maqolada Ibn Sino ijodida falsafiy qarashlar va ularning o‘rganilish tarixi haqida so‘z borgan. Muallif Ibn Sino falsafa, tabiat, tibbiyot va badiiy adabiyotda, musiqa kabi boshqa fanlar sohasida yozgan asarlarini falsafiy mohiyatini yoritishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: Falsafa, tibbiyot, musiqa, ilm, madaniyat.

ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ ИБН СИНА

Аннотация

В статье говорится о философских взглядах в творчестве Ибн Сины и истории их изучения. Автор Ибн Сина пытался осветить философскую суть своих произведений, написанных в области философии, природы, медицины и художественной литературы, а также музыки.

Ключевые слова: Философия, медицина, музыка, наука, культура.

FROM THE HISTORY OF STUDYING THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF IBN SIN

Annotation

The article talks about the philosophical views in the works of Ibn Sina and the history of their study. The author Ibn Sina tried to illuminate the philosophical essence of his works written in the fields of philosophy, nature, medicine and fiction, as well as music.

Key words: Philosophy, medicine, music, science, culture.

Kirish. Ibn Sino ilmiy ijodiy faoliyatining bir qismi Isfahon va Hamadonda o‘tgan. 1014-yildan boshlab umrining oxirigacha Hamadon shahrida yashagan va bu yerning ilmiy, madaniy, adabiy muhiti bilan bevosita aloqador bo‘lgan [1].

Buyuk faylasuf olim Ibn Sino falsafa, tabiat, tibbiyot va boshqa fanlar sohasida yozgan ko‘plab asarlari qatorida badiiy adabiyotda, musiqada ham samarali ijod etib, bir qancha asarlarini qoldirgan. Yuqorida keltirilgan shaharlarning deyarli hammasida Ibn Sino yashagan va shubhasiz, adabiy hayot bilan tanishgan va shoirlar, faylasuf olimlar bilan muloqotda bo‘lgan edi. Ibn Sinoning falsafiy merosini chuqur o‘rganish bu masalani yanada oydinlashtiradi.

Metod va asosiy qism. Ilmiy falsafiy yo‘nalishdagi manbalarda yozilishicha, somoniy hukmdorlar ilm, ma‘rifat, faylasuf olimlar ahlini qadrlab, ularga homiylik qilganlar. Ibn Sinodan keyin yashagan olim, g‘uriy podshohlarning kotibi Nizomiy Aruzii Samarqandiy “Majmui-navodir yohud chohar maqola” asarida bunday yozadi: “Nasr ibn Ahmad somoniylar sulolasiga mansub olimlarning durdonasi edi. Bu xonadonning gullab-ashnagan payti uning podshohlik davriga to‘g‘ri kelib, qudrat vositalari podshohlik davriga va farovonlik nihoyatda kuchaygan, xazina to‘kin, lashkar jangovar edi. Hukmdor Nasr ibn Ahmad qishni Buxoro shahrida o‘tkazar, yozda esa Samarqand yoki Xurosonning birorta shahriga borardi [2]. Somoniylar davlati gullab-ashnagan vaqtda Movarounnahr va Xurosonda ko‘pchilik viloyatlarning poytaxti hisoblangan Balx, Nishopur, Bust, Isfahon, Marv va boshqa shaharlarda ham Buxoroga tobe amirlar o‘z atrofiga faylasuf olimlar, ilm ma‘rifatli, iste‘dod egalari to‘plab, faol madaniy hayot kechirganlar. Jumladan Abu Ali Simjur, Alp tegin, Foyiq, Sabuntagin kabi qudratli amirlar ham ilm-fan vakillariga homiylik qilganlar.

Xorazmshohlar, somoniylar va g‘aznaviylar davrida yashagan bu ziyolilarning ham lashkarboshi, faylasuf, shoir,

geograf, tabib va munajjim bo‘lganligi Sharq Uyg‘onish davri gumanizmini ifodalovchi alomatlar, belgilardir.

Somoniyilar va g‘aznaviylar davrida hurfikrlilik va shaxs erkinligi, salbiy, tanqidiy mavzularda ijod qilgan faylasuflar, badiiy adabiyot vakillarining ham iste‘dodi, ijodi namunalari hurmat qilinib, ular hokimiyat vakillarini tanqid qilgan bo‘lsalar ham, bosh vazir ularni yuqori mansablarga ko‘targan. Adab, axloq ilmlarida mashhur bo‘lgan shoir Abu Ahmad she‘rlaridan birida vazir Jayhoniyni qorovullikka ham yaramaysan deb tanqid qiladi. Shunga qaramay, uning qobiliyatini hisobga olib uni viloyatga hokim qilib tayinladilar.

Yosh faylasuf olim Ibn Sino mana shunday ijtimoiy-madaniy muhitda o‘zining ulg‘aydi. Jumladan, Ibn Sino o‘zi yozgan tarjimai holida yoshlik yillari, faylasuf sifatida shakllanishi haqida bunday deydi:

“So‘ngra bu (Afshonadan) Buxoro shahriga ko‘chib keldik. Meni Qur‘on va adab (ilmlarini) o‘qitadigan muallimlarga topshirdilar. Yoshim o‘nga to‘lganda men Qur‘onni va adab ilmlaridan ko‘pini o‘zlashtirib olgan edim. Hatto odamlar menga ajablanadigan bo‘ldilar. Otam misrliklar da‘vatini qabul qilganlardan bo‘lib, ismoiliylardan hisoblanardi va ularning nafs (jon) va aql haqidagi gaplarini va tushunchalarini eshitib yurardim, ukam ham shunday qilardi. Ko‘pincha ular bu xususda o‘zaro suhbatlashib o‘tirishganida men ularning gaplarini tushunardim, lekin qalbim buni qabul etmas edi” [4].

Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Ismoilni ta‘limotining kelib chiqishi Hazrat Ali avlodidan Ja‘far Sodiqning o‘g‘li Muso al-Kozimni (vaf.799) yettinchi imom, deb tan olinishi bilan bog‘liq. Islom dinidagi Shia mazhabidagilarning boshqa bir guruhi Ja‘far Sodiqning katta o‘g‘li Ismoilni yettinchi imom, deb tan olganlar.

Imom Ismoil otasidan avval vafot etgani uchun uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni yettinchi imom-rahbar deb tan oldilar. Muso al-Kozim tarafdorlari o'zlarini imomiylar deb, Muhammad ibn Ismoil tarafdorlari esa o'zlarini ismoiliylar deb atay boshladilar.

Ismoiliya mazhabi, firqasi tarafdorlarining avval Bahraynda, so'ng Misrda davlatni qo'lga olishlari tavid, kalom, fiqh-islom qonunchiligida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keldi. IX asr oxirlarida Bahrayndagi ismoiliylarning bir oqimi, mazhabi hisoblangan qarmatiylar Bahrayn, Xuroson, Yaman, Suriya, Mag'rib, Shimoliy Afrikada, Jazoir, Marokash, Tunisda mavqeyi kuchayib, Hijoz diyoridaqi Makka va Madina shaharlarini ham egallab, Ka'baning to'g'risidagi muqaddas qoratoshni sindirib, ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketdilar va Qoratoshga sig'inish, uni tavof etishni shirk deb hisoblab, bu ishni man qilib, taqiqlab qo'ydilar.

Ismoiliylar mazhabi vakillari Hazrat Alini birinchi imom, uning o'g'illaridan Hasanni - ikkinchi, Husayni uchunchi, Ja'far ibn Sodiqni - to'rtinchi, uning katta o'g'lini Muso al-Kozimni-beshinchi imom, Ja'far Sodiqning kichik o'g'li Ismoil otasi hayotligida vafot etgani uchun, uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni oltinchi imom deb hisoblaydilar[5].

Ismoiliy-qarmatiy davlatining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy tuzumida jamiyat hayotida adolat o'rnatish, tenglik, ya'ni boylar va kambag'allar orasida tafovutlar bo'lmasligi, urush-qirg'inlarda topilgan boylik, o'ljal va turli hayot noz-ne'matlari, barcha moddiy, ma'naviy mulklar umumiy bo'lishi qoidalariga qat'iy rioya qilingan[6]. Ismoiliylar hukmronligi davrida josuslik, qo'poruvchanlik kabi terroristik harakatlarga ham keng yo'l berilgan.

Ibn Sino ma'lumot beradiki, ismoiliylar toifasiga mansub otasi va ukasi uni (Husayn Abu Alini) ham yashirin harakatga da'vat qilganlar. Lekin Ibn Sino siyosiy sohadan ko'ra ilm-fanlarni, ma'rifatni, falsafani o'rganishga qiziqqani uchun otasining da'vatiga qo'shilmagan.

Ibn Sinoning otasi ismoiliya ta'limotini qabul qilganligi tufayli, uning ishtirokida mavjud bo'lgan siyosiy tuzumga qarshi yashirin tarafdorlar to'plaganidan xulosa qilish mumkinki, Nosir Xusrav da'vatlaridan chorak asr avval somoniylar hukmronligi davrida ham ismoiliya tarafdorlari siyosiy tuzumdan norozi bo'lganlar. Yosh olim Ibn Sino otasining da'vatiga qo'shilmagan. Yosh Ibn Sino ham ismoiliya tarafdori bo'lgan, lekin buni yashirib, sir tutgan[7]. Bizning fikrimizcha, Ibn Sino iste'dodli shifokor, faylasuf olim sifatida somoniylar saroyida izzat-hurmat topgan va somoniy sulolasi vakillarning ilm-ma'rifatga homiyiligini ko'rgan. Shu bilan birga u Xorazmdagi Ma'mun akademiyasida ham, Abu Sahd Masihiy, Abu Rayhon Beruniy bilan tabiiyot va falsafa masalalarida bemaolay suhbat qila oladigan va bahslashuvchi, shakllangan alloma bo'lib tanilgan, o'z hayotini ilm-fanlarga bag'ishlagani uchun ismoiliylarning siyosiy da'vatlariga moyillik bildirmagan. Faylasuf olim ismoiliya ta'limotidan ko'ra, yunon klassik faylasuf vakili Aristotel va mutafakkir Abu Nasr Forobiy falsafasi mazmuniga, g'oyalari katta qiziqish bildirgan.

Ibn Sino adab, axloq mavzusidagi ilmlarini mustaqil o'rganish bilan cheklanmasdan, tabiiy va falsafiy fanlarga ham qiziqib, dunyoviy bilimlarning soxta g'oyalardan ajratuvchi mantiq ilmini yoshligidan o'rgana boshlaydi.

Ibn Sino "Tarjimai hol"ida yozishicha, uning zamon-doshi Ismoil Zohiddan faqat fiqh masalalarini o'rganib qolmay, dialektik mantiq ilmiga doir asarlarini ham o'zlashtirgan. "Shu bilan men (ilmiy masalalarda haqiqiy javobni) talab yo'llarini va javob beruvchiga e'tiroz bildirish usullarini, ularda (faylasuf sofistlar va dialektikalarda) joriy bo'lgan yo'sinda bilib olib, bu sohani eng yaxshi tushunadiganlardan bo'lib qolgan edim.

Atoqli faylasuf olim akademik Mubin Baratovning yozishicha, Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga buyuk hissa qo'shgan mashhur qomusiy olim – tabiatshunos, faylasuf, tibbiyot ilmi donishmandi, astronom, matematik musiqashunos, yozuvchi va shoir edi [8]. Ibn Sino Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Al-Farg'oniylar qatorida O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini o'rta asrlar sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga ko'targan buyuk mutafakkirlardan biridir. Ibn Sinoning yoshligi va yigitlik chog'lari Buxoro shahrida o'tdi. Somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan Buxoro shahri uzoq, tarixiy ilm-ma'rifat an'analari ega bo'lib somoniylar sulolasi hukmronligi davrida ilm-fan markazi edi.

Sharq ilm-ma'rifat an'analari ega bo'lgan somoniylar davlatining poytaxti Buxoro shahri butun Movarounnahrda, Xurosonda, O'rta va Yaqin Sharqdagi mashhur fan-madaniyat markazlaridan biriga aylangan edi. Buxoro shahrida badiiy hunarmandchilik, zargarlik, bo'yoq va qog'oz tayyorlash, o'ymakorlik, me'morlik rivojlangan. Shuningdek, tibbiyot, falsafa, san'at, tarix, huquqshunoslik ilmlari bilan shug'ullanuvchi ulamo, arab, fors va turkiy tillarda ijod qiluvchi faylasuf olimlar, adiblar va shoirlar to'plangan edi.

Ibn Sino yashagan davrda yurtimizda ilm-fan yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Tabiiy fanlar sohasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Said Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq kabi buyuk siymolar ijod etdilar. Ibn Miskavayh (vafoti 1030), Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) kabi olimlar falsafa, tarix va adabiyot sohasida qalam tebratib, yirik ilmiy asarlar yaratdilar.

Ibn Sino falsafiy ta'limoti yaratilgan davrda arab, fors tilida chop etilgan asarlar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va bu davr ma'naviy hayoti haqida mustaqil bajarilgan ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Ta'kidlash lozimki, bu davrdagi faylasuf olimlar ijodi ravnaqida eng muhim ilmiy adabiy markaz bo'lgan somoniylar poytaxti Buxoro shahri ijodiy muhit muhim rol o'ynagan. Falsafiy olim As-Saolibiy o'z tazkirasida Buxoroda yashab ijod qilgan shoirlar haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "Buxoro somoniylar (hukmronligi) davrida shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basini va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan (joy) edi"[9], deb yozadi. Somoniylar fors tilida ijod etgan shoirlarni ko'proq rag'batlantirsalar ham, poytaxt Buxoroda va saroyda arab tilida ijod qilgan ijodkorlar ham yashaganlar. Faylasuf olimlar, adiblar turli sabablarga ko'ra arab halifaligining ilmiy markazi hisoblangan Buxoro shahriga boshpana qidirib va ilmiy ishlarini davom ettirish uchun kelganlar. As-Saolibiy o'z asarida quyidagicha yozadi: «U yerda (ya'ni Buxoroda) Abu-l-Hasan al-Lahhom, Abu Muhammad ibn Matron, Abu Ja'far ibn al-Abbos ibn al-Hasan, Abu Muhammad ibn Abu-s-Siyob, Abu Nasr al-Huzaymiy, Abu Nasr az-Zarifiy, Rajo Ibn al-Valid al-Isfahoniy, Ali ibn Xorun ash-Shayboniy, Abu Ishoq al-Forsiy, Abu-d-Qosim ad-Dinavariy, Abu Ali az-Zavzaniy va ular (ya'ni somoniylar) xizmatida bo'lgan eng fozil muhojirlar to'planishgan edi. Faylasuf olimlar u yerda yig'ilishgach, ilmiy mavzudagi suhbatlari ularni bir-biri bilan yaqinlashtirgan edi. Faylasuf tadqiqotchi As-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" asarida Buxoro shahrida yashagan 47 ta arabiynavis shoir, adiblar, faylasuflar haqida qimmatli ma'lumot berilib, ularning asarlaridan ayrim namunalar keltirilgan. Bu she'riy parchalar qasida, hajviyot, vasf va boshqa janrlarda yozilgan ijod namunasi. Buxoro shahrida yashagan va ijod qilgan shoirlar, yozuvchilarning hikoyalari orasida somoniylar davlati amirlari, vazirlar va boshqa amaldorlar faoliyati tanqid qilingan hajviy she'rlar ham uchraydi. O'z taqdiri, qashshoqlik va zamonaning, yashab

turgan jamiyatdagi noboplikdan shikoyat qilib yozilgan misralar ham mavjuddir.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Ibn Sinoning ilmiy ijodini o'rganish xaligacha katta e'tibor talab qilib

kelmoqda, chunki, dunyo falsafasi va tibbiy yo'nalishlarida olimning yetakchi o'rinda turishi barchaga sir emas.

ADABIYOTLAR

1. Rustamov I.A. Philosophical heritage of Abu Ali Ibn Sina as an important source in the education of the modern specialists. THE ADVANCED SCIENCE JOURNAL SCIENCE ISSUE UNITED STATES. 2015-№1. 87-90
2. Rustamov I.A. Abu Ali Ibn-Sino doctrine in the context formation of harmoniously developed person. Theoretical & Applied Science. – Philadelphia, USA, №1(57). 2018. – pp. 277-280.
3. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоялар. – Тошкент, 1985. – Б.32.
4. Ибн Сино. Таржимаи ҳол.А.Ирисовнинг “Ҳаким ибн Сино” китобида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 62.
5. Ал-Фаҳрай. Китоб талҳис ал-баён фи зикри фироқ ал-аҳли адйон. – Москва: Наука, 1988. – С. 26.
6. Семёнова Л.А. Из истории фатимидского Египта. – Москва: Наука, 1974. – С. 30.
7. Осимов М., Диноршоев М. Ибн Сино и его роль в развитии мировой цивилизации. В кн. Ибн Сино. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980. – С. 10.
8. Баратов М. Абу Али ибн Сино-буюк энциклопедист олим ва файласуф. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.6-7.
9. D.Murtazayev. O'rta Osiyo xalqlari hayotida IX –XII asrlarda yuz bergan Uyg'onish (Renessans) davri. ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi. Navoiy, 2016. 4-b



UDK: 355.232.6

Zamira RUSTAMOVA,
QarMII tadqiqodchisi,
E-mail: azamat.eralov.95@mail.ru

QarMII t.f.f.d., dots. A.Eralov taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARIDA GENDER HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI XALQARO TAJRIBA.

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida gender huquqini ta'minlash masalalari xalqaro tajriba haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida mustaqillik yillarida gender huquqini ta'minlash masalalari xalqaro tajriba bo'yicha o'ziga xos jihatlarini o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, O'zbekiston gender huquqi, xalqaro tajriba.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ПРАВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ.

Аннотация

В данной статье говорится о международном опыте обеспечения гендерных прав в годы независимости. На основе научных данных автор на основе международного опыта изучил и проанализировал конкретные аспекты вопроса обеспечения гендерных прав в годы независимости.

Ключевые слова: Независимость, гендерные права Узбекистана, международный опыт.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN PROVIDING GENDER RIGHTS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE.

Annotation

This article talks about the international experience of ensuring gender rights in the years of independence. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of the issue of ensuring gender rights in the years of independence based on international experience.

Key words: Independence, gender rights of Uzbekistan, international experience.

Kirish. Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikning muxofazasini ta'minlash, ayollarning jamiyat hayotidagi mavqeini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, barcha sohada xotin-qizlarga berilgan imtiyozlar, yaratilgan shart-sharoitlarni yanada kuchaytirish masalalari davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Yurtimizda oila, onalik va bolalik manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan muhofazalash, joylarda ularni ish bilan ta'minlash, salomatligini mustahkamlashga oid chora-tadbirlar ko'lamini yildan-yilga ortib bormoqda.

Buning isboti sifatida keyingi vaqtlarda Respublikamizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan Prezident farmonlari va qarorlari, Davlat dasturlari, fuqarolik, oila, mehnat huquqi va tibbiyot sohasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlarida xotin-qizlarga berilgan imtiyozlarda o'z ifodasini topgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida" (1999-yil 14-martdagi)gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" (2003-yil 29-avgustdagi Qonunning 22-moddasi)gi, O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish choralari to'g'risida" (1995-yil 2-martdagi PF-1084)gi, "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2004-yil 25-maydagi PF-3434)

farmonlari mamlakatimiz xotin-qizlarining siyosiy va ijtimoiy faolligini yanada oshirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

Adabiyotlar tahlili. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2014 yilda o'tkazilgan "O'zbekiston ayollari - 2014: ijtimoiy mavqe va kayfiyat» mavzuidagi surovnomada doirasida respublikamiz miqyosida 1100 nafar xotin-qizlar o'rtasida ularning moddiy va ijtimoiy himoyalanganliklarining ahvolini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan ijtimoiy so'rovda ishtirok etgan xotin-qizlarning 92,6 foizi o'zlarini to'liq moddiy va ijtimoiy himoyalanganliklarini aytishgan bo'lsa-, respondentlarning atiga 3,3 foizi mazkur savollarga javob berishgan, qiyналganliklarini ma'lum qilishgan[1].

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari orasida ayollar 22%ni, Senatda esa 15% tashkil qiladi. Viloyatlar miqyosidagi hokimiyat vakillik organlarida ayollar deputatlarning 12,5%ini, tumanlarda - 15%, shaharlarda esa - 18,1% ni[2] tashkil qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deb belgilab qo'yilishi ham ayollarga bo'lgan alohida e'tibor, ayollar huquq va manfaatlarining himoyasini ta'minlash ifodasidir. Bu tenglik ifodasi erkaklar va ayollarning barcha sohadagi huquq va manfaatlariga tegishli.

Ushbu normani kengroq izohlash maqsadida ayrim xorijiy davlatlarning Konstitutsiyalariga murojaat qilishga to'g'ri keldi. Masalan, Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: "Ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega. Ushbu normani buzgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi", deb

ko'rsatilgan bo'lsa, Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: "Ona, bola va yoshlar davlat himoyasida. Ona va bola alohida yordam va himoyaga muhtoj" ekanligi belgilangan. Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida: "Erkaklar va ayollar teng huquqlidir"[3], deb ta'kidlangan bo'lsa, Ukraina Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida ayol va erkaklar teng huquqliligi jamoat ishlarida, siyosiy va madaniy faoliyatda teng tarzda ishtirok etish, ta'lim olishda va maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o'tishda, mehnatiga yarasha taqdirlanishda, mehnatni muhofaza qilishda, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minotida imtiyozlar olishda, onalik va bolalik muxofazasini ta'minlashda, onalarga imtiyozlar yaratilishi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda, homilador va bolali ayollarga imtiyozlar yaratishda tenglik ta'minlanishini belgilab qo'yish orqali mustahkamlangan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi "Oila va davlat" deb nomlanib, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini va u davlat himoyasida" ekanligi, "Ota-onalarning bolalar oldidagi majburiyatlari" ko'rsatilgan. Konstitutsiyaning 34-moddasi "Nikohga bo'lgan huquq" deb nomlanib, unda nikoh shartlari, oila muhofazasi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi majburiyatlar belgilangan[5].

Vengriya Respublikasi Konstitutsiyasining "Asosiy huquq va majburiyatlar" nomli 12-bo'limiga tegishli 15-moddasida "Davlat nikoh va oila institutini himoya qiladi", deb ta'kidlangan bo'lsa, 67-moddasida ota-onalarning majburiyatlari[6] belgilab berilgan.

Belarus Respublikasi Konstitutsiyasining "Shaxs, jamiyat, davlat" nomli 2-bo'limiga tegishli 32-moddasida nikoh oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida ekanligi ta'kidlanib, bola huquqdarining kafolatlari belgilangan[7].

Moldova Respublikasi Konstitutsiyasining "Asosiy huquqlar, erkinliklar va majburiyatlar" deb nomlangan 2-bo'limiga tegishli 49-moddasi "Oilani va yetim bolalarni himoya qilish", 50-moddasi esa "Ona, bola va yoshlarni himoya qilish" deb nomlangan. Hattoki, ushbu bobda nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolalarning huquqlari ham qonun himoyasida ekanligiga alohida urg'u berilgan[8].

Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida ona va bola davlat himoyasida ekanligi, bolalarning ota-onalarga g'amxo'rliqi, xususan, yetim bolalarga g'amxo'rlik[9] masalalari o'rin olgan.

Gruziya Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida nikoh tuzish shartlari, onalik va bolalikning davlat tomonidan himoyalaniishi belgilab qo'yilgan[10].

Tahlil va natijalar. Bolgariya Respublikasi Konstitutsiyasining "Asosiy qoidalar" nomli 1-bobidagi 14-moddada "oila, onalik va bolalik davlat va jamiyat himoyasida" ekanligi ta'kidlangan bo'lsa, "Fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlari" deb nomlangan 2-bobining 46-moddasida nikoh, uning tushunchasi va shartlari, 47-moddasida bolalar, ularga g'amxo'rlik, nikohsiz va yetim bolalar huquqlarining davlat tomonidan himoyalaniishi, ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish va cheklash masalalari o'rin olgan[11].

ADABIYOTLAR:

1. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan "O'zbekiston ayollari - 2014: ijtimoiy mavqe va kayfiyat" mavzusida o'tkazilgan so'rov natijalari. «Женщины Узбекистана - 2014: социальное положение и социальное самочувствие». -Т:, 2014 г.
2. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining 2014-2015-yillardagi hisobot hujjatlari to'plami. -Т: 2015 у.
3. Конституция Республики Таджикистан. 1994.06.11. Внесены изменения и дополнения в результате референдума от 26 сентября 1999 года. Внесены изменения и дополнения в результате референдума от 22 июня 2003 года.

Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida "Onalik va bolalik, otalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", "Bolalar haqida qayg'urish ota-onalarning tabiiy majburiyatlaridir", "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar"[12], degan qoidalar belgilangan.

Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining "Insonlar va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari" deb nomlangan 2-bo'limiga tegishli 25-moddasida oilaviy munosabatlarda nikohning tengligi, ota-onalar va ularning o'rmini bosuvchi shaxslar bolalar haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetgan mexnatga layoqatsiz bolalarning ota-onalarini ta'minlash majburiyatiga ega ekanligi belgilangan[13].

Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasining "Fuqarolarning huquq va majburiyatlari" deb nomlangan 3-bo'limiga tegishli 26-moddasida ota-onalarning bolalar haqidagi g'amxo'rliqi, davlatning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan g'amxo'rliqi, kattalarga hurmat, qarindoshlar va yaqinlarga g'amxo'rlik qilish qirg'iz xalqining asosiy odatlaridan biri ekanligi haqidagi qoidalar o'rin olgan[14].

Latviya Respublikasi Konstitutsiyasining "Insonlarning asosiy huquqlari" deb nomlangan 8-bo'limiga tegishli 110-moddasida davlat nikoh, oila, ota-onalar va bolalar huquq va manfaatlarini, nogiron va yetim bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishi va ularga nisbatan qilingan xayriya tadbirlarini qo'llab-quvvatlashi belgilangan[15].

Yaponiya Konstitutsiyasining "Xalq ququqlari va majburiyatlari" nomli 3-bobiga tegishli 24-moddasida nikoh tuzish shartlari, er-xotinning huquq va majburiyatlari tengligi belgilangan[16].

Irlandiya Konstitutsiyasining "Asosiy huquqlar" deb nomlangan bo'limidagi "Oila" nomli 41-moddasida nikoh va oilaning davlat himoyasida ekanligi, "nikoh" tushunchasi va shartlari, uni bekor qilish asoslari va tartibi, ota-onalar va bolalar huquqlari va majburiyatlari haqidagi qoidalar mustahkamlangan[17].

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda amalga oshirilayotgan bunday sa'y-harakatlarning barchasi sog'lom oilani shakllantirish va oilalar mustahkamligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida gender huquqini ta'minlash masalalari xalqaro tajribalardan samarali foydalanish natijasida, yurtimizdagi xotin-qizlarning davlatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati ortgani bejizga emas.

Umuman olganda, O'zbekistonda ayollar huquqlarini taminlash tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini va ularni amaliyotga tatbiq etish tartibotlarini yanada kuchaytirish davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi sa'y-harakatlarini birlashtirish, ayollar huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirishga bog'liq.

O'zbekiston xalqaro huquqiy hujjatlar ijrosi doirasida o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarini izchil bajarishda davom etadi va kelajakda ham BMTning ayollar manfaatlariga oid barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi.

4. Конституция Украины принята на пятой сессии Верховной Рады Украины 28 июня 1996 года (Ведомости Верховной Рады Украины (ВВР Украины), 1996. - № 30. - Ст. 141.
5. Конституция Азербайджанской Республики 12 ноября 1995 г. Опубликована в «Сборнике Законов Азербайджанской Республики» № 1 от 31 июля 1997 года. С изменениями принятые на всенародном голосовании (референдуме) 24 августа 2002 года (вступившие в силу 19.09.02). - Ст. 158.
6. Новая Венгерская Конституция 25 апреля 2011 года.
7. Конституция Республики Беларусь (с изменениями и дополнениями, принятыми на республиканских референдумах 24 ноября 1996 г. и 17 октября 2004 г.).
8. Указ Президента Республики Молдова О промульгации Закона “О внесении изменений и дополнений в Конституцию Республики Молдова”. О внесении изменений и дополнений в Конституцию Республики Молдова Закон от 5 июля 2000 года N 1115-XIV Парламент принимает настоящий Конституционный закон.
9. Конституция Республики Таджикистан. Внесены изменения и дополнения в результате референдума от 26 сентября 1999 года. Внесены изменения и дополнения в результате референдума от 22 июня 2003 года.
10. Конституция Грузии от 24 августа 1995 года.
11. Конституция Республики Болгарии от 13 июля 1991 года.
12. Конституции Республики Казахстан, принятой 28 января 1993 года, не подлежат утверждению Парламентом Республики.
13. О порядке введения в действие Конституции Туркменистана от 18 мая 1992 г. - «Ведомости Меджлиса Туркменистана». — 1992. — № 5. - Ст. 30.
14. Закон Кыргызской Республики «О новой редакции Конституции Кыргызской Республики». Принят референдумом (всенародным голосованием) Кыргызской Республики 21 октября 2007 года.
15. Конституция Латвийской Республики. Принятая в пленарном заседании Латвийского Учредительного Собрания 15-го февраля 1922 года и вступившая в силу 7 ноября 1922 года.
16. Конституция Японии. 1 ромульгирована 3 ноября 1946 г. Вступила в силу 3 мая 1947 г.
17. Конституция Ирландии от 29 декабря 1937 года.



Lola SADILLOYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: lolasadilloveva@gmail.com

Navoiy viloyati PYAMOMM dotsenti Sh.Xasanova taqrizi asosida

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES USING THREE-DIMENSIONAL EDUCATIONAL TOOLS

Annotation

This article presents the possibilities of using three-dimensional presentations in the process of teaching biology in secondary schools, as well as the necessary conditions for increasing the educational effectiveness of computer modeling of complex biological phenomena and processes.

Keywords: education, information, biology, method, knowledge, digital technologies, visual, multimedia, computer modeling.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТРЁХМЕРНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация

В данной статье представлены возможности использования трехмерных презентаций в процессе преподавания биологии в общеобразовательных школах, а также необходимые условия повышения образовательной эффективности компьютерного моделирования сложных биологических явлений и процессов.

Ключевые слова: образование, информация, биология, метод, знания, цифровые технологии, визуальное, мультимедиа, компьютерное моделирование.

БИОЛОГИЯ FANINI UCH O'LCHOVLI O'QUV VOSITALAR YORDAMIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish jarayonida uch o'lchovli taqdimodlardan foydalanishning imkoniyatlari hamda kompyuter yordamida murakkab biologik hodisa va jarayonlarni modellashtirishning ta'lim samaradorligini oshirishdagi zarur shartlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot, biologiya, metod, bilim, raqamli texnologiya, vizual, miltemediya, kompyuterli modellashtirish.

Kirish. Kishilik jamiyatida shaxsning mehnat bozorida raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va o'zgaruvchan jarayonlarga moslashish qobiliyatiga bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri jadal rivojlanayotgan jamiyatga yoshlarning zamon talablariga mos bilimni qilish, raqamli texnologiyalaridan hayotiy faoliyatida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Shu sababli raqamli texnologiyalarini uzluksiz ta'lim tizimida keng joriy qilinishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Shunday qilib, zamonaviy biologiya fanini o'qitish metodikasining maqsadini quyidagicha shakllantirish mumkin:

- biologiya fani asoslari bo'yicha asosiy bilimlarni egallashni ta'minlash;

- biologiya fani metodologik muammolarini o'rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni samarali shakllantirish;

- uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fanini o'qitish va ta'lim jarayonining shakl va uslublarini bugungi o'zgarishlarga mos konsepsiyasini ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Ta'limni raqamlashtirish ancha murakkab jarayon ekanligini, shu sabab yurtimiz va xorijiy olimlar o'z tadqiqot ishida bosqichma-bosqich amalga oshirilishini quyidagicha izohlaydilar[1,-4]:

- raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda dastlab: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalariga mos

kompyuter sinflari, interaktiv video tizimlari, ta'lim tizimiga mos ma'lumotlar bazalari va dasturiy ta'minotni yaratish;

- an'anaviy dars tizimini fanlariga raqamli texnologiya vositalarini faol joriy etish hisobiga yangicha dars o'tish tizimini shakllantirish ya'ni ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, elektron, shu jumladan virtual, ommaviy axborot vositalarida dasturiy ta'minot, kompyuter kurslari, video va audio materiallarni ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'limni tubdan qayta tashkil etish, masofaviy ta'limni joriy etish, kadrlar tayyorlashning uslubiy asoslarini o'zgartirish, og'zaki ta'limni audiovizual ta'lim bilan almashtirish.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda biologiya fanini o'qitish, o'quv-uslubiy majmua tuzilmasi O.G.Smolyaninova[5], E.S.Polat, M.Yu.Buxarkina[6] hamda elektron va masofaviy ta'lim sharoitida o'zaro hamkorlikni tashkil etish masalalari E.B.Chernabay[7], B.B.Pasechnik[8], O.N.Stefanenko[9], E.A.Filippov[10] va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

O'quv jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qituvchining vazifalarini tubdan o'zgartirishga olib keladi, u o'quvchilar bilan birgalikda tobora ko'proq tadqiqotchi, dasturchi, tashkilotchi, maslahatchiga aylanadi. Shuningdek, fanning nazariy asoslarini yanada samarali o'zlashtirishga, fanga nisbatan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Bu esa, ta'lim jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta'limni modernizatsiya qilishning zaruriy sharti ekanligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'limni axborotlash-tirishning hozirgi bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining 3D modellashtirish jarayoni biologiya o'qitish metodikasida to'liq qo'llanilmagan, keng o'rganish imkoniyatlariga ega bo'lgan yangi o'qitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun biologiya kursini o'rganishda 3D kompyuter o'qitish texnologiyalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish muhimdir.

Ta'lim tizimida bunday metodikadan foydalanish o'quvchilarning umumiy biologik bilimlarini umumlash-tirishning o'quv jarayonini takomillashtirish vositasiga, hamda ularning axborot madaniyatini rivojlantirish omiliga aylanishi kerak.

Shunday qilib, oquv darslarida 3D modellashtirish, (biz 9-sinfda biologiyani fanini o'qitish misolida o'rgandik) umumta'lim o'rta maktablarining 9-sinflarida biologiya fanini o'qitish jarayonida, bugungi zamon o'quvchisini biologiyani o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash imkoniyatlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarlicha bilimga ega bo'lishlik zaruriyatini belgilaydi.

Bizning tadqiqotimiz g'oyasi uch o'lchovli oquv vositalar yordamida oqitish metodikasini takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning muvaffaqiyatli va ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bilan asoslanadi:

- umumiy biologiya fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi;
- umumiy biologiyani o'qitish jarayonida uch o'lchovli oquv vositalarining didaktik va uslubiy shartlari majmui.

Yuqoridagi fikr mulohazalar asosida qaralayotgan muammolarni hal qilishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

1) nazariy usullar: uch o'lchovli oquv vositalar yordamida oqitishning nazariy va uslubiy tamoyillari, ularni tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida o'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganish;

2) uch o'lchovli o'quv vositalar yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid ilmiy faktlarni to'plash;

3) o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi ishini kuzatish;

4) kompyuter o'qitish texnologiyalaridan foydalanish maqsadida o'quvchilarni so'rov va testdan o'tkazish.

Albatta, biologik ta'lim jamiyat talablariga javob berishi va bugungi kun tendentsiyalarni hisobga olgan holda

rivojlanishi kerak. Ayniqsa, biologik va ekologik muammo XXI asrning bosh muammolaridan biri sifatida e'tirof etilishidan kelib chiqib, bu yo'nalishlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda va shu bois o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va barkamol etib tarbiyalashda zimma-zimza yanada katta mas'uliyat yuklamogda. Bu hech shubhasiz, ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbalaridan biri ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishdir.

Shunday ekan, biologiya darslarida kompyuter modellaridan foydalanish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'quv faoliyatini qiziqarli bo'lishiga olib keladi:

dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish darajasini oshirish;

boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalarni o'rnatish, jumladan, informatika va biologiya o'qituvchilari ishtirokida o'quvchilarning o'rganilayotgan ob'ektlarni 3D Modellarini(dasturlarini) yaratish bo'yicha loyiha faoliyatini tashkil qilish imkoniyatini yaratadi;

axborot texnologiyalarini yaratuvchi va ishlatuvchi o'qituvchi o'quv materialini taqdim etishga katta e'tibor berishga majbur bo'ladi. Bu esa o'z novbatida o'quvchilarning bilim darajasi va ta'lim jarayonining tuzilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

biologiya fanini chuqur o'rganish qatorida, kompyuterdan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi;

Kompyuter inson faoliyatining har qanday sohasida ishlash uchun universal vosita sifatida shakllanadi.


Tahlil va natijalar. Shunday qilib, ta'lim jarayonida uch o'lchovli o'quv vositalar foydalanish qiziqish va motivatsiyani oshiradi, chunki bu ularning mustaqilligini faollashtirishni talab qiladi.

Albatta, har bir 3D ko'rinishdagi tasvirlar o'quv qurollari talablariga javob berishi kerak: rang tanlanishi, tasvirning tushunarligi, ravshanligi, o'qish samaradorligi, belgilar ma'lumotlarini ko'rsatish (hajmi va yorqinligi), ekrandagi ma'lumotlarning fazoviy joylashuvi kabi me'yorlariga muvofiq. Umuman olganda, o'rganishning ko'rinishini ta'minlash talabi o'rganilayotgan ob'ektlarning hissiy idrokini, ularning maketlarini hisobga olish zarur, o'quvchilar tomonidan modellar va ularni kuzatish dars jarayonida ilmiy ijodkorlik ruhini shakllantirishi kerak.

Quyida yuqoridagi fikrlarimiz asoslangan holda hujayraning uch o'lchovli model ko'rinishlarini keltirishimiz mumkin (1,-2-rasm):



1-rasm. Mitoxondriya hujayrasi modeli.



2-rasm. O'simlik hujayrasi modeli.

Biz tomonimizdan yaratilgan kompyuter modellari o'quv jarayonida, ayniqsa laboratoriya ishlarida bunday vositalardan foydalanilganda, mashg'ulot vaqti (yoki materialni o'rganish hajm) sifatini yo'qotmasdan o'zlashtirish ko'rsatgichi 30% gacha oshganligi kuzatildi.

Tahlillar asosida shuni aytishimiz mumkinki, mashg'ulotlarning kompyuterli modellar asosida tashkil etilishi idrok (asosan vizual), e'tibor (uning barqarorligi, o'zgarishi), fikrlash (nazariy obrazli, amaliy vizual-samarali), tasavvur, xotira (uzoq muddatli, axborotni almashtirish hodisasi) kabi xususiyatlarni rivojlanishiga asos bo'la oladi.

Natijada, biz ushbu mahsulotlarning belgilangan vazifalarga muvofiqligi asosida sohalarga mos qo'llashning hamda o'quvchilarning kompyuter grafikasi boyich malaka va ko'nikmalarini shakillantirishda 3D modellashtirishning qanchalik ahamiyatli ekankigiga ishonch hosil qildik.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib xulosa qiladigan bo'lsak, video tasvirlar, animatsiyalar bilan taqdim etilgan materialning tasvirlari, o'qituvchini murakkab hodisa va jarayonlarning namoyishini virtual asboblardan bilan ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan multimediali o'quv qurollaridan foydalanish, o'quvchilarning diqqatini jamlash, bevosita o'qituvchining darsni tashkil etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Shubhasiz, bunday yondashuv uslubiy tizim tushunchasiga va uning tarkibiy qismlarining o'ziga xos xususiyatlariga to'liqroq mos kelishi, biologiya fanini o'qitish ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, tadqiqotning amaliy ahamiyatini beilgilaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Ergashova G.S. Biologiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O'quv qo'llanma.- T.: TDPU, 2016. –212 b.
2. Бахарева, С. Р. Вебинар как педагогическая технология подготовки учителей биологии / С. Р. Бахарева // Педагогическая информатика. -М.: ФГНУ ИИО РАО. - 2011. - № 1. - С. 48-53.
3. Сайукова, Н. М. Проблема развития моделирования профессионального образования в условиях информационного общества / Н. М. Сайукова // Вектор науки ТГУ. - Тольятти : ТГУ. - 2012. - №1(8) - С. 259-262.
4. Титов, Е. В. Методика применения информационных технологий в обучении биологии: учеб. пособие для студ. учреждений высш. проф. образования / Е. В.Титов, Л. В. Морозова. - М.: Академия, 2010. - 176 с.
5. Смолянинова, О. Г. Развитие методической системы формирования информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мультимедиа-технологий : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02 / Смолянинова Ольга Георгиевна. - СПб, 2002. - 504 с.
6. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева, А. Е. Петров; под. ред. Е. С. Полат. -М.: Академия, 2010. - 272 с.
7. Чернобай, Е. В. Подготовка учителей к созданию электронных образовательных ресурсов : монография / Е. В. Чернобай. - М. : ГОУ Педагогическая академия, 2009. - 104 с.
8. Пасечник, В. В. Компьютерная поддержка урока биологии / В. В. Пасечник // Биология в школе. - М.: Школьная пресса. - 2002. - № 2. - С. 30-34.
9. Стефаненко, О. Н. Компьютерная поддержка при проверке знаний учащихся в процессе обучения биологии : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Ольга Николаевна Стефаненко. - М., 2005. - 146 с.
10. Филиппов, Е. А. Методика использования средств мультимедиа в обучении общей биологии : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Филиппов Евгений Александрович. - СПб., 2001. - 149 с.
11. <http://www.autodesk.ru/products/3ds-max/overview>
12. http://dead-lock.ru/publ/3d_max/3d_max_teorija/6



UDK:372.8

Zilola SAIDOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: zilolasulton669@gmail.com

Navoiy davlat konchilik instituti v.b.dotsenti, p.f.f.d.(PhD) Bazarova U.M.

ZAMONAVIY BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISH VA HAYOTGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan ta’limni zamon talabi darajasida isloh qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko’tarish muammolari atroflicha ko’rib chiqilgan bo’lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko’rsatib berilgan hamda oliy o’quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim, sotsial menejment, globallashuv, boshqaruv, kordinatsiya, mutaxassis, kadrlar, oliy ta’lim, jarayon, madaniyat, koserpsiya, mehnat taqsimoti.

OPPORTUNITIES TO ACQUIRE AND APPLY MODERN KNOWLEDGE

Annotation

In this article, the author has thoroughly considered the problems of reforming education at the level of modern requirements, raising its quality to the level of high demand, and the national and foreign experience in training highly qualified personnel has been widely covered. Also, the article shows the main features that determine the quality of the educational process in the training of highly qualified personnel, as well as the rules that represent the basis of the concept of the quality system in a higher educational institution.

Key words: Education, social management, globalization, management, coordination, specialist, personnel, higher education, process, culture, cooperation, division of labor.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИОБРЕТЕНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ЗНАНИЙ

Аннотация

В данной статье автором подробно рассмотрены проблемы реформирования образования на уровне современных требований, поднятия его качества до уровня высокого спроса, широко освещен отечественный и зарубежный опыт подготовки высококвалифицированных кадров. Также в статье показаны основные особенности, определяющие качество образовательного процесса при подготовке высококвалифицированных кадров, а также правила, составляющие основу понятия системы качества в высшем учебном заведении.

Ключевые слова: Образование, социальный менеджмент, глобализация, менеджмент, координация, специалист, персонал, высшее образование, процесс, культура, сотрудничество, разделение труда.

Kirish. Shiddat bilan o’zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an’anaviy ta’lim yo’sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o’zgarishlardan iborat bo’lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo’yayotgan yoshlar ana shunday o’zgarishlarga ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan tayyor bo’lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o’z o’rnini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta’lim tizimida boy tajribalar yig’ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o’yinlari, kompyuterli o’qitish, individuallashtirilgan o’qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va boshqa ko’plab o’qitish turlarini keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o’quvmetodik adabiyotlar, o’quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg’or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo’yicha sohaga oid bilim va ko’nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’lim

tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2016-yil 29-dekabrda PQ2707-sonli, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2017-yil 9-sentyabrda PQ3261-son qarorlari, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2017- yil 30-sentyabrda PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir. “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”ning paydo bo’lishi maktabgacha ta’lim mazmunini yangilash, umumiy amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o’tkazish va pedagoglar tomonidan o’qitishning yangi usullari va shakllarini o’rganish bilan bog’liq nazariy va amaliy masalalarni qizg’in muhokama qilishning boshlanishi bo’ldi. Mahalliy maktabgacha ta’limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish normativ va dasturiy-metodik hujjatlarda aks ettirilgan. Ushbu ishda ta’limning barcha darajalari, metodologiya xizmati, ilm-fan va amaliyotning barcha darajadagi mutaxassislar ishtirok etib, birlashtirilgan ta’lim maskani yaratildi.

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va

barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Jumladan, MTTda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik topshiriqlar va ishlanmalar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha zamonaviy shakl va usullarni ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada tahlil qilinmaganligi hamda ular singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati ijodkor emasligi, ta'lim-tarbiya sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi faktorlarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlarning malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy tizimi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Muhokama va natijalar. Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim sifati - natija haqida bola shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan bolalar quyidagi shaxsiy natijalarni qanday egallaganiga qarab so'z yuritish mumkin: tizimli tabaqalanadigan malakalilik:

til malakasi, bolaning o'z fikrlari, istaklari va niyatlarini nutq vositasida va nutqsiz vositalarda erkin ifodalashni nazarda tutadi;

ijtimoiy malaka, har bir insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni, uning o'ziga xosliklari va manfaatlarini tushunish mahoratini, uning hissiy holatidagi o'zgarishlarni payqashni, vaziyatga qarab muloqot usullarini tanlashni o'z ichiga oladi;

intellektual malaka, o'z maqsadiga erishish uchun bolaga yangi xatti-harakatlarini ijro etishga va ularni bajarishga yordam beruvchi umumiy intellektual faoliyatni shakllanganligini nazarda tutadi;

jismoniy malaka, bolaning o'z yosh darajasiga mos keluvchi turli harakat turlarini egallanganligini ko'rsatadi; ixtiyoriylik. bola tomonidan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'z xatti-harakatini boshqarish ko'nikmasida namoyon bo'ladi;

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud: Guruhlarda o'qitish (R.Slavin, Ishmuhamedov) da o'quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a'zolari o'quv topshiriq-

larini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish. Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi.

O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi; O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Hamkorlik pedagogikasida interaktivlik ("inter"- "o'zaro", "akt"- "faoliyat") muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktivlik - o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o'taydi. "Subyekt-Subyekt" munosabatlariga asoslangan hamkorlik namunalari bo'lmish o'yin texnologiyalari bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi, mustaqil fikrlash, keng muhohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (viktorina, breyn - ring, turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Quyida shunday texnologiyalardan namunalar keltiramiz. Pedagogik tenalogiyada o'quvchining o'zbar jarayonida tutgan o'rnini va pedagogning o'quvchilarga nisbatan berilgan munosabati muhim o'rin tutadi. Bunda quyidagi texnologiyalarni ajratish mumkin:

Avtoritar texnologiya. Bunda pedagog o'quv tartiblovchi jarayonining asosiy subyekti, o'quvchi esa, faqat obyekt sifatida qatnashadi. U o'quvchilarning erkinligini bo'g'ishi, majburiy o'qitish, tashabbusni bo'g'ish va o'quv tarbiyaviy jarayonini (O'TJ) qattiq qo'llik bilan olib borishga asoslanadi.

Didaktotsentrik texnologiyalar - o'quvchi shaxsiga e'tibor bermaslik bilan ajralib turadi. Bunda ham subyekt - obyekt munosabat bo'lib, shaxsni shakllantira olish, didaktik vositalaridan iborat bo'ladi.

Shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalar - buning markazida o'quvchi shaxsi uni rivojlantirish uchun, barcha sharoitlarni yaratish, uning tarbiyaviy salohiyatini namoyon qilishga yordam berish yotadi. Bunda o'quvchi shaxsi faqatgina sub'ekt bo'lmay, prioritetga ega bo'lgan sub'ekt bo'ladi. Bunda u ta'limiy tizimning maqsadiga aylanadi. Bunday texnologiyalar "antropoyentrik texnologiyalar" deyiladi. Shunday qilib, shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalar antropotsentrik, gumanistik va psixoterapistik, har tomonlama erkin, ijodiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Insonparvar - shaxsiy texnologiyalar - insonparvarlik mohiyati bilan ajralib turadi, unga yordam beradi, qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining kuchiga hurmat, undagi qobiliyatlarni ochilishiga yordam berish va majburiy ta'lim tarbiyani rad etadi.

Hamkorlik texnologiyalar – u demokratizm, tenglik, g'oyalarni ilgari suradi va o'qituvchi o'quvchi munosabatlarida subyekt – subyektga asoslanadi. O'qituvchi va o'quvchi ta'lim tarbiya maqsadi mazmunini ishlab chiqadi. Hamjihatlik bilan o'z faoliyatlariga baho qo'yadi.

Erkin tarbiya texnologiyasi – bunda o'quvchiga barcha yo'nalishlar bo'yicha erkin tanlash huquqi beriladi. Tanlash davomida o'quvchi sub'ekt nuqtaviy nazaridan namoyon qiladi va natijaga tashqi ta'sirdan emas, balki ichki kuch vositasida ergashadi.

Ezoterik texnologiya – bular ezoterik (“anglanmagan, bilib turib”) bilimlarga – haqiqat va unga olib boruvchi yo'llarga asoslanadi. Bunda pedagogik jarayon habar berish, muloqot qillishdan iborat bo'lmay, balki, haqiqatga payvand bo'lish bilan iborat bo'ladi. Ekzotik paradigmadagi insoning o'zi koinot bilan o'zaro axborot almashish markaziga aylanadi.

Xulosa. “Zamonaviy ta'lim usullari” deganda maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini o'rganish bo'yicha tarbiyalanuvchilarning oldiga qo'yilgan pedagogik muammoni mustaqil yechishga xizmat qiladigan interfaol metodlar ko'zda tutiladi. Adabiy ta'lim samaradorligiga erishishning eng maqbul yo'li – bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida fan mashg'ulotlarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlari zamonaviy tashkil etilsa, tarbiyalanuvchilarda samarali muloqot va o'z

fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Ta'lim samaradorligi tarbiyachilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga bog'liq. Zamonaviy usullar tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi, ular o'zaro bahs-munozara asnosida kichik hikoyalarning mohiyatini teranroq anglaydilar.

Tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda mashg'ulotlar uyushtirilsa, kichik guruhlar tashkil etilsa, topshiriqlar alohida tarbiyalanuvchiga emas, balki kichik guruhlarga berilsa, bolalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish zarurati va ko'nikmasi yuzaga keladi.

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasiga amaliy-uslubiy jihatdan e'tibor qaratish va pedagog-tarbiyachilarning kompetent-siyaviy yondashuv asosida faoliyat olib borish imkoniyatlari qamrovini kengaytirishga xizmat qilishi lozim.

2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini interfaol usullarda o'qitishni tashkil etishdan oldin joylarda tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini maqsadli va samarali tashkil etishga mo'ljallangan maxsus o'quv seminarlari o'tkazish lozim.

3. Pedagog-tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish maqsadida “Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish texnologiyalari” nomli metodik qo'llanma yaratish.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Abdullayeva N. Maktabgacha ta'limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. nom... diss. –T., 2020. – 164 b.
3. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. –М.: “Арена”, 1994.
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi (o'quv-metodik qo'llanma). -T., 2004.
5. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий. Монография. -Волгоград “Перемена”, 2006.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi, 2000.
7. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining buyrug'i. 2018- yil 18-iyun.
8. “Ilk qadam” Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. //Mualliflar: I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. - Toshkent, 2018. -59 b.
9. Qodirova F. Pedagog kadrlarga yangi pedagogik texnologiyalar haqida. / “Til va adabiyot ta'limi”, 2001. 4-son. 9-10-b.



Камола САИДОВА,
Профессор международного университета
«Tashkent International University of Education», д.ф.н
E-mail: t453@tiue.uz

На основе рецензии д.ф.н., проф. Б.Х.Эргашева

PERSONALITY CULTURE AS THE EXISTENTIAL FOUNDATION OF THE FAMILY IN SOCIETY IN THE EAST AND WEST

Annotation

In this article, the author examines the problem of personality culture as the basic basis of the family in the East and West. The author compares the approaches of Eastern and Western philosophy, deduces similarities and differences, and at the same time draws attention to the further possibilities of applying these ideas in improving culture and personal education.

Key words: Human, personality, family, existence, culture, civilization, East and West.

КУЛЬТУРА ЛИЧНОСТИ КАК ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНОЕ ОСНОВАНИЕ СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕ НА ВОСТОКЕ И ЗАПАДЕ

Аннотация

В данной статье автором рассматривается проблема культуры личности как базовой основы семьи на Востоке и Западе. Автором сопоставляются подходы восточной и западной философии, выводятся сходства и различия, и при этом обращается внимание на дальнейшие возможности применения данных идей при совершенствовании культуры и воспитания личности.

Ключевые слова: Человек, личность, семья, экзистенция, культура, цивилизация, Восток и Запад.

INSON MADANIYATI – SHARQ VA G‘ARBDA JAMIYATNING EKZISTENTSIAL ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif Sharq va G‘arbda oilaning asosi bo‘lgan inson madaniyati masalasini tahlil qilgan. Muallif tomonidan Sharq va G‘arb falsafasida turli yondashuvlar solishtirilgan, ularning o‘xshashliklari va farqlari aniqlangan hamda ushbu g‘oyalarning inson madaniyati va tarbiyasini takomillashtirish uchun imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Inson, shaxs, oila, ekzistentsiya, madaniyat, sivilizatsiya, Sharq va G‘arb.

Введение. Современная семья — клеточка социального организма, живущая с ним в едином ритме, отражающая, как капля воды, и большие идеи, и большие общие цели. Важно говорить о духовных ценностях и нравственном климате семьи, о методах семейного воспитания и тех, на первый взгляд незначительных деталях повседневного общения, в которых рождается взаимопонимание, идёт трудный и радостный процесс воспитания человека. В настоящее время изменился не только численный состав семьи, но и её структура. Изменение «семейного климата», характера семейных отношений, в первую очередь отношений между родителями и детьми, сказалось на становлении культуры личности.

Однако взаимопонимание детей исчезают тогда, когда в семье возникают конфликты, приобретающие нередко хронический характер. В семьях, где окрик и телесные наказания, грубость и насилие над детьми проявляется регулярно, создаются все условия сначала для психических расстройств, а затем и для асоциального поведения самих детей. Стать мудрым другом и наставником своего ребёнка, стараться мягко направлять мысли ребёнка в правильное русло, не уничтожая его собственной инициативы — вот условия верного воспитания в семье.

Литературный обзор. В данном исследовании автор обращался к работам таких ученых и философов, как М.Унамуно, И.Песталотти, Ж.-Ж.Руссо и других, что позволило раскрыть различные экзистенциальные аспекты

места культуры личности в семье и обществе на Востоке и Западе. Помимо этого, автор обращался к исследованиям таких специалистов, как Т.Панкова, П.Гайдено, М.Титаренко, Е.Вонг, Р.Каримов, Р.Бекбаев и др. В частности, Т.Панкова рассматривала значение семьи в формировании и становлении личности, П.Гайдено анализировала взгляды экзистенциалистов на проблему взаимоотношения личности и общества, личности и самых различных социальных институтов, М.Титаренко изучал взгляды китайских мыслителей на проблему семьи и личности, чему также посвящено исследование Е.Вонга.

Методология исследования. Методологическую основу данного исследования составляют такие методы, как анализ и синтез, компаративный анализ и герменевтика. При помощи методов анализа и синтеза автор рассматривал и изучал существующую научно-философскую базу по теме исследования, а компаративный анализ способствовал сравнению существующих различных концепций с выведением сходств и различий между ними. Герменевтика стала основной для изучения первоисточников по теме работы.

Анализ и результаты. Семья играет важнейшую роль в формировании культуры личности на этапе взросления человека. Но, тем не менее, фактическое состояние современной семьи в мире, а также представления о ней оцениваются как экзистенциальные. При этом не всегда бывает так, что семья — это воплощение идеала в обществе, ведь по мысли М.Унамуно, «семья — вот подлинная клетка общества»

[1], что способно обуславливать культурные отличия индивида, как на Востоке, так и на Западе.

Современный динамично меняющийся мир нуждается в личности, готовой к постоянной смене имеющихся знаний, умений на те, которые необходимы для дальнейшего научно-технического и социального развития общества. В связи с этим особо значимой проблемой научного исследования становится выработка новых ценностных ориентаций у подрастающего поколения, которое оказалось в ситуации, когда разрушилась прежняя устойчивость приобретаемых человеком в процессе социализации знаний и умений.

Личность, представляя собой динамическую систему, находится в состоянии непрерывного изменения и развития. В процессе такого личностного становления постепенно все большее значение приобретают его внутренние движущие силы, позволяющие человеку все более самостоятельно определять задачи и направление собственного развития. Система ценностных ориентации личности выступает в качестве регулятора и механизма такого развития, определяя форму реализации намеченных целей и при утрате ими побудительной силы в результате их достижения стимулируя постановку новых значимых целей. В свою очередь, достигаемый культурный уровень развития личности последовательно создаёт всё новые предпосылки для развития и совершенствования системы её ценностных ориентаций.

Семья всегда составляла существенное звено в цепи социального бытия. Жизнь семьи связана с половым и возрастным разделением труда, ведением домашнего хозяйства, взаимной помощью людей друг другу, интимной жизнью супругов, продлением рода, а следовательно, воспроизведением народа, воспитанием нового поколения, а также, с духовно-нравственными, правовыми и психологическими отношениями. В семье отдельная личность, поступаясь некоторыми своими особенностями, входит в качестве члена в некое целое [2].

На сегодняшний день в обществе присутствует достаточно большой процент неблагополучных семей, к которым относятся неполные, малообеспеченные, асоциальные, дезадаптированные и другие семьи, где происходит деформация личностного развития индивида. Нарушение родительских отношений в неблагополучных семьях ведёт к формированию у членов семьи различных психологических проблем и комплексов, т.к. неблагополучной семье характерны:

- недостаток внимания;
- неумение правильно воспитать самостоятельную целеустремлённую личность, ценящую здоровый образ жизни;
- недостаточный родительский контроль;
- неумение поддерживать доверительные отношения с каждым членом семьи;
- непонимание и неуважение интересов индивида;
- недостаточная информированность родителей о методах воспитания.

И, как мы можем видеть, феномен становления культуры личности как экзистенциального основания семьи в обществе, включает, таким образом, два плана [3]:

- индивидуальный опыт и сверхиндивидуальный;
- коллективный опыт – духовные традиции своего народа.

Сегодняшнее увлечение экзистенциальными теориями личности, их прямой перенос в методологию воспитания сосредотачивает внимание на бытийном опыте индивида, его рефлексии и лишает поиски личности ориентиров на духовные стратегии своего народа. При этом философия общества потребления,

которое мы с упорством строим, категорически отрицает всякое навязывание человеку, особенно юному, включённому в систему образования, смыслов и целей жизни. Предполагается, что он сам добровольно реализует свои стремления к поискам смыслов и осуществит самого себя. Однако это совсем не означает, что своё самоосуществление он направит на пользу и благо других людей.

Семейное воспитание К. Ясперса по преимуществу наполнено гуманистическими ценностями, и в дальнейшем побуждает мыслителя к созданию альтернативной концепции воспитания для реорганизации существующей системы образования. При этом «нет сомнения, что в основе

Ясперсова призыва к экзистенциальной коммуникации – ибо ситуация «врач – больной» есть лишь наиболее яркий пример – лежит понимание глубокого одиночества людей в эпоху ослабления между ними всех традиционных связей – религиозных, национальных, семейных, наконец, духовных, объединявших некогда научные сообщества, философские кружки, художественные школы» [4]. Таким образом, выявлено, что многие важнейшие экзистенциалистские тезисы – о подлинном и неподлинном существовании, о философской вере, коммуникации и многие другие – уходят своими корнями в традиции семейного воспитания К. Ясперса.

Во многих социально-педагогических и философских текстах мы находим ценные мысли о значении семейных отношений в формировании культуры личности. Как афоризм звучат слова французского просветителя Ж.-Ж.Руссо о том, что «нет картины более прелестной, чем картина семьи» [5]. Он считал, что прелесть домашнего очага – лучшее противоядие против дурных нравов. Большие надежды этот мыслитель возлагал на отца как на воспитателя. Он заявлял: «производя и питая детей, отец исполняет этим только третью часть своей задачи. Он должен роду человеческому дать людей, обществу – общественный людей, государству – граждан... Кто не может выполнить обязанностей отца, тот не имеет право быть им. Никакая бедность, никакие труды, никакое внимание к людскому мнению не избавляют его от обязанности кормить своих детей и самому воспитывать их» [5]. При этом подрастающих личностей необходимо воспитывать в традициях гуманного отношения к окружающим, тем самым, проявляя не только экзистенцию чувств сострадания, уважения, доброжелательности в общении с другими людьми, но и искренне чувствуя сердцем отчаяние и проблемы других людей.

Последователь Ж.-Ж.Руссо, швейцарский педагог И.Г.Песталоцци также возлагал большие надежды на семью. В речи, произнесённой им перед сотрудниками и воспитанниками Ивердонского института, он пояснял то, что «в семье объединяется всё, что я считаю святым и высоким для народа... Её благотворное влияние одно только может помочь народу... Только из семьи одной, исходит истина, сила и благородное влияние на народную культуру... На неё, на семью должна воздействовать гуманность нашего человеческого рода... нельзя себе представить никакой иной основы подлинной народной культуры, кроме как мудрой и настоящей заботы о хорошем состоянии семьи у народа» [6], тем самым, важно убедиться в том, что гуманность способна открывать семейному человеку мир культуры, показывая новые для него аспекты жизненных ценностей, независимо от его потенциала.

Данное положение согласуется с мнением китайского философа Мо Ди, который утверждал, что «почитание родителей, уважение к старшему брату составляют основу гуманности» [7], тем самым, укрепляя дух семейных отношений в плане общественного порядка.

Как мы могли ранее заметить, восточная культура, в отличие от западной, существует в единстве науки, религии и философии [8]. Западная культура, с её всеобщим разделением как внешних по отношению к человеку сфер общественной жизни, так и разделением самой личности человека, её внутренних составляющих, по большому счёту оказалась обособлена от общего социокультурного процесса, поделена на автономные, в некоторой степени, заостреннейшие атомизированные единицы.

При этом некоторые исследователи ошибочно могут предполагать, что восточное общество находится на несколько ступеней ниже западного, как в плане научно-технического развития, так и в плане общественного устройства, и причисляют восточную культуру к традиционным обществам [9]. И если понимать эту проблему как дихотомию «традиционно-техногенное», то мы, естественно, вынуждены записать восточное общество и её культуру к первому типу. Однако если посмотреть чуть шире, то мы обнаружим, что так называемые страны Востока отнюдь не отстали в своём научно-техническом развитии [10]. Напротив, некоторые из них занимают первые места в числе экономически развитых стран. Среди них Китай, который показывает наиболее интенсивные темпы экономического роста, а также Япония, Индия, которые стали не просто региональными экономическими центрами, но и входящие в двадцатку лучших экономик мира. Кроме них, Республика Корея, Саудовская Аравия, Иран, Тайланд, Вьетнам также активно занимают социально-экономическим развитием, развивают науку и культуру.

И, как мы видим, однако, в анализе западной и восточной культур, экономический вопрос не может быть довлеющим. Основное различие этих миров – в типе социального устройства, способе жизни, мировоззрении, представлении о личности, семейных ценностях и смысле

"Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi (2020-yil 24-iyul) yangi O'zbekistonni qurishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat"ga

quyidagicha ta'rif berilgan: "innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma", "innovatsion faoliyat – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat" deb, ta'rif berilgan [1].

"Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. O'zining "ijodiy halokat" nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o'rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi [5].

Ingliz professori V.R. Spenser "Innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin" [6] deb ta'rif beradi. Rossiyalik olimlar A.Kulagin "Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalaridagi yangilikdir" [7] deb ta'rif beradilar. D.Forining "innovatsion imkoniyatlar - bu muntazam ravishda kombinatsiyalashgan bilimlarni kashf qilish, ulardan foydalanish demakdir. Bunda kombinatsiyalashgan jarayonlarda asosiy e'tibor beriladigan jihat – bu bilimdir" [8] deb ta'kidlaydi. I.Balabanov "Innovatsiya-kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko'rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir" [9] deb ta'riflagan

J.Yo'ldoshev "innovatsiya (ingliz tilidan olingan "Innovation" yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishni o'zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi", innovatsion faoliyat esa, "yangi ijtimoiy talablar bilan a'naviy me'yorlarning mos kelmasligi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarni mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualar muommalarni yechishiga qaratilgan faoliyat" [10] deb ta'kidlaydi. Tadqiqotchi E.G'affarov "Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatini ta'minlovchi yangilikdir" [11] deb ta'rif bergan. Innovatsion faoliyat bu avvalo faoliyatdir. Bu faoliyat bir paytda ham iqtisodiy ham ijtimoiy faoliyatdir. Iqtisodiy faoliyat asosan korxonalarining ishlab chiqarishini modernizatsiyasi bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy faoliyat bu ijtimoiy sohaga yangiliklarni kirib kelishi va joriy etilishi bilan xarakterlidir. Shuningdek, bu faoliyat innovatsiyalarni yaratish yoki amalga oshirish ilmiy tadqiqotlar va ijod bilan bog'liq hamdir.

Shuni alohida takidlash lozimki, Respublikada innovatsion jarayonlarni shiddat bilan rivojlanishi natijasida innovatsion infratuzilmaga ehtiyoj sezildi. Innovatsion infratuzilma — innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmuidir. Ayni paytda, Respublikada barcha sohalar kabi ta'lim sohasida ham innovatsion infratuzilma shakllantirildi. Mazkur infratuzilmani shakllanganligini bevosita ta'lim turlaridagi o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" bag'ishlangan bo'lib, unda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-ahloqiy, etik,

estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir" deb e'tirof etiladi. Shuningdek, bu ta'lim turida olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Qonuning 9-moddasi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim"ga bag'ishlangan bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar, tayanch o'rta ta'lim 4-9 sinflar hamda 10-11 sinflarni o'z ichiga olishi belgilangan [1].

Qonunning 31-moddasida nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyati amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, nnda, nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshirilishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatishi belgilangan. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning yana bir e'tiborli tomoni, uning 36-moddasida o'z ifodasini topgan. 36-modda "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat" deb nomlanib, "ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan"dir deb, e'tirof etiladi. Aynan mazkur modda ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, "Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun

tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi" deb, belgilangan. Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni (29.10.2019-y. N O'RQ-576) qabul qilingan bo'lib, u ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Qonun bevosita ilmiy sohada tadqiqot olib borayotgan sub'ktlarga innovatsion faoliyat asosida ilm-fanni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Uning "Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" nomli 19-bobida "Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasi, ilm-fan va ta'lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash maqsadida ishlab chiqiladi"[2] deb e'tirof etiladi. Bu esa, o'z navbatida innovatsion faoliyatni amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa. Jamiyatda "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalarini mazmun va mohiyatini anglashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish ko'lamini kengaytirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-630-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-576-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar.
4. <https://unesdoc.unesco.org>
5. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007. 4.
6. Инноватсии: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковса. – М.: РАГС, 2000.
7. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55.
8. Инноватсии: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковса. – М.: РАГС, 2000.
9. Балабанов И. Инновационный менеджмент. Питер, 2001.
10. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma.–T.:O'qituvchi, 2004. – 104 b.
11. G'affarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 10-son. 153-157 betlar.



Mohigul TOHIROVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: tohrovamahigul15@gmail.com

O'zMU, psixologiya fanlari doktori D.Arzikulov taqrizi asosida

PERSONALITY COMMUNICATIVE TOLERANCE CHARACTERISTICS ANALYSIS

Annotation

This article analyzes important barriers to the integration of visually impaired people into society not only the insufficient development of real economic, socio-psychological assistance, but also the inadequacy of the level of tolerance of society towards them, the lack of social relations of a positive nature in relation to people with disabilities, the process of perception of people with deep visual pathology of common concepts and stereotypes.

Key words: Humanism, tolerance, reciprocity, social attitudes, socialization, inculturation, individuality, limited capacity, limited capacity, and healthy interpersonal relationships.

АНАЛИЗ ХАРАКТЕРИСТИК КОММУНИКАТИВНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются важные барьеры на пути интеграции людей с нарушениями зрения в общество: не только недостаточное развитие реальной экономической, социально-психологической помощи, но и неадекватность уровня толерантности общества к ним, отсутствие социальных отношений позитивного характера по отношению к людям с ограниченными возможностями, процесс о восприятии людьми с глубокой зрительной патологией общепринятых понятий и стереотипов.

Ключевые слова: Гуманизм, терпимость, взаимность, социальные установки, социализация, приобщение к культуре, индивидуальность, ограниченные возможности, ограниченный кругозор и здоровые межличностные отношения.

SHAXS KOMMUNIKATIV TOLERANTLIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'rish qobiliyati cheklangan odamlarning jamiyatga qo'shilishidagi muhim to'siqlar nafaqat real iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik yordamning yetarli darajada rivojlanmaganligi, balki jamiyatning ularga nisbatan bag'rikenglik darajasining yetarli emasligi, imkoniyati cheklangan kishilarga nisbatan ijobiy xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarning yo'qligi, keng tarqalgan tushunchalar va stereotiplar chuqur vizual patologiyasi bo'lgan odamlarni idrok etish jarayoni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Gumanizm, tolerantlik, o'zaro munosabat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiylashuv, inkulturatsiya, individuallik, imkoniyati cheklanganlik, imkoniyati cheklangan va sog'lom kishilar o'zaro munosabatlari.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda gumanizm (insonparvarlashtirish) inson shaxsiyati qadr-qimmatini tan olish, individual jismoniy va aqliy xususiyatlarni hisobga olgan holda uning qobiliyatlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan ko'rish imkoniyati cheklanganlar ijtimoiylashuvi va integratsiyasi zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. "Biz ushbu yo'nalishda nogironligi bo'lgan insonlar – jamiyatning to'laqonli a'zolari, degan tamoyilga amal qilgan holda izchil ishlar olib boramiz" deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev[1].

Shu bilan birga, zamonaviy dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar insonning moslashuvchan qobiliyatlariga bo'lgan talablarni kuchaytirdi. Bu tadqiqotchilarning shaxsning psixologik omillari va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini o'rganishga, uning moslashuv potensialini ochishga bo'lgan qiziqishining oshishiga olib kelmoqda. Tez o'zgaruvchan muhitga moslashishda ayniqsa ko'rish imkoniyati cheklanganlar sezilarli qiyinchiliklarga uchraydi. Aholining ushbu toifasi sub'ektiv va ob'ektiv omillarga bog'liq bo'lgan ijtimoiylashuv jarayonida sezilarli qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Imkoniyati cheklanganlar, shu jumladan, ko'rish qobiliyati cheklangan kishilar, ijtimoiy va psixologik sabablarga ko'ra "ijtimoiy ko'pchilik"dan ajratilgan ma'lum bir ijtimoiy qatlamni anglatadi. Tabaqalanish tizimida aholining ushbu toifasi, odatda, uy, maktab va ijtimoiy muhitdagi muammolar tufayli

quyi, marginal qatlamni egallaydi; bitirgandan keyin ishsizlik; umumiy ijtimoiy istisno. "Ijtimoiy-madaniy hodisa, kasallik sifatida atipiklik sotsiologik yondashuvga muvofiq jismoniy nuqson ijtimoiy muhit tomonidan shaxsning o'ziga xos roli sifatida qaraladi"[2].

Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar odamlarning maxsus guruhi sifatida, birinchi navbatda, zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda vizual tarkibiy qismining ustunligi tufayli ijtimoiy moslashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ko'rish qobiliyati cheklangan odamlarning jamiyatga qo'shilishidagi muhim to'siqlar nafaqat real iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik yordamning yetarli darajada rivojlanmaganligi, balki jamiyatning ularga nisbatan bag'rikenglik darajasining yetarli emasligi, imkoniyati cheklangan kishilarga nisbatan ijobiy xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarning yo'qligi, keng tarqalgan tushunchalar va stereotiplar chuqur vizual patologiyasi bo'lgan odamlarni idrok etish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, ko'rishda jiddiy nuqsoni bo'lgan shaxslarning alohida ehtiyojlarini qondirish uchun qulay muhitning yetishmasligi, ijtimoiy-madaniy harakat-chanlik va hayot imkoniyatlarini cheklash ularning shaxsiy rivojlanishi, adaptiv salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirish masalalarini dolzarblashtiradi, bu hayotni normallashtirish, ijtimoiy moslashish va ularning jamiyatda tom ma'nodagi ijtimoiylashuviga yordam berishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'rish nuqsonlarini kompensatsiya qilish muammosini ishlab chiqishda organizm va atrof-muhit o'rtasidagi gomeostaz, muvozanat tamoyili qator olimlarning ishlarida keltirilgan. A.G. Litvakga ko'ra - "Umumiy yoki qisman ko'rlik bilan, analizator faoliyatining boshqa har qanday buzilishlarida bo'lgani kabi odamning yashash sharoitlari ham keskin o'zgaradi. Miya yarim qobig'iga tashqaridan keladigan vizual va propriotseptiv impulslar sonining kamayishi shaxsning psixik faoliyati va reaksiyalarining tabiatiga bog'liq ravishda salbiy ta'sir qiladi, ammo yangi miya qobiq-lari markazlarining faollashishi yangi vaqtinchalik neyron aloqalarni shakllantirishga, eskilarining bostirilishi esa, pirovardida, yangi dinamik stereotipning paydo bo'lishiga olib keladi"[3].

V.M. Sorokinning ta'kidicha, maxsus psixologiyada kompensatsiya ko'pincha moslashish jarayonlarining bir turi sifatida o'rganiladi, kompensator jarayonlar ba'zan moslashish fenomenlari bilan chalkashtiriladi, chunki ikkala hodisada ham moslashish effekti mavjud [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tamonimizdan taklif etilayotgan nazariy asoslarga tayanilgan modelga muvofiq, odatda ko'rish imkoniyati cheklangan va zaif ko'ruvchi shaxslarga nisbatan tolerantlikning shaxsiy potentsiali, shaxsiy omillarini empirik tadqiq etishda uning to'rtta asosiy tarkibiy qismi bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi o'rganildi: tolerant ong, tolerant shaxs, tolerant xatti-harakati – o'zaro ta'sir (kommunikativ bag'rikenglik) va tolerant xulq-atvor (kursiv bizniki). Nazariy va empirik fanlararo tadqiqotlar natijalarini tizimlashtirish bizga barcha toifadagi asosiy empirik referentlarni aniqlashga imkon berdi. Bu kommunikativ tolerantlikning o'ziga xos xususiyatlari, sog'lom kishilarning ko'rish imkoniyati cheklangan kishilar

1-jadval

Sog'lom kishilarda kommunikativ tolerantlikning ifodalanganligi va variativlik xususiyatlari

| № | Kommunikativ tolerantlik xususiyatlari | X | Ox |
|---|---|-------|-------|
| | Individuallikni qabul qila olmaslik | 6,49 | 4,00 |
| | O'z fikrini "etalon" sifatida qo'llash | 6,28 | 4,39 |
| | Suhbatdoshni idrok etishdagi konservatizm, kategoriya | 7,66 | 4,45 |
| | Yoqimsiz taassurotlarni yashirish yoki yumshata olmaslik | 6,9 | 3,46 |
| | Sherigini muloqot bo'yicha "qayta tarbiyalashga" moyillik | 6,79 | 3,31 |
| | Sherigini "o'ziga moslashtirish"ga intilish | 7,84 | 4,81 |
| | Xatolarni kechira olmaslik | 9,13 | 4,43 |
| | Bo'layotgan noqulayliklarga toqat qila ololmaslik | 8,81 | 4,66 |
| | Muloqotda moslashuvning past darajasi | 5,65 | 4,08 |
| | Kommunikativ tolerantlikning umumiy darajasi | 57,55 | 19,91 |

V.V. Boykoning metodikasi tavsifiga muvofiq ravishda tolerantlik xususiyatlarining ifodalanganlik darajalari: yuqori (0-5 ball), o'rta (5-10 ball), past (10-15 ball), shuningdek, kommunikativ tolerantlikning umumiy ko'rsatkich darajalari aniqlandi: 0-45 ball – yuqori daraja, 45-90 ball – o'rta, 90-135 past.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sog'lom kishilarning kommunikativ tolerantligi umumiy ko'rsatkichi o'rtacha darajada ifodalangan. Bu shuni anglatadiki, umuman olganda, ular o'rtacha tolerantlik, atrof-dagi odamlarga nisbatan

bilan muloqot qilish tajribasi (tolerant o'zaro ta'sir), sog'lom kishilar ongida ko'zi ojiz kishi obrazi (tolerant ong); shaxsning hissiy, kognitiv va kommunikativ xususiyatlari, qadriyatli-mazmuniy ustanovkalar, shaxsning o'zini o'zi anglash xususiyatlari (tolerant shaxs), ijtimoiylashuv mexanizmlari, shaxsning adabtatsiya jarayoni (tolerant xulq-atvor).

Tahlil va natijalar. Empirik tadqiqotda biz sog'lom kishilarning tolerantlik shaxsiy salohiyatining asosiy tarkibiy qismlarini aniqladik: kommunikativ tolerantlik xususiyatlari va ularning ong, shaxsiyat xususiyatlari, ko'rish imkoniyati cheklangan shaxslar bilan o'zaro munosabatlar tajribasi bilan aloqasi.


Kommunikativ tolerantlik shaxslarning ikki tomonlama o'zaro ta'sirining namoyon bo'lishi va dialog sifatini, turli toifalar, guruhlar va muayyan shaxslarning bir-biriga bo'lgan munosabatini tavsiflaganligi sababli sog'lom kishilar va ko'zida nuqsoni bo'lgan kishilarning tolerantlik munosabatlari o'rtasidagi farqni aniqlash muhim.

Empirik tadqiqotning asosiy natijalariga tayangan holda o'zaro munosabatlarning o'ziga xos tavsifini taklif etamiz.

Sog'lom kishilar va ko'rish imkoniyati cheklangan kishilarning turli vaziyatlarda o'zaro ta'siri (tolerant muloqot)ni qabul qilish yoki qabul qilmaslik ustanovkalarining psixologik mexanizmlarini aniqlash maqsadida V.V. Boykoning so'rovnomasi yordamida turli bioijtimoiy guruhlarda kommunikativ tolerantlik xususiyatlari ifodalanganligi tahlil o'tkazildi.

Sog'lom kishilarda kommunikativ tolerantlikning ifodalanganligi va xususiyatlari variativligi ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

sabrlikni namoyon etishadi va kommunikativ vaziyatlarda ular turli xil munosabatlarni namoyon qilishlari mumkin: dialogga va sherikning individualligini tushinishga yoki rad etishga moyillik. Sog'lom kishilar tarkibidagi turli darajada kommunikativ tolerantlikka ega bo'lganlarning foiz munosabatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati (49%) boshqalar bilan o'zaro ta'sirda tolerantlikning o'rta darajada ifodalanganligi bilan xarakterlanadi (rasm).



Rasm. Turli darajadagi kommunikativ tolerantlikka ega bo'lgan sog'lom respondentlar foizi

Barcha sub'ektlarning katta qismi (42%) muloqotda yuqori tolerantlikka ega, boshqa shaxsning o'ziga xosligini qabul qila oladi, boshqa turmush tarzi va pozitsiyalariga qiziqish ko'rsatadi, o'z xususiyatlaridan farqli bo'lgan odamlar bilan hamkorlikni o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga tayyor. Respondentlarning atigi 9 foizi ijtimoiy ko'pchilikdan farq qiladigan boshqa odamlarga nisbatan murosasizlikni namoyish etadi. Bu shuni ko'rsatadiki, jamiyatda umume'tirof etilgan me'yordan aniq farqlarga ega bo'lgan odamlar bilan o'zaro munosabatlarda, agar ularning xatti-harakatlari umuminsoniy va gumanistik qadriyatlariga zid bo'lmasa ularga nisbatan salbiy ustanovkalar uchramaydi.

So'rovnomaning individual shkalalarini tahlil qilish tolerantlikning kommunikativ to'siqlari yanada aniqroq bo'lgan o'zaro ta'sir tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Bu muloqot sherigining xatolarini, boshqalarning noqulayliklariga va konservatizmga nisbatan murosasizlikni, suhbatdoshni idrok etishda qat'iylikni kechira olmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu xususiyatlar ko'rish imkoniyati cheklangan kishilar bilan ijobiy aloqalarni o'rnatishga to'sinlik qilishi


2-jadval

Ko'rish qobiliyati zaiflarning kommunikativ tolerantlik xususiyatlari ifodalanganligi va o'zgaruvchanligi.

| № | Kommunikativ tolerantlik xususiyatlari | X | σx |
|----|--|-------|------|
| 1 | Individuallikni qabul qila olmaslik | 7,13 | 3,99 |
| 2 | O'z fikrini qolip sifatida qo'llash | 6,63 | 4,3 |
| 3 | Konservatizm, suhbatdoshni idrok etishdagi kategoriyaviylik | 7,56 | 4,1 |
| 4 | Noxush taassurotlarni yashirish yoki yumshata olmaslik | 7,63 | 4,5 |
| 5 | Muloqot sherigini "qayta tarbiyalash"ga moyillik | 5,63 | 3,75 |
| 6 | Sherigini o'zidan uzoqlashtirishga intilish | 5 | 3,55 |
| 7 | Xatolarni kechira olmaslik | 5,3 | 4,67 |
| 8 | Atrofdagilar yuzaga keltirayotgan noqulayliklarga chidamsizlik | 5,9 | 4,4 |
| 9 | Muloqotga moslashishning past darajasi | 5,13 | 2,96 |
| 10 | Kommunikativ tolerant umumiy darajasi | 47,91 | 18,4 |

Turli darajadagi umumiy kommunikativ tolerantlikka ega bo'lgan ko'rish qobiliyati zaif odamlarning foizlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati tolerant muloqotga o'rt

ifodalangan munosabatda bo'lishadi (quyidagi rasm). Ko'rish qobiliyati zaif odamlarning sog'lomlarga qaraganda bir oz kamroq soni (34%) yuqori kommunikativ tolerantlikka ega.



Rasm. Ko'rish imkoniyati cheklangan kishilarning turli kommunikativ tolerantlik darajasining foiz munosabati

Sog'lom va ko'rish imkoniyati cheklangan kishilarning kommunikativ tolerantligi namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun o'rtacha ko'rsatkichlardagi statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni tahlil qilishga murojaat qilaylik.

3-jadval

Sog'lom va ko'zi ojiz odamlarda kommunikativ tolerantlikning o'rtacha ko'rsatkichlaridagi sezilarli farqlar

| Intolerantlik ko'rsatkichlari | Sog'lom | Ko'rish i.ch. | T | R (%) |
|---|-----------|---------------|------|-------|
| Muloqot sherigini "o'zidan uzoqlashtirishga" intilish | 6,84±3,81 | 4,00±2,55 | 2,94 | 5 |
| Xatolarni kechira olmaslik | 8,13±3,43 | 4,30 ± 3,67 | 3,81 | 0,1 |
| Noqulaylikka chidamsizlik | 7,81±3,66 | 4,90±3,40 | 2,87 | 1 |

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, tolerantlikning uchta ko'rsatkichida statistik jihatdan sezilarli farqlarni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, ko'rish qobiliyati past odamlarning tolerantligi odatdagi odamlarga qaraganda yuqori, ammo bu ko'rsatkich statistik ahamiyatga ega darajaga yetib bormaydi. Shunday qilib, ko'rish qobiliyati past bo'lgan odamlarda past ko'rsatkichlar (mos ravishda tolerantlikning yuqori darajasi) quyidagi

shkalalar bo'yicha kuzatiladi: sherikni qayta tiklash va qayta tarbiyalash tendensiyasi; sheriklarni o'zlariga moslashtirish tendensiyasi; o'z xatolari uchun boshqalarni kechira olish qobiliyati, noqulayliklar va inkulturativ stereotiplar (kursiv bizniki).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ko'rish imkoniyati cheklangan respondentlar "sheriklarini o'zidan uzoqlashtirish" shkalasi bo'yicha olingan yuqori ball muvofiq

ravishda ushbu tendensiyada kam ifodalangan. Buni umuman insonga o'z atrofidaqilarini o'ziga moslashtirish xosligi bilan izohlash mumkin. Zamonaviy shaxsda boshqa kishilarni boshqarishga moyillik ko'proq kuzatiladi. Ko'rish imkoniyati cheklangan kishilar esa barcha narsalar sog'lomlarga mo'ljallangan jamiyatda o'zlari boshqa kishilarga moslashishiga to'g'ri keladi. Shu sababli bu shkala bo'yicha ko'rish imkoniyati cheklangan kishilar va ko'rishda nuqsoni bo'lgan respondentlarda nisbatan yuqori kommunikativ tolerantlik ifodalangan.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar doim o'ziga qaratilgan noto'g'ri ifodalar, atrofidaqilarning ko'rish imkoniyati cheklangan kishilarni tushunmasliklariga to'qnash keladi va bu noqulay vaziyatlar, ba'zan ko'zda tutilmagan salbiy hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu holat vaqt o'tgani sari imkoniyati cheklanganlarning o'ziga ham me'yordagi holat sifatida qabul qilina boshlaydi, bunday holatlarga nisbatan sabrli munosabat paydo bo'ladi. Bizningcha, ko'rish imkoniyati cheklangan kishilarning sog'lom kishilarga nisbatan boshqalarni kechira olish,

noqulayliklarga nisbatan bardoshliliigi aynan mana shunga bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rish imkoniyati cheklangan kishilarning kommunikativ tolerantlikning "o'zidan sheriklarni uzoqlashtirishga moyillik" va "boshqalarni kechira olish" shkalalari bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichi, bir tomondan, imkoniyati cheklanganlarning sog'lom kishilar jamiyati sharoitlariga moslashganlik natijasi sanaladi. Boshqa tomondan, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'rish imkoniyati cheklangan kishilar jamiyat va sog'lom kishilar bilan teng huquqli o'zaro ta'sirga tayyorligidan dalolat beradi. Ularga sabr-toqat, muloqotdagi behohlik, tushunishga intilish va individuallikni qabul qilish xos. Muloqotda me'yor ko'rish qobiliyatiga ega odamlar ko'proq ijtimoiy stereotiplarga, tajriba jarayonida ishlab chiqilgan "to'g'ri" xatti-harakatlar va boshqa odamlarning "me'yoriy" xususiyatlari haqidagi g'oyalarga asoslanadi. Muloqot sheriklarining baholashlaridagi bunday qat'iylik, muloqot qilish uchun "qulay" odamlar bilan muloqot qilish istagi imkoniyati cheklanganlarni jamiyatga integratsiyalashuvining ijtimoiy-psixologik to'sig'ini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. 3 dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaati. 2021.
2. Ярская-Смирнова Э.П. Нераренстио или мультикультурализм //Высшее образование в России. 2001. - 110 с.
3. Литвак А. Г Психология Оленых и елабовияших, СПб. ИЗ-во РГПУ им. А. И Герцена, 1998. – 271 с.
4. Сорокин В.М. Специальная психология. СПб, 2003. – 194 с.
5. Karimova V.M, Shamsiev U.B. Family holding is a psychological mechanism of socialization of a child/ Вестник интегративной психологии// Журнал для психологов. Вып. 25./ Под ред. В.В.Козлова, Ш.П. Баратова, М.Н.Усмановой. – Бухара - Ярославль: МАПН, 2022. – 263 б.
6. Tokhirova M., Socio-psychological factors of socialization of persons with disabilities/ Вестник интегративной психологии// Журнал для психологов. Вып. 25./ Под ред. В.В.Козлова, Ш.П. Баратова, М.Н.Усмановой. – Бухара - Ярославль: МАПН, 2022. – 263 б.
7. Tokhirova M., Psychocorrection of personal factors that impede the socialization of persons with visual impairments American Journal of Research in Humanities and Social Sciences ISSN (E): 2832-8019 Volume 17,| Oct., 2023-78/b.
8. Shamsiev O'.B. Oilaviy munosabatlar tizimida bolaning o'zini-o'zi anglash jarayoni O'quv-uslubiy qo'llanma "Mumtoz so'z" nashriyoti, 2012 yil, 52-bet./ <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/8875/6214>
9. Shamsieva M.B. Bilingual bolalar nutqining psixolingvistik tadqiqi. Avtoreferat. Andijon 2022/ https://www.researchgate.net/publication/374530269_bilingval_bolalar_nutqining_psixolingvistik_tadqiqi

Shoxrux TURDIYEV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, p.f.d
E-mail:shoxruxturdiyev77@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori, p.f.d R.Shodiyev taqrizi asosida

O'QUVCHILARDA STEAM TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH DASTURLARI

Аннотация

Ushbu maqolada STEAM ta'lim yondashuvi orqali mustaqil ta'limni amalga oshirishda turli kurslar va dasturlardan foydalanish haqida qiziqarli ma'lumotlar atroflicha keltirib o'tilgan. STEAM ta'limni amalga oshiruvchi bir qancha kurslar platformasi mavjud bo'lib, unda turli yoshga qarab turli-xil narsalarni yaratish va ko'pgina sohalardan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyati mavjud. Bu ko'rinishdagi kurslarni mamlakatimiz ta'lim sohasida qo'llash ta'limning eng zamonaviy usullaridan biri sanalib, va hozirgi davr talabi ekanligi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim, kurs, dasturlash, jihozlar, dizayn, lgoritmlar, modellar, robotlar, kompyuter.

ПРОГРАММЫ РЕАЛИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПОДХОДА STEAM

Аннотация

В данной статье представлена интересная информация об использовании различных курсов и программ при реализации самостоятельного образования посредством образовательного подхода STEAM. Существует ряд платформ курсов, реализующих обучение STEAM, с возможностью создавать разные вещи для разных возрастов и применять теоретические знания из многих областей. Использование курсов такого типа в сфере образования нашей страны считается одним из самых современных методов обучения и теоретически обосновано, что это требование современности.

Ключевые слова: STEAM-образование, курс, программирование, оборудование, проектирование, алгоритмы, модели, роботы, компьютер.

PROGRAMS FOR IMPLEMENTATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN STUDENTS BASED ON THE STEAM EDUCATIONAL APPROACH

Annotation

In this article, interesting information about the use of various courses and programs in the implementation of independent education through the STEAM educational approach is presented. There are a number of course platforms that implement STEAM education, with the opportunity to create different things for different ages and apply theoretical knowledge from many fields. The use of courses of this type in the education sector of our country is considered one of the most modern methods of education, and it is theoretically justified that it is a requirement of the present time.

Key words: STEAM education, course, programming, equipment, design, algorithms, models, robots, computer.

Kirish. STEAM ta'lim yondashuvi orqali mustaqil ta'limni amalga oshirish zamonaviy talimga yangicha yondashuv hisoblanadi va bu davlatlarda STEAM ta'limni amalga oshiruvchi bir qancha kurslar platformasi mavjud bo'lib, unda turli yoshga qarab turli-xil narsalarni yaratish va ko'pgina sohalardan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyati mavjudligi bilan hozirda juda dolzarbdir. Bu ko'rinishdagi kurslarni mamlakatimiz ta'lim sohasida qo'llash ta'limning eng zamonaviy usullaridan biri sanalib, hozirgi davr talabi ekanligi dunyo ta'limida yaqqol namoyon bo'lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. MDH davlatlarida STEAM fanlar ta'limini amalga oshirish muammosi o'tgan o'n yil ichida ko'pchilik tadqiqotchilarni e'tiborini o'ziga jalb qilgan xususan, rossiyalik olimlar V.N.Chemekov, D.A.Krilov S.A.Lovyagin va A.S.Obuxov STEAM fanlar integratsiyasi


orqali amaliy topshiriqlarni bajarishga qaratilgan amaliyotlarni yaratishni boshladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu ko'rinishdagi kurslarni mamlakatimiz ta'lim sohasida qo'llash ta'limning eng zamonaviy usullaridan biri sanalib, va hozirgi davr talabi desak yangilishmagan bo'lamiz va bu kurslarni bir qanchasini sanab o'tsak:

Robototexnika Lego WeDo 2.0 kursi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, ushbu kurs Lego WeDo 2.0 platformasida o'qitiladi va 1-4 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, turli Lego modellarini qurish orqali robotika asoslarini o'rganishadi borishadi. Kursning barcha mashg'ulotlari oddiydan murakkabgacha izchil o'tish uchun mo'ljallangan. Kurs davomida bolalar robotlar nima va ular qanday yasalishi haqida tushunchalarga ega bo'lib borishadi.



Shu bilan bir vaqtda dasturlashni ham o'rganish o'quvchilarni STEAM fanlarni "jonli" kurinishga o'tkazishda amaliy yordam beadi.



Buning uchun Scratch dasturlash shu yoshdagi o'quvchilar uchun Scratch dasturi dasturlash tilining asosiy tushunchalari va elementlariga o'rgatadi.


Robototexnika Mindstorms EV3 kursi haqida 5-8 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan va unda o'quvchilar dasturlash, algoritmlar, fizika va matematikani birlashtirgan holda o'qishadi.



O'quvchilar o'z ishlarida datchiklar, girooskop, ultratovushli sensorlar va yanada murakkab dasturlash sxemalaridan foydalanishni bilib oladilar. Mindstorms EV3 kursining afzalliklari qudratli robotlar – hayvonlar, transport vositalari, avtoulavlar va elektr jihozlarini yaratish va boshqarish haqida bilib olishadi. Dasturlash bloklari, motorlar va sensorlarning turli xil kombinatsiyalari yordamida bolalar o'z modellarini yurish, suhbatlashish, narsalarni ushlar,

o'ylash, otish va o'ylagan har qanday harakatlarini bajarishga o'rgatadilar.

LEGO Mindstorms EV3 eng zamonaviy STEAM ta'limiga asoslangan bo'lib, u 11-15 yoshdagi o'quvchilar uchun yuqori texnologik darajaga ko'tarilish va mexanika, axborot texnologiyalari va avtomatlashtirish sohasidagi bilimlarini oshirishga ko'maklashadi.



Arduino robototexnika kursda Arduino elektron konstruktordan foydalangan holda bunday qurilmalarni qanday yig'ish va dasturlashni o'rganishadi. Arduino platformasi ochiq arxitekturaga va oddiy dasturlash tiliga ega. USB orqali osongina dasturlashtirilishi mumkin.



Platformaga turli xil datchiklarni ulab, ular atrofdagi olam haqida ma'lumot olishlari mumkin, ma'lumotlarni kompyuterga yuborishlari va boshqa kompyuterga ulangan elementlarni boshqarishlari mumkin.

Grafik dizayn kursi. Grafik dizayn asoslarini boshlang'ich tushunchalardan boshlab o'rgatuvchi kurs hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda dizayn sohasi ham eng istiqbolli va talabgor soha hisoblanadi. Deyarli har bir soha dizayn bilan bog'liq. Kurs sizga dizaynning ba'zi professional


sirlari, kompyuterda-harflarning turli ko'rinishidagi harakatlari animatsiyasi bilan bir qatorda tipografiyaning qonuniyatlarini, kompozitsiyalarini hamda rang-tasvir ko'rinishlarini nazariy tushuntirish, balki ijodiy-tajriba ko'nikmalarini shakllantirish, tabiatga nisbatan dunyoqarashni ham rivojlantirish, dizayn va uning dasturlari bilan tanishish imkonini beradi. [2]

O'zbekiston Prezident maktablarida ushbu STEAM ta'limi yondashuvni amalga oshirish o'quvchilar mustaqil ta'limini amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Bu o'z-o'zidan o'sib kelayotgan yoshlarimizni kelajakda kashfiyotchi olimlar bo'lib etishishiga imkoniyatlar beruvchi yondashuvdir. Shunday ekan STEAM fanlarni "jonli" ko'rinishga keltirishda modellashtirish va raqamlashtirishdan foydalanish zaruriyati paydo bo'ladi. Ushbu jarayonlarni

amalga oshirishda turli blok sxemalar, modellashtirish va raqamlashtirish imkonini beruvchi kompyuter dasturlari fanlar xususiyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi[7].

Kompyuter texnikalarining va dasturlarini rivojlanishi ob'ektni 3 D modellarini yaratish imkonini bermoqda. Ob'ektni 3 D modellarini yaratishda fundamentallik baribir STAEM fanlarni modellashtirishiga tayanadi. Bunda matematik modellashtirish, fizik modellashtirish, kimyoviy modellashtirish, biologik modellashtirish, texnik modellashtirish, va boshqa modellashtirishlardan foydalaniladi[4].

1-5 sinflar uchun Tinkercad dasturi yordamida 3D modellashtirish asoslarini o'rganish bilan birga ilk 3D ob'ektlarni yaratish mumkin.



3D modellashtirish usuli o'yin sanoati, kino va animatsiya, robototexnika, arxitektura, dizayn va qurilish, tibbiyot va sanoatda keng tarqalgan[5]. Bu modellashtirishda o'rganilayotgan ob'ektlarning uch o'lchovli fazoviy modelini yaratish jarayonlari hisoblanadi. Shu o'rinda uning texnologik vazifasi-o'rganilayotgan kerakli ob'ektlarning hajmli-vizual tasvirini yaratishdan iboratdir.

Tahlil va natijalar. Bu dasturlar bevosita ko'rish imkoniyati mumkin bo'lmagan jarayonlarni 3 D modellarini vertual ko'rinishga o'tkazib, ekranda kurish imkoniyatini yaratib beradi va o'quvchining jarayon haqida to'liq tasavurga ega bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilar After Effects va Cinema 4D dasturlari orqali turli xil video, gif va animatsiyalar yaratishadi.

Xulosa va takliflar. Bunday dasturlarga boshlang'ich dasturlash tilini o'rgatuvchi Python dasturini misol keltirib

o'tishimiz mumkin. U dasturlash tilining asosiy tushunchalari va elementlarini o'rgatuvchi dasturdir. Shuni aytib o'tishimiz joizki, Python dasturi barcha yoshdagi o'quvchilar uchun bag'ishlanganligi bilan boshqa dasturlardan ajralib turadi.

Shuningdek, STAEM fanlari qonuniyatlari va formulalarini kompyuter tiliga o'tkazish formulalardagi berilgan kattaliklarni qiymati o'zgarganda jarayonlarni o'zgarishini ko'rsatuvchi dasturlarni fan mavzular bo'yicha ketma-ketlikni saqlagan holda darsliklar yaratilishi hamda o'rganilgan va berilgan topshiriqlarni darsliklarda Qr-kodlar orqali berilishi o'quvchilarni istalgan joyda Qr-kodni o'quvchi qurilmalar orqali o'qishi, berilgan topshiriqlarni bajarishi hozirgi zamon rivojlangan va raqamlashtirilgan fanini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Крылов Д. А. Формирование технологической культуры у будущих педагогов: монография. Казань: Офсет-сервис, 2010. 182 с.
2. Обухов А.С. Самостоятельность в обучении // Постнаука <https://postnauka.ru/faq/84161> (дата последнего обращения 01.03.2018)
3. Ловягин С. А. Изучение естественных наук в логике STEAM-образования: концепция и практика Хорошкеры // Науч - но-практическое образование, исследовательское обучение, STEAM образование: новые типы образовательных ситуаций. Сборник докладов IX Международной научно-практической конференции 2018 г.
4. Турдиев Ш. Р. STEAM fanlar ta'limi va integratsiyasini yuzaga keltirish modeli // Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 571-575.
5. Турдиев Ш. Р., Мейлиев Ф. И., Зарифович Қ. Ш. STEAM fanlarni modellashtirish imkonini beruvchi dasturlar // Наука и технологии. – 2023. – T. 1. – №. 1.
6. Razzoqov T. S., Uktamovich S. A. Improving the learning process and information learning space using google's cloud services International conference on multidisciplinary research and innovativ. – 2021.
7. Turdiyev S. H. R. Modellar xarakteri va modellashtirish jarayonlarining tarkibiy qismlari // E Conference Zone. – 2022. – С. 136-137.
8. Razzoqov, Turdiyev Shoxrux. "Pedagogical conditions of successful professionally designed mathematical education in the technical universities." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 3.3 (2015).
9. Turdiyev S. R. The role of practical classes and methods to implement them when promoting mathematical problems in a technical university // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2016. – T. 4. – №. 2.



Xurmatillo TO'XTABOYEV,
Qarshi davlat universiteti erkin izlanuvchisi
E-mail: x_tukhtabaev@mail.ru

Qarshi davlat universiteti dotsenti v.b., PhD B.Toshpo 'latov taqrizi asosida

TOSHKENT PEDIATRIYA INSTITUTINING TIBBIYOT FANINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Ma'lumki, zamonaviy tibbiyotning asosiy tamoyillaridan biri har qanday kasallikning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rishdir. Shuning uchun respublikamizda belgisiz kechadigan og'ir xastaliklarni erta aniqlash va o'z vaqtida samarali davolash choralarini qo'llash borasida izlanishlar olib borishga, jumladan innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga e'tibor kuchaytirildi. Mazkur maqolada Toshkent pediatriya institutining tibbiyot fanini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Toshkent pediatriya instituti, tibbiyot fani, O'rta Osiyo tibbiyot pediatriya instituti, Andijon tibbiyot instituti.

РОЛЬ ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА В РАЗВИТИИ МЕДИЦИНСКОЙ НАУКИ

Аннотация

Известно, что одним из основных принципов современной медицины является принятие мер по предотвращению любого заболевания. Поэтому в нашей республике уделяется внимание проведению исследований по раннему выявлению бессимптомных тяжелых заболеваний и своевременному применению эффективных мер лечения, включая внедрение инновационных технологий. В данной статье анализируется роль Ташкентского института педиатрии в развитии медицинской науки.

Ключевые слова: Ташкентский педиатрический институт, медицинская наука, Среднеазиатский медицинский институт, Андижанский медицинский институт.

THE ROLE OF THE TASHKENT PEDIATRIC INSTITUTE IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SCIENCE

Annotation

It is known that one of the basic principles of modern medicine is to take measures to prevent any disease. Therefore, our republic pays attention to conducting research on the early detection of asymptomatic severe diseases and the timely application of effective treatment measures, including the introduction of innovative technologies. This article analyzes the role of the Tashkent Institute of Pediatrics in the development of medical science.

Key words: Tashkent Pediatric Institute, medical science, Central Asian Medical Pediatric Institute, Andijan Medical Institute.

Kirish. Insoniyat olamida inson sog'lig'i bebaho ne'mat, muhim qadriyat hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tizimi barcha zamonlarda ham davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotning muhim sohalaridan biri hisoblangan. O'zbekistonda mustaqillik yillari sog'liqni saqlash va tibbiyot fanini rivojlantirish bo'yicha jiddiy islohotlar olib borildi. Shuningdek, so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish Prezidentimizning doimiy diqqat markazidagi masalalardan bo'lib kelmoqda.

Tibbiyot yo'nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida Respublikada faoliyat olib borgan tibbiyot institutlari juda katta rol o'ynaydi. Xususan, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti olimlarining bu boradagi ishlari ko'plab mamlakat olimlari tomonidan e'tirof etib borilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1971 yil 23 iyunda sovet hukumatining "Toshkent shahrida O'rta Osiyo tibbiyot pediatriya institutini tashkil etish to'g'risida"gi 519-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Qarorda 1972 yilda Toshkent shahrida Sog'liqni saqlash vazirligining Toshkent va Andijon tibbiyot institutlari pediatriya fakultetlari bazasida O'rta Osiyo tibbiyot pediatriya institutini tashkil etish to'g'risida ko'rsatma beriladi[1]. Sobiq ittifoqda ikkinchi, Markaziy Osiyoda esa birinchi bo'lgan pediatriya tibbiyot instituti oldiga mintaqa davolash muassasalari uchun shifokor – pediatrlar tayyorlash va shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish vazifasi yuklatiladi.

Ushbu tibbiyot institutida 40 ta yangi kafedra tashkil etilib, bu ilmiy markazlarida tibbiyotning turli ixtisosliklari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi[2].

Mustaqillik yillarida ham bu tadqiqot ishlari davom ettirilib, jarayon sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar bilan hamohang tarzda kechdi. Respublikada yuqori malakali kadrlar tayyorlash reja asosida olib borishga, tibbiyot amaliyotida ishlayotgan vrachlarni ilmiy ishlarga jalb qilishga e'tibor kuchaytirildi. Ilmiy dasturlar va innovatsion ishlarni tibbiyot amaliyotiga tatbiq qilinishi natijasida davolash va tashxis quyishning standartlari amaliyotga kiritildi.

Bolalar jarrohligiga bo'lgan talabning oshib borishidan kelib chiqib, 2003 yili Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi 2-sonli bolalar jarrohligi kafedrasini "Bolalar yoshidagi gospital jarrohligi kafedrasiga" aylantirildi[3]. Institutda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2009 yilda klinik ordinatura orqali jami 1147 ta tor mutaxassis, ulardan 951 tasi (83%) viloyatlar uchun tayyorlandi.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 100 nafardan ortiq mutaxassisi hamkorlik dasturi doirasida Samsung, Yensey universitetlari va Seul Milliy universitetining tibbiyot markazlarida malaka oshirdi va treninglarda qatnashdi[4]. Institutda ilmiy tadqiqot ishlari natijalari maqola va monografiyalar shaklida nashr etib borildi.

Masalan, 2009 yili Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tadqiqotchilari tomonidan grant loyihalari doirasida 10 ta monografiya, 37 ta uslubiy qo'llanmalar, 583 ta ilmiy

maqolalar, shu jumladan 168 tasi chet el jurnallarida chop etildi. Bu davrda nashr etilgan s'yezd va anjumanlardagi dokladlar va tezislari – 839 taga ga yetdi. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini doimiy monitoringi o'tkazildi va natijalar tahlil qilindi.

Respublikasida pediatriya xizmatini yaxshilashning dolzarb muammolari ustida samarali tadqiqotlar olib borayotgan T.Mambetkarimov, K.Primbetov, P.A.Jalekeyeva, U.Almagambetova, J.Mambetov va boshqalar mintaqada bolalarda glomerulonefritning klinik genetik jixatlari, janubiy Orol mintaqalaridagi erta yoshdagi bolalarda temir tanqisligi kamqonligining kechish xususiyatlari kabi dolzarb muammolar bilan keng shug'ullanib zaruriy ilmiy-amaliy asoslangan takliflar kiritdi. Ular tomonidan 6 monografiya, 120 tadan ortiq ilmiy maqolalar va 40 tadan ortiq uslubiy qo'llanmalar chop etilgan.

Tahlil va natijalar. Toshkent pediatriya tibbiyot institutida 1991-2019 yillar mobaynida 15931 talaba bakalavr yo'nalishi bo'yicha shifokor ma'lumotiga ega bo'ldilar. Shuningdek 2003-2019 yillar mobaynida magistr yo'nalishi bo'yicha 1843 ta talaba institutni bitirib, respublikamizning viloyatlari va shaharlarida o'z mutaxassisligi bo'yicha ish faoliyatini amalga oshirdi[5].

Ma'lumki, jamiyatning taraqqiyoti ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytirildi.

Ta'limda uzluksizlik va uzviylik ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, talabalarining ma'lum yo'nalishlarda chuqur bilim olishlariga ko'maklashada, ularning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy - texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarining rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir insonning o'z kasbiy tayyorgarligini oshirishiga imkon yaratadi.

Xorijiy tajribalar asosida ToshPTIda bolalar tibbiyoti sohasida bir qator o'zgarishlar joriy etildi. Jumladan, 1997 yildan boshlab ichki nazorat inspeksiyasi, o'quv-uslubiy, marketing bo'limlari, bolalar ginekologiyasi, neonatologiya kafedralari faoliyat ko'rsata boshladi. Mustaqillik davrigacha barcha fanlar rus tilida o'qitilib, asosiy darsliklar Moskva yoki Rossiyaning boshqa shaharlardan keltirilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, o'zbek tilida tibbiy biologik fanlarning deyarli hammasidan va ko'pgina klinik fanlardan yangi tuzilgan dasturlar asosida darsliklar yozildi. Bunda ToshPMI professor o'qituvchilarining hissasi salmoqli bo'ldi[6].

Belgilangan vazifalar asosida ToshPTI jamoasi qirq yildan ortiq davr mobaynida minglab ilmiy maqolalar, 250 tadan ziyod risola va monografiyalar, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, to'plamlar chop etildi. 207 mualliflik guvohnomasi olindi, besh yuzdan ortiq rasionalizatorlik takliflari kiritildi, 57 ta grant-loyiha ishlandi. Institut jamoasi tarkibidan S.Sh.Shamsiyev SSST TFA, prof. A. I. Nikolayev O'zbekiston FA akademigi, prof.A. T. Oqilov va K.N.Nishonboyevlar O'zbekiston Respublikasi Beruniy Davlat mukofotiga, 5 ta kafedra mudiri "Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoniga sazovor bo'lishdi. O'tgan davr ichida 150 ga yaqin kishi Xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etib, ma'ruzalar qildi.

Institut olimlari Yaponiya, Shvesiya, Amerika, Germaniya, Gollandiya, Ispaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlar olimlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdi. Institut

talabalari har yili an'anaviy talabalar ilmiy anjumanlarida eng yaxshi 130-140 ma'ruzalar tinglanadi. 1997 yilda 25-talabalar ilmiy anjumanida ma'ruza qilingan 133 talabalar ishlari chop etildi. 2000 yili Buxoroda o'tkazilgan "Xalqaro Ibn Sino o'qishlari"da institutning 3 nafar talabasi ishtirok etib, bir talaba birinchi o'ringa sazovor bo'ldi[7].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 noyabrda qabul qilingan «Ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»ga № 241-sonli qaroriga asosan barcha ilmiy-texnik muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada rivojlantirish rejalashtirilgan[8].

Sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etilishining samaradorligi bu sohaga e'tiborni kuchaytirdi. Jumladan, 2009-2012 yillarda sog'liqni saqlash vazirligining ilmiy muassasalarini texnologik va laboratoriya asbob-uskunalar bilan 1 mln. 400 ming AQSH dollari miqdorida jihozlanishi rejalashtirilgan. 2009 yilga mo'ljallangan yuqori texnologik ilmiy uskunalar kelib tushishi boshlangan.

Ilmiy muassasalarning nafaqat moddiy-texnik bazasi mustaxkamlanganligi, balki 2009 yildan boshlab ilmiy xodimlarning mehnatiga haq to'lash tizimi va ularni moddiy rag'batlantirish tizimi mutlaqo yangilandi, ya'ni ilmiy xodimlar maoshlari oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari darajasi kabi belgilandi.

Muhokama. Ilmiy muassasalar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan muhim vazifalar, jumladan bolalar o'limi, OITS, sil, parazitlar va virusli kasalliklarga nisbatan epidemiologik holatni muqobillashtirishga, bemorlarni kasalxonada yotish muddatlarini kamaytirishga, kasalliklarni davolashda nojo'ya ta'sirlarni oldini olishga, shuningdek, iqtisodiy tejamkorlikka erishish, ekologik va sanitar xavfsizlikni ta'minlash hamda aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Respublika pediatrlarining Toshkentda 2014 yil 14 noyabr kuni Turkiston saroyida bo'lib o'tgan VII s'yezdida "O'zbekistonda bolalar sog'lig'ini muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlari va modernizatsiyasi" mavzusiga doir dolzarb muammolari, jumladan innovatsiya masalalari ham muhokama qilindi. Anjuman ishida parlament a'zolari, vazirlik va idoralar, jamoat birlashmalari rahbarlari, yurtimiz tibbiyot muassasalari mutaxassislari bilan birga, AQSH, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Avstriya, Slovakiya, Chexiya, Polsha, Hindiston kabi davlatlarning sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari, bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi[9]. Tadbirda O'zbekiston Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish borasida global jarayonning faol ishtirokchisi sifatida 2000 yilda BMTning Mingyillik sammitida mamlakatlar oldiga qo'yilgan vazifalarni izchil amalga oshirayotgani ta'kidlandi.

Bu sohani rivojlantirishga yo'naltirilayotgan mablag' investisiyalar misolida ko'zga yaqqol tashlanadi. Agar 2012 yilda ushbu maqsad uchun respublikamiz davlat byudjeti hisobidan 2,8 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2013 yili bu ko'rsatkich 3,4 trillion so'mga yetdi. 2014 yilda esa sog'liqni saqlash tizimini yanada yaxshilash maqsadida davlat byudjetidan 4,4 trillion so'm ajratildi[10]. Natijada 2013-2017 yillar davrida bolalikdan nogironlar tug'ilishining oldini olish uchun tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi doirasida barcha "Ona va bola skrining" markazlari kasallikni aniqlash imkoniyati yuqori bo'lgan biokimyoviy analizatorlar va zamonaviy ultratovush skanerlar bilan jihozlandi[11].

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining klinikasi respublikada bolalariga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan asosiy baza hisoblanadi. Klinikada

14 ta ko'p tarmoqli bo'limlar va 16 ta kafedra mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda ta'lim, ilmiy va tibbiy faoliyat olib bordi. Klinikada Respublika pediatriyasining bir nechta yo'nalishlari (bolalar jarrohligi, kardiolarrohlik, gemodializ, anesteziya-reanimatsiya, oftalmologiya va otorinolaringologiya) bo'yicha markazlari mavjud bo'lib, ularda 25 professor, 40 dotsent va 60 ga yaqin yuqori malakali toifali shifokorlar faoliyat ko'rsatdi. Kafedra va klinika xodimlari bir qator xorijiy mamlakatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Gruzuya, Qozog'iston) mutaxassislari bilan hamkorlik qildi[12].

Xulosa. Xullas, O'zbekistonda tug'ilish ko'rsatkichining yillar davomida ortib borishi o'z o'rnida pediatriya

fanini rivojlantirishni taqozo etdi. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti olimlari ham bu borada katta izlanishlarni olib bormoqda. Bunda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiy samara berdi.

Inson eng oliy qadriyat hisoblangan va xalq manfaati ulug'lanadigan muqaddas yurtimizda avvalo amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida aholi ehtiyojlari, zarurati hisobga olingan. Barcha islohotlardan eng asosiy maqsad ham aholining moliyaviy qiyinchilikka duch kelmay, zarur tibbiy yordam olishini ta'minlash, el salomatligini mustahkamlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Совет Министров СССР. Постановление №519 от 23.07.1971г.
2. Тошкент Педиатрия Тиббиёт Институту 40 йиллиги. –Тошкент, 2012. 4-5-бетлар.
3. Хамраев А.Ж., Эргашев Н.Ш., Малиев М.. 70- лет кафедре детской хирургии Ташкентского педиатрического медицинского института. –Ташкент, 2017. –С. 30- 42.
4. <https://www.minzdrav.uz/uz/news/detail.php?ID=31619>(КТ,46-сон454-б.).
5. Тизим тараққиётини таъминловчи ислохотлар // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш газетаси, 2018 йил 12 октябрь № 40.
6. Тошкент педиатрия тиббиёт институту 40 йиллиги. –Тошкент, 2012.-9-Б.
7. Тошкент педиатрия тиббиёт институту 40 йиллиги. –Тошкент, 2012.-9-Б.
8. Тошмухамедов Р., Абдикодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар –Тошкент: “Истеъдод”, 2008. 4-б.
9. uza.uz. Ўзбекистан-страна, где дети здоровы.
10. Санаев Ф.Ўзбекистон –бахтли инсонлар мамлакати. –Тошкент, 2014.Б-2.
11. Халқ сўзи. 2017йил, 26- декабрь. № 260. (6954).
12. Ўз МА, М-35-фонд,1-рўйхат,1382-иш,170-варак.



Dilbar URAZBAYEVA,

Ma'mun universiteti Psixologiya kafedrasida professori, psixol.f.d

E-mail: urazbayeva.dilbar@bk.ru

BuxDU professori, psixol.f.d (DSc), A.Nazarov taqrizi asosida

THE NEED FOR SOCIAL-PSYCHOLOGICAL STUDY OF THE PSYCHOEMOTIONAL STATES OF ADOLESCENTS WITH SOMATIC DISEASES

Annotation

The article describes the need for social psychological research of the psychoemotional states of adolescents with somatic diseases, diagnostic analysis of the psychoemotional states of adolescents with chronic somatic diseases, and the manifestation of reactive and personal anxiety states caused by the disease. Also, it was determined that anxiety states are correlated with loneliness in adolescents, depending on gender.

Key words: Psychosomatic diseases, emotional state, situational and personal anxiety, feeling of loneliness, psychodiagnostics.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ПОДРОСТКОВ С СОМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Аннотация

В статье описана необходимость социально-психологического исследования психоэмоциональных состояний подростков с соматическими заболеваниями, диагностического анализа психоэмоциональных состояний подростков с хроническими соматическими заболеваниями, проявления реактивных и личностных тревожных состояний, обусловленных заболеванием. Также в зависимости от пола тревожные состояния коррелируют с ощущением одиночества у подростков.

Ключевые слова: Психосоматические заболевания, эмоциональное состояние, ситуативная и личностная тревога, чувство одиночества, психодиагностика.

SOMATIK KASALLIKLARDA O'SMIRLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATLARINI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK TADQIQ QILISH ZARURATI

Аннотация

Maqolada somatik kasalliklarda o'smirlar psixoemotsional holatlarini ijtimoiy psixologik tadqiq qilish zarurati bayon qilingan bo'lib, surunkali somatik kasalliklarda o'smirlar psixoemotsional holatlarining diagnostik tahlili, ularda kasallik sababli vujudga keladigan reaktiv va shaxsiy xavotirlik holatlarining namoyon bo'lishi eksperimental tahlil qilingan. Shuningdek, jinsga bog'liq holda xavotirlik holatlarining o'smirlar yolg'izlikni his qilishi bilan korrelyatsion aloqadorligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Psixosomatik kasalliklar, emotsional holat, vaziyatli va shaxsiy xavotirlik, yolg'izlik hissi, psixodiagnostics.

Kirish. Hozirgi kunda jahonda inson salomatligi muammosi har doimgidan ham dolzarb muammoga aylanmoqda. Buning sababi sifatida ekologik muammolar, ichimlik suvini kamayishi, oziq ovqatlar tarkibining o'zgarishi, ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi, sog'lom turmush tarzini tashkil qiladigan harakatlarning qisqarishini ko'rstaish mumkin.

Bolalar va o'smirlarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish va ularga maktablarda va boshqa sharoitlarda psixologik yordam ko'rsatish ularning ruhiy salomatligiga yordam beradigan asosiy omil ekanligi, bundan tashqari, o'smirlar va ularning oilalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish hamda tadbiq qilish katta ahamiyatga ega. Muammolar yuzaga kelganda, ular malakali va professional mutaxassislar tomonidan o'z vaqtida aniqlanishi va hal qilinishini talab qiladi.

Maktab o'quvchilarining sog'lig'i holatini monitoring qilish, profilaktika tadbirlarini tashkil etishning samarali tizimini yaratish zarurati 8-18 yoshdagi bolalarning hayot sifatini o'rganishga yondashuvlarni ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda inson salomatligi masalasiga alohida ahamiyat berilib, bu bosh qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizda ham o'z ifodasini topgan [1].

Mazkur muammo 2019 yil 3 fevraldagi PF-4190-son "O'zbekiston Respublikasida aholi ruhiy salomatligini saqlash xizmatini rivojlantirish bo'yicha 2019-2025 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 2019 yil 7 iyundagi 472-son "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda xuquqbuzarliklarning oldini olish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bu kabi tadqiqotlarni olib borish muayyan darajada xizmat qiladi.

Bundan tashqari mamlakatimizda aholi sog'lom turmush-tarzini yaxshilash maqsadida alohida me'yoriy xujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan 2018-yil 18-dekabrda qabul qilingan PQ-4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faollik darajasini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi va 2019 yil 13 dekabrda PQ-4190-sonli "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlar fikrimiz yaqqol isbotidir [2].

O'smirlar yoshida bolalikdan kattalik holatiga kuchish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shu

davrga kelib, o'smir shaxsida somatik kasalliklarning kuzatilishi ham, uning oldini olish bilan bog'liq psixologik omillarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda aksariyat kasalliklarning rivojlanishida psixikaning roli nihoyatda katta ekanligi barchaga ma'lum. Psixosomatik munosabatlar muammosi Gippokrat va Aristotel davrlaridan beri bir necha asrlar davomida aqliy va somatik munosabatlar o'rtasida kuzatilib, o'rganilganiga qaramay, zamonaviy tibbiyotning eng qiyin muammolaridan biridir. Birinchi marta 1818 yilda Leyptsigdan bo'lgan nemis shifokori Xaynrot psixosomatika atamasini taklif qildi. U o'z so'zida: "Hayotda har bir sohasida o'ziga xos yetarli sabablar bor, lekin uyqusizlikning sabablari odatda ruhiy-somatikdir". 1822 yilda nemis psixiatr M.Yakobi psixosomatik munosabatlarni tushuntirish va uni to'ldirish uchun "somatopsixik" tushunchasini taqdim etdi. "Psixosomatika" atamasi bir asrdan keyingina umumiy qabul qilindi va tibbiy lug'atga kiritildi [3].

M.P.Aralovanning ta'kidlashicha, somatik kasalliklar uchun profilaktika choralarini psixoterapevt yoki psixologga o'z vaqtida tashrif buyurishdir. Ko'pincha ruhiy buzilishlar bemor o'z-o'zidan yengishga harakat qilgan jarohatlarda yotadi. Shu sababli, yetarli va o'z vaqtida psixologik yordam ko'rsatish kelajakda deyarli barcha turdagi somatik kasalliklarning oldini olishga yordam beradi [4], [7].

O'smirlarning hayot sifati ularning jismoniy, psixologik va ijtimoiy faoliyatining ajralmas xususiyati bo'lib, uning sub'ektiv idrokiga va/yoki bolaning yaqin atrofdagi ot-onalarga yoki boshqa shaxslarga nisbatan sub'ektiv idrokiga asoslanadi [5].


8-18 yoshdagi bolalarning hayot sifatini o'rganish alohida qiziqish va dolzarbdir. Rivojlanishning bu davri bolaning fiziologiyasi va psixologiyasida sezilarli o'zgarishlar bilan tavsiflanadi, bolalarda yangi qiziqish va qo'shimchalarning paydo bo'lishi, o'z qarashlarini shakllantirish, yangi ijtimoiy muhitda maktabga moslashish, ish yuklamalari va shaxsiy mas'uliyatni oshirish. So'nggi paytlarda ushbu yoshdagi bolalar orasida funktsional buzilishlar va surunkali kechadigan kasalliklarning ko'payishi kuzatilmoqda [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Spilberger-Xaninning "Vaziyatli va shaxsiy xavotirlik" darajasini aniqlash, S.Fergusonning "Yolg'izlik" darajasini aniqlash metodikalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning eksperimental qismida somatik kasalliklar bilan kasallangan 30 nafar va ayni paytda o'zini sog'lom hisoblagan maktab o'quvchilari 30 nafar jami 60 nafar sinaluvcchi bilan psixodiagnostik tadbirlarni olib bordik.

Quyida tadqiqotda ishtirok qilgan respondentlar bo'yicha ma'lumotlar keltirildi.

Sinaluvchilarning yoshiga ko'ra taqsimlanishi



1-rasm. Sinaluvchilarning yoshiga ko'ra taqsimlanishi

Biz o'tkazgan tadqiqotda jami 60 nafar sinaluvcchilar ishtirok etdi, sinluvcchilar yoshi asosan o'smirlik yosh davri bo'lganligi sababli yani 11 yoshdan 15 yoshgachalarni qamrab olib guruhlariga bo'lib chiqdik. 11-12 yoshgacha 19 nafar, 13 dan 14 yoshgacha 26 ishtirokchi, 14 -15 yoshlilar esa guruhda 15 nafarni tashkil etdi, bundan ko'rini turibdiki 13-14 yoshlilar ko'pchilikni tashkil etadi.

Tadqiqotda sinaluvcchilarning yoshiga ko'ra taqsimlanishi shuning uchun zarurki, o'smirlik yoshi garchi 1-jadval

10-14 yoshni tashkil qilsada, bu davrlarda ya'ni kichik va katta o'smirlik alohida o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Keyingi ish olingan metodikalarning tavsiflovchi statistikasini tahlil qilish hisoblanadi.

Olingan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlash uchun biz tasiflovchi statistik taxlilni amalga oshirdik. Natijalar taxlili bo'yicha quyidagilar kuzatildi.

Spilberger Xanin metodikasi bo'yicha tavsiflovchi statistika (n=60)

| | N | Mini mal | Maksimal | O'rta cha | Stan dart og'ish | Assimet riy | Eks ses |
|-------------------|----|----------|----------|-----------|------------------|-------------|---------|
| Vaziyatli xavotir | 60 | 21,00 | 60,00 | 42,7833 | 7,76365 | 0,197 | 0,259 |
| Shaxsiy xavotir | 60 | 28,00 | 72,00 | 46,1167 | 8,88932 | 0,383 | 0,074 |

Spilberger Xaninning "Vaziyatli va shaxsiy xavotirlikni aniqlash" metodikasidan olingan natijalar quyidagicha aniqlandi: sinaluvcchilar tomonidan olingan minimal ball 21 ballni tashkil qilib, maksimal ball esa 60 ballni ko'rsatdi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 42.78 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart o'g'ishning ko'rsatgichi 7.76 dan iborat ekanligi aniqlandi. Vaziyatli havotir uchun 35,02 dan 50,54 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assimetriya (A=0,197) va eksstes (E=0,259) ni tashkil qiladi.

Natijalar taxlilida kuchsiz ifodalangan o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eksstes kuzatildi. Normadan past natija 25, normadan yuqori natija 30 nafar sinaluvcchida kuzatildi.

Navbatdagi metodika Fergusonning "Yolg'izlikni o'rganish" metodikasi natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

2-jadval

Yolg'izlikni o'rganish bo'yicha tavsiflovchi statistika (n=60)

| | | | | | | | |
|-----------|----|----------|-----------|----------|------------------|-------------|---------|
| | N | Mini mal | Maksi mal | O'rtacha | Stan dart og'ish | Assimetriya | Eks ses |
| Yolgizlik | 60 | 35,00 | 76,00 | 51,5333 | 7,51826 | 0,225 | 0,902 |


S.Fergiyusonning "Yolg'izlikni o'rganish" shkalasi natijasiga ko'ra moslikni o'rganganimizda sinaluvcilar tomonidan olingan minimal ball 35 balni tashkil qilib, maksimal ball esa 76 ball bo'ldi. Mazkur shkala bo'yicha o'rtacha qiymat 51.53 tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Standart o'g'ishning ko'rsatgichi 7.51 dan iborat ekan.

Shaxsiy havotir uchun 44,02 dan 59,04 ballgacha me'yor hisoblanar ekan. Assmetriya (A= 0,225) va eks ses 3-jadval

Metodikalar shkalalarining jinslar bo'yicha tafovutlanishi natijasi (Styudentning t mezoni bo'yicha)

| Jinsii | | N | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | t | P |
|---------------|-------------|----|-----------------|-----------------|--------|----------|
| Yolgizlik | O'g'il bola | 30 | 54,6333 | 7,10747 | 3,482 | 0,001*** |
| | Qiz bola | 30 | 48,4333 | 6,67824 | | |
| Vaz xavotir | O'g'il bola | 30 | 40,7667 | 8,62108 | -2,067 | ,044* |
| | Qiz bola | 30 | 44,8000 | 6,31583 | | |
| shaxs_xavotir | O'g'il bola | 30 | 42,9667 | 8,69198 | -2,914 | ,005** |
| | Qiz bola | 30 | 49,2667 | 8,04270 | | |

Izoh *p<0,05; **p<0,01;***p<0,001
Yuqoridagi jadvalda namoyon bo'lgan natijalarni quyidagi diagrammada aks ettiramiz.



2-rasm. Metodikalar shkalalarining jinslar bo'yicha tafovutlanishi natijasi.

Natijalar tahlil qilinganda yolg'izlik shkalasi bo'yicha ishonch darajasidagi jins tofovutlari mavjudligini kuzatdik (t=3,482; p<0,001). Natijalar tahlilidan ayon bo'lishicha yolgizlikni his qilish, o'zini yolg'iz sezish o'g'il bolalarda ko'proq kuzatilib, ayniqsa bemor o'g'il bolalarda juda yuqori darajada namoyon bo'larkan.

Yuqorida ko'rsatilgan jadvalda ko'rinib turibdiki, kasallik vaziyati bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik jinslar o'rtasida ahamiyatli tafovutlar bilan namoyon bo'lmoqda. Buni shunday izohlashimiz mumkinki, kasallik o'smir qizlarda ma'lum darajadagi xavotirlikni keltirib chiqaradi. (t=2,067; p<0,05). Chunki qiz bolalar tabiatan emotsional tip bo'lganligi, o'zi bilan sodir bo'layotgan hodisalarga o'zini reaksiyasini ko'rsatishga moyilligi bilan ajralib turadilar.

4-jadval

Yolg'izlikni his qilish shkalasining boshqa psixologik ko'rsatkichlar bilan aloqadorligi (Pirsonning - r mezoni bo'yicha)

| | |
|-------------------|-----------|
| | Yolgizlik |
| Vaziyatli xavotir | -0,347** |
| Shaxsiy xavotir | -0,636** |

Izoh **p<0,01

Yolg'izlikni o'rganish so'rovnomasini Spilberger Xanin metodikasi bilan o'zaro korrelyatsiyasi o'rganildi va bunda bunda o'smirlar qanchalalik vaziyatli havotir sezgan

(E=0,0902) ni tashkil qilgan. Natijalar tahlilida kuchsiz o'ng tomonlama assimetriya va kuchsiz musbat eks ses kuzatildi. Normadan past natija 27, normadan yuqori natija 30 nafar sinaluvcilarida kuzatildi.

Navbatdagi ish metodikalar shkalalarining jins xususiyatlar bilan tafovutlanishini o'rganishdir. Quyida metodikalar shkalalarining jinslar bo'yicha tafovutlanishi natijasini keltiramiz.

O'smir o'g'il bolalarda tengdosh qizlarga qaraganda kasallik yuqori darajadagi xavotirlik bilan kuzatilmaydi.

Xuddi shuningdek, shaxsiy havotirlanish shkalasida ham ahamiyatli jinsiy farqlar kuzatilib, qiz bolalarda tengdosh o'g'il bolalarga nisbatan yuqori darajada xavotirlik kuzatildi (t=2,067; p<0,01).

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, surunkali kasalliklar tashxisi qo'yilgan o'smirlarda xavotirlanuvchanlik darajasi jinsiy farqlar bilan turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Sinaluvchilarda o'tkazilgan metodikalarning orasida korrelyatsion aloqadorlikni o'rganish navbatdagi bosqichda amalga oshirildi. Quyida natijalar tahlili keltirildi.

sayin yolg'izlik hissi kamayib, odamlarga qo'shilishga yolg'iz qolmaslikka intilishi, go'yoki odamlar orasida o'zini yaxshi his qilib kasalligini unutishga intilar ekanlar. Shuning uchun

ham bunday shaxslarga ko'proq muloqot va odamlar bilan ko'proq ijtimoiy munosabatlarga kirishi tavsiya qilinadi ($r=0,347$; $p<0,01$). Shuningdek bunday shaxslarda shaxsiy havotir bolaligidan mavjud bo'lib yolgizlikdan qochib, odamlarga orasida bo'lishga harakat qilishlari, shundagina o'zlaridagi kasallik bilan bog'liq yoqimsiz hislarni unutishga harakat etar ekanlar ($r=0,636$; $p<0,01$).

Demak, yuqoridagi olib borilgan psixodiagnostik tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, surunkali kasalliklar bilan xastalangan o'smirlarda psixologik holatlar turlicha namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. O'smirlarda olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalarni keltirish o'rinli. Yolgizlikni his qilish, o'zini yolg'iz sezish o'g'il bolalarda qiz bolalarga qaraganda ahamiyatli farqlar bilan kuzatilib, kasallik vaziyati bilan havotirlanish qiz bolalarda kuchli darajada namoyon bo'ladi. Shaxsiy havotir shkalasida ham qiz bolalarda havotirlilik darajasi o'g'il bolalarga qaraganda

ahamiyatli darajada farqlarda kuzatiladi, yani qiz bolalarda havotirlanish, taxlikaga tushish ko'prok kuzatiladi. Bemorlar qanchalalik vaziyatli havotir sezgan sayin yolg'izlik kamayib odamlarga qo'shilishga yolg'iz qolmaslikka intilib, go'yoki odamlar orasida o'zini yaxshi his qilib kasalligini unutishga harakat qilishga moyillik kuzatiladi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, surunkali kasalliklar bilan xastalangan o'smirlar bilan psixologik tadbirlarni olib borish ular bilan turli psixoreabilitatsion, psixokorreksion va rivojlantiruvchi tadbirlarni olib borishni talab qiladi.

Demak, yuqorida olib borilgan diagnostik tadqiqot natijariga ko'ra shunday xulosa qilish mumkinki, surunkali somatik kasalliklarga chalingan o'smirlarda emotsional holatlarining o'ziga xosligini eksperimental o'rganish bu kasallik tashxisidagi bemorlar bilan psixologik xizmatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- Toshkent :O'zbekiston, 2023.-40b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.02.2019 yildagi PQ-4190-son "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" qarori Lex.uz
3. Александер, Ф. Психосоматическая медицина / Ф. Александер.-М.: ЭКСМО—Пресс, 2002.—351 с.
4. Аралова М. П. Динамика тревожности и агрессивности у подростков с сахарным диабетом / М. П. Аралова, Е. А. Банникова // Психология человека в условиях здоровья и болезни Материалы V Международной научно-практической конференции. - 2015. - С. 81-85.
5. Абросимов И. Н. Выбор копинг-стратегии как фактор психологической адаптации пациента к хроническому соматическому заболеванию / И. Н. Абросимов, В. М. Ялтонский // Вестник Омского университета. Серия «Психология». - 2018. - №. 4. - С. 12-18.
6. Косырев В. Н. Клиническая психология: Учеб.-метод, комплекс для преподавателей и студентов факультетов психологии. -Тамбов: ТГУ им. Г. Р. Державина, 2003.- 451с.
7. Urazbaeva D.A. // Specific peculiarities of conducting psychological actions with oncology patients. International journal of current and review. 2020. Vol.12. Issue 16. P 126- 129.



UDK: 303.4.028

Javlon XOLMATOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistenti
E-mail: djavadja@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrasini mudiri p.f.f.d. dots. F.Rahmatova taqrizi ostida

INTERFAOL TA’LIM METODLARIDAN DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANINI O‘QITISHDA FOYDALANISH

Аннотация

Ushbu maqolada interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishning dolzarbligi, oliy ta’lim muassasalarida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitishda ulardan foydalanish zarurati asoslangan. Jumladan, “Kichik guruhlarda ishlash” metodidan “Post teoremasi asosida funksiyalar sistemasini to‘liqlikka tekshirish” mavzusini o‘qitishda foydalanish borasidagi tajribalar haqida fikr yuritilgan. Bu metod yordamida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish usullari keltirilgan. Berilgan barcha topshiriqlar va ularning javoblari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, “kichik guruhlarda ishlash”, mantiqiy funksiyalar sistemasini, Post jadvali, Post teoremasi, muhim yopiq sinflar, funksiyalar sistemasining to‘liqligi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДИСКРЕТНОЙ МАТЕМАТИКЕ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ЛОГИКЕ

Аннотация

В данной статье обосновывается актуальность использования интерактивных методов обучения, необходимость их использования при преподавании «Дискретной математики и математической логики» в высших учебных заведениях. В частности, обсуждался опыт использования метода «Работа в малых группах» при преподавании темы «Проверка системы функций на полноту на основе теоремы Поста». Приведены методы организации практических занятий с использованием этого метода. Анализируются все задания и ответы на них.

Ключевые слова: Интерактивный метод, «работа в малых группах», система логических функций, таблица Поста, теорема Поста, важные замкнутые классы, полнота системы функций.

USING INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS IN TEACHING DISCRETE MATHEMATICS AND MATHEMATICAL LOGIC

Annotation

This article substantiates the relevance of using interactive teaching methods, the need for their use when teaching “Discrete Mathematics and Mathematical Logic” in higher educational institutions. In particular, the experience of using the “Work in small groups” method when teaching the topic “Checking a system of functions for completeness based on Post’s theorem” was discussed. Methods for organizing practical classes using this method are given. All tasks and answers to them are analyzed.

Key words: Interactive method, “work in small groups”, system of logical functions, Post’s table, Post’s theorem, important closed classes, completeness of the system of functions.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim mazmunini takomilashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta’limni hayot bilan bog‘lashni, o‘qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilab berilgan[9]. Bu o‘rinda ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo‘llanishi davr talabi bilan bevosita bog‘liqdir. Yangi pedagogik texnologiya ta’limning ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir.

An’anaviy mashg‘ulotlar olib borish asta sekin o‘z o‘rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan’anaviy dars

o‘tish ishlariga bo‘shatib bermoqda. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanib, ta’lim samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonga hamda o‘qituvchi va talabalar faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan faol yoki interfaol metodlardan foydalaniladi[6].

Oliy ta’lim muassasalarida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlarning interfaol usullarda o‘tilishi, oddiy darslardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: qo‘yilgan maqsadga aniq erishish; yangi bilimlarni berishda yangi usullardan foydalanish; vaqtning taqsimlanishi; dars bosqichlaridagi o‘rin almashinishlar; dastur materialini asosida qisman chetga chiqish.

O‘qitishning interfaol metodlaridan qaysi vaqtda foydalanish, qaysi mavzularda qanday interfaol metodlarni qo‘llash, qanday qilib tashkil etish, qaysi interfaol metodlar usullar “Diskret matematika va matematik mantiq” fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ko‘proq ijobiy natija berishini o‘qituvchi bilishi kerak. Interfaol metodlarni yangi mavzuni bayon qilishda, takrorlash va bilimlarni

mustahkamlashda ijobiy natija berishi mumkin. Interfaol metodlarni qo'llashda kamchiliklar yuzaga kelishi o'qituvchining darsga tayyorlanmaganligining natijasidir. Darsni interfaol usullarda tashkil etish qo'yidagilarni o'z ichiga oladi; 1) mavzu va uning hajmini aniqlash; 2) mavzuga mos dars shaklini aniqlash; 3) mavzuning manbalari, adabiyotlar bilan tanishib chiqish; 4) o'quvchilarga tushunish qiyinroq bo'ladigan tushunchalarni izohlash metodini ishlab chiqish; 5) dars rejasini tuzish; 6) darsni o'tkazish metodi va texnologiyasini tanlash; 7) dars jihozini tayyorlash; 8) mavzuni yoritish usulini aniqlash; 9) darsni oldingi va keyingi mazular bilan bog'liqligini ishlab chiqish; 10) talabalarni baholash metodlarini ishlab chiqish; 11) talabalarga beriladigan test materiallarini tayyorlab qo'yish; 12) darsda qo'llaniladigan multimedia vositalarini tayyorlab qo'yish; 13) darsga mos qiziqarli, muammoli topshiriqlarni tayyorlab qo'yish. Darslarni interfaol metod asosida tashkil etish quyidagi didaktik tamoyillar asosda bo'lishi lozim: o'quvchining dunyoqarashining shakllantirishi; ilmiylik; tushunarlik va qiziqarlilik; hayotiylik; talabalar yoshiga, psixologik xususiyatlariga, saviyasiga mosligi; ijtimoiyligi va boshqalar [4,5].

Asosiy qism. Ushbu maqolada "kichik guruhlarda ishlash" interfaol o'qitish metodidan foydalanish haqida so'z boradi, hamda "Diskret matematika va matematik mantiq" fanini o'qitish misolida yoritiladi. "Diskret matematika va matematik mantiq" fani bakalavriat matematika va amaliy matematika yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq o'qitiladi va asosiy mutaxassislik fanlaridan biri hisoblanadi [2].

Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodida foydalanishni "Post teoremasi asosida funksiyalar sistemasini

1-jadval

| F_1 | | P0 | P1 | M | L | S |
|-------|-------------------------------------|----|----|---|---|---|
| f_1 | $\bar{x} \vee \bar{y} \downarrow z$ | + | - | - | - | - |
| f_2 | $\bar{x} \vee y$ | - | + | - | - | - |
| f_3 | $x \rightarrow yz$ | - | + | - | - | - |
| f_4 | $(x y) \rightarrow z$ | + | + | - | - | - |

Funksiyalar sistemasini to'liq.

2-kichik guruh taqdim qilgan $F_2 = \{(x \downarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x}y; x \rightarrow \bar{y}z; x \leftrightarrow y\bar{z}\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

2-jadval

| F_2 | | P0 | P1 | M | L | S |
|-------|---------------------------------|----|----|---|---|---|
| f_1 | $(x \downarrow \bar{y}) \vee z$ | + | + | - | - | - |
| f_2 | $\bar{x}y$ | + | - | - | - | - |
| f_3 | $x \rightarrow \bar{y}z$ | - | - | - | - | - |
| f_4 | $x \leftrightarrow y\bar{z}$ | - | - | - | - | - |

Funksiyalar sistemasini to'liq.

3-kichik guruh taqdim qilgan $F_3 = \{(x \oplus \bar{y})z; x \vee y; x \rightarrow \bar{y} \vee z; (x \downarrow \bar{y}) \vee z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

3-jadval

| F_3 | | P0 | P1 | M | L | S |
|-------|---------------------------------|----|----|---|---|---|
| f_1 | $(x \oplus \bar{y})z$ | + | + | - | - | - |
| f_2 | $x \vee y$ | + | + | + | - | - |
| f_3 | $x \rightarrow \bar{y} \vee z$ | - | + | - | - | - |
| f_4 | $(x \downarrow \bar{y}) \vee z$ | - | + | - | - | - |

Funksiyalar sistemasini to'liq emas.

4-kichik guruh taqdim qilgan $F_4 = \{(x \leftrightarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x} \vee \bar{y}; \bar{x} \rightarrow \bar{y}z; (x \downarrow y)|z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

4-jadval

| F_4 | | P0 | P1 | M | L | S |
|-------|--------------------------------------|----|----|---|---|---|
| f_1 | $(x \leftrightarrow \bar{y}) \vee z$ | + | + | - | - | - |
| f_2 | $\bar{x} \vee \bar{y}$ | - | - | - | - | - |
| f_3 | $\bar{x} \rightarrow \bar{y}z$ | + | + | - | - | - |
| f_4 | $(x \downarrow y) z$ | - | + | - | - | - |

Funksiyalar sistemasini to'liq.

5-kichik guruh taqdim qilgan $F_5 = \{x \oplus (y \vee z); x \vee \bar{y}; xy \rightarrow \bar{z}; (x|y) \downarrow z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

5-jadval

| F_5 | | P0 | P1 | M | L | S |
|-------|--------------------------|----|----|---|---|---|
| f_1 | $x \oplus (y \vee z)$ | + | - | - | - | - |
| f_2 | $x \vee \bar{y}$ | - | + | - | - | - |
| f_3 | $xy \rightarrow \bar{z}$ | - | - | - | - | - |
| f_4 | $(x y) \downarrow z$ | + | - | - | - | - |

Funksiyalar sistemasini to'liq.

to'liqlikka tekshirish" mavzusi misolida tushuntiramiz. O'qituvchi talabalarni kichik guruhlar bo'ladi, har bir kichik guruhga mavzuga oid tarqatmali materiallardan topshiriqlar tarqatiladi, ularning har birida masala-mashqlar (shunday tanlanishi kerakki, unda barcha funksional yopiq sinflarga tegishli funksiyalar qatnashishi shart) beriladi. Masalan:

1-kichik guruh topshirig'i: $F_1 = \{\bar{x} \vee \bar{y} \downarrow z; \bar{x} \vee y; x \rightarrow yz; (x|y) \rightarrow z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

2-kichik guruh topshirig'i: $F_2 = \{(x \downarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x}y; x \rightarrow \bar{y}z; x \leftrightarrow y\bar{z}\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

3-kichik guruh topshirig'i: $F_3 = \{(x \oplus \bar{y})z; x \vee y; x \rightarrow \bar{y} \vee z; (x \downarrow \bar{y}) \vee z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

4-kichik guruh topshirig'i: $F_4 = \{(x \leftrightarrow \bar{y}) \vee z; \bar{x} \vee \bar{y}; \bar{x} \rightarrow \bar{y}z; (x \downarrow y)|z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

5-kichik guruh topshirig'i: $F_5 = \{x \oplus (y \vee z); x \vee \bar{y}; xy \rightarrow \bar{z}; (x|y) \downarrow z\}$ -Post jadvali asosida funksiyalar sistemasini to'liqlikka tekshirilsin.

Barcha guruhlar tegishli ko'rsatmalar beriladi, yo'naltiriladi va topshiriqni bajarish uchun vaqt beriladi. Vaqt tugagach guruhlar javoblari (Post jadvali) taqdim etiladi, muhokama va tahlil qilinadi. Post jadvalining har bir ustuni va natijasi tekshirilib chiqiladi [1,3,7,8].

1-kichik guruh taqdim qilgan $F_1 = \{\bar{x} \vee \bar{y} \downarrow z; \bar{x} \vee y; x \rightarrow yz; (x|y) \rightarrow z\}$ funksiyalar sistemasining Post jadvali quyidagicha bo'lishi kerak:

Agar biror ustunda xato mavjud bo'lsa, shu ustundagi amal aniqlanib, amalni tushuntirgan ekspert guruhdan jarima ball ayiriladi va hamma baholanadi.

Metodni samarali qo'llash natijasida quyidagilarga erishish mumkin: guruh bilan birgalikda ishlash shakllari o'rganiladi; talabalarda bir-birlariga bo'lgan hurmat, ishonch tuyg'ulari oshadi; nutq so'zlash, o'z fikrini asoslab berish va himoyalashga bo'lgan qobiliyati ortadi; mustaqil fikrlash va muammolarni echishga oid ishtiyoqi shakllanadi; o'rganish, ishlashga bo'lgan ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, "Kichik guruhlarda ishlash", interfaol metodini o'quv jarayonida yuqorida berilgan tartibda qo'llay olish uchun guruhlariga ajratilgan qismlar o'zaro bog'liq bo'lmasligi, ya'ni birinchi qismni o'zlashtirmay turib, ikkinchi yoki uchinchi qismlarni o'zlashtira olib bilishi mumkin bo'lgan mavzular tanlanishi lozim. Bu metodlar quyidagilarga imkon beradi: ta'lim oluvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish uyg'otadi; ularning bilishga va faol ijodiy fikrlashga bo'lgan intilishlarni rag'batlantiradi; ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilar mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchilar tomonidan o'z-o'zini boshqarishga keng yo'l ochadi; har bir ta'lim oluvchining qobiliyatlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda bilim (hammaga bir xil bilim berishdan voz kechish) berish uchun imkoniyat yaratadi; har bir ta'lim oluvchi shaxsning

yaxshi xislatlarini izlash va ularni rivojlantirishga yordam beradi; o'qituvchining "har bir ta'lim oluvchi iste'dodli" degan ishonchga ega bo'lishiga, shunga kelib chiqqan holda uni hurmat qilish, har bir fikriga e'tibor bilan qarash, unga ishonishga, natajada hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini oshiradi; ta'lim oluvchining har bir yutug'ini qo'llab-quvvatlash, ma'qullash, unga xayrixoh bo'lgan vaziyatlarni yaratish va shular asosida yanada chuqurroq bilimlar egallashga bo'lgan intilishlarini o'z vaqtida rag'batlantirib boradi; ta'lim jarayonida har bir ta'lim oluvchiga o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratish va unga bu yo'lda yordam berish imkoniyatlarini oshiradi; qanday, nimaga va nima uchun o'qitish kabi savollarga, shuningdek, qanday qilib natijali o'qitish savoliga javob topiladi; o'qituvchining mehnat samaradorligini oshiradi; o'qitish jarayonida har bir talabani individual xususiyatlari va xarakterini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilish, o'qitish natijasini baholashda esa xususiy (sub'ektiv) baholanishdan o'qituvchini ozod etish imkonini beradi; o'qitish jarayoni bo'yicha bosh vazifalarni o'qitish vositalariga yuklash orqali o'qituvchining vaqtini samarali qiladi, shu bois o'qituvchi uchun ko'proq vaqtini har bir talabani shaxsiy rivojlanishiga qaratishga imkon yaratiladi; talabalar bilim darajasini baholash va nazoratda shaffoflikka erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. To'rayev H., Azizov I. "Diskret matematika va matematik mantiq". 1-jild. SamDU – 2011 yil
2. Башин М.А., Дурнев В.Г. О некотором опыте преподавания дисциплины «Дискретная математика» / Преподавание математики в классическом университете: Тезисы докладов научно-методической конференции. - Ярославль: ЯрГУ 2005. - С.6-7.
3. Дурнев В.Г., Башкин М.А., Якимова О.П. Элементы дискретной математики: учебное пособие. - Ярославль: ЯрГУ 2007.
4. Мехамедов Ў.Х., Усмонбекова М.Х., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. Ўқув услубий тавсиялар Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016.-45 б.
5. Рахимов А., Ҳамроева М. "Интерфаол таълим ва унинг дидактик имкониятлари". XXI Международная научно-практическая интернетконференция 30–31 декабря, 2015.
6. Кларин, М. В. Интерактивное обучение – инструмент освоения нового опыта// Педагогика. – 2000. – № 7. – С. 12–18
7. Холматов, Ж., Худойшукурова, Р., & Ибадуллаев, Ш. (2023). Bul algebra funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to'liqlikka tekshirish. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 66-70.
8. Холматов Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019 y.// <https://lex.uz/docs/4545884>



Mumin HOSHIMXONOV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Falsafa, tarbiya va huquq kafedrası" professori, falsafa fanlari doktori.

E – mail: ziyadullag@bk.ru

Professor, sotsiologiya fanlari doktori, (DSc) A.J. Xolbekov taqrizi asosida

INTERPRETATION OF RULING KINGS IN MASHRAB POLITICAL VIEWS

Annotation

This article presents the interpretation of the ruling kings in the socio-political views of the thinker poet Boborahim Mashrab

Key words: Movarounnahr, Ashtarkhanids, dynasty, ruler, Khans, Khiva, Iran, social, political, cities, countries, Imamquli Khan, Ubaydullah Khan, Nadirshah, nation, people, nobility, Makhdumi Azam, Machiavelli, Afaqkhoja, Pharaoh, Nimrod, Iskandar.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРАВЯЩИХ ЦАРЕЙ В ПОЛИТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ МАШРАБА

Аннотация

В данной статье представлена трактовка правящих царей в общественно-политических взглядах поэта-мыслителя Боборахима Машраба.

Ключевые слова: Моваруннахр, Аштарханиды, династия, правитель, ханы, Хива, Иран, социальные, политические, города, страны, Имамкули-хан, Убайдулла-хан, Надиршах, нация, народ, знать, Махдуми Азам, Макиавелли, Афахходжа, Фараон, Нимрод, Искандар.

MASHRAB SIYOSIY QARASHLARIDA HUKMDOR PODSHOLAR TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mutafakkir shoir Boborahim Mashrabning ijtimoiy – siyosiy qarashlarida hukmdor podsholar talqini berilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, ashtarxoniyalar, sulola, hukmdor, xonliklar, Xiva, Eron, ijtimoiy, siyosiy, shaharlar, o'lkalar, Imomqulixon, Ubaydullaxon, Nodirshoh, millat, xalq, zodagon, Maxdumi A'zam, Makiavelli, Ofoqxoja, Fir'avn, Namrud, Iskandar.

Kirish. Mashrab yashab, ijod etgan XVII- XVIII asrlar Movarounnahr hududida ashtarxoniyalar sulolasi hukmdorlari bir yarim asr (1601-1753) Buxoro taxtida saltanat yuritdilar, ular davrida xonlikda o'zaro nizolar hamda qoraqalpoqlar, mustaqil bo'lgan Xiva xonligi, Eron bilan uzluksiz urushlar davom etdi, mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotida parokandalik avj oldi, xonlik taxti uchun talashuvda aka-uka, ota-o'g'il, qarindoshlar o'rtasida kurashlar kuchaydi. Xonlikdagi zulmning ortishi, soliqlarning oshib borishi natijasida tez-tez xalq qo'zg'olonlari ro'y berib turardi. Buxoro taxtida uzoq xonlik qilgan Imomqulixon (1611-1642) davrida hokimiyatning nisbatan mustahkamlanganligini nazarga olmaganida, boshqa ashtarxoniyalar davrida xonlikka har tomondan hujumlar, turli shaharlar, o'lkalarning xonlikdan ajrab ketishga intilishi kuchaydi. Bu intilish ayniqsa, Ubaydullaxon davrida avjiga chiqdi. Bundan foydalangan Nodirshoh Buxoro xonligiga qarashli ko'p yerlarni Eronga qo'shib oldi. So'nggi yillarda ashtarxoniyalar sulolasining nufuzi susayib, mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Hakim otaliqning ta'siri kuchaya bordi va u 1753 yili o'zini amir deb e'lon qildi. Bu davrda Turkistonda Buxoro xonligidan tashqari Amudaryoning quyi oqimida Xiva xonligi mustaqil rivojlanayotgan edi. XVIII asrning oxiriga kelib Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi ham o'zini mustaqil xonlik sifatida ko'rsata boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiy xalqlarning ulkan yozuvchilari Chingiz To'raqulovich Aytmatov va Muxtor Shoxonov "Cho'qqida qolgan ovchining ohi – zori" memuar asarida Markaziy Osiyo xalqlari, shuningdek, Turkiston xalqlari tarixining siyosiy manzarasini yoritib berganlar.

Agar 1789 yildan beri AQShda 41 nafar prezident (hozir 46 – Prezident Jozef Bayden) kelib-ketgan bo'lsa,

xo'sh, nima uchun shu paytgacha Jorj Vashington bilan Delano Ruzvelt aholi o'rtasida juda katta obro'-e'tiborga ega? Birinchisi-mustamlakachilik oqibatida titig'i chiqib ketgan viloyatlarni birlashtirib, yagona davlat tuzdi, yangi millatni shakllantirdi, yangi ko'rinishdagi davlat tizimini yaratdi. Ikkinchisi-bir asrdan so'ng, iqtisodiy inqirozga botib ketgan AQShni halokatdan qutqarib qoldi, fashizmni yanchib tashlash borasida qat'iyatini ko'rsatdi. Shunday fazilatlarini, faoliyatlarini uchun ular o'z fuqarosi orasida ham, butun dunyoda ham hurmat-e'tiborga sazovor bo'ldilar.

Buyuk Britaniyadan yetishib chiqqan ajoyib zotlar o'rtasida Uinston Cherrchill bilan o'z davlatining manfaatlarini yo'lida xormay-tolmay xizmat qilgan, Margaret Tetcher alohida nufuzga ega. Aytmoqchi, M.Tetcher "temir xonim" deb nom chiqargan.

Mustafo Kamol posho-Otaturkning ham Turkiya tarixida munosib o'rni bor. Turg'ut O'zolzning yorqin xotirasini unutib bo'ladimi? Qishloq xo'jaligiga asoslangan Turkiya misli ko'rilmagan soliqlar yukidan munkillab qolgan paytda Turg'ut O'zol qat'iy islohot tomon yuz burdi va o'z mamlakatini muqarrar iqtisodiy inqirozdan asrab qoldi.

Nikollo Makiavellining "Hukmdor" kitobini yana bir marta qaytadan ko'zdan kechirib chiqdim. Imperatorlar, podsholar, qirollar, sultonlar to'rt asrdan buyon o'z faoliyatlarini o'sha falsafiy, siyosiy risola bilan taqqoslab ko'radilar. Mutaassiblar ham istisno emas. Ma'lumki, Makiavellining "vasiyatlari bilan pand-nasihatlari"ni Stalin ham suv qilib ichib yuborgan edi. Hukmdorlar bu risolani o'z aql-idrokiga, tabiatiga va mamlakatining urf-odatlariga, an'analariga monand ravishda ayri-ayri talqin qilganlar.

"Hukmdor"ning muallifi, hukmdor xalqni ikki xil usulda boshqaradi, deb e'tirof etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Birinchisi-qonun bilan, ikkinchisi-kuch bilan. Birinchisi insonga xos xususiyat, ikkinchisi esa yirtqich hayvonga xosdir. Mamlakatda tartib o'rnatishni istasang, boshqaruvning har ikki usulidan foydalanmog'ing darkor. Oqil kishilarni hurmat qilishni o'rgan, qonunlarga rioya qilgin, itoatsiz kishilarga nisbatan kuch ishlatgin. Boshqa yo'li yo'q.

O'z ichingda vahshatli arslon bilan hiylakor tulkingning boshini qovushtirgin. Birinchisi tashqi dushman bilan kurash chog'ida, ikkinchisi ichki dushman bilan kurash chog'ida kerak bo'ladi.

Qo'rquvda ushlab turib, hiyla ishlatgin. Hiyla ishlatib, qo'rquvda ushlab turgin. Faqat shundagina boshqaruv jilovini qo'lingda mahkam tutib turasan.

Xayolan keyingi besh asrga nazar tashlansa, Turkiston xalqlari otdan tushmaganiga guvoh bo'lish mumkin. Jangi jadal bilan ular hatto nafaslarini rostlash uchun ham fursat topolmaydilar. Bizga ma'lumki, so'nggi xonliklar tili, dini bir bo'lgan turkiy xalqlar o'rtasida tez-tez qurolli to'qnashuvlar bo'lib turadi. Shu bois qozoqlar tarixida birinchi bo'lib uchta juzni birlashtirgan Abulxayrxon alohida o'rin tutadi. Bir tarafdin Xitoy bilan Jungoriya, boshqa tarafdin Rossiya imperiyasi iskanjasi ostida bo'lgan xalq xuddi o'tkir tig' ustida turgandek tuyulardi.

Abulxayrxonning oqilona siyosati tufayli dushmanlar qurshovida qolib, Sirdaryo sohillari bilan Olatov o'rtasida sarsari kezayotgan xalq ommaviy qirg'indan qutqarib qolinadi. Hukmdorning qizg'in muhabbati vatandoshlarining qalbida o'chmas iz qoldiradi.

Garov sifatida o'z o'g'lini topshirgach, Xitoy bilan diplomatik aloqa o'rnatgan Abulxayrxon ayni paytda Rossiyaga ham elchilarini jo'natadi. Ikki "arslon" o'rtasida yashayotgan Abulxayrxon navbati bilan har ikki yirtqichning yolini silab turardi. Lekin ular vaqti-vaqti bilan qozoqlarga qarshi qalmlqlarni gij-gijlab qo'yishar, urug'lar o'rtasidagi qirg'in-barot urushlarni avj oldirib yuborishar edi.

Bir qancha ikkilanishlardan so'ng Abulxayrxon Rossiyaga qo'shiladi: xuddi o'z paloponlarini avaylab-asragan qush kabi xalqni himoya qiladi va tarqoqlashgan urug'-aymoqlarning boshini qovushtirib, markazlashgan davlat tuzadi. Tarixda buyuk sarkarda, usta diplomat sifatida yorqin iz qoldiradi.

Abulxayrxon olijanob, go'zal hukmdorning namunasidir. Hamma zamonlarda va hamma xalqlar orasida unday hukmdorlar ham bo'lganlar.

Mashrab yashagan davrning ijtimoiy – siyosiy holati Markaziy Osiyo xalqlari hayoti Chingiz Aytmatov ta'kidlagan qiyofada edi.

Mashrab hamma xalqlar va elatlar uchun, bashariyat uchun siyrati bashar, suvrati malak shoir edi, u o'zini qaysi millatdan ekanligini ham istamay, inson ekanligini eslatib boradi:

Hech bilolmasman o'zumni-qaysi millat xalqiman,

Gohi vosil, gohida mahrumi dargohman bukun.

Yassaviya tariqati murshidlaridan ba'zilarini Bobur Mirzoning asosiy piri deb ko'rsatish hollari ko'rinmoqda. Jumladan, shayboniylardan yengilgan Bobur mirzoga Maxdumi A'zamning: "endi sening yurtning qaro yerdur", degan Hindiston zaminini nazarda tutilgan pandlarini yassaviya tariqatidagi boshqa murshidga nisbat berib, yana o'sha murshidni Bobur Mirzoning tariqiy piri, deb manba ko'rsatmay da'vo etishlari ham ajib holdir.

Boshqa hukmdorlar kabi Bobur mirzo ham barcha tariqat murshidlarini hurmat qilgan, ulardan madad so'rab a'yonlarini yuborgan, ammo ota meros naqshbandiya tariqati murshidi Maxdumi A'zamgagina irodat etgani manbalarda keltirilgan.

Siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, Bobur Hindda turib, askarlari zaif va kamligidan xavotirga tushgan, Samarqanddagi piri Maxdumi A'zamdan madad so'ragan. Parning duolari mustajob bo'lib, Bobur g'alabaga erishgan va tushgan o'ljalardan Maxdumi A'zamga yuborgan, alloma juda kam ulush olib, tuhfalarni Boburga qaytargan. Biroz muddatdan so'ng Hindiston podshohi bo'lgach, Bobur Mirzo movarounnahrlik piri Maxdumi A'zamga niyozmandlik yuzasidan bir necha g'isht quyma oltin va dil izhori yuzasidan esa ushbu ruboyni yuboradi hamda unda: "Bizga (Hindistonda turganligimizda ham) bir bor nazar qilingkim, Xojalikni (ya'ni, podshohlik)ni tashlayligu, Xojagiya (ya'ni, Xojagiy Kosoniy – Maxdumi A'zamga) qayta murid bo'laylik" degan ma'nodagi fikrini ochiqdan – ochiq nazmda bayon etadi:

Gumroh havoiy nafs tufayli umrni zoe etdik,

Avliyolar nazdida atvorimizdan sharmandamiz.

Biz – ko'ngli xasta bechorahollarga nazar qilkim,

Shohlikni tashlab, Xojagiya banda bo'laylik.

Bobur Mirzoning "Boburnoma" asaridan ba'zi boblari yo'qolib, bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, boqiy qolgan nusxasidan ham qimmatli ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Bobur Mirzo bu asarida Maxdumi A'zamdan oldingi ilk piri to'g'risida yozadi: "Ustod va pirimkim, Xoja Mavlono Qozining ... oti Abdullodir. Ota tarafdin nasabi Shayx Burhoniddin Qilichqa yetar... Xoja Qozi Xoja Ubaydulloning murid edi"

Demak, Bobur Mirzoning yoshligidagi ilk piri Xoja Mavlono Qozi bo'lib, asarida yozilishicha, bu zot Shayx Burhoniddin Qilich avlodidan va Xoja Ahrori Valining xalifalaridan bo'lgan. Xoja Ahrori Vali vafot etganlaridan so'ng, Bobur Mirzoning otasi Umarshayx mirzo ushbu Xoja Mavlono Qozini pir tutgan. Shuning uchun yosh Bobur Mirzo ham otasi vafotidan so'ng ushbu murshidni pir va ustoz deb bilgan.

Tahlil va natijalar. Namrud – Ibrohim a.s. yashagan davrda hukmdorlik qilgan podshoh. Qur'onda uning xudolik da'vo qilgani, oqibat sharmanda bo'lgani zikr etiladi. Lekin Namrud degan ism rivoyatlarda keladi xolos. Xudo Namrudga 400 yil umr, podshohlik va katta mol-mulk ato etadi. Lekin Namrud xudolik da'vosidan kechmadi. Allohning payg'ambarini o'tga tashladi, hatto qo'shin to'plab ko'k tangrisi (Xudo)ga qarshi urush ochmoqchi bo'ldi. Allohning amri bilan Namrud qo'shini ustiga son-sanoqsiz chivin yopirilib kelib, barcha askarlarni chaqib, yeb bitirdi. Qochib saroyga berkingan Namrud ortidan bir oqsoq, zaifgina chivin ta'qib etgan edi. U podshohning burnidan kirib, miyasini yeya boshladi. Bu chivin Namrud dimog'ida turib uzoq yillar davomida unga tinchlik bermadi va nihoyat zolimni halok qildi. Mashrabning "Nim pashsha qildi Namrudni haloq" misrasi shu haqdadir:

Ul xoliki, kunji labi jonona tushubdur,

Jon olmoq uchun ko'zlari mastona tushubdur,

Hindu bachae mulki Sulaymona tushubdur,

Ul chohi zinaxdoniga bir dona tushubdur,

Chun Yusufni Ka'onki, bu zindona tushubdur,

Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!

Hay-hay, na jafu qilsa sanam – jonima rohat!

Horun - Qur'onda zikri kelgan payg'ambarlardan biri,

Muso(a.s.)ning akasi. Alloh taolo Muso (a.s.)ni payg'ambar etib, unga Fir'avnni da'vat qilish mas'uliyatini yuklaydi. Fir'avndek zolim podshoga ro'baro' bo'lib uni imonga, xidoyatga da'vat etish kishidan shijoat va kuchli iroda talab qilardi. Muso (a.s.) biroz tezroq va duduqlanibroq gapirar edilar. Shu bois, Muso (a.s.) Parvardigorga tazarru ila duo qilib, bu mas'uliyatli va og'ir vazifasini ado etishda o'ziga akasi Horunni yordamchi qilib berishni so'raydi. Qur'oni karimda yozilishicha, nihoyatda fasohatli va ta'sirli so'zlash

qobiliyatiga ega bo'lgan Horun mas'uliyatli va og'ir vazifasi ado etishda Muso (a.s.)ga yordamchi qilib beriladi (Toho surasi 25-36 - oyatlar). Aka-uka Fir'avnni xidoyat yo'lga da'vat etadilar. Ammo Fir'avn Allohning birligi va borligini e'tirof qilmay, zalolatdan qaytmaydi. O'zini Xudo deb bilgan Fir'avnni Alloh g'arq etib halok qiladi. Shu o'rinda Mashrab:

Dunyoni ko'p yig'di Korun, ketti ul yer qa'riga,
Dunyodin bu dam zamon ko'ngul uzolmasam hanuz.

Iskandar Zulqarnayn Sharq mumtoz adabiyotida jahongir, adolatli podshoh, faylasuf. U maqduuniyalik ulug' imperiyachi Skandar – Aleksandr Makedonskiydan farq qiladi. A.Makedonskiy (mil.avv. 356-323) Makedoniya podshosi, buyuk sarkarda. U mil.avv.329 yil bahorida Markaziy Osiyoga hujum qiladi. Baqtriyani, boshqa bir qator shaharlarni bosib oladi. Qashqadaryodagi qadim Navtaka qal'asi malikasi Ravshanak Iskandar muhabbatiga sazovor bo'lgani, jahon miqyosdagi va xalqaro masalalarni hal etishda qatnashgani haqida ma'lumotlar bor. Skandarning odil podshohligini, Jamshid, Fir'avn, Shaddodlarni adolatsiz hukmdor ekanligini Mashrab shunday tasvirlagan:

Tutub erdimki, domonini Skandar bo'larman deb,
Shabi o'ziki mani hamrohu ul dilbar bo'larman deb,

Maxdumi A'zamning aytishicha, har bir ish shariat talaboti yuzasidan olib borilishi kerak va shariatda nohaqlikka, kishiga zulm qilish, uni kamsitish, ozor berishga yo'l yo'qki, shariat yo'rig'iga amal qilgan har bir hukmdor, amaldor va umuman mo'minlar haqiqat va adolat yuzasidan ish tutgan hisoblanar ekanlar. O'z risolasi "Tanbeh as-salotin"da xon va sultonlarning fuqaroga shafqat va muruvvat ko'rgazishi, ularning farzandlari ilmu hunar egallashlari uchun madrasayu maktablar bino qilishlarini, maktabu madrasa xodimlarini yetarli maosh bilan ta'minlab turishlarini ta'kidlaydi.

Jahon xalqlari tarixi, jumladan, mamlakatimiz tarixi guvohlik beradiki, davlatlar o'rtasida, hukmdorlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy manfaatlar, strategik maqsadlar yo'lida tez-tez qirg'inbarot urushlar bo'lib turgan, biri ikkinchisini bosib olgan, mag'lub mamlakatni talon-taroj qilgan, iqtisodiy imkoniyatlarini zo'rvonlik bilan o'zlashtirgan. Bunday jarayonlarni siyosiy mezonlar nuqtai nazaridan turib ham baholash zarur bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimiz tarixini o'rganishda Vatan manfaati, milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlar, din, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga sivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Hayot-xalqning necha ming yillar davomida yaratgan milliy madaniyatini, axloq mezonlarini ikkiga-eksplutatorlar madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga bo'lish, birinчисini qoralashdan iborat lenincha yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatdi. Milliy madaniyatga, ma'naviy merosga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlanishga, milliy qadriyatlarining, urf-odatlarining oyoq osti qilinishiga, ko'pgina olimlar, ma'rifatparvar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak.

Mashrab siyosiy qarashlarida hukmdorlar talqini xususida fikr qaratilganda, avvalo mutafakkir yashagan davrdagi ashtarxoniy hukmdorlar Imomqulixon, Subxonqulixon, Ubaydulloxon, Jonibek sultonlarni she'rlarida insofu adolatga chaqirdi. Skandar, Namrud, Fir'avn, Jamshid, Horun, Xisrav, Yusuf Kan'on, Rustami Suhrob, Mahmud qatag'onbiy kabi podshohlarni she'rlarida talqin etib, adolatli, adolatsiz sultonlar siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarini o'ziga xos tahlil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Aytmatov Chingiz, Shoxonov Muxtor. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. –T.: "O'zbekiston" -B. :169.T.: "O'zbekiston".
2. H. Nisoriy. Muzakkirul – ahhob (I. Bekjon tarj) T. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1993.
3. Xoja Abul Baqo. Jomeul – maqomot. Qo'lyozma.
4. Kattaev Komilxon. Imom Ali Sug'diy. Maxdumi A'zam Dahbediy. "Oltin kitob", Toshkent. 2023.
5. Xojagiy – Maxdumi A'zamning kitobiy nomlari Mavlono Xojagiy.
6. "Boburnoma". Toshkent, "Yulduzcha" nashriyoti, 1989.
7. To'raev Baxtiyor, Muhammadjonova Feruza. Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagi Kosoniy Maxdumi. Buklet. – T.: Navro'z, 2001 yil
8. Xojagiy Ahmad Kosoniy. "Zubdat us - solikiyn va tanbiyat us- salotiyn" // Tarj. Valixo'jaev B. -Samarqand: So'g'diyona, 1994.
9. Nuriddinov Abdulvohidxon Orifxo'jaevich. Maxdumi Kosoniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining ahamiyati. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Buxoro, 2020.
10. Oqbo'taev Botir. Navoiy odil podshoh haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, № 6.
11. Bertels Ye.E. So'fizm va tasavvuf adabiyoti. –T.: -Samarqand, SamDU nashriyoti, 2005.
12. Qayyumov Po'latxon Domullo. "Tazkirai Qayyumi". 1-jild. –T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi, 1998.
13. Mashrab. Kulliyot. Mirzo Kenjabek so'zboshi. –T.: "Muharrir nashriyoti", 2017.
14. Ilyosxon G'oziy. Maxdumi Imom al-Kosoniy. –T.: O'zbekiston, 1996.
15. Mirzo Kenjabek. Oshiq Mashrab va tasavvuf olami. Eng go'zal g'azallar sharhi. -T.: "Navro'z", 2019.
16. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. I qism. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.



UDK: 37.022

Hilola HUSANOVA,

Independent researcher of the Department of Integrated English Course Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: hillary.swan@mail.ru

Based on the review of USUWL, DSc, professor I.M.Tukhtasinov

TEACHING THE SPEECH ACT OF PRAISE VIA THE PHENOMENON-BASED APPROACH

Annotation

The goal of the present article is to investigate how the Phenomenon-Based Learning Approach can be applied in teaching the speech act of praise. Being learner-centred, Phenomenon-based learning is a rather new multidisciplinary teaching style based on learner inquiry and problem solving activities. Its novelty lies in the procedure within which the students themselves, under the guidance of teachers, choose a topic (phenomenon), decide what they want to know about it, explore and answer their own questions using and applying existing knowledge from various subjects appropriate to the solving of the set goals. We propose the scenario of such an activity following some of the steps specific for the PhBL approach.

Key words: Phenomenon-based learning, learner-centred approach, the speech act of praise, student inquiry, problem solving.

ОБУЧЕНИЕ РЕЧЕВОМУ АКТУ ПОХВАЛКИ С ПОМОЩЬЮ ФЕНОМЕНО-ОСНОВАННОГО ПОДХОДА

Аннотация

Цель настоящей статьи — исследовать, как феноменально-ориентированный подход к обучению может быть применен при обучении речевому акту похвалы. Будучи ориентированным на учащегося, обучение на основе феноменов представляет собой довольно новый междисциплинарный стиль преподавания, основанный на запросах учащихся и действиях по решению проблем. Его новизна заключается в процедуре, в рамках которой учащиеся сами под руководством преподавателя выбирают тему (явление), решают, что они хотят о ней знать, исследуют и отвечают на собственные вопросы, используя и применяя имеющиеся знания из различных предметов, подходящие для данной темы решение поставленных целей. Мы предлагаем сценарий такой деятельности, следуя некоторым шагам, характерным для подхода PhBL.

Ключевые слова: Феноменологическое обучение, личностно-ориентированный подход, речевой акт похвалы, опрос учащихся, решение проблем.

FENOMENAL (HODISAGA) YO‘NALTIRILGAN ASOSLANGAN TA‘LIM

Аннотация

Ushbu maqolaning maqsadi maqtoiv nutqini o‘rgatishda fenomenal yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvini qanday qo‘llash mumkinligini o‘rganishdir. O‘quvchiga yo‘naltirilgan, hodisaga asoslangan ta‘lim - bu o‘quvchilarning izlanishlari va muammolarni hal qilish faoliyatiga asoslangan yangi fanlararo o‘qitish uslubi. Uning yangiligi shundan iboratki, bu jarayonda o‘quvchilarning o‘zlari o‘qituvchi rahbarligida mavzuni (hodisani) tanlashlari, u haqida nima bilishni xohlashlarini hal etishlari, o‘zlari tadqiqot qilishlari va savollariga javob berishlari, turli fanlardan mavjud bilimlardan foydalanish va qo‘llash; Ushbu mavzu uchun mos yechimlar maqsadlarni qo‘yadi. Biz PhBL yondashuviga xos bo‘lgan ba‘zi qadamlardan so‘ng, bunday faoliyat uchun stsenariyni taklif qilamiz.

Kalit so‘zlar: Fenomenologik o‘rganish, o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv, maqtoiv nutqi, talabalar so‘rovi, muammoni hal qilish.

Introduction. Educators’ keen awareness of the necessity to improve the quality of education has grown over the years. The considerable need to educate a bright, strong, creative personality who will be capable of mastering and overcoming the complexities and challenges of the 21st century realia has led to the idea of introducing and accepting new teaching styles into practice. A modern young person should acquire new skills in order to be able not only to identify and resolve various problems, but also to look for non-standard ways of solving them independently. Consequently, the task of instructing such a person in the educational environment, i.e. in schools and universities is coming to the fore, moreover a foreign language (FL) class is considered along with other subjects both as a goal and as a means of education and training. Thus, the most wide-spread trends of teaching/learning FL, associated with the integration of latest psychological, and methodological research can serve as a sufficient basis for revising many of the provisions and concepts of FL teaching/learning previously used in practice.

We are convinced that the relevance of introducing new 139 approaches to teaching foreign languages is determined by the new target orientation of modern education. Incontestably, the Phenomenon-based learning (PhBL or PhenoBL) approach may be one of the solutions.

Phenomenon-based Learning. This concept has been “invented and introduced” by Kirsti Lonka, Professor of Educational Psychology at the University of Helsinki. Creating a learning format that would captivate children and make them enjoy the learning process, the researcher has managed to make a kind of “revolution” in the world of teaching and learning. Phenomenon-based Learning can be defined as “a learner-centred, multidisciplinary instructional approach that is based on student inquiry and problem solving. [...] What is characteristic of PhBL is that no definite “subject is taught” and no fixed learning goals are set. As an alternative, students explore “and solve their own questions by applying what subjects are relevant to the problem” [1]. 1 In addition, PhBL creates a special educational environment that

motivates students to act and cooperate with others. In other words, the essence of the PhBL is not the study of abstract theories, but the phenomena of real life. The student, who initially asks questions about a phenomenon of interest and then independently investigates it, using his/her knowledge from various fields is to be found in the centre. The word phenomenon in this context is synonymous with occurrence and topic; it is something that happens in the real environment. Any chosen phenomenon is considered from different perspectives, which may not fit into the framework of only one school subject and which can be studied interdisciplinary. In our work we will consider the phenomenon of "praise" in communication.

Literature Review. According to certain research "The phenomenon-based approach has informed the new core curriculum for basic education in Finland, which has officially introduced multidisciplinary learning modules as periods of phenomenon-based project studies". It is "a pedagogical initiative that has received wide media coverage and publicity, because of the news that Finland has moved away from traditional subject teaching [1] and toward multidisciplinary learning modules" [3]. It is considered that the guiding principles of this approach are as follows: Experiential Education, Project Based Learning, Inquiry Based Learning, Thematic Based Learning, Integrated Learning, Systems Thinking, Nature Education, Cooperative Play and Social Emotional Learning. Thus, incorporating so many doctrines it introduces real world issues and requires the students to determine actively the knowledge, conceptions and skills necessary to discover them. Besides, teachers train in their students such 21st century skills as: critical thinking, citizenship, growth mind-set, communication, creativity and collaboration aiming at fostering students' social and cognitive skills that are undeniably essential for their future. Another important outcome is the public presentation of the project results in order to strengthen the connections and applicability to the modern world. Six stages of implementing PhBL have been identified:

Establishing the Phenomena Goals, (2) Engaging and Immersing the Learners, (3) Personalized Learning, (4) Establishing Evidence Based Inquiry to Knowledge, (5) Questioning for Reflection, and (6) Documenting a Portfolio and Sharing the Project. The teachers should cooperate with the learners while designing the projects tasks and directions. The lessons should be designed to enhance students' awareness and stimulate their natural curiosity. It must be noted that the learning procedure comprises several steps: designing, choosing different learning tasks, selecting practical activities, and considering ways of guiding and assessing. Moreover, a variety of teaching resources and activities are welcome. This diversity encourages learners to collaborate with other group members and discover together. What is essential for PhBL is the opportunity each participant gets to work and advance at his/her own pace, making full use of his / her own aptitudes, getting noteworthy tasks feeling important contributing to the completion of the final goal. PhBL increases students' curiosity being stimulated to get involved and watch study what happens around and draw conclusions. Teachers' purpose is to monitor the discovery-learning process asking such questions that will facilitate students' independent decoding of meanings. One of the main goals in PhBL is to find and bring proof of what the learners have acquired and its impact on their future.

Research methodology. Applying PhBL in Teaching the Speech Act of Praise As it has been mentioned earlier, we intend to compile an activity on the phenomenon of "praise" in modern English communication applying some of the PhBL elements. Level: B1-B2 Time: 3-6 hours Rationale: The

speech act of praise is a significant part of people's communicative and pragmatic competence. It is defined as "words that show approval of or admiration for sb/sth" [2]. Across the world, people praise each other in various ways, depending on the factors regulating the cultural norms of the society. Ignoring, or not being aware of the rules how to praise others in a foreign language correctly can be considered impolite or even rude. The speech act of praise has got a well-thought-out goal and a certain linguistic structure. The teacher's aim is to interest and involve the students into the discovering, familiarizing, analysing, structuring, exemplifying and presenting the project results in class. While conducting the process, the teacher should permanently be aware of the so-called "21st century skills and employability skills" which are of paramount importance in the modern society [4].

Analysis and results. Procedure: 1) The teacher announces the topic (e.g. How to praise people properly in various cultures). 2) The students, guided by the teacher, try to formulate and decide on several collective aims and together, the assessment criteria are stipulated. 3) The potential contents are talked over; 4-5 subject procedures of discovering the phenomenon of praise are suggested and the students choose by majority vote 1-3 tactics they would like to apply. 4) The students and teachers decide on the aims, timetable and preliminary deadlines. 5) The class is divided into 2- 3 groups (depending on the number of students and goals set). 6) The teacher motivates the students and increases their interest in the studied phenomenon by brainstorming ideas, suggesting reading short texts, describing photographs and/or paintings, watching and discussing videos, or even organizing certain visits and meeting people. 7) Keeping in mind that PhBL is a student centred approach type of instruction, the learners create graphic representations of their own presumptions about the phenomenon under study, formulate their expectations and objectives, ask questions of their own what they want to learn about and what results they expect. 8) Exploration is the leading method used in PhBL, that is why teachers should encourage getting in touch with specialists in the domain such as teachers (in our case teachers of English, German, French, Romanian, Russian to find out as much as possible about ways of praising in various cultures as well as teachers of other subjects, for instance, Biology teachers, psychologists, etc. to learn how positive emotions influence people's mood and behaviour), librarians, people of different age, other students [5]. 9) After the phenomenon (the speech act of praise) is identified, teachers are advised to encourage two types of learning: (1) the problem-based learning for students to identify an issue to be resolved being actively involved in the process and (2) the inquirybased learning within which the students use a set of logical procedures and instruments in order to solve it. 10) For the period of the research and data collection stage, each student or pair of students fulfil the received task discovering, observing, visiting different places, and communicating with professionals. They are supposed to make notes on the obtained data because documenting a portfolio gives them the chance to keep a record of the learnt material which they can consult any time and share with others. 11) On the presentation day each group shares the results of their collective project work. The students are free to choose any format: video, PowerPoint, reports, simulation or any drama activity. 12) Another step of the PhBL approach is to motivate the learners to selfevaluate their project results and strive for peer to peer evaluation that gives the opportunity to get instantaneous feedback. An important issue here is that the linguistic, pragmatic or any other competences the students demonstrate are considered while being graded [6].

Conclusion. We agree with Ch. Drew's statement that PhBL "is a holistic approach" that gives students the unique chance to "learn through topics and themes rather than subject areas". This new approach allows using "concepts from a range of disciplines, including science, arts, math and literacy to solve the problems they are studying" [1]. Those students who have had the occasion to apply this multidisciplinary

approach into practice understand better how data from various domains are interwoven and can easier clarify and exemplify phenomena that are directly related to solving real life situations. We are convinced that concentrating studies on persuasive phenomena can definitely aid to sustain active learning of various subjects.

LITERATURE

1. Drew Ch.. Phenomenon Based Learning, Explained! (2022), [online] Disponibil: <https://helpfulprofessor.com/phenomenon-basedlearning/> [citat 02.01.2024]
2. Hornby, A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary. Ed. Wehmeier, S., Ashby, M., Sixth edition, 2000, Oxford University Press P. 990 Phenomenon-based Learning, (2022), [online] Disponibil: <https://www.valamis.com/hub/phenomenon-based-learning> [citat 02.01.2024]
3. Symeonidis V., Schwarz J. F. (). Phenomenon-Based Teaching and Learning through the Pedagogical Lenses of Phenomenology: The Recent Curriculum Reform in Finland. *Forum Oświatowe*, 28(2), 2016. P. 31–47.
4. Silander P. Digital Pedagogy. In P. Mattila, & P. Silander (Eds.), *How to create the school of the future: Revolutionary thinking and design from Finland 2015*. P. 9-26.
5. Taber K. S. (). Constructivism as educational theory: Contingency in learning, and optimally guided instruction. In J. Hassaskhah (Ed.), *Educational Theory*, New York, NY: Nova Science Publishers. 2011. P. 39–61.
6. Vygotsky L. S. *Thought and language*. Cambridge, MA: MIT Press. 1962.



Dilfuza SHAMURATOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Ijodkor yoshlar bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti dotsenti, t.f.n T.Fayziyev taqrizi asosida

MADANIYAT VA SAN‘AT SOHASI BOSHQARUVIDA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PRAGMATIK AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san‘at sohasi boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga ijodiy jarayonlarni boshqarishda islohotlarning samaradorligi yanada oshirish bo‘yicha tahliliy fikrlar bildirilgan. Madaniyat va san‘at sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyat va san‘at sohasi, madaniy xizmat, madaniyat markazlari, islohotlar, muassasalar, ijodiy jarayon.

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕФОРМ В УПРАВЛЕНИИ КУЛЬТУРОЙ И ИСКУССТВАМИ

Аннотация

В данной статье говорится о реформах, реализованных в управлении сферой культуры и искусства в Новом Узбекистане. При этом были высказаны аналитические мнения относительно дальнейшего повышения эффективности реформ в управлении творческими процессами. Даны предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию сферы культуры и искусства.

Ключевые слова: Сфера культуры и искусства, культурная служба, культурные центры, реформы, учреждения, творческий процесс.

PRAGMATIC SIGNIFICANCE OF INCREASING OPERATIONAL EFFICIENCY IN CULTURE AND ART FIELD MANAGEMENT

Annotation

This article talks about the reforms implemented in the management of culture and art in New Uzbekistan. At the same time, analytical opinions on the further improvement of the effectiveness of reforms in the management of creative processes were expressed. Proposals and recommendations for further improvement of the culture and art sector are given.

Key words: Culture and art sphere, cultural service, cultural centers, reforms, institutions, creative process.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda bundan yetti yil avval madaniy-ma‘rifiy sohada yangicha dunyoqarash asosida shiddatli islohotlar boshlangan edi. Madaniyat va san‘at sohasida ijod va ijodkor erkinligi muammolari to‘liq qaytadan ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda mohiyatan yangi davlat, yangi ma‘rifiy jamiyat barpo etish, unga mos qadriyat va munosabatlar tizimini shakllantirish borasida inson qadri tamoyiliga katta e‘tibor qaratdi. Xususan, so‘nggi 5 yilda madaniyat va san‘at sohasiga oid O‘zbekiston Respublikasining 4 ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 35 ta Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 98 ta qarori va farmoyishlari qabul qilindi. Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor 2021 yil 20-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, soha xodimlari maqomini oshirish maqsadida 15 aprel – Madaniyat va san‘at xodimlari kuni etib belgilandi.

2023 yil oxiriga qadar 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san‘at maktabi, 5 ta oliygox, tashkil etildi. Madaniyat va san‘at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017 yilga nisbatan 5 baravarga ko‘payib, 2023 yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilganligi madaniyat va san‘at sohasi boshqaruvida keng ko‘lamli islohotlarning amalga oshirilganligidan dalolatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlaridan foydalanildi. Shu

bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining hisobotlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqimizning boy va betakror madaniy merosini dunyoga targ‘ib etish maqsadida “Makom”, “Baxshichilik”, “Hunarmandchilik”, “Lazgi” kabi xalqaro festivallar o‘tkazildi. Shu bilan birga, 24 ta xorijiy mamlakatda “O‘zbekiston madaniyati kunlari” yuqori saviyada o‘tkazildi. 2023 yilda Toshkent shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti Turksoyning 30 yillik yubileyi yukori saviyada tashkil etildi. Madaniyat va san‘at – jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bebaho kashfiyotidir. Bu hususida Madaniyat vaziri Ozodbek Axmadovich Nazarbekov: “Madaniyat va san‘at hayotimizning ajralmas qismidir. Sirasini aytganda, san‘atga oshno insondan yomonlik chiqmaydi. Maqomlar, doston-u laparlar, spektakllar, muzey eksponatlari, sirk tomoshalari har birimizni oliyanoblik, mehr-oqibat, do‘stlik, aqillik, vatanparvarlik, mardlik, jasorat va ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi”[1:9] – deya ta‘kidlab o‘tgan edi. Chunonchi, yurtimizda madaniyat va san‘at sohasi boshqaruvida islohotlar katta ijobiy statistik natijalarni ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham bu jarayonlarning samaradorligini yanada oshirishning pragmatik zaruriyati sezilmoqda. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan Farmon va Qarorlar ana shu ulkan o‘zgarishlarga hamohang tarzida, yangidan-yangi ijobiy islohotlarga bardavom bo‘layotir.

Yangi O‘zbekistonda madaniyat tashkilotlarining taraqqiyotiga alohida e‘tibor qaralilib, ijtimoiy hayotimizdagi

o'rni va mavqini oshirish yo'lida bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Ayniqsa, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar sirasiga kiruvchi birgina madaniyat markazlarining faoliyatida yanada oldga siljish ko'zatilayotgani quvonarlidir. Hozirgi davrda hududlarda jami 837 ta madaniyat markazlari faoliyat olib borayotgan bo'lib mazkur markazlarda jami 7143 nafar ijodiy xodimlar, shundan 3942 nafar to'garak rahbarlari 210 nafar badiiy rahbarlar, 210 nafar rejissorlar, 840 nafar ovoz rejisserlari, 210 nafar to'garaklar faoliyatini nazorat qilishi bo'yicha mutaxassislar, 210 nafar yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar faoliyat olib bormoqda.

837 ta madaniyat markazida faoliyat yuritayotgan to'garaklar soni 2017 yilda 1258 tani tashkil etgan, 2023 yilga kelib esa 3749 taga yetazildi. Bundan tashqari, madaniyat markazlarida 2017 yilgacha namunaviy xalq jamoalari soni 375 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib mazkur jamoalar soni 201 taga ko'payib, 576 taga yetdi. Madaniyat markazlariga 2023 yilda 5 nomdagi 6780 dona o'quv-uslubiy qo'llanma hamda 8 turdagi 8670 dona musiqa cholg'usi bilan ta'minlandi. Madaniyat markazlari xodimlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta amaliy-seminar tashkil etilib, mazkur seminarlarda 4 300 nafar xodimlar jalb etildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasidagi madaniyat markazlarida 2019 yil 30 martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 264-son qarorining ilovasiga asos 33 turdagi to'garak, 9 studiya, 6 kurs, 8 qiziquvchilar klubi, 7 badiiy havaskorlik jamoalarining nomlari tasdiqlangan. 2017 yilgacha vazirlik tasarrufida 333 ta ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunga kelib Madaniyat vazirligi tasarrufida ushbu ko'rsatkich 382 tani tashkil etmoqda. Bu islohotlarning pirovada maqsadi yoshlarni madaniyat va san'at sohasiga qiziqtirish va ijod bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyat yaratish hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda[2:280].

2017 yilda madaniyat va san'at yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi-talabalar qamrovi 80,7 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa 2022 – 2023 o'quv yilida 113 ming 300 nafarni tashkil qilib, yillik qamrov 32 ming 600 taga (29 %) ko'paytirildi. O'quvchi-talabalarning xalqaro va respublika tanlovlaridagi yillik o'rtacha ishtiroki 1700 tadan 3000 taga ko'paygan. Respublikamizda 2017 yilga qadar teatrlar soni 37 ta bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 40 taga yetdi. 2015 – 2016 yillarda 3 ta teatr rekonstruksiya qilingan bo'lsa, 2016 – 2023 yillarda 11 ta teatr mukammal ta'mirlandi va qayta jihozlandi. O'zbekiston Respublikasining madaniyat va san'at sohasidagi xorijiy davlatlar bilan hamkorligi so'nggi 5 yil davomida yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatimizning madaniy diplomatiyasi yuksaldi. Ijod – bu hayrat demakdir. Vatanni sevmoqni, uni asramoqni, inson qadrini ulug'lamoqni hayrat asarlarida ifoda etayotgan ijodkorlar xalqning tili, xalqning boyligi. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida islohotlar samaradorligi oshirishning pragmatik ko'rinishi sifatida 2023 yil 25 dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 406-son Prezident qarorini alohida keltirib o'tishimiz mumkin.

Mazkur qarorning qabul qilinishi madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida yangi islohotlar davrini boshlab berdi. Jumladan, qaror asosida olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga va turistlarga madaniy xizmatlar ko'rsatish

darajasining oshishi Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida samaradorli pragmatik voqealik bo'ldi. Eng asosiysi madaniyat markazlaridagi ijodiy jamoalarning respublika hududlari bo'ylab gastrol safarlarini tizimli tashkil etilishi orqali madaniyat maskanlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoni yaratildi. Shu bilan birga, sohaga xususiy sektor keng jalb etilib, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi izchil amalga oshirish maqsad qilib olindi. 2024 yil 1 apreldan boshlab "Madaniyat to'lqinlari" media loyihasi amalga oshiriladigan bo'ldi. YA'ni bu orqali:

ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida milliy g'urur, Vatanga sadoqat, turli sohalarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish, oilaviy qadriyatlar, urf-odat va an'analar kabi umuminsoniy ezigulik g'oyalarni targ'ib qilish hamda media makonni ushbu mavzudagi materiallar bilan boyitish nazarda tutiladi;

media loyiha doirasida tanlov o'tkaziladigan yo'nalishlar va ularning konsepsiyasi Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan belgilab beriladi;

tanlov doirasida jamoatchilik tomonidan ijobiy qabul qilingan va g'oyaviy yuksak eng yaxshi 50 ta media mahsulotning har biri 50 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlanadi[3:3]. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida islohotlar samaradorligining yana bir pragmatik ahamiyati sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan holda 2024 yil 1 noyabrga kadar har bir tuman va shaharlardagi madaniyat markazlari faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida konsert-tomosha zali, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari mavjud bo'lgan 1 tadan madaniyat markazi faoliyatini mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan yo'lga qo'yilishi bo'ldi. Yangi O'zbekistonda bu kabi ijobiy islohotlar hali yanada takomillashib boraveradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida islohotlar samaradorligi oshirishning pragmatik ahamiyatini takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni bildiraman:

Sohada xalqaro va respublika tanlov hamda festivallar g'oliblari, madaniyat sohasidagi faol ilmiy-tadqiqotchi yosh olimlar va o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqini oshirish hamda mustahkamlash;

Madaniyat markazlarida xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yish. Ayniqsa, MDH davlatlaridagi madaniyat markazlari bilan sherikchilik, memorandumlarini yo'lga qo'yish;

"Madaniyat volontyorlari" ijtimoiy faoliyatini yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash;

O'z binosiga ega madaniyat markazida xususiy-sherikchilik asosida zamonaviy ovoz yozish, foto va video studiyalarini, "Karaoke", "Book cafe" "Aerobika" to'garagini tashkil etish;

Iqtidorli yoshlarga mualliflik asarlar yaratish, ijodiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun "Madaniyat va san'at" imtiyozli kreditini berishni joriy etish;

Respublika va xalkaro miqyosida har yili kreativ ijodiy loyihalar, festivallar, konsert dasturlarini o'tkazish;

Viloyatlardagi madaniyat bo'lim mudiri va markazi direktorlarining statusi va mavqeni oshirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish samarali yangicha uslublarni o'rganish va malakasini oshirish zarur;

Osië davlatlari yosh ijodkorlari ishtirokida "Osië ohanglari" do'stlik konserti, "Shodligimsan Vatanim!" nomli xalqaro bolalar va yoshlar xor jamoalarining festivallarini o'tkazishni yo'lga qo'yish;

Madaniyat va san'at muassasalarining yillik moliyaviy va statistik ma'lumotlarini shakllantirish va vazirlik saytida ochiq e'lon qilib borish;

Madaniyat va san'at muassasalari boshqaruvida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish choralari ko'rish v.h.k

Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida islohotlar samaradorligi oshirishning pragmatik ahamiyatini oshirishda soha xodimlari ham bir-biriga kamarbasta bo'lishi kerak. Boshqaruv sohasida ijodiy faoliyat erkinligi, madaniy faoliyat sohasidagi ta'lim va tarbiyaning tizimligi, ilmiyligi va

uzluksizligi tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi boshqaruvida islohotlarning pragmatikasi milliy o'zligimizni anglash, tarixiy merosimizni kelajakka bekamu kust yetkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farzandlarimiz tafakkuriga singdirish, xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash, madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni taraqqiy toptirish, milliy madaniyatimizni jahon madaniyatining yakdil bir qismi sifatida e'zozlash kabi muhim masalalarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Назарбеков О. Маданият ва санъатнинг ҳаётимиздаги ўрни янада ошади. Янгиланаётган Ўзбекистон тараққиётида маданият ва санъатнинг ўрни. – Тошкент, Олтин мерос пресс. 2020. – Б. 488.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. Ўзбекистон, 2021. – Б. 464.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2023 йил 25 январдаги “Аҳолига маданий хизмат кўрсатиш даражасини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-406-сон қарори. <https://lex.uz/en/docs/6713092>



Guloy SHARIPOVA,
Teacher at the Urgench State University,

Reviewed by Prof., DSc, Khajieva M.

SAADI SHIRAZI'S VIEWS ON EDUCATION: A SCHOLARLY PERSPECTIVE

Annotation

This article delves into Saadi Shirazy's ideas on the role of human nature in learning, Saadi's significant contribution to the field of education, moral education, the combination of literature and ethics, the cultivation of wisdom, social and civic education, the influence of Sufism, and the main role of teachers as moral guides.

Key words: Saadi Shirazi, human nature, virtues and vices, moral conduct, education, moral education, literature and ethics, wisdom, social and civic education, Sufi influence, teachers, moral guides.

SA'DIY SHEROZIYNING TA'LIM HAQIDAGI QARASHLARI: ILMIY PERSPEKTIV

Annotatsiya

Bu maqolada Sa'diy Sheroziyning inson tabiatining uning ilm olishidagi o'rni haqidagi mulohazalari, Sa'diyning ta'lim-tarbiya sohasiga qo'shgan salmoqli hissasi, uning axloqiy tarbiya, adabiyot va axloqning uyg'unligi, donishmandlikni tarbiya qilish, ijtimoiy va fuqarolik tarbiyasi, so'filylik ta'siri, ustozlarning axloqiy yo'lboshchi sifatidagi asosiy roli kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Sa'diy Sheroziy, inson tabiati, fazilatlar va illatlar, axloqiy xulq-atvor, tarbiya, axloqiy tarbiya, adabiyot va axloq, hikmat, ijtimoiy va fuqarolik tarbiyasi, so'fiy ta'siri, ustozlar, axloqiy yo'lboshchilar.

ВЗГЛЯДЫ СААДИ ШИРАЗИ НА ОБРАЗОВАНИЕ: НАУЧНАЯ ПЕРСПЕКТИВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются идеи Саади Ширази о роли человеческой природы в обучении, значительный вклад Саади в область образования, нравственное воспитание, сочетание литературы и этики, воспитание мудрости, социальное и гражданское образование, влияние суфизма, и основная роль учителей как моральных наставников.

Ключевые слова: Саади Ширази, человеческая природа, добродетели и пороки, нравственное поведение, образование, нравственное воспитание, литература и этика, мудрость, социальное и гражданское образование, суфийское влияние, учителя, моральные наставники.

Introduction. Saadi's profound insights into human nature, as examined by Sachedina [1], reflect his sagacity in understanding the complexities of the human psyche. His exploration of virtues and vices unveils a deep understanding of the inherent dualities within the human condition, offering profound reflections on moral conduct.

Saadi Shirazi, the esteemed Persian poet and philosopher, has left an indelible mark not only through his literary masterpieces but also through his profound views on education. Scholars and thinkers have delved into Saadi's works to unravel his perspectives on education, recognizing the enduring relevance of his insights.

Literature review. Emphasis on Moral Education. Saadi's emphasis on moral education is a recurring theme in his works. Scholars such as Edward G. Browne highlight Saadi's commitment to instilling moral values through education [2]. Saadi believed that education should not only impart knowledge but also nurture ethical principles, contributing to the development of virtuous individuals and, by extension, a just society.

Integration of Literature and Ethics. Renowned scholar Janet Afary explores Saadi's unique approach to education, emphasizing the integration of literature and ethics [3]. Saadi believed that literature, particularly poetry, serves as a powerful medium for imparting moral lessons. His works, such as "Bustan" and "Gulistan" are not only literary gems but also repositories of ethical wisdom, making them valuable educational tools.

Cultivation of Wisdom and Reflection. Saadi's views on education extend beyond rote learning, focusing on the cultivation of wisdom and reflective thinking. Scholar Franklin Lewis elucidates Saadi's belief in the transformative power of education to stimulate deep contemplation and self-discovery [4]. Saadi considered education as a means to nurture individuals who could critically reflect on life's complexities.

